3. Анализ полученных результатов и их обсуждения. Из полученных формул (20) и (21), видно, что скорость и давление существенно зависят от комплексного параметра $\sqrt{\frac{in\omega}{a}}zL$. В связи с этим комплексный параметр обозначим через $\bar{\chi}+\bar{\beta}i$, т.е.

$$\sqrt{\frac{in\omega}{a}}zL=\bar{\chi}+\bar{\beta}i\ . \tag{22}$$

Для простоты задачи примем $n=1$. Тогда

$$\sqrt{\frac{i\omega}{a}}zL=\bar{\chi}+\bar{\beta}i\,. \tag{23}$$

Здесь $a=\frac{\bar{E}h}{2R},\quad \bar{E}=\frac{E}{\left(1+\nu_1^2\right)},\quad \alpha=\sqrt{\frac{\omega}{\nu}}R$

$$z=\left[\frac{1}{i\omega\rho}\left(1-\frac{2J_1\left(i^{3/2}\alpha\right)}{i^{3/2}\alpha J_0\left(i^{3/2}\alpha\right)}\right)\right]^{-1}.$$

Выделяя действительную и мнимую части выражения (23), получим

$$\bar{\chi}=\pm\omega\sqrt{\frac{\rho}{a}}L\sqrt[4]{M_2^2+N_2^2}\sin\frac{\varphi}{2},$$

$$\bar{\beta}=\pm\omega\sqrt{\frac{\rho}{a}}L\sqrt[4]{M_2^2+N_2^2}\cos\frac{\varphi}{2},$$

где $\varphi=\operatorname{arc}ctg\frac{N_2}{M_2}$.

Здесь $J_0\left(i^{3/2}\alpha\right)=ber_0\alpha+ibei_0\alpha$, $J_1\left(i^{3/2}\alpha\right)=ber_1\alpha+ibei_1\alpha,$

$$\frac{J_1\left(i^{3/2}\alpha\right)}{J_0\left(i^{3/2}\alpha\right)}=M_1+N_1i\ ,$$

$$M_1=\frac{ber_1\alpha ber_0\alpha+bei_1\alpha bei_0\alpha}{ber_0^2\alpha+bei_0^2\alpha},\quad N_1=\frac{-ber_1\alpha bei_0\alpha+ber_0\alpha bei_1\alpha}{ber_0^2\alpha+bei_0^2\alpha},$$

$$\frac{2}{i^{3/2}\alpha}=\frac{2}{i\sqrt{i}\alpha}=-\frac{\sqrt{2}}{\alpha}(1+i)$$

$$-\frac{\sqrt{2}}{\alpha}(1+i)(M_1+N_1 i)=-\frac{\sqrt{2}}{\alpha}(M_1-N_1)-\frac{\sqrt{2}}{\alpha}(M_1+N_1)i$$

$$1+\frac{\sqrt{2}}{\alpha}(M_1-N_1)+\frac{\sqrt{2}}{\alpha}(M_1+N_1)i,$$

$$z=i\omega\rho\left[1-\frac{2J_1\left(i^{3/2}\alpha\right)}{i^{3/2}\alpha J_0\left(i^{3/2}\alpha\right)}\right]^{-1}=i\omega\rho\left[\frac{1}{\left(1+\frac{\sqrt{2}}{\alpha}(M_1-N_1)\right)+\left(\frac{\sqrt{2}}{\alpha}(M_1+N_1)i\right)}\right]=$$

$$=i\omega\rho\left[\frac{1+\frac{\sqrt{2}}{\alpha}(M_1-N_1)-\frac{\sqrt{2}}{\alpha}(M_1+N_1)i}{\left(1+\frac{\sqrt{2}}{\alpha}(M_1-N_1)\right)^2+\left(\frac{\sqrt{2}}{\alpha}(M_1+N_1)\right)^2}\right],$$

$$M_2=\frac{1+\frac{\sqrt{2}}{\alpha}(M_1-N_1)}{\left(1+\frac{\sqrt{2}}{\alpha}(M_1-N_1)\right)^2+\left(\frac{\sqrt{2}}{\alpha}(M_1+N_1)\right)^2},$$

$$N_2=\frac{-\frac{\sqrt{2}}{\alpha}(M_1+N_1)}{\left(1+\frac{\sqrt{2}}{\alpha}(M_1-N_1)\right)^2+\left(\frac{\sqrt{2}}{\alpha}(M_1+N_1)\right)^2}.$$

$$z=i\omega\rho(M_2+N_2 i),$$

Тогда

$$\sqrt{\frac{i\omega z}{a}}L=i\omega\sqrt{\frac{\rho}{a}}L(M_2+N_2 i)^{\frac{1}{2}}=\pm i\omega\sqrt{\frac{\rho}{a}}L\sqrt[4]{M_2^2+N_2^2}\left(\cos\frac{\varphi}{2}+i\sin\frac{\varphi}{2}\right).$$

Здесь χ, коэффициент, характеризующий затухание колебаний, а $\frac{1}{\beta}$ –безразмерная скорость распространения пульсовой волны.

Если обозначить скорость распространения пульсовой волны через c, то $\frac{c}{c_\infty}=\frac{\omega L}{c_\infty\beta}$, где

$c_\infty = \sqrt{\dfrac{Eh}{2\rho R}}$ – формула Моэнса-Кортевега; E – модуль упругости; h – толщина стенки; ρ – плотность жидкости; R – радиус трубы, L – длина трубы.




Рис. 1. Зависимость безразмерной величины фазовой скорости от колебательного числа α .

На основании полученных формул проведем анализ скорости распространения пульсовой волны и затухания волны в зависимости от колебательного числа Рейнольдса .

На рис. 1. показана зависимость безразмерной величины пульсовой волны давления от колебательного числа α . Выявлено, что скорость распространения пульсовой волны давления возрастает с увеличением модуля упругости окружающей ткани и ростом длины волны. Здесь также скорость пульсовой волны сравнена со скоростью Моэнса-Кортевега c_∞ , и выявлены существенные отличия между ними, которые происходят при меньших значениях колебательного параметра Уомерсли [15], при больших значениях которого существенные различия не наблюдаются.

На рис.2. показана зависимость обратной величины затухания, отнесённой к длине волны, от колебательного числа α .




Рис. 2. Зависимость обратной величины затухания, отнесенной к длине волны, от колебательного числа α.

Результаты показывают, что затухание волны при меньших значениях колебательного параметра Уомерсли, практически равняется нулю, а при больших значениях, оно асимптотически приближается к единице.

4. Заключение. Исследована зависимость безразмерной величины пульсовой волны давления от колебательного числа α. Выявлено, что скорость распространения пульсовой волны давления возрастает с увеличением модуля упругости окружающей ткани и ростом длины волн. Сравнена скорость пульсовой волны со скоростью Моэнса-Кортевега c_∞, и выявлены, существенные отличия между ними, которые происходят при меньших значениях колебательного параметра Уомерсли, при больших значениях которого существенные различия не наблюдаются. Также исследована зависимость обратной величины затухания, отнесённой к длине волны, от колебательного числа α, показаны, что затухания безразмерой вольны при меньших значениях колебательного параметра Уомерсли, практически равняется нулю, а при больших значениях, оно асимптотически приближается к единице.

Рузиев Тулкин Раззокович (ассистент кафедры Инновационные и информационные технологии в медицине, биофизика Бухарского государственного медицинского института)

СОБСТВЕННЫЕ КРУТИЛЬНЫЕ ВОЛНЫ В СЛОИСТОЙ ЦИЛИНДРИЧЕСКОЙ ТРУБЕ С УЧЕТОМ РЕОЛОГИЧЕСКИХ СВОЙСТВ МАТЕРИАЛОВ

***Аннотация**. Иш материалнинг реологик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, икки қатламли цилиндрсимон қувурда табиий тўлқинларнинг хусусиятларини ўрганишга бағишланган. Материалларнинг маълум физик ва механик параметрларига эга бўлган икки қатламли қувурда сўнувчи тўлқинларнинг тарқалиши кўриб чиқилади. Ҳаракатнинг интегро-дифференциал тенгламаларини силжишлар потенциалларида аналитик ечиш орқали комплекс параметрли дисперсия тенгламаси аниқланади. Частота тенгламасининг ечими турли параметрлар учун тўлқин сонининг фаза тезлигига нисбатан ўзгаришини тавсифлайди.*

***Аннотация**. Работа посвящена исследованию свойств собственных волн в двухслойной цилиндрической трубе с учетом реологических характеристик материала. Рассмотрено распространение затухающих волн в двухслойной трубе с известными физико-механическими параметрами материалов. Аналитическим решением интегро-дифференциальных уравнений движения в потенциалах перемещений получено дисперсионное уравнение с комплексно выходящим параметром. Решением частотного уравнения описываетсяизменение фазовой скорости от волнового число при различных параметрах.*

***Annotation**. The work is dedicated to the study of the properties of natural waves in a two-layer cylindrical pipe, taking into account the rheological characteristics of the material. The propagation of damped waves in a two-layer pipe with known physical and mechanical parameters of materials is considered. The dispersion equation with a complex output parameter is obtained by analytical solution of integro-differential equations of motion in displacement potentials. The solution of the frequency equation describes the change in the phase velocity from the wave number for various parameters.*

***Калит сўзлар**: хусусий тўлқинлар, интегродифференсиал тенглама, қувур, музлатиш процедураси, дисперсия тенгламаси.*

***Ключевые слова:** собственные волны, интегро-дифференциальное уравнение, труба, процедура замораживания, дисперсионное уравнение.*

***Key words:** natural waves, integro-differential equation, pipe, freezing procedure, dispersion equation.*

Постановка задачи и основные соотношения. Исследуем двухслойную вязкоупругую трубу (рис.1) с внутренним радиусом r_1, внешним радиусом r_3 и радиусом границы между слоями r_2. В цилиндрической системе координат ось z направлена по центральной оси цилиндра. Пространство поперечного сечения трубы задаётся в виде $r_1 \leq r \leq r_2$, которое обозначается через I, второй – внешними цилиндрами задаётся радиусами $r_2 \leq r \leq r_3$, – обозначается через II. Все свойства акустических

затухающих волн определяются параметрами вязкоупругости,[1] плотностью материала, реальные $\omega_{RJ}=2\pi f_{RJ}$ и мнимые $\omega_{IJ}=2\pi f_{IJ}$ части комплексной частоты,j=1…,N. N- максимальное количество мод частоты, которая определяется численно. Основные уравнения движения двухслойной трубы, задаются тремя группами линейными соотношениями теории вязко упругости.[2]




Рис. 1. Расчетная схема.

$$\frac{\partial \sigma_{ij}^{(n)}}{\partial x_j}+\rho_k F_i^{(n)}=\rho\frac{\partial^2 u_{in}}{\partial t^2}\ , \qquad (1)$$

$$\varepsilon_{ij}^{(n)}=\frac{1}{2}\left(\frac{\partial u_{in}}{\partial x_j}+\frac{\partial u_{jn}}{\partial x_i}\right)\ , \qquad (2)$$

$$\sigma_{ij}^{(n)}=\tilde{\lambda}_n\varepsilon_{kk}^{(n)}\delta_{ij}+2\tilde{\mu}_n\varepsilon_{ij}^{(n)}\ . \qquad (3)$$

Здесь $\sigma_{ij}^{(n)}$, $\varepsilon_{ij}^{(n)}$ - компоненты тензоров напряжений и деформаций (n=1,2) n-ой трубы, $\widetilde{\lambda_n}$, $\widetilde{\mu_n}$ – операторы Вольтера:

$$\tilde{\lambda}_n[\phi(t)]=\frac{v_n\tilde{E}_n}{(1+v_n)(1-2v_n)}\left[\phi(t)\right]=\frac{v_nE_{0n}}{(1+v_n)(1-2v_n)}\left[\phi(t)-\int_0^t R_{En}(t-\tau)\phi(\tau)d\tau\right];$$

$$\tilde{\mu}_n\phi(t)=\frac{v_n\tilde{E}_n}{2(1+v_n)}\left[\phi(t)\right]=\frac{v_nE_{0n}}{2(1+v_n)}\left[\phi(t)-\int_0^t R_{En}(t-\tau)\phi(\tau)d\tau\right], \qquad (4)$$

$\mho_n$ – коэффициент Пуассона, $R_{En}(t-\tau)$ – ядро релаксации n-го элемента (или трубы) ,$\widetilde{\lambda_n}$, $\widetilde{\mu_n}$ операторные модули упругости, E_{On}– мгновенный модуль упругости[3],ϕ(t) – произвольная функция времени.

Далее применяя процедуру замораживания,[3] заменим соотношения (4) их приближенными вида

[1] Горшков А.Г., Старовойтов Э.И., Яровая А.В. Механика слоистых вязко упругопластических элементов конструкций. М., ФИЗМАТЛИТ, 2005, с. 576.

[2] Akhmedov M.Sh.,Nuriddinov B.Z., Ruziyev T.R. Harmonic Oscillations of Spherical Bodies In a Viscoelastic Environment. International Journal of Emerging Engineering Research and Technology.Volume 6, Issue 7, 2018, p. 1–8.

[3] M.R.Ishmamatov, A.X.Avezov, T.R.Ruziyev, Z.I.Boltayev, N.R.Kulmuratov. Propagation of natural waves on a multilayer viscoelastic cylindric body containing the surface of a weakened. Journal of Physics: Conference Series. 2021, Volume 1921, Issue (1), p. 12 – 127.

$$\bar{\lambda}_n = \lambda_{0n}\left[1-\Gamma^C_{\lambda n}(\omega_R)-i\Gamma^S_{\lambda n}(\omega_R)\right]=\lambda_{0n}\Gamma_{\lambda n};$$
$$\bar{\mu}_n = \mu_{0n}\left[1-\Gamma^C_{\mu n}(\omega_R)-i\Gamma^S_{\mu n}(\omega_R)\right]=\mu_{0n}\Gamma_{\mu n},$$
$$\lambda_{0n}=\frac{\nu_n E_{0n}}{(1+\nu_n)(1-2\nu_n)},\mu_{0n}=\frac{\nu_n E_{0n}}{2(1+\nu_n)},$$

где

$$\Gamma_{\lambda n}{}^C(\omega_R)=\int_0^\infty R_{\lambda n}(\tau)\cos\omega_R\tau\,d\tau;\ \Gamma_{\lambda n}{}^S(\omega_R)=\int_0^\infty R_{\lambda n}(\tau)\sin\omega_R\tau\,d\tau,$$
$$\Gamma_{\mu n}{}^C(\omega_R)=\int_0^\infty R_{\mu n}(\tau)\cos\omega_R\tau\,d\tau,\Gamma_{\mu n}{}^S(\omega_R)=\int_0^\infty R_{\mu n}(\tau)\sin\omega_R\tau\,d\tau, \quad (5)$$

λ0n, μ0n-мгновенные коэффициенты Ламе, n=1,2.В расчетах использовалось трехпараметрическое ядро релаксации Колтунова-Ржаницына: $R_k(t)=A_k e^{-\beta_k t}/t^{1-\alpha_k}$. Для исследования распространения собственных волн строится дисперсионное уравнение. При этом внешная нагрузка не учытивается. Поэтому начальные условия берутся однородными.

На поверхности контакта и свободной поверхности цилиндра $r=r_2$ ставятся граничные условия:

$$\sigma_{rr}\Big|_{r=r_1}=\sigma_{r\theta}\Big|_{r=r_1}=\sigma_{rz}\Big|_{r=r_1}=0,$$
$$\sigma_{rr}\Big|_{r=r_3}=\sigma_{r\theta}\Big|_{r=r_3}=\sigma_{rz}\Big|_{r=r_3}=0,$$
$$\sigma^{(1)}_{rr}\Big|_{r=r_2}=\sigma^{(2)}_{rr}\Big|_{r=r_2},\ \ \sigma^{(1)}_{r\theta}\Big|_{r=r_2}=\sigma^{(2)}_{r\theta}\Big|_{r=r_2},\sigma^{(1)}_{rz}\Big|_{r=r_2}=\sigma^{(2)}_{rz}\Big|_{r=r_2},$$
$$u_{r1}\Big|_{r=r_2}=u_{r2}\Big|_{r=r_2},\ \ u_{\theta 1}\Big|_{r=r_2}=u_{\theta 2}\Big|_{r=r_2},u_{z1}\Big|_{r=r_2}=u_{z2}\Big|_{r=r_2}. \quad (6)$$

Методики решения задачи. Для исследования свойств колебаний в цилиндрических телах используем метод, приведенный в работе.[1] Тогда для перемещений трубы справедливо разложение Грина – Ламе:

$$\vec{u}_n=grad\varphi_n+rot\vec{\psi}_n,\ div\vec{\psi}_n=0, \quad (7).$$

Где $\bar{u}_n(u_{rn}, u_{\theta n}\ u_{zn})$ – вектор перемещений среды, φ – потенциал продольных волн; $\bar{\psi}(\psi_{rn}, \psi_{\theta n}, \psi_{zn})$ – потенциал поперечных волн.Тогда уравнения движения двухслойной трубы (1), с учетом (2)-(7) относительно потенциальных функций в цилиндрической системе координат r,θ,z принимают следующий вид:

$$\Gamma^{\bullet}_{\lambda\mu n}\nabla^2\varphi_n-\frac{1}{c^2_{pn}}\frac{\partial^2\varphi_n}{\partial t^2}=0,$$
$$\Gamma^{\bullet}_{\mu n}\nabla^2\psi_{zn}-\frac{1}{c^2_{sn}}\frac{\partial^2\psi_{zn}}{\partial t^2}=0, \quad (8)$$
$$\Gamma_{\mu n}(\nabla^2\psi_{\theta n}-\frac{\psi_{\theta n}}{r^2}+\frac{2}{r^2}\frac{\partial\psi_{rn}}{\partial\theta})-\frac{1}{c^2_{s\,0n}}\frac{\partial^2\psi_{\theta n}}{\partial t^2}=0,$$
$$\Gamma_{\mu n}(\nabla^2\psi_{rn}-\frac{\psi_{rn}}{r^2}-\frac{2}{r^2}\frac{\partial\psi_{\theta n}}{\partial\theta})-\frac{1}{c^2_{s\,0n}}\frac{\partial^2\psi_{rn}}{\partial t^2}=0.$$

[1] Safarov I.I., Teshaev M.Kh., Ruziyev T.R. Methods for Assessing the Seismic Resistance of Subterranean Hydro Structures under the Influence of Seismic Waves. World Wide Journal of Multidisciplinary Research and Development. WWJMRD, 2018, 4(1), p. 128–139.

где $\Gamma^{\bullet}_{\lambda\mu\kappa}=1-\Gamma^{C}_{\lambda\mu\kappa}(\omega_R)-i\Gamma^{S}_{\lambda\mu\kappa}(\omega_R)$, $\Gamma^{\bullet}_{\mu\kappa}=1-\Gamma^{C}_{\mu\kappa}(\omega_R)-i\Gamma^{S}_{\mu\kappa}(\omega_R)$;

$\Gamma^{C}_{\lambda\mu k}(\omega R)$, $\Gamma^{S}_{\lambda\mu k}(\omega R)$, $\Gamma^{C}_{\mu k}(\omega R)$, $\Gamma^{S}_{\mu k}(\omega R)$, – соответственно косинус и синус изображения Фурье ядер релаксаций,определяются аналогично (5) ;$c^2_{pn}=(\lambda_{n0}+2\mu_{n0})/\rho n$, $c^2_{sn}=\mu_{n0}/\rho_n$,–скорость распространения продольных и поперечных волн, ρ_n – объемные плотности сред. Решение системы дифференциальных уравнений (8) ищется в виде

$$\varphi_n(r,\theta,z,t)=\sum_{n=0}^{\infty}\phi_n(\alpha_n r)\begin{Bmatrix}\cos k\theta\\ -\sin k\theta\end{Bmatrix}e^{\pm i\gamma_p z}e^{-i\omega t};$$

$$\psi_{rn}(r,\theta,z,t)=\sum_{n=0}^{\infty}\Psi_{nr}(\beta_n r)\begin{Bmatrix}\sin k\theta\\ -\cos k\theta\end{Bmatrix}e^{\pm i\gamma_p z}e^{-i\omega t};\quad (9)$$

$$\psi_{\theta n}(r,\theta,z,t)=\sum_{n=0}^{\infty}\Psi_{n\theta}(\beta_n r)\begin{Bmatrix}\cos k\theta\\ -\sin k\theta\end{Bmatrix}e^{\pm i\gamma_p z}e^{-i\omega t};$$

$$\psi_{zn}(r,\theta,z,t)=\sum_{n=0}^{\infty}\Psi_{nz}(\beta_n r)\begin{Bmatrix}\sin k\theta\\ \cos k\theta\end{Bmatrix}e^{\pm i\gamma_p z}e^{-i\omega t};$$

где k – целое число; $\gamma p=\omega/c$ – волновое число; $\omega=\omega_R+i\omega_I$ – комплексная собственная частота; $r=\frac{r_1}{r_1}$, $z=\frac{z_1}{r_1}$ Подставив (9) в уравнения(8), и учитывая соотношения (7) и (6), получим:

$$\sigma_{rrn}=\left\{-\bar{\lambda}_n(\alpha_n^2+\gamma_p^2)\phi_n+2\bar{\mu}_n\left[\phi_n''+\frac{k}{r}(\Psi'_n-\frac{1}{r}\Psi_{zn})+\gamma_p\Psi'_{zn}\right]\right\}\cos(n\theta)e^{-i(-\omega t+\gamma_p z)},\quad (10)$$

$$\sigma_{r\theta n}=\bar{\mu}_n\left[\frac{2k}{r}\left(\frac{1}{r}\phi_n-\phi'_n\right)+(\beta_p^2\Psi'_{zn}-2\Psi_{zn})+\gamma_p\left(\Psi'_{rn}-\frac{k+1}{r}\Psi_{rn}\right)\right]\sin(n\theta)e^{-i(-\omega t+\gamma_p z)},\quad (11)$$

$$\sigma_{rzn}=\bar{\mu}_n\left[-2\gamma_p\phi'_n-\frac{k\gamma_p}{r}\Psi_{zn}-\frac{k}{r}\Psi'_{zn}-(\frac{k^2-k-1}{r^2}-\beta_n^2+\gamma_p^2)\Psi_{zn}\right]\cos(n\theta)e^{-i(-\omega t+\gamma_p z)},\quad (12)$$

Подставив (10)–(12) в граничные условия (6), получим систему однородных уравнений. Для того, чтобы эта система уравнений имела нетривиальное решение, основной определитель системы уравнений должен быть равен нулю. Из этого условия определяется дисперсионное уравнение рассматриваемой цилиндрической механической системы

$$\left|c_{ij}\right|=0,\quad (13)$$

Где $c_{i,j}$=1,2..,12-некоторые элементы определителя, которые имеют следующий вид:

$c_{1,1}=Z'_m(\alpha_1 r_2);c_{1,2}=W'_m(\alpha_1 r_2);c_{1,3}=\gamma_p Z_{m+1}(\beta_1 r_2);$

$c_{1,4}=\gamma_p W_{m+1}(\beta_1 r_2);c_{1,5}=(k/r_2)Z_m(\beta_1 r_2);$

$c_{1,6}=(k/r_2)W_m(\beta_1 r_2);c_{1,7}=-Z'_n(\alpha_2 r_2);$

$c_{1,8}=-W'_n(\alpha_2 r_2);c_{1,9}=-\gamma Z_{n+1}(\beta_2 r_2);$

$c_{1,10}=-\gamma_p W_{n+1}(\beta_2 r);c_{1,11}=-(k/r_2)Z_n(\beta_2 r);$

$c_{1,12}=-(k/r_2)Z_n(\beta_2 r).$

Дисперсионное уравнение (13) с комплексно выходящим параметром решается численно методом Мюллера на комплексном арифметике.

Численные результаты. В качестве примера вязкоупругого материала примем трехпараметрическое ядро релаксации Колтунова – Ржаницына $R_k(t)=A_k e^{-\beta_k t}/t^{1-\alpha_k}$, с параметрами A_k= 0,048; β_k=0,05; α_k=0,1, (к=1,2), коэффициент Пуассона примем $\upsilon_1=\upsilon_2$=0,025. На рис. 2 приводятся предельные значения действительной и мнимойчасти фазовой скорости в зависимости от волнового числа.




Рис. 2. Изменение фазовой скорости от волнового числа.

Для получения численных результатов для двухслойной вязкоупругой трубы приняты следующие значения параметров: Dт=50мм, Dи=5мм, внешняя труба изготовлена из стали Х12: $\mu_T = 80 \cdot 10^9$Па, ρ_T=7800 кг/м^3, внутренняя труба изготовлена из стали 30Л: $\mu_I = 70 \cdot 10^9$Па,ρ_I=7800 кг/м^3. На рис.2 изображено 1- и 3- без учета вязкости цилиндрической оболочки; 2,4,5 – первый, второй и третий моды действительный частей вязкоупругой двухслойной однородной трубы.

Заключение. 1. Приведена математическая постановка и методы решения задачи распространения волн в плоских и протяженных цилиндрических телах. Уравнения движения кусочно-однородных механических систем описываются линейными уравнениями Ламе. На контакте между слоями ставятся условия жесткого (или скользящего) контакта. Рассматриваемый процесс распространения волн описывает установившиеся волны.

2. Вязкоупругие свойства материалов описываются с помощью наследственного интеграла Больцмана – Вольтерра. Если реологические свойства элементов идентичны, назовем их диссипативно однородными механическими системами.

FALSAFA

Majitov Maxmud Abdimo‘min o‘g‘li (O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi huzuridagi malaka oshirish markazi Surxondaryo viloyati mintaqaviy filiali direktori, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); mazhitov1981@inbox.ru)

SHAXS IJTIMOIY MOHIYATIGA POSTMODERN JAMIYAT TENDENSIYALARI TA’SIRINING ASOSIY JIHATLARI

Annotatsiya. *Bugungi postmodern jamiyat sharoitida shaxs ijtimoiy mohiyati transformatsiyasi yuz bermoqda. Shaxs tarkibidan joy olgan barcha elementlar turli jarayonlar ta’sirida keskin o‘zgarib bormoqda. Mazkur transformatsion jarayonlar o‘ta murakkab xarakterga ega bo‘lib, uning mohiyatini yuzaki tahlillar yordamida ochib berib bo‘lmaydi. Bu jarayonlarni ijtimoiy-falsafiy mohiyati ochib beruvchi mulohazalar, taxminlar, farazlar, fakt va argumentlar ko‘plab mavjud. Biroq ularning hammasi ham ilm-fan platformasida shakllantirilmagan. Mazkur maqolada muammo ilm-fan nuqtayi nazaridan va to‘g‘ri nazariy-metodologik pozitsiyadan tadqiq etilgan. Maqolada shaxs ijtimoiy mohiyati transformatsiyasining asosiy jihatlarini ifodalab berilgan. Bugungi kunda shaxs tabiatidagi pozitiv va negativ o‘zgarishlarning aniqlanishi postmodern jamiyat tendensiyalarining shaxs ma’naviy qiyofasiga salbiy ta’sirini kamaytirish yo‘llarini ishlab chiqish uchun zamin hozirlaydi. Bunday yondashuv “postmodern jamiyat – shaxs” munosabatlari xarakterini ilm-fan pozitsiyasidan talqin qilishga poydevor yaratadi.*

Аннотация. *В современном постмодернистском обществе происходит трансформация социальной сущности личности. Все элементы, из которых состоит личность, резко изменяются под воздействием различных процессов. Эти трансформационные процессы настолько сложны, что их сущность не может быть объяснена поверхностным анализом. Существует множество мнений, предположений, гипотез, фактов и аргументов, раскрывающих социально-философскую сущность этих процессов. Однако не все они формируются на научной платформе. В данной статье проблема исследуется с научной точки зрения и с правильной теоретико-методологической точки зрения. В статье описаны основные аспекты трансформации социальной сущности личности. Сегодня выявление позитивных и негативных изменений в природе личности закладывает основу для разработки путей снижения негативного влияния тенденций постмодернистского общества на духовный облик личности. Такой подход дает основу для интерпретации природы отношений «постмодернистское общество-личность» с научной точки зрения.*

Annotation. *In modern postmodern society, the transformation of the social essence of the individual is taking place. All the elements that make up the personality change dramatically under the influence of various processes. These transformational processes are so complex that their essence cannot be explained by a superficial analysis. There are many opinions, assumptions, hypotheses, facts and arguments that reveal the socio-philosophical essence of these processes. However, not all of them are formed on a scientific platform. In this article, the problem is investigated from a scientific point of view and from the correct theoretical and methodological point of view. The article describes the main aspects of the transformation of the social essence of the individual. Today, the identification of positive and negative changes in the nature of the personality lays the foundation for the development of ways to reduce the negative impact of the tendencies of postmodern society on the spiritual image of the individual. This approach provides a basis for the interpretation of the nature of the relationship “postmodern society-personality” from a scientific point of view.*

Kalit so‘zlar*: shaxs, inson, jamiyat, postmodern jamiyat, transformatsiya, mohiyat, ijtimoiy mohiyat, tendensiya, hayotiy maqsad, fragmentar tafakkur, kasbiy deformatsiya, prinsip, moddiy, ma’naviy, qadriyat.*

Ключевые слова: *личность, человек, общество, постмодернистское общество, трансформация, сущность, социальная сущность, тенденция, жизненная цель, фрагментарное мышление, профессиональная деформация, принцип, материальное, духовное, ценность.*

Key words: *personality, person, society, postmodern society, transformation, essence, social essence, tendency, life purpose, fragmented thinking, professional deformation, principle, material, spiritual, value.*

Kirish. Ma’lumki, kishilik jamiyati shaxsning shakllanishi jarayoniga muttasil ta’sir ko‘rsatib kelgan. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-mafkuraviy jarayonlar, fenomenlar shaxs hayotiy

maqsadlari xarakterini, dunyoqarashini, o‘ziga yuklangan ijtimoiy rollarga munosabatini, o‘z faoliyatida amal qiladigan tamoyillarini belgilovchi asosiy omil bo‘lgan. Jamiyatdagi jarayonlar murakkablashgani, ko‘lami kengaygani sayin ularning inson shaxsi shakllanishiga ta’siri ham jiddiylasha bordi. Jumladan, o‘tgan asrning so‘nggi choragida shakllana boshlagan postmodern jamiyatga xos xususiyatlar, jarayonlar va tendensiyalar shaxs ijtimoiy mohiyatining transformatsiyasiga olib keldi. Postmodern jamiyatning shaxs ijtimoiy mohiyatiga ta’siri mazmuni shu qadar murakkab, ko‘lami esa shu qadar kengki, inson shaxsi ijtimoiy taraqqiyotning biror o‘zga davrlarida bu kabi transformatsion jarayonlarni boshidan kechirmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada o‘rganilayotgan mavzu ilmiy tadqiqotning tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, umumlashtirish, taqqoslash kabi mantiqiy metodlari asosida yoritilishiga harakat qilindi. Zamonaviy falsafa, psixologiya va pedagogikada shaxsning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni determinizm prinsipi nuqtayi nazaridan tadqiq qilinmoqda. Bizga ma’lumki, determinizm – voqelik hodisalarining aloqadorligi va o‘zaro shartlanganligi haqidagi ta’limotdir. U narsa va hodisalarni konseptual va tarkibiy tahlil qilish bilan cheklanmasdan, ularni voqelikdagi boshqa jarayonlar bilan aloqadorlikda o‘rganish zarurligini uqtiradi. Determinizm haqidagi tasavvurlar ilmiy uslub tarkibiga kiradi – bu tasavvurlar tadqiqotni turli shart-sharoit, sabab va qonuniyatlar, tabiat, jamiyat va tafakkurdagi har qanday o‘zgarishlarni aniqlash hamda tahlil qilish asosida amalga oshirishga undaydi. Determinizm asosini esa sababiyat va qonuniyatlar konsepsiyasi tashkil etadi.[1]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Faylasuflar, psixologlar, pedagoglar shaxs shakllanishi va rivojlanishi jarayonini determinizm prinsipi pozitsiyasidan tadqiq qilar ekanlar, bu jarayonlarga ta’sir ko‘rsatadigan turli determinantlarni tilga oladilar.[2] Xususan, M.Aripova o‘z ishida shaxs jamiyatda o‘z o‘rnini topishida oilaning o‘rnini tahlil qiladi.[3]S.Komissarenkoning ishida esa shaxs shakllanishi konsepsiyalari, institutlari, texnologiyalari haqida fikr yuritiladi.[4] Tadqiqotchi I.Suvanov esa o‘z dissertatsiyasida shaxsni ma’naviy yuksalishida milliy g‘oya va o‘zlikni anglash dialektikasiga to‘xtalib o‘tadi.[5] Tadqiqotchi N.Umarova esa shaxsning iqtisodiy ijtimoiylashuvida ijtimoiy-psixologik omillar haqida ilmiy tadqiqot olib borgan.[6] Tadqiqotchi A.Maxmudova zamonaviy fuqarolik jamiyatida shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvining ijtimoiy-falsafiy tahlili haqida o‘z tadqiqotlarini olib borgan.[7] Bu determinantlar fanning xususiyati va tadqiqot ob’ektidan kelib chiqqan holda, turli tarkibda bayon etiladi, albatta. Biz shaxs shakllanishi determinantlarini ijtimoiy falsafa nuqtayi nazaridan tahlil qilamiz.

Tahlil va natijalar. Avvalo, “transformatsiya” tushunchasining mazmuniga to‘xtalsak. Ushbu tushuncha lotin tilidagi “transformatio” so‘zidan olingan bo‘lib, ibtidoda “o‘zgarish”, “burilish” ma’nolarini anglatgan.[8]Bugungi kunda ushbu tushuncha, ayniqsa, fizika, genetika, lingvistika, san’at va boshqa sohalarda keng qo‘llaniladi. Xususan, fizikada u o‘zgaruvchan elektr toki kuchlanishining pasayishi yoki oshishini ifodalaydi. Genetikada DNK molekulasining organizm hujayrasi tomonidan o‘zlashtirilishi jarayoni transformatsiya deb ataladi. Lingvistikada transformatsiya deganda so‘zlar tartibini o‘zgartirish orqali bir gap konstruksiyasidan boshqasini keltirib chiqarish nazarda tutiladi. San’atda aktyor tomonidan o‘z qiyofasini tez o‘zgartirishiga asoslangan estrada nomeri transformatsiya deb yuritiladi.

Falsafa va psixologiyada “transformatsiya” tushunchasining mazmuni nisbatan boyroq. Bunda mazkur tushunchadagi “forma” so‘zi yunon falsafasidagi “eydos”,“logos” (g‘oya, mohiyat) tushunchalarining lotincha sinonimi ekanligiga e’tibor beriladi. Bunday yondashuvga asoslanadigan bo‘lsak, transformatsiya bir mohiyat o‘rnini boshqasining egallashi bilan bog‘liq jarayonni anglatadi. Binobarin, shaxs transformatsiyasi – uning ijtimoiy mohiyatini tarkib toptiruvchi elementlarning o‘zgarishi jarayonidir.

---

[1]Новая философская энциклопедия. В 4 томах. Под. ред. В.Степина и Г.Семигина. Том 2, М., “Мысл”, 2010, с. 631.

[2] Shermuhammedova N.A. Inson falsafasi (matn). Toshkent, “Noshir”, 2016, 512-bet.

[3]Aripova M. Shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini topishida oila tarbiyasining ta’siri. “Zamonaviy ta’lim”, 2014, 11-son, 55–60-betlar.

[4] Комиссаренко С. Формирование личности. Концепции, институты, технологии. М., “Petropolis”, 2013.

[5] Suvanov I. Shaxs ma’naviyatini yuksaltirishda milliy g‘oya va o‘zlikni anglash dialektikasi: Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) disssertatsiyasi avtoreferati, T., O‘zMU, 2018.

[6] Umarova N. Shaxs iqtisodiy ijtimoiylashuviga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar: Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, T., TDPU, 2018.

[7] Maxmudova A.N. Zamonaviy fuqarolik jamiyatida shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi (ijtimoiy-falsafiy tahlil) Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) disssertatsiyasi avtoreferati, S., SamDU, 2021.

[8] Трансформация. Новый словарь иностранных слов. М., “Azbukovnik”, 2003, с. 299.

Muammoni maxsus tadqiq qilgan M.Magomed-Eminov monografiyasida shaxs transformatsiyasi o‘ta murakkab jarayon ekanligi, u turli muddaolarga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkinligi, rang-barang omil va vositalar ta’sirida sodir bo‘lishi qayd qilinadi. Olim inson shaxsidagi transformatsion jarayonlarning o‘ziga xos tasnifini keltiradi. Masalan, monografiyada shaxsning induksion transformatsiyasi, bazis transformatsiyasi, normativ transformatsiyasi, potensiallari transformatsiyasi, individuatsion transformatsiyasi, transsendent transformatsiyasi, qayta yaratuvchi transformatsiyasi, sun’iy transformatsiyasi, ekzistensial transformatsiyasi, konstruktiv transformatsiyasi va boshqalar tasniflanadi.[1] Tasnif bir o‘rinda shaxsdagi o‘zgarishlarning maqsad-muddaolariga qarab, boshqasida transformatsion jarayonlarga uchrayotgan shaxs tarkibiy elementlariga qarab, uchinchi bir holatda transformatsiya vositalari va omillariga qarab amalga oshirilgan bo‘lsada, shaxs transformatsiyasining o‘ta murakkab, serqirra jarayon ekanligini anglab yetish imkonini beradi.

Shaxs ijtimoiy mohiyatidagi transformatsion jarayonlar kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida uzluksiz davom etgan, albatta. Lekin XX asrning ikkinchi yarmida inson shaxsining shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan omillarning ko‘payishi mazkur jarayonlarga sifatan yangicha xarakter baxsh qildi. Bu omillarning ta’siri ostida inson shaxsida yuz bergan o‘zgarishlarni negativ nuqtayi nazardan baholashga moyil mutaxassislar talaygina va ularning xulosalariga bir qadar asoslar yo‘q emas. Shunga qaramasdan, biz shaxs ijtimoiy mohiyatida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni nuqul salbiy jihatdan baholashni to‘g‘ri deb bilmaymiz.

Gap shundaki, XX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan ijtimoiy jarayonlar inson shaxsida qator ijobiy o‘zgarishlarning bo‘y ko‘rsatishiga va shakllanishiga ham zamin hozirladi. Masalan, bu davrga kelib fan va texnika taraqqiyoti jamiyat hayotining barcha sohalariga yangicha tus berishga qodir qudratli kuchga aylandi. Uning mahsullari kishilar turmushining turli jabhalariga jadal kirib kela boshladi. Buning natijasida shaxsning nafaqat fan va texnika yutuqlari haqidagi bilimlari va tasavvurlari, balki ilm-fan yutuqlarini, innovatsiyalarni zudlik bilan o‘zlashtirish qobiliyati ham rivojlandi. Axborotni saqlash, qayta ishlash va uzatish bilan bog‘liq ilmiy muvaffaqiyatlar va kashfiyotlar esa shaxsning turli milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, o‘zga xalqlarning turmush tarzi va faoliyat normalari haqidagi tasavvurlarining kengayishiga zamin yaratdi.

O‘tgan asrning so‘nggi choragida avj pallasiga kirgan globallashuv jarayonlari demokratiya normalarining butun dunyo bo‘ylab tarqalishiga sabab bo‘ldi. Ushbu tendensiya ham inson shaxsi uchun beiz ketmadi. Xususan, bugungi kundagi demokratiya normalari ustuvorligi jahonning turli mintaqalarida istiqomat qilayotgan kishilarning ijtimoiy hayotga munosabatiga, ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Demokratiya normalari ustuvorligi turli jamiyatlarda ijtimoiy adolat tamoyilini qaror toptirishga bo‘lgan intilishlarni kuchaytirmoqda. “Ijtimoiy adolat – bu siyosiy qarashlari, jinsi, millati, tili va diniy e’tiqodidan qat’i nazar qonun oldida barcha fuqarolarning tengligini ta’minlashdir. Bu – ta’lim, tibbiyot va boshqa sohalardagi imkoniyatlar tengligidir. Bu – kafolatlangan mehnat faoliyati erkinligi, mansab lavozimlari bo‘yicha ko‘tarilib borishdagi imkoniyatlar tengligidir. Eng muhimi, bu keksa avlod vakillari va ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar to‘g‘risidagi g‘amxo‘rlikdir”.To‘g‘ri, turli jamiyatlardagi ijtimoiy adolatni qaror toptirish borasidagi muvaffaqiyatlarni bir xilda baholab bo‘lmaydi. Bu borada turli mamlakatlarda bo‘lgani kabi bizning diyorimizda ham hali kun tartibida turgan muammolar talaygina. Biroq jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirishga bo‘lgan intilishning umumsayyoraviy tus olishining o‘ziyoq shaxs e’tiqodi, bilimlari, malakalari, hayotga munosabatiga, ijtimoiy faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omil vazifasini o‘tamoqda.

Xullas, zamonaviy ijtimoiy tendensiyalarning shaxs ijtimoiy mohiyatiga ijobiy ta’siri ham mavjudligini inkor qilib bo‘lmaydi. Biroq muammoning mohiyati bunda emas. Mohiyat shundaki, XX asrning so‘nggi choragi va XXI asrning boshlariga kelib postmodern jamiyat tendensiyalari ta’sirida shaxs ijtimoiy mohiyatida tashvishli transformatsion jarayonlar sodir bo‘la boshladi.

Buni, birinchidan, uning hayotiy maqsadlari transformatsiyasida ko‘rish mumkin. O‘tgan asrning so‘nggi choragida, bir tomondan postmodern jamiyatga xos bo‘lgan yangi tendensiyalar, ikkinchi tomondan esa sobiq SSSR respublikalarida yuz bergan o‘zgarishlar jamiyatning qadriyatlari tizimini tubdan yangiladi. Bozor iqtisodiyoti tamoyillarining joriy etilishi jamiyatda moddiylik primatini yuzaga keltirdi, ijtimoiy munosabatlarni tijoratlashtirdi. Bu hol shaxsning hayotiy intilishlari xarakteriga ta’sir o‘tkazmasdan qolmadi, albatta.

[1] Магомед-Эминов. Трансформация личности. М., 1998, с. 496.

Jumladan, XX asrning 70-yillarida shaxs hayotiy maqsadlari tarkibida jamiyatning ma'naviy-mafkuraviy muddaolariga (masalan, butun dunyoda sotsializmni qaror toptirish, tinchlikni saqlash niyatiga) xizmat qilish, kasbiy muvaffaqiyatga erishish, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish kabi maqsadlar ustuvorlik qilgan bo'lsa, yangi asr ibtidosiga kelib, uning asosiy maqsadi o'zi va oilasining moddiy ta'minotini yaxshilash, sog'lig'ini saqlash bilan bog'liq bo'lib qoldi. Buni shaxs hayotiy maqsadlari dinamikasini tadqiq qilgan barcha mutaxassislar tasdiqlaydilar. Ularning qayd qilishicha, moddiy ta'minotga intilish yarim asr muqaddam shaxs hayotiy maqsadlari tarkibida yettinchi o'rinda turgan bo'lsa, bizning davrimizga kelib, uchinchi o'ringa ko'tarildi. U shaxsning o'zlashtirayotgan bilim, malaka va ko'nikmalari xarakterini, e'tiqodini, butun umri mobaynidagi hayotiy pozitsiyasi va faoliyatini, o'z ijtimoiy rollariga munosabatini, xislat va fazilatlarini, tugal qilib aytganda, butun umrining mazmunini belgilab beruvchi asosiy omilga aylandi.

Yangi asr arafasiga kelib, shaxs hayotiy maqsadlarining o'zgarganligidan dalolat beruvchi ko'plab dalillar mavjud. Biz bu borada shaxsning kasb tanlash mezonlaridagi o'zgarishlarni asos qilib oldik. Bugungi kunda moddiy ta'minot shaxsning hayotiy maqsadiga aylanganligi bois u o'z kasb-korini ham moddiy farovonlikni ta'minlashi darajasiga qarab tanlamoqda. Masalan, davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda bank, sug'urta, lizing va kredit-vositachilik faoliyatidagi maoshlar mamlakatdagi o'rtacha oylik ish haqidan 106,4 foiz, axborot va aloqa sohasidagi maoshlar esa 70,9 foiz yuqori bo'lgan. Shu yili iqtisodiy faoliyatning barcha turlarida ish haqi miqdorining o'sishi kuzatilgan.

Oliy ta'lim yo'nalishlariga bo'lgan talablar ham mazkur o'zgarishlarga mutanosib ravishda shakllanib bormoqda. Davlat statistika qo'mitasining O'zbekistondagi oliy ta'lim tizimi bo'yicha statistik ma'lumotlari shundan dalolat beradi. Unda keltirilishicha, 2019–2020-o'quv yilida mamlakat oliy ta'lim muassasalari bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan talabalar soni 424,9 mingga yetgan. Ularning 48,7 foizini gumanitar soha, 9,8 foizini ijtimoiy soha, iqtisodiyot va huquq, 24,7 foizini ishlab chiqarish texnikasi sohasi talabalari tashkil qilgan.[1] Aksincha, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasidagi maosh miqdori mamlakatdagi o'rtacha oylik ish haqining 34 foizini, ovqatlanish sohasida – 24,6 foizini, ta'lim sohasida – 20,8 foizini tashkil qilgani bois, shu sohalarga mutaxassis tayyorlab beruvchi ta'lim yo'nalishiga talablar ham past bo'lgan. Jumladan, 2019–2020-o'quv yili holatiga ko'ra, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan yigit va qizlar umumiy talabalar sonining 6,4 foizini, xizmatlar sohasi yo'nalishlarida esa 4,3 foizini tashkil etgan.[2] Oqibatda mehnat bozorida shaxs moddiy farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan kasb-korlarga bo'lgan talab oshib borayotgan bir vaziyatda ayrim kasblarga bo'lgan taklif qoplanmay qolmoqda. Masalan, ish.mehnat.uz veb saytida asosan xizmat ko'rsatish sohasi bilan bog'liq 5000 dan ortiq bo'sh ish o'rinlari qayd qilingan.

Umuman olganda, shaxsning moddiy farovonlikka intilishi, moddiy ta'minlanganlikni hayotiy maqsadga aylantirishi butkul salbiy holat emas. Harqalay, moddiy farovonlik shaxs hayoti sifatini oshiradi, turmush darajasini yuksaltiradi. Masalaning tashvishli jihati shundaki, hayotning mazmundorligini ta'minlaydigan, ma'naviy yetuklik sari yetaklaydigan, insonni xalq, jamiyat manfaatlari sari safarbar qiladigan maqsadlar moddiy ta'minotga intilish soyasida qolib ketmoqda. Natijada shaxsning ma'naviy yuksalishi sur'atlari sekinlashmoqda. Moddiy farovonlik darajasidan dalolat beruvchi mezonlar shaxs hayotining sifati va samarasini belgilovchi asosiy ko'rsatkichga aylanib qolmoqda. Turli mahsulot va xizmatlar iste'moli oshib borayotgan bir paytda, ma'naviyat va madaniyat maskanlari – teatr, kinoteatr, muzeylarga tashrif buyuruvchilar sonining kamayib borayotgani, kitobxonlikning inqirozga yuz tutayotgani ham shundan.

Ikkinchidan, shaxs ijtimoiy mohiyatidagi transformatsion jarayonlardan yana biri uning tafakkurining fragmentar xarakter kasb qilayotgani, buning natijasida bilim, malaka va ko'nikmalarining tobora sayozlashib borayotgani bilan bog'liq. Fragmentar tafakkur deganda o'zaro mantiqiy bog'lanishga va yaxlit tarkibga ega bo'lmagan, tushunchalar, mulohazalar, xulosalar yig'indisi nazarda tutiladi. Bunday tafakkurga ega bo'lgan shaxs bir fikr, g'oya, obrazda uzoq muddat diqqatini jamlab tura olmaydi, uning haqida uzuq-yuluq va yuzaki mulohaza yuritadi. Tafakkurning fragmentar xarakterga egaligi olam, uning shakllari, narsa va jarayonlar haqida yaxlit bilimlar tizimini shakllantirishga xalaqit beradi.

Fragmentar tafakkur keyingi yarim asr mobaynida shakllangan postmodern ongning o'ziga xos xususiyatiga aylandi. U shu davrdagi qator tendensiyalarga javob tariqasida vujudga keldi. Xususan, o'tgan asrning so'nggi choragidan boshlab, kishilik jamiyatida hayot sur'ati va maromi nihoyatda jadallashdi. Bu

[1] O'zbekiston oliy ta'lim tizimi bo'yicha statistik ma'lumotlar ochiqlandi.//https://kun.uz/news/2020/06/16.
[2] Shu manba.

hol jamiyat va inson turmushining barcha jabhalarida yorqin namoyon bo‘lmoqda. Aytaylik, yarim asr muqaddam shaxs muayyan funksional vazifani bajarish uchun bir ish kunini sarflagan bo‘lsa, bugunga kelib, aynan shu vazifani o‘ta qisqa fursatda ado etishga majbur bo‘lmoqda. Uning kundalik turmushida uddalashi lozim bo‘lgan yumushlar haqida ham shunday deyish mumkin. Buning ustiga, shaxs bir vaqtning o‘zida bir necha vazifani bajarishga majbur bo‘lmoqda. Bunday hayot tarzi va maromi bajarilayotgan ishlarda diqqatni uzoq vaqt jamlab turishga imkon va fursat qoldirmayapti. Natijada u funksional vazifalari, kundalik yumushlari xususida fragmentar, uzuq-yuluq, yuzaki mushohada yuritishga odatlanayapti.

Fragmentar tafakkurning shakllanishiga axborotlar hajmining oshishi, o‘ziga xos “axborot portlashi” ayniqsa mustahkam zamin hozirladi. Yangi asr arafasiga kelib axborotni saqlash, qayta ishlash va uzatish imkonini beradigan moslamalar, vositalar, jihozlar miqdori misli ko‘rilmagan darajada oshdi. Masalan, bugungi kunda jahonda 1,5 milliard televizor, 2,5 milliard radiopriemniklar mavjud. Jahon aholisi muntazam foydalanib kelayotgan telefonlar, smartfonlar, planshetlar soni ham bundan kam emas. Bunday texnik ta’minot axborotlar hajmining jadallik bilan ko‘payib borishiga imkon yaratdi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga qaraganda, 1980 yilda axborotlar hajmi har 50 yilda, 1950-yillarda – har 10 yilda, 1970-yillarda – har 5 yilda ikki baravarga oshgan bo‘lsa, 1990-yillarda kelib, buning uchun bir yil kifoya qiladigan bo‘ldi. Bugungi kunda har yili 60 tilda chop etiladigan 100 mingdan ortiq jurnal, 5 milliarddan ortiq ilmiy kitob va maqolalar, 250 mingdan ortiq dissertatsiyalar dunyo yuzini ko‘rmoqda. Umumjahon kitob fondi har 10–15 yilda ikki martaga ko‘payib bormoqda. Kashfiyotlar va patentlarning oddiy ro‘yxati esa 500 million sahifani tashkil etdi.

Axborotlar hajmining oshishi masalaning bir jihati, xolos. Ayni paytda, shaxsga turli kanallar va vositalar orqali taqdim etilayotgan axborot hajmi bilan uning axborotni qabul qilish imkoniyatlari o‘rtasida jiddiy nomutanosiblik vujudga kelmoqda. Turli ilmiy manbalarda keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda, shaxs ovoz chiqarib o‘qiganda sekundiga 30 axborot birligini, ovoz chiqarmasdan o‘qiganda 45 axborot birligini qabul qilishga qodir ekan. Radiotinglovchi minutiga 180, teletomoshabin – 103 so‘z tezligida uzatilgan axborotni qabul qila olar ekan. Vaholanki, ushbu fiziologik imkoniyatlar turli vositalar yordamida uzatilayotgan axborotlarning to‘liq hajmini o‘zlashtirishga mutlaqo imkon qoldirmayapti. Bunday vaziyatda shaxs taqdim etilgan axborotlarning kichik bir qisminigina tanlab, o‘zlashtirishning uddasidan chiqmoqda, xolos. Natijada shaxs tafakkuri fragmentarlashib, uning bilim va malakalari esa o‘ta ixtisoslashib bormoqda.

Shaxs fragmentar tafakkur yuritishga odatlangani tufayli uning e’tiqodi ham zaif, beqaror, muvaqqat xarakter kasb etmoqda. Ma’lumki, shaxs e’tiqodi tushunilgan va ishonilgan, amaliyotda qo‘llab ko‘rilgan, uning uchun hayotiy zaruriyatga aylangan bilimlar negizida qaror topadi. Bilimlarning uzuq-yuluq xarakterga egaligi, yaxlitlikdan mosuvoligi shaxs e’tiqodining ham shunday tus olishiga sabab bo‘ladi. Masalan, fragmentar fikr yuritgani bois yuzaki, juz’iy diniy bilimlarga ega bo‘lgan kishi u yoki bu ekstremistik guruh vakili talqinida taqdim qilingan va yaxlitlikdan yiroq, soxta diniy qarashlarni darhol o‘z “e’tiqodiga” aylantiradi, o‘z dunyoqarashini ushbu qarashlar asnosida taftishdan o‘tkazadi, faoliyatini mazkur “e’tiqod” asosida yo‘lga qo‘yishga urinadi. Biroq yangi xarakterdagi bilimlar taqdim etilgani zahoti avvalgi “e’tiqodidan” voz kechadi.

Fragmentar tafakkur shaxsning turli voqea va jarayonlarga munosabatida, ayniqsa, yorqin namoyon bo‘lmoqda. Bugungi davr kishisi odatda turli ommaviy axborot vositalari orqali dunyoda sodir bo‘layotgan voqea va jarayonlardan, goho falokat va fojealardan voqif bo‘ladi, darhol ularni ijtimoiy tarmoqlarda, o‘zaro suhbatlarda muhokama qilishga kirishadi, voqea tafsilotlari bilan qiziqadi, uning tufayli zahmat chekkanlarga hamdardlik bildiradi. Biroq jahonning biror nuqtasida boshqa, diqqatga sazovor hodisa ro‘y bergani zahoti avvalgisini unutadi va yangi voqealarni sharhlashni boshlaydi. Fragmentar tafakkur natijasida yuzaga kelgan bunday munosabat ijtimoiy tarmoqlarda ayniqsa yorqin namoyon bo‘ladi. Shaxs fragmentar tafakkur yuritgani bois o‘z diqqatini bir voqea mohiyatida uzoq muddat jamlab tura olmaydi. Bunday tafakkur bugungi kun voqeligi, ijtimoiy taraqqiyot tendensiyalari, insoniyat taqdiri to‘g‘risida tugal bilim va tasavvurlarni shakllantirishga xalal beradi.

Uchinchidan, zamonaviy tendensiyalar shaxs qadriyatlari va ehtiyojlari tizimini tubdan o‘zgartirdi. Biz postmodern jamiyatning g‘oyaviy asoslaridan biri modern jamiyat qadriyatlarining inkor qilinishi bilan bog‘liqligini aytib o‘tdik. Mazkur ijtimoiy tendensiya shaxs ijtimoiy mohiyatida ham o‘z ifodasini topdi: u modern jamiyat qadriyatlaridan yuz o‘girdi va mutlaqo o‘zgacha xarakterdagi ne’matlarni qadrli deb biladigan bo‘ldi. Uning qadriyatlari tizimida moddiylik primati ko‘zga tashlana boshladi. Shaxs

qadriyatlari olamidagi bunday evrilishlar tabiiy ravishda uning ehtiyojlari xarakteri va tarkibini ham o‘zgartirdi.

Modern jamiyatda shaxs moddiy va ma’naviy ehtiyojlari o‘rtasida muayyan proporsionallik mavjud bo‘lgan bo‘lsa, postmodern jamiyatda bu mutanosiblik buzildi. Shaxs moddiy ehtiyojlari misli ko‘rilmagan darajada oshib borayotgani bois jamiyatda ularni qondirishga xizmat qiladigan obyektlar soni ham ko‘paymoqda. Masalan, davlat statistika qo‘mitasi taqdim qilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2000-yilda har 10 ming aholiga 22 ta chakana savdo obyekti xizmat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2018-yilga kelib, bu ko‘rsatkich 37 taga yetgan.[1]Ayni paytda, ma’naviy ehtiyojlarni qondirishga bo‘lgan intilishlarning zaiflashayotganini kuzatish mumkin. 2000-yilda har 1000 kishidan 109 tasi teatrlarga tashrif buyurgan bo‘lsa, 2018-yilda kelib, bu ko‘rsatkich 72 taga tushib ketdi. Axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlarida 2000-yilda bitta foydalanuvchiga 20 ta, 2018-yilda esa 11 ta kitob yoki jurnal berilgan.[2]

Buning ustiga, shaxsda o‘z moddiy ehtiyojlarini nooqilona qondirish kayfiyati yuzaga keldi. Jumladan, shaxs o‘z moliyaviy imkoniyatlari bilan hohish-istaklari o‘rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelganida ham moddiy ehtiyojlarini qondirish ilinjidan voz kechmaydigan bo‘ldi. Fuqarolarga beriladigan iste’mol kreditlari sonining oshib borayotgani, iste’mol kreditlari va qarzlar taqdim qiluvchi turli tashkilotlarning paydo bo‘layotgani ham shundan dalolat beradi.

To‘rtinchidan, postmodern jamiyat sharoitida shaxs ijtimoiy rollari deformatsiyasi sodir bo‘lmoqda. Biz ta’kidlab o‘tganimizdek, inson o‘z hayoti davomida ijtimoiy shart-sharoitlar taqazosiga ko‘ra turli rollarni ado etishga majbur bo‘ladi, ularning ayrimlari butun umr mobaynida, boshqalari esa muayyan vaziyatda ado etiladi. Lekin ularning hammasi ham shaxsning shakllanishi jarayonida jiddiy ahamiyat kasb etavermaydi. Shaxsning butun umri mobaynida ado etadigan kasbiy, oilaviy va ijtimoiy-siyosiy rollarigina eng asosiy ijtimoiy rollar sifatida qayd etilishi mumkin. Postmodern jamiyat tendensiyalari aynan ana shu rollarning deformatsiyasi uchun zamin yaratdi.

Keyingi yarim asr davomida kishilik jamiyatidagi moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish jarayoni xarakteri tubdan o‘zgardi. Ilm-fan yutuqlarini, xususan raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etilishining jadallashuvi, innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi turli sohalardagi mehnat jarayonini keskin murakkablashtirdi. Tabiiyki, mazkur omillar shaxs kasbiy faoliyatini chetlab o‘tmadi. Bu faoliyat tobora murakkablashmoqda, uni talab darajasida bajarish uchun yil sayin ko‘proq kasbiy malaka va mahorat taqozo qilinmoqda. Bugungi kunda shaxs o‘zining muayyan kasb-kor vakili sifatidagi ijtimoiy rolini ado etishi uchun bir vaqtda bir necha mushkul funksional vazifalarni bajarishga majbur bo‘lmoqda. Natijada uning o‘z funksional vazifalari ijrosi uchun ketadigan vaqti hajmi ko‘payib, bo‘sh vaqti kamayib borayapti. Kasbiy faoliyatga sarflangan vaqt me’yorining oshib borishi shaxs ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda – u shart-sharoitlar, vaziyat o‘zgarganida, zaruriyat bo‘lmaganida ham o‘z kasbiy rolini bajarishda davom etmoqda. Boshqacha aytganda, shaxsning kasbiy deformatsiyasi yuzaga kelmoqda.

Kasbiy deformatsiya deganda kasbiy faoliyat stereotiplarini mehnat jarayonidan tashqarida ham bajarish odati bilan bog‘liq holat tushuniladi. Masalan, tergovchi o‘z mehnat faoliyati davomida barchani shubha ostiga olishga shu qadar kirishib ketadiki, oddiy turmushda ham kishilarga ishonqiramay qarashga odatlanadi. Kasbiy deformatsiya jarayoni taniqli psixolog M.Gomelauri tomonidan o‘tkazilgan tajribada ayniqsa yorqin namoyish etib berilgan. Psixolog tajribaga qator prokuror va advokatlarni jalb qiladi va ularga ma’lum bir vaziyatga avval yurist, so‘ngra esa jinoyatchi sifatida baho berishni taklif etadi. Ishtirokchilar huquqiy faoliyat bilan muntazam shug‘ullanganlari bois yurist sifatida vaziyatni osongina baholaydilar, biroq masalaga jinoyatchi sifatida yondashishdan qat’iyan bosh tortadilar.

Shaxs kasbiy deformatsiyasi bilan bog‘liq holatlar O‘zbekiston sharoitida ham tez-tez uchrab turadi. Ayniqsa, turli bo‘g‘inlardagi rahbarlarning xizmat vazifalarini bajarishdan xoli vaqtda ham to‘rachilikka yo‘l qo‘yayotgani haqli e’tirozlarga sabab bo‘lmoqda. Bunday kasbiy deformatsiya holatlari rahbarlar bilan xalq o‘rtasida uzilishlarni yuzaga keltirmoqda. Shuni nazarda tutgan holda, davlat rahbari: “Ayrim idoralar va ularning rahbarlari real hayotdan va xalq ehtiyojlaridan ma’lum darajada uzilib qolmoqda”,– deya tanqidiy fikr bildirgandi.[3]

---

[1] Ichki savdo. Chakana savdoning asosiy ko‘rsatkichlari//stat.uz.

[2] Ijtimoiy soha, bolalar va onalar himoyasi statistikasi//stat.uz.

[3] Mirziyoev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliya-tining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-j, T., “O‘zbekiston”, 2017, 239-bet.

Postmodern jamiyat tendensiyalari shaxsning oilaviy rollari xarakteriga ham ta'sir ko'rsatdi. Bu tendensiyalar, eng avvalo, jahon mehnat bozoridagi vaziyatni keskin o'zgartirdi. Shaxs uchun o'z kasbini, mehnat faoliyatini, ish joyini erkin tanlash imkoniyatlari yuzaga keldi. Postmodern ja-miyatda mehnat qonunchiligiga rioya qilish umume'tirof etilgan tamoyilga aylandi. Ushbu imkoniyatlar shaxs uchun qobiliyatlariga yarasha ish topish, o'zini ish bilan ta'minlash, ayniqsa, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishda qo'l keldi. Jumladan, bugungi kunda AQSH, Fransiya va Buyuk Britaniyada har 10 kishidan biri, Yaponiyada har 7 kishidan biri, Italiyada har 5 kishidan biri tadbirkorlik bilan shug'ullanadi.[21] Bizning mamlakatimizda ham tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar soni yil sayin oshib bormoqda. Bir qarashda, bunday vaziyatning yuzaga kelishi shaxs uchun o'z oila-viy rollarini maromiga yetkazib bajarish uchun shart-sharoit vazifasini o'tamog'i darkor edi. Biroq ijtimoiy taraqqiyot sur'atlarining jadallashuvi, globallashuv jarayonining avj olishi mehnat sharoitlari, ishlab chiqarish xarakteri, insonning mehnat faoliyatini baholash tamoyillarini tubdan o'zgartirdi. Natijada biz yuqorida ta'killab o'tganimizdek, shaxsning ish uchun sarflaydigan vaqti miqdori kundan kunga ko'payib, bo'sh vaqti me'yori kamayib ketdi. Buning ustiga, shaxs bo'sh vaqtining salmoqli miqdori ham oilaviy rollarni bajarishga emas, kasbiy mahoratni oshirishga, xizmat vazifasi bilan bog'liq bajarilmay qolgan yumushlarni adog'iga yetkazishga sarflanadigan bo'ldi. Endilikda muttasil ish bilan mashg'ul shaxs ota va ona sifatida farzandlar dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'la olmayapti.

Jamiyatdagi oila to'g'risidagi ideallar va tasavvurlarning o'zgarishi ham shaxs oilaviy rollari xarakteriga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ma'lumki, bu ideallar asrlar davomida shakllanib kelgan. Qadimgi Misrda bir necha ming yillar avvaloq oila muqaddas maskan sifatida qadrlangan va ulug'langan – buni papiruslarda saqlanib qolgan "Aka-uka" nomli hikoyadan bilish mumkin.[1] Lekin postmodern jamiyatda shaxsning oila haqidagi tasavvurlari mutlaqo yangicha tus oldi. Mazkur o'zgarishlarning oqibati o'laroq jamiyatda an'anaviy oila shaklidan farqli o'laroq fuqarolik kelishuviga asoslangan oilalar, bir jinsli oilalar vujudga kela boshladi. Bu jarayonlar, tabiiyki, shaxsning oiladagi rollari ijrosiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi: u bu rollarni ijrosi muhim va majburiy bo'lgan faoliyat sifatida qabul qilmay qo'ydi.

Postmodern jamiyatda shaxsning muayyan guruh vakili sifatida bajaradigan roli ham deformatsiyaga uchradi. Keyingi yarim asr davomida ildiz otgan xulq-atvor va axloq plyuralizmi, madaniyatning demokratiyalashuvi shaxsni turli xulq-atvor modellari, artefaktlar, qadriyatlarga moslashuvchan qilib qo'ydi. Zamonaviy shaxs o'zining jamiyatdagi har qanday rolini konformistik pozitsiyadan ado etmoqda. U o'z rolini o'zgalardek bajarishga, o'zgalar faoliyatiga xos bo'lgan xususiyatlarni o'zlashtirishga, jamiyatda taqdim qilingan faoliyat normalariga rioya qilishga intilmoqda. Bunday ijro shaxsni ortiqcha muammolardan xalos qilayotgan bo'lishi mumkin, lekin uni o'zligidan mosuvo qilmoqda, individualligiga putur yetkazmoqda. Ahamiyatli jihati shundaki, postmodern jamiyat konformistik kayfiyatga berilmagan, umume'tirof etilgan faoliyat normalarini qabul qilmagan yoxud ulardan chekingan a'zosini tanqid obyektiga aylantiradi, uning xatti-harakatlarini keskin qoralaydi. Bunday yondashuv boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi O'zbekiston hayotida ham tez-tez uchrab turadi.

Beshinchidan, postmodern jamiyat sharoitida insonning mustaqil shaxs sifatida shakllanishiga putur yetdi. Biz hayotda amal qiladigan prinsiplariga ega bo'lgan, o'z xulqi va faoliyatini ularga bo'ysundirgan kishinigina mustaqil shaxs sifatida e'tirof etish mumkinligini ta'kidlab o'tdik. Bunday prinsiplar shakllanishi uchun shaxs mustaqil fikrlashi, ishlashi va yashashi darkor. Jamiyatda bunga turtki beruvchi omillar ko'paygani sayin shaxs mustaqilligining qaror topishi imkoniyatlari ham kengayadi. Aksincha, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma'naviy-madaniy jarayonlar insonning mustaqil fikrlashi, ishlashi va yashashiga hojat qoldirmasa, mustaqil shaxsning shakllanishi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas.

Postmodern jamiyat tendensiyalari shaxsni aynan ana shu ko'nikmalardan mosuvo qilmoqda. Masalan, ijtimoiy taraqqiyot sur'atlarining jadallashib borayotgani insonning turli sohalardagi mehnat faoliyatini yagona standartlar, instruksiyalar, ko'rsatmalar, aniq belgilangan funksional vazifalar asosida tashkil qilishni talab etayapti. Bu bejiz emas, albatta, aks holda, jadal ijtimoiy taraqqiyot sur'atlari bilan shaxs mehnat faoliyati o'rtasida nomutanosiblik yuzaga keladi. Buning oqibatida shaxs mehnat faoliyati davomida bajarishi zarur bo'lgan instruksiya va ko'rsatmalar soni oshib, funksional vazifalari murakkablashib bormoqda. O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan 4 mingdan ortiq normativ-huquqiy hujjatning aksariyati mehnat faoliyatini tartibga solish masalalariga bag'ishlangan. Turli ko'rsatmalarni bajarishga yo'naltirilgan mehnat insonga mustaqil fikrlash va ishlash uchun na imkoniyat, na zaruriyat, na jur'at, na moyillik qoldirmoqda.

[1]Teshaboev M. Yoshlarda axloqiy madaniyatni takomillashtirish. "Jamiyat va boshqaruv", 2010, 3-son, 19-bet.

Birgina oliy ta’lim muassasalariga kirish imtihonlarini olaylik. O‘zbekiston Axborot agentligi taqdim qilgan ma’lumotlarga qaraganda, 2019–2020-o‘quv yilida mamlakat oliy ta’lim muassasalariga jami 1 million 66 ming 925 nafar abiturient hujjat topshirgan. Tabiiyki, bunday katta kontingent uchun kirish imtihonlarini individual yoxud jamoaviy yondashuv asosida tashkil qilib bo‘lmaydi. Vaziyatning o‘zi jarayonni muayyan standartlar asosida o‘tkazishni, unda ishtirok etayotgan xodimlar faoliyatini aniq ko‘rsatmalar asosida yo‘lga qo‘yishni talab etadi. Bu borada mamlakatimizda test tizimidan foydalanilayotgani bizga ma’lum. Biroq bu tizim o‘qituvchiga xam, abiturientga ham mustaqil, ijodiy fikrlash va ishlash uchun zaruriyat qoldirmayapti.

Shaxsning mustaqil yashash ko‘nikmasiga ham ziyon yetmoqda. U turmush tarzini o‘z orzu-umidlari, ehtiyoj va manfaatlariga qarab emas, umume’tirof etilgan hamda singdirilgan norma va tamoyillar asosida belgilashga, ularga moslashishga odatlanmoqda. “O‘tgan asrning 60-yillaridagi avlod rokerlar, xippilar, panklar yoki bitniklar tarzida mavjud madaniyat tipiga norozilik bildirishni odat qilgan bo‘lsa, 2000-yillarda shakllangan avlod jamiyatdan ajralmaslikka, turli madaniyat tiplariga befarq munosabatda bo‘lishga odatlandi. J.F.Liotar ta’biri bilan aytganda, bugun radiodan repni tinglaydilar, kinoteatrlarda vestern tomosha qiladilar, qorin to‘yg‘izgani Makdonaldsga boradilar, mahalliy pazandachilikka asoslangan restoranda tushlik qiladilar, Tokioda tayyorlangan parijcha duxini ishlatadilar va Gongkongda retro uslubida tikilgan kiyimlarni kiyadilar”.[1]Bunday vaziyatda turmush tarzini mustaqil belgilash imkoniyatlari keskin cheklanmoqda, insonning mustaqil shaxs sifatida kamol topishi jarayoni cho‘zilib ketmoqda. Shaxsning mustaqil fikrlashi, ishlashi va yashashiga xalal beradigan bunday omillarning ko‘payayotgani uning hayotda amal qiladigan prinsiplarining shakllanishiga to‘siq bo‘lmoqda.

Postmodern jamiyat sharoitida shaxs ijtimoiy mohiyatidagi transformatsion jarayonlar, xususan uning hayotiy maqsadlarining o‘zgarishi, tafakkurining fragmentarlashuvi, qadriyatlari va ehtiyojlari tizimi deformatsiyasi, bajaradigan ijtimoiy rollari xarakteri va hayotiy prinsiplarining tamomila yangicha tus olishi, bir tomondan, shaxs fazilatlari tarkibiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi, ikkinchi tomondan esa, qator ijtimoiy illatlarning tarqalishiga sabab bo‘ldi. Buni “Ijtimoiy fikr” Jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi tomonidan 2018 yilda o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovda qatnashgan respondentlarning 78,4 foizi qayd qilib o‘tdi. Xususan, ishtirokchilarning uchdan biri qayd qilishicha, shaxsning moddiy farovonlik bilan bog‘liq hayotiy maqsadlariga xizmat qiluvchi, pragmatik xarakterdagi fazilatlari jadal rivojlanib bormoqda, axloqiy fazilatlar rivoji esa bu sur’atdan ortda qolmoqda.

Ayni paytda, ayrim ijtimoiy illatlarning keng ildiz otayotgani ham kuzatilmoqda. Quyidagi ma’lumotga e’tibor beraylik. Tadqiqotchilar M.G‘aniyeva va X.Ahmedovlarning 2018-yilda o‘tkazgan sotsiologik so‘rovlarida ishtirok etgan respondentlarning 59,1 foizi poraxo‘rlik, 42,5 foizi sotqinlik, 41,9 foizi ikkiyuzlamachilik, 40,9 foizi kibr, 21,9 foizi befarqlik, 16,6 foizi boqimandalik kabi illatlarni qoraladilar. Modomiki, ishtirokchilar ushbu illatlarni kundalik turmushda uchratmagan, ularning salbiy oqibatlarini kuzatmagan bo‘lsalar, bunday munosabat bildirmagan bo‘lardilar.

Xulosa. Xulosa qiladigan bo‘lsak, postmodern jamiyat shaxs ijtimoiy mohiyatining transformatsiyasiga olib keldi. Bu jarayon o‘zining pozitiv va negativ jihatlariga ega. Jumladan, zamonaviy tendensiyalar shaxsning ilm-fan yutuqlarini, innovatsiyalarni zudlik bilan o‘zlashtirish qobiliyatini rivojlantirdi, uning e’tiqodi, hayotga munosabati, ijtimoiy faoliyatiga demokratik tus berdi. Ayni paytda, postmodern jamiyat sharoitida shaxs hayotiy maqsadlari transformatsiyasi, tafakkurining fragmentarlashuvi, qadriyatlari va ehtiyojlari tizimining deformatsiyasi, bajaradigan ijtimoiy rollari xarakteri va hayotiy prinsiplarining o‘zgarishi sodir bo‘ldi. Bu transformatsion jarayonlar oxir-oqibatda shaxs fazilatlari tarkibi yangicha tus olishiga, ayrim ijtimoiy illatlarning tarqalishiga sabab bo‘ldi.

Кадирова Дилбар Солиҳовна (Ўзбекистон Миллий университети профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди; e-mail:dilbarkadirova1@gmail.com)

ЭСТЕТИК ТАРБИЯНИНГ МОҲИЯТИ, ОМИЛЛАРИ ВА ПОТЕНЦИАЛЛАРИ

Аннотация. *Мақолада замонавий шахсни вояга етказишда нафосат тарбиясининг аҳамияти, мутафаккирларнинг эстетик тарбияга оид фикрлари, эстетик тарбиянинг усуллари ва воситалари йўналишлари, эстетик диднинг шахс тарбиясидаги ўрни, ҳиссий тарбия ва арттерапиянинг замонавий тарбиядаги ўрни, хорижий мамлакатларда эстетик тарбияда “эстетик циклар”нинг аҳамияти ўрганилган.*

[1] Bekmurodova G. Befarqlik va nopisandlik – ijtimoiy konformizm oqibati. “QarDU xabarlari”, 2018, 1-son, 78-bet.

Аннотация. *В статье рассматривается роль эстетического воспитания в развитии современной личности, взгляды мыслителей на эстетическое воспитание, методы и средства эстетического воспитания, роль эстетического вкуса в личностном воспитании, роль эмоционального воспитания и арт-терапии в современном мире образования, значение «эстетических циклов» в эстетическом воспитании за рубежом.*

Annotation. *The article examines the role of aesthetic education in the development of a modern personality, the views of thinkers on aesthetic education, methods and means of aesthetic education, the role of aesthetic taste in personal education, the role of emotional education and art therapy in the modern world of education, the value of "aesthetic cycles" in aesthetic education abroad.*

Калит сўзлар: *шахс тарбияси, тарбия усуллари, тарбия воситалари, эстетик дид, ҳиссий тарбия, арттерапия, ижод, бадиий тасаввур, эстетик маданият, табиат, меҳнат фаолияти, санъат, ўйин, турмуш эстетикаси, спорт, янги технологиялар, ахлоқий тарбия, жисмоний тарбия, болалар ижоди.*

Ключевые слова: *личностное воспитание, методы воспитания, эстетический вкус, эмоциональное воспитание, арт-терапия, творчество, художественное воображение, эстетическая культура, природа, трудовая деятельность, искусство, игра, эстетика быта, спорт, новые технологии, нравственное воспитание, физическая культура, детское творчество.*

Key words: *personal education, educational methods, aesthetic taste, emotional education, art-therapy, creativity, artistic imagination, aesthetic culture, nature, work, art, play, everyday aesthetics, sports, new technologies, moral education, physical culture, children's creativity.*

Маълумки, инсоннинг муайян ижобий фаолияти ҳам эзгулик, ҳам нафосат хусусиятларини ўзида мужассам этади, шу ўринда шахс тарбиясида ахлоқий тарбия билан бир қаторда эстетик тарбия ҳам муҳим ўрин тутади. Тарбия – бу жамиятда амалда бўлган меъёрий моделларга мувофиқ шахсни мақсадли тизимли шакллантириш жараёни бўлса, эстетик тарбия педагогиканинг йўналишларидан бири бўлиб, унинг асосий мақсади инсонга гўзалликни тушуниш ва қадрлашга ўргатишдир ва у инсоннинг воқеликка эстетик муносабатини шакллантиришнинг мақсадга мувофиқ жараёнидир. Эстетик тарбиянингмақсади вазифалари жуда кўп адабиётларда турлича баён қилинган бўлиб, биз уларни умумийлаштиришга ҳаракат қилдик. Аввалambор, эстетик тарбия, кундалик ҳаётда, атроф-муҳитда, табиатда, инсоннинг ахлоқий қиёфаси ва хулқ-атворида гўзалликни англаш ва идрок эта олиш, ундан завқлана олиш ва баҳо бериш, таҳлил қилиш қобилиятларини шакллантиришни ўз ичига олади, шунингдек, эстетик тарбия: шахснинг ижодий потенциалини ва ижодий фикрлашини ва қобилиятини оширади; шахсда бадиий тасаввурни ва эстетик мушоҳада қилиш малакасини юксалтиради; шахсда эстетик дидни ва эстетик идеални ва эстетик қадриятларни шакллантиради ва ривожлантиради; шахсда воқеликни бадиий акс эттириш масалалари бўйича ўз фикрини баён этиш қобилиятини ривожлантиради ва б.

Гўзаллик туйғуси ва гўзалликка бўлган эстетик эҳтиёж кишилик жамияти пайдо бўлиши билан одамларнинг моддий ва маънавий фаолияти соҳасида мужассамланиб, у билан бирга ривожланди. Буюк мутафаккирлар ўз асарларида "эстетик тарбия" атамасини тўғридан-тўғри қўлламасалар-да, уларда эстетик тарбия хусусидаги турли ғоялар ўз ифодасини топган.

Қадимги Юнонистонда эстетик тарбиянинг мақсади фуқароларни ҳар томонлама камол топтириб, "руҳ ва тана" мукаммаллиги ва уйғунлигини қарор топтиришга қаратилган эди. Аристотел "калокагатия" тушунчасида у одамни меҳрибон ва гўзал махлуқ деб тушунтиради. Шунингдек, у санъат канонларини илгари сурди. Цицероннинг фалсафий асарларида эстетик тарбия ғоялари кўп жиҳатдан ривожланган бўлиб, ифодали сўзлаш қобилияти, бадиий сўз, ритм туйғусига катта аҳамият берилган. Августин болаларга нисбатан инсонпарварлик муносабати, уларнинг туғма ижодий ва билим қобилиятларини ривожлантириш ғояларини илгари сурган. "Эстетик тарбия" атамаси биринчи бўлиб буюк олмон файласуфи Фридрих Шиллер томонидан илмий муомалага киритилган. Шиллер таъкидлайдики: "Фақат гўзалликдангина биз бир пайтнинг ўзида ҳам индивид, ҳам одамзод сифатида завқ ола биламиз. Ҳиссиёт бандаси бўлган инсонни оқил инсонга айлантириш фақат уни эстетиклаштириш орқалигина рўй бериши мумкин.[1]

Шахс эстетик эстетик тарбиясининг самарадорлигига бир қанча объектив ва субъектив мезонлар ва омиллар таъсир қилади: макро омиллар – бутун мамлакат бўйлаб ижтимоий, иқтисодий

[1] Шилллер Ф. Собрание сочинений. Т. 6, с. 356.

ва сиёсий шароитлар, давлатнинг таълим ва тарбия борасидаги сиёсати ва бошқалар. Мезофакторлар – бу, аввалambор, турар жой турига (қишлоқ, шаҳар, аҳоли пункти) боғлиқ, турли хил оммавий коммуникация тармоқлари (телевидение, радио, интернет ва бошқалар); микро омиллар – оила, таълим муассасалари, микро социум, тенгдошлар гуруҳлари; индивидуал – ёш, шахс темпераменти, саломатлигининг ҳолати, табиий қобилиятлари ва истеъдодлари ва бошқаларга боғлиқ. Эстетик тарбиянинг воситалари қуйидагилардан иборатдир: табиат; меҳнат фаолияти; санъат; ижод; ўйин; турмуш эстетикаси; жисмоний тарбия ва спорт; янги технологиялар ва бошқалар киради.

Эстетик тарбиянинг энг асосий мақсад ва вазифаларидан бири бу эстетик дид тарбиясидир. Эстетик дид – воқеа-ҳодисаларнинг эстетик сифатларини идрок этиш ва баҳолаш жараёнида олинадиган қониқиш ёки қониқмаслик туйғуси, эстетик мезони ҳисобланади. Эстетик дид инсоннинг фикр-мулоҳазалари, хулқ-атвори, хатти-ҳаракатлари, моддий ва маънавий ижод маҳсулотларида ўз ифодасини топади. Кант, “Санъатни барча тушунади, аммо унинг туб моҳияти юксак эстетик дид соҳибларига аён бўлади” деб таъкидлайди.[1]Эстетик дид заминида гўзалликни хунукликдан ажрата билиш ва ундан беғараз шодланиш ҳамда лаззатланиш қобилияти ётади. Эстетик дид шахс ва жамият нимани гўзаллик сифатида, нимани хунуклик меъёрлари сифатида идрок этилишида намоён бўлади. Мопассан қуйидагича ёзган: “Аслида, томошабин бизга қуйидагича деб бақирадиган кўплаб гуруҳлардан иборат:

– Мени хурсанд қилинглар. Мени овунтиринг. Менинг ҳиссиётларимни жунбушга келтиринг. Менга орзу қилиш имконини беринг. Мени кулдиринг. Мени сескантиринг. – Мени йиғлатинг. Мени фикрлашга мажбур қилинг. Фақат озгина танланган инсонларгина ижодкордан қуйидаги нарсаларни сўрайди:

– Биз учун ҳаммадан ҳам ўзингизга хос бўлган шаклда қандайдир гўзалликни яратинг”.[2]

Бизга эстетика фани тарихидан, маълумки, “эстетика” сўзи «ҳис қилиш», «сезиш», «ҳис этиладиган» сингари маъноларни англатади. Маълумки, ҳис-туйғулар интелектуал, маънавий ва эстетик турларга бўлинар экан, эстетик ҳис-туйғуларга бизнинг гўзал, чиройли, ёқимли нарсалардан завқланишимиз, шодланишимиз, ҳузур килишимиз, роҳатланишимиз кабилар киради. Бу ҳисларнинг манбаи гўзал табиат, санъат, адабиёт, чиройли турмуш кабилар бўлиши мумкин. Улар, албатта, сезгилар орқали инсонга етиб келади. Эстетика фанида-эстетик англашни инсон руҳиятида ўзига хос, чуқур ижобий руҳий ўзгаришларни вужудга келтирадиган эстетик ҳолат деймиз ва унинг тузилмасини ташкил этувчи унсурлар; эстетик эҳтиёж, эстетик ҳиссиёт, эстетик қизиқиш, қувонч ҳисси, эстетик мушоҳада, эстетик баҳо, эстетик дидларнинг энг аввало инсон руҳияти, ҳиссиёти билан боғлиқлиги бизга маълум. Сезгиларнинг ўзаро таъсири, асосан, икки: сенсибилизация ва синестезия жараёнида содир бўлади. Ўзаро таъсир жараёнида бир анализатордаги сезувчанликнинг ортиб кетиши «сенсибилизация» деб аталади. Синестезияга шундай сезгиларнинг ўзаро таъсири киradики, уларда қўзғалиш таъсири остида бир анализатордан бошқа бир анализаторга хос бўлган сезги пайдо бўлади. Улар «Гўзал оҳанг», «нафис ранг» каби ёки гўзаллик, уйғунликка асосланган эстетик ҳиссиёт ва тушунчаларнинг вужудга келишига олиб келади. Бу эса эстетик тарбияда муҳим омиллардан биридир. Инсоннинг эстетик объектдан завқланиши ва унга эстетик баҳо бериши қандай омилларга боғлиқ, деган савол туғилади. Масалан, мелонхолик темпераментга эга бўлган инсонлар кўпроқ романтикага, лирикага мойил бўлишади ва ҳ.к. Эстетик тарбия жараёнларида эстетик интуиция (лот. қаттиқ, диққат билан қараш), эмпатия (бадиий асарни яратиш ва идрок этиш жараёнларида ҳиссий кечинмалар) ҳамда катарсис (фориғланиш) каби тушунчалар алоҳида ўрин тутади. Шунинг баробарида, санъат билан руҳиятни боғловчи бир қанча янги тармоқлар яратилмоқдаки, уларда эстетиканинг потенциаллари намоён бўлмоқда. Улардан бири арттерапиядир. Арт терапия – санъат ва ижодкорликдан фойдаланишга асосланган психотерапия ва психоло-гик даволаш йўналишидир. Санъатни терапевтик ва тарбиявий мақсадларда қўллашнинг аҳамияти шундаки, у турли хил ҳис-туйғуларни рамзий равишда ифода этиш ва ўрганиш учун ишлатилиши мумкин. Форобий ҳам ўз вақтида мусиқа санъатининг инсон саломатлигига таъсири хусусида тана касал бўлса, руҳ ҳам сўлиши, тана тўсиққа учраса, руҳ ҳам тўсиққа учрашини таъкидлаган эди.

Сўзнинг оҳангли табиати мусиқа оҳанглари ва ритмлари билан биргаликда руҳий хасталиклардан бўлган қўрқув, жаҳл, қайғу, уйқусизликни даволашда қўлланилиб келган. Арттерапияда

[1] Кант Иммануил. Собрание сочинений в 8 томах. Мировая философская мысль. Пер. с немецкого. Под ред. проф. А.В.Гулыги. М., 1994.
[2] Мопассан. 1958, т. 8, с. 7 – 8.

тасвирий санъат ҳам салмоқли ўрин эгаллаб келган. Қуйида Леонарда да Винчининг фикрларини келтирамиз. Чарчадингизми – гуллар расмини чизинг. Жаҳлингиз чиқдими – чизиқлар чизинг. Оғриқ борми – ясанг. Зерикдингизми – бир парча қоғозни турли гуллар билан тўлдиринг. Хафамисиз –камалак расмини чизинг. Хавотирни ҳис этяпсизми, қўғирчоқ ясанг ва ҳ.к. Арттерапия усули одамнинг ички "мен"ининг мазмуни унинг яратган визуал тасвирларда акс этади деган ишончга асосланади. Психоанализ нуқтаи назаридан, арттерапиянинг асосий механизми сублимация ҳисобланади. Арттерапия ўз ривожланишининг бошида З.Фрейд ва К.Г.Юнгнинг психоаналитик қарашларини акс эттирди, унга кўра, мижознинг бадиий фаолиятининг якуний маҳсулоти (чизма, ҳайкалтарошлик, инсталляция) унинг онгсиз руҳий жараёнларини ифодалайди. Арттерапи: 1. Арттерапия сўзнинг тор маъносида тасвирий санъат асосида чизилган терапия (изотерапия). 2. Библи-отерапия (шу жумладан, эртак терапияси) – адабий композиция ва адабий асарларни ижодий ўқиш. 3. Мусиқий терапия. 4. Драма терапияси. 5. Рақс терапияси. 6. Қўғирчоқ терапияси. 7. Қум терапияси. 8. Ҳайкалтарошлик билан даволаш. 9. Фототерапия. 10. Ўйин терапиясидан иборат. Педагогик амалиёт шуни кўрсатмоқдаки, Аспергер синдромига чалинган болаларни тарбиялаш ва ривожлантиришнинг самарали воситаси – бу эстетик тарбия.

Эстетик тарбиянинг шахс равнақидаги аҳамияти ва потенциалларини биз ривожланган хорижий мамлакатлар таълим тизимида ҳам кузатамиз.

20-асрнинг 60-йилларидан иқтисодиётни ривожлантиришдаги "Япон мўъжизаси" ҳақида гапира бошланди. Дунёда етакчи иқтисодий қудратлардан бирига айланган Япония энди ўзининг асл маданиятини сақлаб қолган мамлакатдир. Япон тарбия тизимининг асосий вазифаларидан атрофдаги олам гўзаллигини қадрлаш ва тушуниш қобилиятини ривожлантиришдир. Японлар орасида гўзаллик нафақат эстетик фан категорияси, фалсафий категория, балки иқтисодий категория сифатида ҳам пайдо бўлади. Бундан ташқари, замонавий япон мактабида ўқитиладиган эстетик циклар мавжуд бўлиб улар: мусиқа, хаттотлик, декоратив-амалий санъат ва ҳ.к.лар киради. Мусиқа дарслари қўшиқ айтиш, тинглаш, ритм туйғусини ўзлаштириш кўникмаларини ривожлантиришга ёрдам беради. Кичик японларга мактабда бир нечта мусиқа асбобларида чалишни, ижро назарияси ва амалиёти асослари ўргатилади. Япон мактабида иероглифларни ўқитиш дунёни рамзий равишда идрок этишга ва белгилашга ўргатади, тасаввурни ривожлантиради, иероглиф уйғунликни ўз ичига олади, ҳаракатнинг пластиклигини англатади. Болалар боғчасиданоқ япон боласи 24 та ранг палитраси ва уларнинг туслари билан танишади, иккинчи синф ўқувчиси 36 ранг ва ранг тусларидан фойдаланади ва уларнинг номларини билади. Ҳар бир мактаб битирувчисининг 24 асосий ранг ва уларнинг 10 тадан ранг тусларини номма-ном билишлари талаб этилади. Японияда образли ассоциатив фикрлаш ривожланган одам технология ва аниқ фанлар соҳасидаги чуқур билимларни тезроқ эгаллайди, деб ишонишади ва айнан бадиий таълим болада мослашувчан образли-ассоциатив фикрлаш шаклларини ривожлантиришга эътибор қаратишади. Ўқиш жараёнида япон болалари 30 га яқин бадиий фаолиятни ўзлаштирадилар, улар орасида икебана, қоғоздан ишланган буюмлар, керамика, лойдан ясалган ўйинчоқлар, пластилин, болалар байрамлари учун костюмлар мавжуд. Бундан ташқари, психологик муҳит мавжудки, катталар болани ўргатмайди, балки уни тўғридан-тўғри мулоқот жараёнида, қандайдир "шериклик" муносабатлари жараёнида тарбиялайди ва ўйин орқали таълим берилади. Америка Қўшма Штатлари. Ғарб амалиётининг кенг тарқалган хусусиятларидан бири бу ўқув фанлари орқали умумий таълимни инсонпарварлаштиришдир. Масалан, П.Гетти номидаги Санъат таълими илмий тадқиқот маркази ушбу услубни "Санъат" фанига киритди, бунинг натижасида талаба санъатнинг тўртта тушунчалари билан танишади: эстетик (санъатнинг моҳиятини ва унинг инсон тажрибасидаги ўрнини ўрганиш), танқидий (асарни тавсифлаш, талқин қилиш ва баҳолаш), тарихий (маданий ва тарихий шароитда асарларни тушуниш), самарали (ижод қилиш ёки артефакт яратиш). Америка педагогик адабиётида бадиий тажрибанинг миллатнинг барча келажакдаги вакиллари ҳаёти учун алоҳида ўрни таъкидланади ва ҳар бир бола учун унинг истеъдодидан қатъи назар, мажбурий санъат дарслари тарғиб қилинади. Шуни таъкидлаш керакки, эстетик тарбияда у бадиий асарларни идрок қилишгагина эмас, балки боланинг ўз ижодий амалиётига катта эътибор қаратилади. "Театр томошабин учун эмас, балки иштирокчи учун" – бу америкалик ўқитувчиларнинг шиори. Ўқувчиларга қуйидаги талаблар қўйилади: спектаклларни кўриш ёки ўқиш ва ҳар бирига шарҳ ёзиш; 10 дақиқалик пьеса ёзиш ва саҳна кўринишини қўйиш; спектаклда бош ролни ижро этиш, спектакль учун декорацияни ишлаб чиқиш; макетини тузиш; костюмларни лойиҳалаш; гримлар қилиш ва ҳ.к. Ўқувчилар театрлари АҚШда жуда машҳур. Америкада театр билан боғлиқ кўплаб байрамлар мавжуд. Улардан бири

“Пардалар кўтарилади” деб номланган. Болалар театри директори Томас Кортак болаларни театр билан таништириш схемасини ишлаб чиқди: 1–2-синф – театрда ўзини тутиш қоидалари билан таниш-тириш; 3–4-синфлар – театрнинг ички кўриниши билан танишиш; 5–6-театрдаги турли хил касблар ва театрда ишлатиладиган терминологиялар билан таништириш; 7–8-синфлар – театрдаги костюм, ёруғлик, пардоз, реквизит каби визуал аспектлар билан танишиш; 9–10-синфлар – спектакл таҳлили (шакли, услуби, мазмуни, мунозара, танқид); 11–12-синфлар – театр санъати тарихи, ри-вожланиш концепцияси, техник имкониятлари, мутаносиблиги, бирлиги, изчиллиги ва бошқалар-ни ўзлаштириш.

Қўшма Штатларда ўрта мактабларда “турдош санъат”, “санъат ва гуманитар фанлар” сингари “синтетик курслар”ни яратишга қизиқиш тобора ортиб бормоқда, улар ўқитувчилар гуруҳи томонидан олиб борилади. Қўшма Штатлардаги кутубхоналар муҳим ижтимоий функция-ларни, биринчи навбатда, таълим ва маърифий вазифаларни бажаради. Бу борада 20-аср бошларида ташкил этилган “Кутубхонанинг дўстлари” ташкилоти муҳим роль ўйнайди. Америка кутубхоналарининг маърифий фаолияти хилма-хил. Турли кечалар, цирк, бепул концертлар ва б. Сўнгги ўн йилликларда чет элдаги музейларнинг вазифалари ўзгарди. АҚШда музей ва мактаб жуда узоқ вақтдан бери ҳамкорлик қилиб келмоқда ва унда ўқитувчилар учун ўқув курслари ташкил этилади, музей ходимлари ва мактаб ўқитувчилари учун семинарлар ўтказилади, турли хил дастурлар ва тадбирларни таклиф этилади.

Япониянинг Токио шаҳрида жойлашган Осиё маданият маркази бутун дунё бўйлаб музейларни оммалаштириш учун аудиовизуал тўпламларни нашр этади. Мақсад мактаб ўқувчиларини дунёдаги музейлар билан таништиришдир. Немис мактабларидаги бадиий ва эстетик тарбиянинг тажрибаси шуни кўрсатдики, сўнгги йилларда ўқитувчилар ва ўқувчилар биргаликда дарсларни режалаштиришни, дарслар ўтказишни ва улар учун жавобгар бўлишни ўрганганликлари туфайли мактабнинг маданият даражаси ошди. Мактаб маданияти дара-жаси нафақат ўқувчиларнинг тегишли соҳалардаги ютуқлари, балки мактаб жиҳозлари, ёритиш тизими, ободонлаштириш ишлари, деворларни бўяш бошқалар билан ҳам белгиланади. Аммо бу мактаб маданияти мавжудлигининг анъанавий шаклларини, болаларнинг рақс, мусиқа, театр, рассомчилик ва бошқа соҳалардаги ижодкорлиги билан уйғунликда олиб борилади.

Германиядаги бир қатор музейларда “тарихий ўйинлар” ташкил этилиб, улар давомида маълум бир тарихий муҳит қайта тикланади. Мактаб ўқувчилари ўрганилган даврдаги одамларнинг хатти-ҳаракатларини такрорлайдилар, рақсга тушадилар ва ҳ.к. Немис ўқитувчиларининг фикрига кўра, эстетик цикл мавзулари мактаб ўқувчилари учун шунчалик жозибали бўладики, дарсда ишлаш ҳеч қачон зерикарли бўлмайди. Замонавий Германиядаги бадиий таълим инсоннинг эстетик, ижодий салоҳиятини ривожлантириш воситаси сифатида самара бермоқда. Бадиий таълимнинг мақсадлари: мактаб ўқувчиларида дид ва иммунитетни ёмон дидга қарши сингдириш, санъат билан мулоқот қилишдан эстетик завқ олиш қобилиятини ва ўқувчиларда эстетик фикрларни шакллантириш.

Япония ва Германияда, Финляндияда ва Францияда эстетик таълим, яъни: мусиқа, тасвирий санъат, дизайн, адабиёт, театр онгга, ҳиссиётларга таъсир кўрсатишнинг энг самарали воситаси деб ҳисобланади. Францияда мактаблар учун бой репертуарга эга бўлган расмларнинг репродукциялари ва мусиқий асарлар ёзувларининг махсус сериялари ишлаб чиқарилади; мактаб радиоси ва телевидениеси мавжуд. Мактаб болаларни бадиий ижод қилишига эътибор қаратади, шу сабабли, болалар нафақат мусиқа тинглашади, балки ижро этишади ва басталайдилар ҳам. Болалар учун махсус ишлаб чиқарилган мактаб типографиялар мактабларда кенг тарқалган. Улар болаларнинг расмлари, шеърлари ва ҳикояларини нашр этадилади. Швецияда фантазия, ҳикоялар, ўқиш ва билимлар дунёси боланинг ривожланиши учун жуда муҳимдир, шунинг учун ота-оналар фарзандлари билан педиатрия клиникасига биринчи бор ташриф буюришганда, одатда, уларга болалар учун китоб совға қилинади. Шаҳар кутубхоналари ҳам болаларни ўқишга жалб қилишга ҳаракат қилади. Китоб автобуслари ташкил этилади. Музейларга болалар билан дўст бўлишлари учун уларга давлат томонидан субсидиялар берилади. Болалар ижоди эса ҳурматга лойиқдир.[1]

Хулоса қилиб айтишимиз мумкинки, ривожланган давлатлар таълим тизимидаги эстетик цикларда, эстетик тарбияни компютерлаштиришда; “синтетик курслар” (масалан, математикада гўзаллик)ни яратишда; мактаб маданиятини умумий маданий жараёнга қўшилишида; “музей-мак-

[1] https//moluch/ru›conf›ped›archive

таб”, “театр-мактаб” тизимларини шакллантиришда; “Интеллектуал” ва “эмоционал” йўналишлар ўртасидаги тафовут бартараф этилишида биз эстетиканинг янги потенциалларини кузатамиз ва бундай цикларни чуқур ўрганиб, бизнинг таълим тизимига ҳам татбиқ этиш мумкин, деб ҳисоблаймиз. Эстетик тарбиянинг асосий мақсадларидан бири ва якуний натижаси шахс маданиятини, жумладан, шахс эстетик маданиятини юксалтиришдир. Шахснинг эстетик маданияти таркибий қисмларини; эстетик ҳислар, эстетик эҳтиёжлар, эстетик дидлар, эстетик идеаллар киради ва у эстетик идрок этиш ва эстетик тарбияни ўз ичига олади. А.Шер таъкидлаганидек: “эстетиклашган шахс жамиятни эстетиклаштиради, эстетиклашган жамият эса, ўз навбатида, янги даражадаги эстетиклашган шахсни яратади ва шу тартибдаги ўзаро таъсир миллатнинг қадам-бақадам комиллик даражасига кўтарилиши учун хизмат қилад”.[1]

Демак, эстетик тарбия инсоннинг ижоднинг турли соҳаларида зарур бўлган барча маънавий қобилиятларини уйғунлаштиради ва ривожлантиради, у билиш воситаси бўлиб хизмат қилади. Образли, ассоциатив фикрлаш инсон ақл-идрокининг ривожланишига таъсир қилади. Инсон туғма тайёр бадиий туйғу ва дид билан туғилмайди, балки туйғу ва дид, қобилият ва истеъдодни шакллантириш лаёқати билан туғилади. Эстетик тарбия эса, бу гўзалликни воқеликда ва сезиш ва англаш қобилиятини тарбиялаш, эстетик қарашлар ва ҳиссиётларни ривожлантириш, гўзалликни яратиш зарурати ва қобилиятини тарбиялашдир.

Саматов Хуршид Улмасжонович (Самарқанд Иқтисодиёт ва сервис институти ижтимоий фанлар кафедраси доценти, фалсафа доктори (PhD); samatov_1084@mail.ru)

ХАЛҚ БИЛАН МУЛОҚОТГА ТЎСҚИНЛИК ҚИЛУВЧИ ИЛЛАТЛАР

Аннотация. *Ушбу мақолада халқ билан мулоқот қилишга тўсиқ бўладиган кибр, риё, ужубнинг юзага келиши, офатлари ҳамда тариқат шайхларининг қарашларида ушбу иллатларнинг тасаввуфий ва фалсафий моҳияти очиб берилган.*

Аннотация. *В данной статье раскрывается мистическая и философская природа этих пороков во взглядах шейхов, а также возникновение высокомерия, лицемерия, уджб, препятствующих общению с народом.*

Annotation. *This article reveals the mystical and philosophical nature of these vices in the views of the sheikhs, as well as the emergence of arrogance, riya, ujb, which prevent them from communicating with the people.*

Калит сўзлар*: дин, тасаввуф, ҳадис, ахлоқ, қалб, адолат, халқ, мулоқот, тамойил, кибр, риё, ужуб.*

Ключевые слова*: религия, мистицизм, хадис, мораль, сердце, справедливость, люди, общение, принцип, высокомерие, лицемерие, уджб.*

Key words: *religion, mysticism, hadith, morality, heart, justice, people, communication, principle, arrogance, hypocrisy, ujb.*

Мамлакатимизда сўнгги йилларда халқ билан мулоқот қилиш, манфаатларини ҳимоя қилиш, инсон қадрини олий даражага кўтариш соҳасида давлат сиёсати даражасида ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Бу борада ислоҳотларнинг назарий-методологик жиҳатдан асослашда ислом дини асосида шаклланган тасаввуф ғоялари, улкан шарқ мутасаввуфларининг маънавий мероси муҳим манба бўлиб хизмат қилади.

Тасаввуф мусулмон олами маънавий ҳаётининг асосларидан бири сифатида шарқ ҳалқларининг ахлоқий, эстетик ва фалсафий шаклланишига ижобий таъсир кўрсатдики, тасаввуф пирларининг меросини яна ҳам чуқурроқ ўрганиш ва мукаммалроқ ёритиш бугунги куннинг кечиктириб бўлмас вазифасига айланди. «Биз аждодларимизнинг донишмандлик анъаналарига амал қилиб, уларнинг ғояларини теран англаган ҳолда, қатъий ислоҳотларни амалга оширмоқдамиз, мамлакатимизнинг янги қиёфасини шакллантириш йўлидан бормоқдамиз».[2]

Ислом дини халқ билан мулоқот масалаларида адолатли бўлишига даъват қилади. Қайси мамлакатда адолат қарор топган бўлса, ўша юртда халқ эмин-эркин яшайди, фаровонлик, тинчлик-

[1] Абдулла Шер. Эстетика. Дарслик, Тошкент, “Ўзбекистон”, 2014, 363-бет.

[2] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи.//http://www.press-service.uz/uz/lists/view/.

омонлик, тотувлик ҳукм суради. Адолатнинг замирида эса халқ билан яқинлик, у билан мулоқот ва барча саъй-ҳаракатлар пировард мақсадини инсон манфаатига қаратиш истаги ётади. Шу боис ҳам халқ билан мулоқот – улуғ инсоний фазилатлардан саналади.

Зеро, мулоқот туфайли ҳар бир киши ўз ижтимоий келиб чиқиши, дунёқараши, мансабидан қатъий назар, жамиятга яқинлашади, ўз ахлоқининг энг гўзал қирраларини намоён этади, халқ дардини, истак ва орзуларини англаб етади, шунингдек, бу мулоқот туфайли кишиларнинг ўзаро дўстона ҳамкорлик, ҳамжиҳатлик, ҳаммаслаклик, ҳамфикрлилик муносабатлари шаклланади, бир-бирига ишончи ортади. Ўзаро ишонч бор жойда эса ҳамиша олға интилиш, ижтимоий-иқтисодий, маънавий-маърифий ривожланиш вужудга келади. Шу билан биргаликда, халқ билан мулоқот қилиш мураккабки, халқ оммасини ташкил қилган кишилар диний ва дунёвий илмларда турли даражада бўлишади. Турли тоифага мансуб бўлган халқни бир ғоя атрофида бирлаштириш ёки уларни бир ғояга ишонтириш ниҳоятда мушкулдир. Шу жиҳатдан, турли дунёқарашга ва илмга эга бўлган инсонлар билан мулоқот қилишда уларда учрайдиган айрим иллатлар борки, бу улар билан мулоқотга тўсқинлик қилади.

Исломий ва тасаввуфий адабиётларда халқ билан мулоқот қилишга тўсқинлик қиладиган иллатлардан бири кибр ва манманлик келтирилган. Кибр, такаббур сўзлари луғатда “катталик” маъносини билдиради ва ўзини бошқалардан катта, устун ва афзал ҳисоблайдиган шахсга нисбатан ишлатилади. Абу Ҳурайра (Аллоҳ ундан рози бўлсин) Расулуллоҳ (с.а.в) дан ривоят қилган ҳадислардан бирида бу сифат ҳақида шундай дейилади: «Уч кимсага қиёмат кунида Аллоҳ таоло гапирмайди ва уларга қарамайди. Уларга қаттиқ, аламли азоб бўлади: улар – зино қилувчи кекса киши, ёлғончи подшоҳ, кибрли фақир кишилардир.[1] Имом Ғаззолий эса: «кибр кўп хатарли ва ҳалокатга олиб борувчи хасталикдир. Бошқа феъл-атворларга ўхшамайди. Улар ибодатнинг баъзи қисмларига, кибр эса ибодатнинг аслига зарар етказади» деб таърифлаган.[2]

Кибр – инсоннинг ўзини асл ҳолидан устун кўришидир ва ҳар тарафдан бошқалардан юксакман, деб ўйлашидир. Бу хусусият эгаси такаббур дейилади. Кибрнинг зидди тавозеъдир. Тавозеъ кишининг ўз нафсини паст тутиши, яъни камтарлик, хокисорлик ҳолидир. Кибр ва тавозеъ икки қисмдир: А) Авомга хос. В) Киборларга хос. Биринчиси – ейишда, ичишда, кийинишда, уйда ва ҳар нарсада оддийликни йўқотишдир. Иккинчиси – юқори табақанинг такаббурлиги, яъни ейишда, ичишда, кийинишда, уйда ва ҳар жойда доимо дабдаба, ҳашаматга, зеб-зийнат ва ўзини кўз-кўз қилишга уринишдир. Юқори табақа шарафли инсонларнинг камтар, ҳокисорлигини ҳам, сафдошларининг камсуқумлигини ҳам, авомнинг ўзини паст тутишини ҳам ўз нафси, ўз шахсининг ҳаққи деб билади. Юқори табақанинг такаббурлиги унга нисбатан бошқалардан келса, бунга уларнинг ҳаққи йўқ, деб ўйлайди, уни қабул қилмайди. Бу турдаги такаббурда мутлақ гуноҳ ва исён борлиги аниқдир.[3]

Уламоларнинг кибр ҳақидаги мулоҳазаларидан маълум бўладики, кибр инсонлар билан мулоқотга таъсир қилади. Шу билан биргаликда, кибрнинг ижтимоий жиҳати ҳам борки, унда кишилар ўз айрим ҳатти-ҳаракатларини тўғри деб қабул қилади. Кибрга берилганлигини ўзлари билишмайди. Буни макон ва замондаги ҳолат билан боғлаб тушунтиришга интилишади. Ва оқибатида жамиятда инсонлар ўртасида турли келишмовчиликлар юзага келишига сабабчи бўлади. Шу боисдан, кибрнинг асл моҳиятини ва унинг сабабларини ўрганиш муҳим аҳамиятга эга. Уламоларимиздан бири Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф ҳазратларининг “Руҳий тарбия” китобида кибрнинг шакллари ва пайдо бўлишининг сабаблари таҳлил қилинган. Бунда муаллиф кибрнинг диний ва дунёвий жиҳатларига эътибор қаратади. Жумладан, “ўзини юқори олган одамгина кибр аҳлидан бўлади. Камолот сифатларининг соҳиби бўлган одам ўзини бошқалардан юқори олмайди. Камолот сифатлари эса диний ва дунёвий бўлади. Динийлари илм ва амал бўлса, дунёвийлари насаб, жамол, қувват, мол ва тарафдорлари кўп бўлишидан иборатдир.

1. Илм. Илм билан шуғулланган баъзи одамларда кибрлилик жуда ҳам тез намоён бўлади. Улар ўзича илмнинг жамолига ва камолига махлиё бўлиб, ўзларини юқори олиб, ўзгаларга паст назар билан қарашни бошлайдилар. Масалан, уларнинг кибри икки сабабга оид бўлади. Биринчи

[1] Ал-Фақиҳ Абу Лайс Ас-Самарқандий. Танбеҳул ғофилин. Таржимон Д.Қўшоқов. Т., Ғ.Ғулом номидаги нашриёт. 2018, 162-бет.

[2] Абу Ҳомид Ғаззолий. Саодатга элтувчи илм. Таржимон М.Аъзам. Т. Ғ.Ғулом номидаги нашриёт. 2018, 123-бет.

[3] Шу манба. 130-бет.

сабаб илм деб аталаётган нарса ҳақиқий илм бўлмайди. Ҳақиқий илм орқали банда Роббисини ва ўзини яхши танийди. Ҳақиқий илм эгаси тавозеъли бўлади ва кибрга яқин ҳам йўламайди. Иккинчи сабаб илм билан шуғулланган бўлса-да, ўзи нафси бузуқ, хулқи ёмон одам бўлишидир, яъни, ўқиган, олган илмига амал қилмаслиги натижасида ҳолати, ахлоқи ўзгармаган. Бу каби инсонлар қанчалик илм олсалар ҳам ўзларини тўғриламаганлиги учун ёмон сифатлар уларни тарк этмайди. Жамиятда аҳлоқ меъёрларига зид равишда яшайдиган шахсда пайдо бўлган илм унинг мутакаббирлигига сабаб бўлиши оддий ҳолатдир. Бугунги кунда, айниқса, ижтимоий тармоқларда диний ва дунёвий мавзуларда тарқалаётган аудио ва ведио материалларнинг муаллифларида ва айрим имом-хатибларнинг халққа кибр билан мулоқотда бўлаётганлигини кузатиш мумкин.

2. Амал. «Руҳий тарбия» китобида келтирилишича, бу турдаги кибр икки қисмдан иборат бўлади. Биринчи қисм дунёвий ишларда бўлади. Унда одамлар фақат уларни зиёрат қилиши кераклигини даъво қилади. Одамлар уларнинг ҳожатларини чиқаришлари, улуғлашлари, жой бўшатишлари, доимо уларнинг тақволари ва ибодатларини мадҳ қилиб туришлари лозимлигини даъво қилишади. Иккинчи қисм диний ишларда бўлиб, унда даъвогар ўзидан бошқа барча нотўғри йўлдан бораётганларини ва ҳалокатга учрашларини даъво қилади. Имом Муслим ривоят қилган ҳадисда Расулуллоҳ (с.а.в.): «Қачон бир одамнинг «одамлар ҳалок бўлди» деганини эшитсангиз, унинг ўзи энг ҳалок бўлганидир», деганлар. Дунёвий ишларда айрим шахсларнинг ўз амали орқали кибрланиши тез-тез учраб туради. Масалан, ўзининг қўл остидагиларга паст назар билан қараш, уларни менсимаслик ёки қўпол муносабатда бўлиш ҳолатлари мавжуд. Бироқ, исломда бу каби ҳолатлар қораланган бўлиб, ҳар бир раҳбар ўз қўл остидагиларга адолатли бўлишлиги таъкидланган. Имом Байҳақий бундай ривоят қилади: “Умар ибн Хаттоб (р.а) бирор юртга ўз вакилларини юборса, уларга шундай шарт қўяр эди: Безатилган, ясатилган от минмайсизлар, яхши буғдой нон емайсизлар. Юпқа, ялтироқ кийим киймайсизлар. Одамлар арз-шикоят билан келишса, эшикларингизни ёпмайсизлар. Агар шуларга амал қимасангиз, сизларни албатта жазолайман”.

3. Ҳасаб ва насаб билан кибрланиш. Насаби шарафли бўлган одам ўзидан илми ва амали устун бўлган одамга такаббурли муомала қилади. Уларнинг баъзилар бошқа одамлар худди уларнинг қули ёки мардикоридек назарда бўлади. Ислом таълимотида эса насаб кишининг амалидан устин қўйилмаган. Абу Ҳурайра розияллоҳу анҳудан ривоят қилинади: «Набий соллаллоҳу алайҳи васаллам: *«Кимнинг амали ортга сурса, уни насаби олдга сура олмайди», дедилар»*. Муслим, Абу Довуд ва Термизий ривоят қилган. Яъни, охиратда ҳамманинг насабига эмас, амалига қараб даража берилади. Кимнинг амали яхши бўлса, насаби қандай бўлишига қарамай, олдинга сурилади, олий мартабаларга эришади. Кимнинг амали ёмон бўлса, у ортга сурилади. Насаби қанчалик олий бўлмасин, иши олдинга сурилмайди. Шунинг учун ҳеч ким насаби билан мағрурланмаслиги керак. Аксинча, кўпроқ яхши амал қилишга уриниш лозим. Пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а.в) ҳам бошқарувда ҳалол бўлишга тарғиб қилганлиги ва насаб билан кибрланиш қораланганлиги қуйидаги ҳадисда келтирилган: Оиша (р.а) ривоят қилинади: “Қурайшни ўғрилик қилган махзумлик аёлнинг иши ташвишга солиб қўйди. (Кимдир) “У ҳақда Расулуллоҳ саллаллоҳу алайҳи васалламга ким гапира олади?” деди. “Бунга Расулуллоҳ саллаллоҳу алайҳи васаллам учун суюкли Усома ибн Зайддан бошқа ким ҳам журъат қила олади?” дейишди. Сўнг Усома у зот билан гаплашди. Шунда Расулуллоҳ саллаллоҳу алайҳи васаллам: “Аллоҳнинг ҳаддларидан бири хусусида шафоатчилик қилаяпсанми?” дедилар. Кейин туриб хутба қилдилар. Сўнгра: “Сизлардан аввалгиларни ҳалок қилган нарса шуки, қачон ичларида обрўли киши ўғрилик қилса, уни тек (жазога тортмаслик) қўйишар, агар заифҳоллари ўғрилик қилса, унга ҳадд (жазо) қўллашар эди. Аллоҳга қасамки, Муҳаммаднинг қизи Фотима ўғрилик қилган бўлганда ҳам, қўлини албатта кесган бўлар эдим”, дедилар.

4. Жамол ила кибрланиш. Бу нарса, одатда, аёллар ўртасида кўпроқ учрайди. Улар бир-бирларидан жамоллари ила фахрланиш, бошқаларининг айбларини зикр қилишга ўч бўладилар. Бу ҳолат ҳам аёллар ўртасида турли низоларнинг келиб чиқишига сабаб бўлади.

5. Мол-дунё билан кибрланиш. Исломда молу дунёга берилиш қораланган бўлиб, молу пули кўп кишилар исломий тарбия олмаган бўлсалар, камбағаллардан кибрланишлари, ўз моллари ила фахрланишлари маълум ва машҳур. Уларнинг кибрлари гап сўзлари, хатти-ҳаракатлари ва имо ишораларидан ҳам билиниб туради.

6. Куч қувват билан кибрланиш. Бунда моддий ва маънавий куч, имконият, чора ва тадбилар барчаси кўзда тутилади. Мутакаббирлар ўзларидан мазкур нарсаларда паст бўлганлар устидан сани у қилиб юбораман, бу қилиб юбраман, дея кибрланадилар.

7. Ўзининг тарафдорлари билан кибрланиш. Бунда киши ўз қарамоғидагилар, шогирдлар, хизматчилар, қариндошлар, уруғ-аймоқлар, ака-ука ва фарзандлар билан кибрланади.

Халқ билан мулоқот қилиш жараёнида тўсиқ бўладиган кибрга қарши тасаввуф шайхларининг тавсиялари бўлиб, бу инсонлардаги кибрни даволашга ҳамда кишининг маънавий фазилатларини ривожлантиришга ёрдам беради.

Кибр ҳалокатга олиб борувчи дардлардан бўлиб, ундан ҳеч ким қутула олмайди. Ислом уламолари кибрни йўқ қилиш фарзи айн эканлигини таъкидлашган. Кибр ўз-ўзидан йўқ бўлмайди. «Руҳий тарбия» китобида келтирилишича, кибрнинг даволаш икки мақомда бўлади. Биринчи мақомда киши ўзидан кибрни бутунлай йўқ қилади. Бу мақомдаги кибрни йўқ қилиш илмий ва амалий бўлади. Бунда кибрга берилган кишига илмий ва амалий жиҳатдан ёндашилмаса, кибрдан халос бўла олмайди, яъни “шифо” мукаммал бўлмайди. Илмий жиҳатдан ёндашиладиган бўлса, “даволаш” қуйидагича бўлади: “аввало, банда ўзини ва Роббини таниши керак. Шунинг ўзи ундаги кибрни йўқотиш учун кифоя қилади”. Агар киши ўзининг кимлигини ҳақиқатда англаб етса, ана шунда унга тавозеъли бўлиш ва ўзини бошқалардан паст тутишдан бошқа нарса тўғри келмаслигини англаб етади. Амалий жиҳатдан киши кибрни қандай ҳолат эканлигини англай бошлагандан Аллоҳ таолога тавозеъ қилади. Одамларга нисбатан доимий равишда Расулуллоҳ (с.а.в.), аҳли солиҳларнинг ва тавозеълиларнинг ахлоқи билан муомалада бўлади.

Иккинчи мақом бу кишини кибрлангандан кейинги вақтинча пайдо бўлган такаббурликни сабаблар билан даволашдир. Бунда агар кибрланиш насаб туфайли бўлса, билсинки, у бошқанинг камолини кўра олмай ўзини юқори тутади. Шунинг учун отаси ва бобосининг аслини ўрганиши лозим. Агар кишининг кибрланиши эгаллаган илми сабабли бўлса, унда Аллоҳ таолонинг ҳужжати жоҳилдан кўра олимга таъкидли эканини билиши лозим. Бу дунёда аҳли илмнинг масъулияти катта эканини эсига олиши керак. Ҳар бир мутакаббир кибрга Аллоҳ таолодан бошқа ҳеч ким лойиқ эмаслигини яхши англаб етиши лозим. Кибр қилган банда Аллоҳ таолонинг наздида ёмон кўринишини унутмаслиги керак. Шу банда ўзидаги кибрни тавозеъ ила даволаш пайидан бўлиши керак Тавозеъ – кишига халқнинг муҳаббатини жалб қилади, одамларни у билан дўстлаштиради. Тавозеъ такаббур мухолифига мулойимлик ва камтарлик йўлини кўрсатади.

Бундан ташқари, кибрга ёнма-ён турадиган ва халқ билан мулоқотга тўсиқ бўладиган иллатлардан яна бири манманликдир. Манманлик сўзи арабчада «ужуб» дейилади. Бунда киши ўзида бор нарсадан ўзи ажабланади ва мақтанади. Манманлик уламолар истилоҳида қуйидагича таърифланади: «Ужуб – манманлик неъматни ўзининг фазлидан эканлигига ишониш ва неъмат берувчи Зотни унитишдир». Муҳаққиқ – чуқур таҳлил қилувчи уламоларимиз манманлик билан кибрнинг орасида нозик фарқ борлигини таъкидлаганлар. Кибр ички хулқ бўлиб ундан амаллар содир бўлади. Мазкур хулқ ўзини устидан кибр қилинаётган шахсдан юқори қўйишдир. Манманлик эса тасаввурдан иборат бўлиб унда манмандан бошқа одам бўлиши шарт эмас.

Ҳазрати Жундуб ибн Абдуллоҳ ибн Суфён розияллоҳу анҳу ривоят қиладиларки, Росулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васаллам: “Кимки бирор амални шуҳрат топишлик учун қилса, унинг охир оқибати шу бўладики, Аллоҳ таъоло уни бадном қилади. Кимки одамларга хўжакўрсинлик учун бирор солиҳ амал қилса, унинг охир-оқибати шу бўладики, Аллоҳ таъоло ҳақиқатни, яъни, у қилаётган барча амалини хўжакўрсинлик учун қилаётганини одамларга кўрсатиб қўяди”, дедилар. (Имом Бухорий ривояти. 2-жилд, 962-бет). Бу ҳадисда Набий соллаллоҳу алайҳи васаллам иккита беморлик тарафига диққатни қаратдилар: 1) риё. (Ҳўжакўрсинлик); 2) сумъа. (Шуҳратпарастлик). “Сумъа”нинг маъноси, диннинг бирор амалини шуҳрат қозонишлик учун қилишга айтилади. Агар бирор амал хўжакўрсинлик учун қилинса, уни “риё” дейдилар.

Халқ билан мулоқот қилишда тўсиқ бўладиган кибр, риё, шуҳратпарастлик каби иллатлар ҳамда кишилардаги бундай салбий сифатлар тўғрисида тариқат пирлари асарларида ўз қарашларини баён этишган. Мутасаввуф Аҳмад ибн Осим Антокийнинг фикрича, амал икки хилдир. Бири, сенинг билан халқ орасида бўлади бу нафс ва риёдир. Иккинчиси сенинг билан Ҳақ орасида бўлади ва бу амали солиҳдир.

Маълумки, Ибн Сино тиббиёт илмида машҳур олимлардан бўлсада, тасаввуфий-фалсафий маънода ёзилган “Ат-танбеҳ вал ишорат” асарида аҳли тасаввуф ҳақида фикр-мулоҳазаларини келтирган. Унинг фикрича, “суфийликдан хабарсиз одамнинг зоҳидлиги риёдир. Бундай одам гўё бу дунё роҳатларини охиратдаги роҳат ва лаззатларга алмаштиришни ўйлаган кимсадир. Чин суфий эса пок ният билан, дини-иймонини, хаёли ва тасаввурларини кучайтириш мақсадида тинимсиз машаққатлар, риёзатлар чекади, ёлғондан, ужуб – манманликдан, кибру ҳаводан қутулишга ҳара-

кат қилади, Ҳаққа, ҳақиқатга (инсоф-адолатга) интилади, шу риёзатлар самараси ўлароқ, унинг пок ниятлари, фикру зикри ҳақиқат нури билан ёришади, аммо бу нур мазҳади унинг кўзини қамаштирмайди. Унинг қалбида ҳақиқат асрори (сирлари) нур ёғдулари билан ёришади ва бу ҳол унга одат, малака бўлиб қолади. Ҳар гал у бирор сирли, маҳжуб муаммони кашф этмоқчи бўлса, ўша муаммога ҳақиқат нурини йўналтиради. Бунда у айтарли куч-қувват сарфламайди, балки нур манбаидан фойдаланади. Шу тариқа, у комилликка, илоҳий валоятга эришади, валийуллоҳларга қаторига киради.

Имом Ғаззолийнинг «Мукошафат ул-қулуб» асари ўзбек тилида «Қалблар кашфиёти» деб таржима қилинган бўлса-да, унинг тўла таржимасини «Қалбларни босиб ётган ғайриинсоний феъл ва туйғуларнинг кашфи» деб белгилаш мумкин. Бу асарда мутасаввиф халқ билан мулоқот қилишда тўсиқ бўладиган ҳамда жамият таназзулига сабаб бўладиган қусурлар – кибру ҳаво, риё, ҳасад, шуҳрат ва зулмларни ҳамда улардан тузалиш йўлларини кўрсатган. Жумладан, “Билки, кибр-ҳаво фазилатларни йўқ қилади, разолатларни етаклаб келади. Кибр-ҳаво кишининг насиҳат тинглашига ва одоб ўрганишига монелик қилади, бу сенинг разиллашишинг учун кифоядир. Шунинг учун дерларки, “Илм ҳаё билан кибр ўртасида йўқ бўлиб кетади”, дейди.

Сир эмас, гап ёки матндаги синтактик структуранинг бир хиллиги, бир қолипдалиги ўқувчини зериктиради, мазмуннинг идрок этилишини сусайтиради, матннинг эстетик таъсир қувватини пасайтиради. Парантезалар табиий равишда гапнинг ёки матннинг синтагматик структурасини “бузиши”, улардаги горизонтал синтактик алоқаларни “йиқитиши” баробарида, матнга, таъбир жоиз бўлса, кутилмаган бир таъкид, экспрессивлик олиб киради.[1] Парантеза воситасида гап ёки матн қисмларга, бўлакларга бўлинади, интонацион ҳар хилликни юзага келтиради. Масалан, *Бир куни дарсдан қайтаётиб “маршрутка” бекатида мендан бир курс қуйи ўқийдиган Матлубани кўриб қолдим* гапига қараганда *Бир куни дарсдан қайтаётиб “маршрутка” бекатида Матлубани кўриб*

[1] Александрова О.В. Проблемы экспрессивного синтаксиса. М., “Высшая школа”, 1984, с. 30.

қолдим (У мендан бир курс қуйи ўқирди) (Эркин Аъзам. “Отойининг туғилган йили” қиссаси) тарзидаги киритмали гап экспрессивроқ ва бу гапда тегишли мазмуний қисмлар алоҳида таъкид олган, бадиий-поэтик таъкид миқдори ортган.

Йўл-йўлакай айтиш жоизки, айрим тадқиқотчилар “киритмалар грамматик жиҳатдан шаклланган тайёр гап структурасига киритилиб, гапдаги грамматик алоқани ҳам, тугал интонацияни ҳам узиб қўйишини” таъкидлайдилар. Аслида киритмалар ҳам тайёр гапга олдиндан режалаштирилмаган ҳолда киритилмайди, балки ўқувчида ана шундай “режалаштирилмаган” га ўхшаш тасаввур туғдиради, “айни шу ҳолат нутқда киритмалар семантик қимматининг актуаллашиши учун шароит яратади”.[1] Бу фикр, яъни киритмаларнинг фақат тасаввурдагина тайёр гапга киритилаётгандек бўлиши А.Ғуломов томонидан ҳам “киритма гапларнинг асосий хусусиятларидан яна бири уларнинг маълум гапга нутқ моментида туғилиб қолган эҳтиёжга кўра худди кутилмагандек (таъкид бизники.–Д.Ж.), бирдан киритилишидир” тарзида алоҳида таъкидланган.[2] Аслида эса ёзувчи ўз фикрининг ифодаси учун асосий гап қолипини танлар экан, бадиий ниятига мувофиқ агар парантезага эҳтиёж мавжуд бўлса, мазкур қолипни танлаш баробарида, парантеза шаклини ва ўрнини ҳам бирданига танлайди. Табиийки, бундай ҳолатларда асосий гапдаги грамматик алоқа ҳам, тугал интонация ҳам узилиб қолмайди. Юқорида келтирилган *Бир куни дарсдан қайтаётиб “маршрутка” бекатида Матлубани кўриб қолдим (У мендан бир курс қуйи ўқирди)* ёки *Бир куни дарсдан қайтаётиб “маршрутка” бекатида Матлубани (У мендан бир курс қуйи ўқирди) кўриб қолдим* киритмали қўшма гапга қайтадиган бўлсак, асосий гап – *Бир куни дарсдан қайтаётиб “маршрутка” бекатида Матлубани кўриб қолдим* гапидаги грамматик алоқада ҳеч бир узилиш йўқ, бу гапнинг интонацияси ҳам тугал, акс ҳолда, мазкур синтактик конструкцияни алоҳида мустақил гап сифатида баҳолаб бўлмас эди. Шунинг учун ҳам юқоридаги каби талқинларга қўшилиш қийин. Парантезали гап ёки парантезали матн ёзувчининг муайян бадиий мақсади (бошқа услубда бўлса, бошқа бирор мақсад) билан боғлиқ бўлган нутқ тузиш усули, холос.

Бадиий матндан олинган мана бу мисолни кўрайлик: *Бундан кўп йиллар бурун, Оташқалб эндигина оқланган кезлар Мовийкўз (аллақачон Алвастихонимга айланиб улгурган эди) маккораларга хос бир шафқатсизлик билан ўсмоқчилаб сўраган* (Эркин Аъзам. “Шоирнинг тўйи” қиссаси). Шубҳасизки, бу гап *Бундан кўп йиллар бурун, Оташқалб эндигина оқланган кезлар аллақачон Алвастихонимга айланиб улгурган Мовийкўз маккораларга хос бир шафқатсизлик билан ўсмоқчилаб сўраган* тарзида тузилиши, яъни киритма гап шаклидаги парантеза кенгайтирилган сўз бирикмаси қолипида тузилиб, мазкур парантеза бевосита алоқаланадиган бўлак (*Мовийкўз* сўзи билан ифодаланган эга) билан грамматик алоқага киритилиши мумкин эди. Аммо у ҳолда гапнинг синтактик структурасида сифатдош бошқарувидаги 2 та мураккаб сўз бирикмаси юзага келар, умуман, гап структурасидаги мазмуннинг идрок этилиши қулай бўлмас эди. Гапнинг алоҳида таъкидланмоқчи бўлинган қисми (асар қаҳрамони Мовийкўзнинг икки ҳолати) очиқ ифодаланмаган бўларди. Шунинг учун ҳам маҳоратли ёзувчи Эркин Аъзам бениҳоя кучли киноявий руҳда ёзилган мазкур қиссасида айни фикр ифодаси учун айнан юқоридаги каби парантезали гапни танлаган. Бунинг натижасида гап структураси идрок этиш учун қулайлашган, сифатдош бошқарувидаги мураккаб сўз бирикмасининг бири гап шаклига киритилиб, парантеза позициясига ўтказилган. Маълумки, парантеза, айниқса, унинг киритма тури асосий гапдан тамоман фарқли интонация билан айтилади (ёки ўқилади), ана шунга кўра гапнинг интонацион оқимидаги монотонликка барҳам берилган. Айни пайтда, парантезанинг айрича интонацияси унинг ажратиб алоҳида таъкидланишини таъминлаган. Зотан, тадқиқотчилар таъкидлаганларидек, “киритма ва асосий гап ўз мустақил модаллигига ва алоҳида, бир-бирига тобе бўлмаган ўз актуал бўлакланишига эга: киритма – ҳамиша алоҳида ремадир. Киритма гап шаклида бўлганида бу жуда аниқ кўринади, лекин нопредикатив киритмалар ҳам айни хусусиятга соҳибдир”.[3]Ана шу шароитлар асосий гапдаги эга билан алоқаланган мазкур гап шаклидаги *аллақачон Алвастихонимга айланиб улгурган эди* парантезасининг поэтик қиммат касб этишига, бадиий актуаллашувига имкон берган.

Маҳоратли ёзувчилар гапдаги муайян бўлакни бадиий ниятига мувофиқ алоҳида таъкидлаш учун мазкур бўлакни парантеза, хусусан, киритма позициясига ўтказиши мумкинки, бунда ҳам киритма поэтик жиҳатдан кучли даражада актуаллашади. Масалан: *Унинг гапирадиган гаплари улар-*

---

[1]Бабайцева В.В. Русский язык. Синтаксис и пунктуация. М., “Просвещение”, 1979, с. 186.

[2] Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. 3-нашри. Т., “Ўқитувчи”, 1987, 157-бет.

[3] Прияткина А.Ф. Русский язык. Синтаксис осложненного предложения. М., “Высшая школа”, 1990, с. 161.

нинг кўнгилларида тугилган оғир ва чигал тугунчакни ечиб юборажак, ёки яна баттарроқ чигаллаштириб, икки ёш нарсани – яна неча ой! – бир-биридан ажратиб ташлаяжакди (Чўлпон. “Кеча ва кундуз” романи). Кўриниб турганидай, *яна неча ой* бирикмаси айни парантеза позициясига кўра кучли поэтик таъкид олган. Агар бу бирикма киритма эмас, балки одатдаги гап бўлаги, яъни ҳол позициясига қўйилганда эди, у ўзининг лингвопоэтик қимматини йўқотган бўларди, мазкур синтактик бирлик поэтик таъкидли тасвир учун эмас, нейтрал тасвир учун хизмат қилган бўларди. Қиёсланг: *Унинг гапирадиган гаплари... икки ёш нарсани яна неча ой бир-биридан ажратиб ташлаяжакди // Унинг гапирадиган гаплари... икки ёш нарсани – яна неча ой! – бир-биридан ажратиб ташлаяжакди.* Мазкур икки гап ўртасидаги лингвопоэтик фарқнинг нечоғлик катта эканлигини батафсил исботлаб ўтиришнинг ҳеч бир зарурияти йўқ.

Парантезаларнинг бадиий матндаги лингвопоэтик имкониятлари ҳақида фикр юритганда, уларнинг кириш ва киритма турларидаги бу имкониятларнинг бир-биридан жуда анча фарқли эканлигига ҳам эътибор беришга тўғри келади.

Бундай фарқнинг мавжудлиги кириш ва киритмаларнинг семантик-функционал моҳияти билан боғлиқ, яъни барча тилшуносликларда деярли бир хил эътироф этилганидай, киришлар сўзловчининг ўз фикрига муносабатини билдиради, киритмалар эса турли қўшимча маълумот ифодалайди. Киришлар ва улар ифодалайдиган маъно-мазмун деярли трафарет ҳолатга келиб бўлган, *эҳтимол, чамаси, шекилли, дарҳақиқат, албатта, демак, хуллас, қисқаси, менимча, эсиз, бахтимизга, айтгандай, ўйлайманки, аниқки, биринчидан, қолаверса, шундай қилиб, бунинг устига, менинг назаримда, унинг айтишича, ростини айтсам, менга қолса, гап шундаки, мен сизга айтсам* каби деярли барча киришлар ва уларнинг маънолари қолиплашиб бўлган, шунинг учун уларни конкрет семантик гуруҳларга ажратиш мумкин). Нутқ тузувчи деярли ана шу қолиплашган кириш ифодалар доирасида иш кўради, айтиш мумкинки, нутқ тузувчи ўзи янги киришлар ясамайди ёки тузмайди. Киритмалар эса бундай хусусиятга эга эмас. Камида, нутқ тузувчи аввалдан тайёр киритма ифодалар доирасида иш кўрмайди, зотан, тайёр киритма ифодаларнинг ўзи йўқ, шунинг учун уларни конкрет семантик гуруҳларга ажратиб бўлмайди, фақат функционал-семантик жиҳатдан қўшимча маълумот, изоҳ-тушунтириш, экспрессив-баҳо ифодаловчи киритмалар тарзида уч асосий типини фарқлаш мумкин, холос). Киритмалар ҳар нутқ вазияти эҳтиёжи, нутқ тузувчининг муайян мақсади билан боғлиқ ҳолда янгидан тузилади. Рус бадиий адабиётидаги тил жараёнларини ўрганган тадқиқотчилар ишонч, тахмин, чама, номаълумлик каби бир қанча маъноларни ифодаловчи киришлар, модал сўзлар ёки юкламалар воситасида персонаж нутқини белгилаш энг оддий ва “эски” лексик-синтактик усул эканлигини айтадилар.[1]

Ёзувчининг бадиий тил маҳоратига баҳо беришда, унинг лингвопоэтик маҳоратини ўрганишда парантезаларнинг кириш туридан кўра киритма тури кўпроқ диққатга молик деб қаралмоғи мақсадга мувофиқ эканлигини таъкидлаш ўринлидир.

Аммо айрим тадқиқотчилар, масалан, Ҳ.Холиқов атоқли адиб А.Қаҳҳорнинг бадиий тил маҳоратини унинг асарларида парантезалар, хусусан, киришларнинг қўлланиши мисолида кўрсатмоқчи бўлади. У шундай ёзади: “Ёзувчининг тил маҳорати ҳақида гапирганда, унинг маълум мақсадлар ифодаси учун киришларга ҳам мурожаат қилганини таъкидлаш зарур. Адиб қўллаган киришлар, юқорида қайд этилганидек, турли маъноларни ифодалашга хизмат қилган.” Тадқиқотчи ишининг давомида, *албатта, дарҳақиқат, шубҳасиз, тўғри, афтидан, хайрият, ростини айтсам* каби бир қанча киришларни таҳлил этади. Масалан, *албатта* ҳақида шуларни ёзади: “Бу сўз модал сўз сифатида англашилаётган предмет, воқеликнинг юзага чиқишига ишонч маъносини англатади ва кириш вазифасини бажариб, бадиий асарларда шу маъно ифодаси учун қўлланади.

“Синчалак” қиссасида Саида Қаландаровнинг Зулфиқоров масаласидаги суҳбати давомидаги Зулфиқоровнинг қўшхотинлилиги ҳақида Саида тилидан айтилган гапни олайлик: *...Зулфиқоровнинг хотин устига хотин олиши, албатта, аёлларга бой-феодалларча муносабат, жиноятдан бошқа нарса эмас.* Зулфиқоровнинг туриш-турмуши, ахлоқи, бригадирлик фаолиятини ипидан игнасигача текшириб чиққан Саида шундай хулосага келади. Зулфиқоровнинг қўшхотинлилиги аёлларга бўлган феодалларча муносабатини кўрсатувчи далил эканлигига ишонч маъноси гап таркибидаги *албатта* кириш қисми ёрдамида ифодаланган. Ёки яна ўша жойда: *Зулфиқоров бировдан пахта олиб план тўлдирганлиги, албатта, кўзбўямачилик* гапида ҳам воқеликнинг юзага чиқишига

[1] Языковые процессы современной русской художественной литературы. Проза. М., “Наука”, 1977, с. 229.

ишонч *албатта* кириш сўзи орқали ўз ифодасини топган”.[1] Мазкур мисолларда *албатта* кириши ишонч маъносини ифодалагани, шубҳасиз, аммо бу кириш А.Қаҳҳорнинг мазкур асаридагина эмас, умуман, ҳар кимнинг ҳар қандай жумласида, ҳар қандай нутқ вазиятида ҳам мазкур маънони ифодалайверади. А.Қаҳҳор тузган мазкур жумлада айни маънонинг ифодаланиши ёзувчининг хизмати ёки маҳорати эмас, балки одатдаги қўлланишдир. Бу сўз, умуман, киришлар у ёки бу даражада экспрессивликни ифодалайди, нутқнинг таъсирчанлиги учун хизмат қилади, лекин буни ёзувчининг бадиий маҳорати сифатида баҳолаб бўлмайди. Қисқаси, мазкур *албатта* кириши поэтик актуаллашмаган.

Бадиий матнда киришлар ҳам баъзи ҳолатларда ёзувчининг бадиий мақсадига уйғун равишда бадиий-эстетик қиммат касб этиши мумкин. Айтайлик, муайян бир кириш муайян бир қаҳрамон нутқида такрор ва такрор қўлланса, ўзига хос поэтик таъкид олади, қаҳрамонни ёки унинг бирор ҳиссий ҳолатни таъкидлашга хизмат қилади ва буни ёзувчининг лингвопоэтик маҳорати сифатида баҳолаш мумкин бўлади. Масалан, ҳажвчи ёзувчи Н.Аминовнинг “Елвизак” қиссасидан олинган қуйидаги парчада буни кўриш мумкин: *– <u>Вой</u>, намунча бедаво экан бу, –деди Зевархон нозланиб. – Қуриб кетган экан-да бошқаси!..*

– Қани, қўлингни чўз! – деди Баширжон дадил.

– Ҳозир... <u>вой</u>, – деди Зевархон белини тутиб, оёғини букаркан. – Оёғим увушиб қолди!..

Зевархон мажбурий бир қиёфада қўлини узатаркан:

– Вой, кўпам шошилманг! – деди нозми, қўрқувми ёки ҳадикками ўхшаш овоз билан... Бечора Зевархон: “Вой!” – деганча ўрнидан туриб кетди.

Кўриниб турганидай, *вой* кириш бўлаги тўрт марта такрорланган, Зевархоннинг ҳиссий ҳолатига урғу беришга хизмат қилган, поэтик жиҳатдан актуаллашган.

Айрим ҳолларда ёзувчи поэтик актуаллаштириш мақсади билан киришларни бадиий матнда киритма позициясида қўллаш орқали ҳам матн таъсирчанлигини оширади. Масалан, *ажабо* сўзи таажжуб маъносини ифодалайдиган кириш сўз ҳисобланади. Ушбу матнда бу сўз кириш позициясида қўлланган: *Ажабо, чиройли қиз-жувонлар ҳамиша танишдек туюлади, қаердадир кўрганга ўхшайверамиз уларни* (Эркин Аъзам. “Байрамдан бошқа кунлар” қиссаси). Бу сўз киритма позициясида қўлланса, кучли поэтик таъкид олади: *Шу рашкданми, ё Муқаддаснинг яқинлигиданми, билмадим, ўзимни худди ловуллаб ёнаётган гулханнинг тепасида тобланаётгандек ҳис қилардим, аъзойи баданимдан ловуллаб ўт чиқиб борарди. Муқаддас эса (ажабо!) гўё ҳеч нарсани сезмас, у нимагадир севиниб, ҳадеб кулар, юзлари гул-гул яшнаб, ўткинчиларнинг диққат-эътиборини яна ҳам ўзига тортар эди* (О.Ёқубов. “Муқаддас” қиссаси). Кўриниб турганидай, *ажабо* сўзи кириш позициясига қараганда, киритма позициясида кучлироқ поэтик таъкидга эга.

Қуйидаги мисолда *иншоолло(ҳ)* кириш гапи киритма позициясида келиб, кучли таъкид олган, поэтик актуаллашган: *Фақат сўфи кўнгилдан ва унинг нозик шишасидан бир нарса англайдиган одам бўлмаганлигидан бу каттакон ишининг оқибатини хаёл қилган вақтларида “келаси йилга (иншоолло!) Ҳажга кетиш насиб бўлади” деган умидлар билан хурсанд бўларди* (Чўлпон. “Кеча ва кундуз” романи). Қуйидаги гапларда эса *вой тавба, астаъфуруллоҳ* киришлари киритма позициясида қўлланган ва поэтик таъкид олган: *Олтиной бу калта, ҳаворанг кўйлакда худди етти-нчи-саккизинчи синфда ўқийдиган қизчаларга ўхшар, қадди нозик, бели тегса чарс синиб кетадиган хипчиндай ингичка, оёқлари (вой тавба!) кинодаги раққосаларнинг оёқларидай узун...* (О. Ёқубов. “Адолат манзили” романи). *Биров ўқ бориб унинг қўлига теккан деса, бошқа биров (астаъфуруллоҳ!) нақд оғзига теккан дейди* (Эркин Аъзам. “Аралашқўрғон” ҳикояси).

Илгарироқ кўриб ўтганимиздек, тилшуносликда киришларни субъектив муносабат ифодалай олиши, киритмаларда эса бу хусусиятнинг йўқлиги, уларнинг фақатгина объектив–изоҳловчи тарзида гапга киритилиши кенг эътироф этилади. Аммо юқоридаги мисоллардан ҳам англашилиб турганидек, бизнингча, киритмаларда ҳам субъектив муносабат ўзига хос бир тарзда, яъни экспрессив баҳолаш тарзида ҳатто одатдагидан кучлироқ ҳам ифодаланиши мумкин.

[1] Холиқов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тилида мураккаблашган содда гаплар услубияти (А.Қаҳҳор асарлари материаллари мисолида). Филол. фан. ном. ...дисс., Тошкент, 1993, 78, 80-бетлар.

Musayev Abduvali (JPDI O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsenti)

ADABIY TIL VA NUTQDA “SLENG”NING QO‘LLANISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “sleng” atamasi haqida fikr yuritilgan. Dunyo olimlarining “sleng atamasi haqidagi ilmiy fikrlari asosli ravishda berilgan. Undan tashqari, “sleng” atamasi hozirgi o‘zbek adabiy tilida va so‘zlashuv nutqida “sleng” so‘zlarning qo‘llanishi asosli misollar bilan berilgan.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается термин «сленг». Научные взгляды ученых мира на термин «сленг» вполне обоснованы. Кроме того, дан термин «сленг» в современном узбекском литературном языке и в разговорной речи с примерами употребления сленговых слов.*

Annotation. *This article discusses the term “slang”. The scientific views of the world’s scholars on the term “slang” are well-founded. In addition, the term “slang” is given in the modern Uzbek literary language and in colloquial speech with examples of the use of slang words.*

Kalit so‘zlar: *sleng, milliy til, jargon, argo, dialektizm, vulgarizm, so‘zlashuv nutqi, adabiy me’yor, umumiy sleng, maxsus sleng.*

Ключевые слова: *сленг, национальный язык, жаргон, арго, диалектизм, вульгаризм, разговорная речь, литературная норма, общий сленг, специальный сленг.*

Key words: *slang, national language, dialectic, vulgarism, colloquial speech, literary norm, general slang, special slang.*

Tarixdan hozirgacha ona tiliga munosabat turlicha bo‘lib kelgan. Lekin eng muhim yutuq shundaki, o‘zbek tili ildizi chuqur eng go‘zal til sifatida boy leksikasi, ifoda-tasvir vositalari rang-barang grammatik qurilishi bilan milliy adabiy meros sifatida keng imkoniyatlarni hamon saqlab kelmoqda. Tilimizning betakror imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, rivojlantirish, boyitib borish uchun millatning har bir farzandi ma’sul va tilimizning taraqqiyoti uchun hech kim befarq bo‘lmasligi lozim.

O‘zbek adabiy tiliga e’tibor uning davlat tili sifatidagi mavqeyini ta’minlash ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy, iqtisodiy turmushdagi rolini oshirish, ta’lim-tarbiya, ish yuritish, nashr ishlari OAVda yuqori madaniyat bilan foydalanib, so‘z boyligi va grammatik qo‘shimchadagi o‘zgarishlarni xolisona baholab borish zarur bo‘lganda, ma’lum choralar ko‘rish o‘zbek tili rivoji uchun ongli aralashishni amalga oshirish kabilar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Jamiyatning tez rivojlanishi va doimiy o‘zgarishi tilimizga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Keyingi 30 yil ichida o‘zbek tiliga tarjimasiz juda ko‘p so‘zlar kirib kelmoqda. Kompyuterchilar, ekstramallar, narkologlar, grafikchilar, rennerlar, telegramlar, OAV orqali milliy adabiy til qatlamiga o‘z nostandart til shakllarini kiritishdi.

XXI asr tilshunosligi sezilarli darajada o‘zgarishi va yangi yo‘nalishlarning kirib kelishi bilan xarakterlanadi. Jamiyatning tezkorlik bilan va doimiy o‘zgarishi til tizimiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Oxirgi 20–30-yil ichida kompyuterchilar, ekstremallar, narkomanlar, graffitchilar, repperlar kabi turli submadaniyat vakillari yuzaga keldiki, ular milliy adabiy til qatlamiga o‘z nostandart til shakllarini kiritishdi. Nonstandart til birliklarining ta’siri natijasida adabiy til sathlarida ham ayrim o‘zgarishlar yuz bermoqda. Madaniyatlarning va bu orqali tillarning o‘zaro ta’siri masalasi lingvistlarni ko‘pdan buyon qiziqtirib kelayotgan muammolardan hisoblanadi. Keyingi yillarda bu sohadagi izlanishlar, asosan, turli sistemadagi tillarning o‘zaro ta’siri masalasiga qaratildi. Tillarning o‘zaro ta’siri va so‘z o‘zlashtirish nazariyasidagi muhim o‘rinlardan biri shuki, ularda «adaptasiya» va «assimilyatsiya» tushunchalarining chegarasi aniq ko‘rsatib beriladi. Bu tushunchalar o‘z o‘rnida so‘z o‘zlashtirilishi diaxronik jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Bir tildan boshqa tilga so‘zlarning kirishi va singishi shunchaki oddiy, mexanik jarayon emas, balki murakkab lingvistik va sotsial-tarixiy shart-sharoitlar bilan bog‘liq qonuniyatdir. So‘z o‘zlashishi uchun avvalo real sharoit lozim bo‘ladi. Bunday sharoit tillar hamkorligi, ya’ni tillar kontaktidir.[1] Bundan tashqari, «so‘z o‘zlashtirish bir xalq ikkinchi xalqdan nima o‘rganganini ko‘rsatib beradi».[2] Demak, tillar kontakti xalqlarning madaniy munosabatlarida muhim rol o‘ynaydi: aloqa jarayonidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga intilish sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek tili lug‘at tarkibi shakllanishida turli etnik, madaniy, siyosiy, diniy va savdo aloqalarining o‘rni muhimdir.

[1] Ўзбек тили лексикологияси. Тошкент, “Ўзбекистон”, 1981, 78-бет.
[2] Блумфильд Л. Язык. Москва, “Высшая школа”, 1968, с. 503.

Akademik D.S.Lixachev «Черты первобытного примитивизма воровской речи»maqolasida zamonaviy sotsial dialektlar tomonidan taqdim etilgan ibtidoiy magik tafakkur argo (sleng) qatlamini yuzaga kelish jarayonini fikrlash kategoriyalariga bog‘liqligini aytib o‘tadi. Olimning konsepsiyasiga ko‘ra, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya va etimologiyaga tayangan holda til rivojida afsonaviy-poetik dunyoqarash muammolarining yechimi zamonaviy ingliz sleng qatlamining ontogenezini kuzatish va o‘rganish mumkinligini ta’kidlaydi.[1] Bu esa dialektal, adabiy va sleng so‘zlarning yuzaga kelish tarixi til va tafakkurning umumiy muammosi, sotsial-tarixiy voqelikning kompleks muammosi ekanligiga urg‘u beradi.

Rus sotsiolektlarini tadqiq qilgan olim V.M.Bikov rus tilidagi sleng qatlami ofen tilidan (XIX asrda mashhur bo‘lgan lug‘at) kelib chiqqan, ya’ni «fenya» so‘zidan olingan deb ta’kidlaydi. Ammo ofen leksikasida semantik tarkibida ham, shaklida ham o‘zgarish yuz bermoqda. 1920-yillarda axborot texnologiyalarining rivoji turli xil ijtimoiy dialektlarni yuzaga kelishi va so‘zlashuv nutqidan joy olishiga sababchi bo‘ldi.[2]

Ingliz tili leksikografiyasida «sleng» termini XIX asr boshlarida keng tarqaldi. Mazkur so‘zning etimologiyasi hozirgacha bahsli bo‘lib qolmoqda. M.Adams ta’kidlaydiki, “sleng – oddiy lingvistik hodisa emas, balki so‘zning turi bo‘lib, u ijtimoiy ehtiyoj va xulqning qadimiy tomirlariga yo‘nalgan lingvistik amaliyotdir. Bundan tashqari, sleng estetik halovat, nutqni jonli va boshqalardan ayirib ko‘rsatadi. U til eposida kichik rol o‘ynasa-da, sleng “til kompetensiyamizda” qatnashadi, ya’ni insonning tabiiy qobiliyati uni orttiradi va foydalanadi. Biz tilning har bir tavsifi, ulardan biri slengni o‘rganmas ekanmiz, tilning tarixini yarata olmaymiz”.[3]

«Sleng» terminini «dialektizm», «jargonizm», «vulgarizm», «so‘zlashuv nutqi», «jonli so‘zlashuv nutqi» terminlari bilan sinonim sifatida qo‘llaniladi.[4] Olimlar tomonidan sleng terminiga beriladigan ta’riflar turlicha. Ayrimlar mazkur terminning mavjudligi haqidagi fikrni inkor qiladi (I.R.Galperin). Boshqalar sleng va jargon bitta, sinonim tushunchadir, deb ta’kidlaydilar (Y.G.Borisova-Lunashanets, A.I.Mazurova, T.G.Nikitina, V.M.Monenko va boshqalar). Sleng mustaqil termin bo‘lib, argo va jargon tushunchalaridan farq qiladi (V.M.Shaposhnikov, M.M.Makovskiy) deb e’tirof etuvchilar ham bor. Sleng, argo va jargonб argo guruhiga birlashadi (V.S.Yelistratov) kabi qarashlar tadqiqotlarda keltirilgan. Ba’zilar esa sleng umumiy tushuncha bo‘lib, ilk bor sotsial va professional guruh – muayyan jargonda yuzaga keladi (shu sababli jargon guruhlari bilan almashtiradilar) va asta-sekinlik bilan qo‘llanish doirasini kengaytiradi (Y.K.Voloshin, V.A.Xomyaov, A.D.Shveytser), degan fikrni olg‘a surishadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, sleng (ingl. slang) – mavjud so‘zlarning yangi ma’no hosil qilgan, turli guruhlarda qo‘llaniladigan so‘zlar majmuyi, degan ta’rif to‘xtaladigan bo‘lsak, uning barcha vazifalarini to‘liq ochib bermaydi. Bundan tashqari, sleng tizimi xususida olimlarning ham salbiy, ham ijobiy fikrlari mavjud.

Dj.B.Grinou va Dj.L.Kittridj slengga quyidagicha ta’rif beradi: «sleng – daydilar tili, adabiy nutq chegaralarida aylanib yurib, doimo nazokatli jamiyatga yo‘l topish uchun harakat qiladi».[5]

Sleng adabiy tilga qarama-qarshi qo‘yiladigan alohida sotsial yoki professional guruhning nutqi; adabiy me’yorlarga mos kelmaydigan so‘zlashuv nutqining varianti (nutqning ekspressiv bo‘yoqqa ega elementlari);[6] ko‘proq kinoya bilan qorishgan ekspressiv so‘zlar bo‘lib, qo‘pol va vulgar namoyon bo‘ladi;[7] “tilning zerikish va ta’sirsizligiga chaqiriq”.[8]

---

[1] Лихачев Д.С. Черты первобытного примитивизма воровской речи. Язык и мышление-Le langage et la mentalité, № III – IV. Москва – Ленинград, издательство Академии наук СССР, 1935, с. 47 – 100.

[2] Казачкова Е.М. Формирование и функционирование молодежного сленга в лингвокультурой среде (на примере Астраханской области). Автореф. дисс. уч. ст.канд.фил. наук, Москва, 2006, с. 7.

[3] Adams M. Slang people’s poetry. Oxford University Press. N.Y., 2009, 257 p.

[4] Калита И.В. Стилистические трансформации русских субстандартов, или книга о сленге. М., “Дикси Пресс”, 2013, 240 с.

[5] URL: http://ru.wikipedia.org/wiki/sleng.

[6] Казачкова Е.М. Тот же.

[7] Антрушина Г.Б. Афанасьева О.В. Морозова Н.Н. English Lexicology. Лексикология английского языка: учебное пособие для студентов (на англ.яз.). М., “Дрофа”, 2001, 288 с.

[8] Липатова А.Т. Сленг как проблема социолектики. М., “Элипс”, 2009, с. 318.

Sleng – leksikaning qadimdan shakllangan nostandart, so‘zlashuv, harakatchan va eskpressiv bo‘-yoqqa ega, ko‘pincha masxaraomuz va qo‘polroq buyoq tashuvchi qatlami.[1]

Sleng “shunchaki ermak uchun, o‘zining boshqalarga o‘xshamasligi, original, qo‘rs va dadil ekanligi; “urf bo‘lganligi”; do‘stona, dilkash muhit yaratish uchun; nutqini yorqin va jozibali qilish; lug‘at boyligini oshirish; mavhum tushunchalarga aniq izoh berish; rasmiylik, qayg‘u, fojeani kamaytirish; hazil-mutoyiba hissini namoyon qilish, klishe va ko‘pso‘zlikdan qochish” maqsadida qo‘llaniladi.[2]

Qisqartma so‘zlar, yoshlar slengi, amerikacha so‘zlar, tinish belgilarining yo‘qligi, bularning barchasi til me’yorlarini buzadi. Masalan, «лукать», «komment», «frend» kabi so‘zlar aynan ijtimoiy tarmoqlar orqali ingliz tilidan o‘zbek tiliga ham kirib keldi.[3]

Ko‘rinib turibdiki, olimlarimiz mazkur hodisaning salbiy holatlari haqida fikr yuritib, uning ijobiy tomonlari ham mavjudligini ta’kidlab o‘tmoqda. Sleng – bu umumqo‘llaniladigan va keng tarqalgan ekspressiv baholash leksikasi kamaygan, doimiy ravishda o‘zgarib turadigan, emotsional buyoqqa, belgilanadigan va doimiy harakatdagi semantik chegara ega o‘ziga xos maxsus qatlam.[4]

T.Y.Zaxarchenko, slengni umumiy nutqqa o‘tishining 3 asosiy sababini ko‘rsatadi: foydalilik, moda va ekspressivlikka bo‘lgan ehtiyoj.[5] Demak, sleng bir tomondan, nutqni emotsional, jonli va yorqinroq namoyon qilsa, ikkinchi tomondan, norasmiy, do‘stona, dilkash muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Sleng – bu ochiq tizim, u tashqi va atrof muhit bilan doimiy ravishda aloqada bo‘ladi. Ushbu o‘zaro aloqa ta’siri natijasida yangi leksik birlik yuzaga keladi. Bu yangi leksik birliklarning barchasi sleng yasalishining biror usulida yuzaga kelishi va til jamoasining a’zolari tomonidan qo‘llanishi hamda tan olinishi sleng leksikasi maqomini olishiga imkon beradi. Matnlarda, nutqda slengning qo‘llanishi o‘quvchiga ta’sir etuvchi, uning dunyoqarashi, xulq-atvorini shakllantiruvchi, atrof-muhitni qabul qilishi va baholashiga ta’sir etuvchi leksik vositadir (leksik va morfologik-sintaktik til sathda). Shu nuqtayi nazardan, sleng tizimida o‘zining tabiatga ko‘ra ikki qarama-qarshi jarayon ro‘y beradi: yo to‘liq yo‘qolib borayotgan leksik birlikka yoki tilning yuqoriroq darajasiga, ya’ni adabiy me’yorga o‘tishi mumkin.

Sleng leksikasining vazifasi ikki ekstralingvistik faktor orqali aniqlanadi: ijtimoiy-rolli munosabat va iqtisodiy munosabat.

Sleng sifatida qo‘llanilib kelingan ko‘pgina oborotlar bugungi kunda adabiy til me’yoriga o‘tganlar.[6] Masalan, rus tilidagi «shpargalka», «shumixa», «provalitsya» («poterpet neudachu» ma’nosida) kabi so‘zlar. Keyingi yillarda sleng nafaqat, qiziqishi va ijtimoiy kelib chiqishi jihatdan maxsus guruhlarning so‘zlari sifatida balki yoshi, kasb-kori, oliy ma’lumotli kishilarning ham leksikasini qamrab olmoqda. Masalan, menejerlar, kompyuter dasturchilar, matbuot xodimlarining slengi. Slenglarga funksional qo‘llanishi nuqtayi nazaridan tutash tillarni, jumladan, soddalashtirilgan texnik tillarni, to‘liq aks ettirmaydi, balki ulardan farqli o‘laroq slenglar, odatda, qat’iy rasmiy tartibga solinmagan va og‘zaki jonli so‘zlashuv nutqi me’yorlariga mos keladi. Tilshunoslarning ta’kidlashicha, nostandart leksik-frazeologik birliklardan tashkil topgan, o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan guruh – «yangi xalq tili»(«umumiy sleng”) turli sotsiolektlar hisobiga doimiy ravishda to‘ldirilib boriladi. Mazkur birliklar professional va korporativ (jamoaviy) slenglar chegarasidan chiqib, ma’lum ijtimoiy guruhlar (yoshi, ma’lumoti, kasbi, umumiy qiziqishi va boshqalar) bilan chegaralanmay, adabiy til doirasida keng qo‘llanila boshlaydi. Masalan, rus tilida babki, baldet, dostat (kogo-libo), zadolbat (kogo-libo), krutoy, lapshu na ushi veshat, ment, dat na lapu, nasharu, oblom, primochka, pobarabanu, prikol, prikolniy, prikolno, razborki, tashchitsya, tusovka, tusovatsya, tusovochniy, fignya va boshqalar. Rus tilida bunday so‘zlar, asosan, yoshlar va o‘g‘rilar slengi sanaladi.[7]

---

[1] Мозжухин К.Е. Сленг в речи студентов американских университетов. На примере анализа газеты «The Koala», Калифорнийский университет в Сан-Диего. Дисс… канд. филол. наук. 10.05.04. Москва, 2005, с. 23.

[2] URL: http://ora.ox.ac.uk/objects/uuid:fd2d4042-0f65-4037-bfd3-230c6193bc1d (интернет: 06.08.2020).

[3] Исакова Н.А. Мустақиллик йилларида ўзбек тилига кириб келган хорижий сўзларнинг таркибий-мазмуний таҳлили (“Халқ сўзи” газетаси материаллари асосида). Филол. фан. бўйича фалс.докт. (PhD) диссер., Самарқанд, 2021, 28-бет.

[4] Гуслякова А.В. Особенности современного американского сленга. Автореф. дисс..канд.фил.наук, Москва, 2008, с. 7.

[5] Захарченко Т.Е. Английский и американский сленг. М., АСТ, 2009, с. 133.

[6] Орлова Н.О. Сленг и жаргон: проблема дефиниции. Ярославский педагогический вестник. Ярославль, Ярославский государственный педагогический университет имени К.Д.Ушинского, 2004, №3 (40).

[7] https://ru.wikipedia.org/wiki

Ingliz tili bo‘yicha keltirilgan internet materiallarida esa sleng yoki jargon – bir guruh kishilarning so‘z va iboralari majmuidir, deb beriladi. Bir shahar miqyosida qishloq va tumanlarga qarab ham sleng almashishi mumkin. Masalan, Buyuk Britaniya yoki Avstraliya, Kanada yoki AQSH slengi sifatida. Kishilar nutqini mumkin qadar sodda, norasmiy bo‘lishi uchun qo‘llashadi. Slenglar kishini erkin va o‘zini qo‘lay his qilishi uchun foydalaniladi. 55 ta eng faol qo‘llaniladigan sleng iboralar keltiriladi. Masalan, «Bravo!», «Respekt!»: hurmatni bildiruvchi grekcha kydos («priznaniye») so‘zidan olingan. Kudos for organising this party. It’s brilliant! – Vecherinka organizovana blestyashchye. Bravo! Tadbir yaxshi tashkil etilgan. Ofarin![1]

Sleng – bu so‘z yasalishining murakkab kompleksi hisoblanib, yasalishning bir necha turlarini o‘zida mujassam etadi. Sleng muammosiga bag‘ishlangan adabiyotlarda uning ikki asosiy turi ajratiladi: umumiy sleng va maxsus sleng (V.A.Xomyakov, V.G.Vilyuman, L.V.Berri, M.Vander Bark). Ushbu tasnif E.Partrijning tasnifi bilan to‘liq mos keladi. V.G.Vilyuman taklif etgan terminologiya bo‘yicha tasniflash keyinchalik V.A.Xomyakov, A.D.Shveytser va boshqa ko‘plab olimlar tomonidan hamfikrlik jihatdan qabul qilingan. Bunday tasniflashga qarshi zid fikrlarning mavjudligiga qaramasdan, hozirgi kunga kelib slengning umumiy va maxsus turlarga ajratilishi tadqiqotchilarning juda katta qismi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Ular ijtimoiy guruhlar leksikonida qo‘llanuvchi argo, jargon va kentni “maxsus sleng” tarkibiga, guruh doirasidan tashqarida qo‘llanuvchi slenglarni esa “umumiy sleng” tarkibiga kiritadilar.[2] Ammo M.M.Makovskiyning ta’kidlashicha, «slengning asosiy xususiyati – ona tilida so‘zlovchi barcha ijtimoiy guruhlar uchun umumiyligidadir, shuning uchun umumiy sleng va oddiy sleng deb farqlash no‘rindir, ikkinchi holatda, odatda, jargonning u yoki bu turi haqida fikr bildiriladi».[3] G‘.H.Rahimov esa umumiy slengizmni maxsus slengizmga qarama-qarshi qo‘yadi: «...ikkala holda ham so‘zlashuv tili leksikasi va frazeologiyasining muayyan qatlamlari tushuniladi».[4]

Olimlarimiz fikriga tayanadigan bo‘lsak, slengning ikki turi bo‘lib, ular o‘rtasida farq mavjud.[5] Umumiy sleng – adabiy til me’yorlari chegarasidan tashqarida, so‘zlashuv nutqi doirasida umumtushunadigan va keng tarqalgan leksik qatlamdir. Maxsus sleng – tor ixtisoslashgan xarakterga ega, chegaralangan kishilar uchun tushunarli bo‘lgan leksik qatlam. Masalan, kompyuter va internet jargonlarini misol qilib oladigan bo‘lsak, sichqon, kuchukcha, qurt, hayvon, burun, panja, ko‘prik kabilar maxsus sleng sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur jargonlardan faqatgina sichqoncha va kuchukcha hozirgi kunda umumiy sleng sifatida o‘zbek xalqining barchasi nutqida qo‘llanmoqda. Shunday ekan, slenglar dastlab jamiyatdagi turli kichik ijtimoiy guruhlar (o‘g‘rilar, narkomanlar, etikdo‘z, haydovchi, biznesmen, kompyuterchi) tarkibida paydo bo‘ladi. Ular o‘rtasida qo‘llaniladigan ba’zi birliklar boshqa guruhlar yoki kishilarning nutqida foydalana boshlaydi, o‘zlashtiriladi va “umumiy slengga” aylanadi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda keng qo‘llanilayotgan quyidagi qisqartma so‘zlar qo‘llanishi ma’lum guruhlar doirasidan tashqariga chiqib, umumiy sleng maqomiga erishgan hamda hozirda ko‘pchilik uchun tushunarli bo‘lib bormoqda: IIV Jarima'ni yuritishda mas’ul ekanini tan oldi. Platforma 1 avgustdan ishlashi aytilmoqda (kun. uz telegram kanali, 2021.31.07). “IT”ni qizlar ham bemalol o‘rgansa bo‘ladi” – dasturchi Durdona Bahronova bilan suhbat (kun.uz telegram kanali, 2021.31.07). AQSHdan keltirilgan «Moderna» respublikaning barcha hududlariga taqsimlanadi (kun.uz telegram kanali, 2021.31.07). TUI UZBEKISTAN (https: //t.me/tuiuzbekistan) Misrdagi besh yulduzli mehmonxona – Sunrise Arabian Beach Resort’da yashash uchun ikki kishilik bepul joy beradi! (daryo telegram kanali, 2021.31.07). JAC J7: hamyonbop narxlardagi qoyilmaqom liftbek (daryo telegram kanali, 2021.20.09). O‘zbekiston Global innovatsion indeks reytingida 7 pog‘ona ko‘tarilib, 86-o‘rinni egalladi (daryo telegram kanali, 2021.20.09). Mobil brigadalarning xizmati katta. O‘zbekiston futzal terma jamoasi Misrni mag‘lub etib, ilk marta Jahon chempionatining pleyoff yo‘llanmasini qo‘lga kiritdi (daryo telegram kanali, 2021.18.09). “Buncha katta ‘dux’ qayerdan paydo bo‘ldi?” Rasul Kusherbayev – daraxtlarni noqonuniy kesayotgan tashkilotlar haqida (daryo telegram kanali, 2021.15.09). “Bular qayerdan “dux” olyapti? Ba’zi masalalarda roppa-rosa 30 yil orqaga ketgandaymiz. Masalan, bugun yana kuchaygan “ko‘cha razborka”lari 90-yillarni eslatib yuboryapti...

[1] https://skyeng.ru/articles/55-slov-anglijskogo-slenga

[2] Сотволдиев Б.Т. Инглиз тилида сленгнинг парадигматик-синтагматик хусусиятлари. Филол. фан. бўйича фалс.докт. (PhD) диссер., Андижон, 2021, 26-бет.

[3] Маковский, 1982, с. 23.

[4] Раҳимов Ғ.Ҳ. Британия ва Америка сленгининг социолингвистик хусусиятлари. Фал. фан. номз. ...дисс., Самарқанд, 2006, 37-бет.

[5] Раҳимов Ғ.Ҳ. 36-бет.

Lekin “Xavfsiz shahar”, “Xavfsiz hudud” yaratish deganda “razbor”chi-yu “reket”chilar xavfsizligini nazarda tutmagandirmiz, harholda. Menga yoqadi “dux” oldik degan – Prezident yosh tadbirkorga hazil qildi (“Xalq so‘zi”. Rasmiy kanali). Misollarda keltirilgan IIV, Jarima, platforma, liftbek, mobil brigada, pleyoff, dux, razborka, reket kabilar sleng sifatida qo‘llanmoqda. Misollarda keltirilgan so‘zlarning barchasi sleng sifatida ishlatilib, ma’lum vaqtdan so‘ng so‘zlashuv nutqiga va u orqali adabiy tilda qo‘llaniladi. Ba’zi sleng birliklari adabiy tilda muqim qolsa, ayrimlari so‘zlashuv nutqidan joy oladi. Ularning qo‘llanish davri yo so‘zlashuv, yo adabiy til tomonidan tan olinadi yoki rad etiladi.

Zamondosh lingvistlarning fikricha, sleng bir shaxsning ijod mahsulidir. Ularning fikricha, kimdir yangi va jozibador so‘zni o‘ylab topadi, yoki boshqalar uchun umuman yangi mazmunda eskisini qo‘llaydi. Bu yangilik umumxalqda qiziqish o‘yg‘otadi, qiziquvchilar ommasida keng qo‘llana boshlaydi va umumxalq qo‘llaydigan so‘z yoki iboraga aylanadi, ya’ni slengvizmga aylanadi. Bugungi kunda barcha ilg‘or mamlakatlarda slengvizmlarning shakllantiruvchi manba ommaviy axborot vositalari sanaladi (60 %dan ortiq slengvizmlar aynan ushbu muhitda yuzaga keladi).[1]

Ko‘rinib turibdiki, sleng birliklarining katta qismi nisbatan tez yangilanib turadi. Ammo buni barcha slenglar haqida ham ayta olmaymiz.

Sleng leksikasi so‘zlashuv nutqi leksikasini yuzaga keltiruvchi mexanizmlardan biri sanaladi. Bir tomondan, biror predmet (kishilar, voqea-hodisalar, faoliyat-jarayonni)ni atabgina qolmay, so‘zlovchi tomonidan o‘sha predmetga munosabat, baho beradi va shu so‘z baholovchi leksika kategoriyasiga kiradi. Ikkinchi tomondan, doimiy ravishda so‘zlashuv nutqini yangilab turuvchi qatlam sanaladi. Shu sababli ham sleng so‘zlashuv nutqida quyidagi sotsial-psixologik vazifalarni bajaradi.[2]

Ta’sir ko‘rsatish vazifasi. Gap tipi ta’sir ko‘rsatish, xohish bildirish, biror kimsaga qaratish, biror faoliyatga undash ma’nolarini anglatadi.

Emotsional-ekspressiv vazifasi. Slengda so‘zlovchi o‘z sezgi, hayajon, xabarini hissiy yetkazadi.

Baholash vazifasi. Narsa-buyum va hodisalarga so‘zlovchi sleng orqali o‘z bahosini beradi.

Identifikatsiya vazifasi. So‘zlovchi o‘z fikrini narsa-buyum va hodisalarni tenglashtirish va ajratish orqali bildiradi.

Ijodiy vazifasi. Sleng tashuvchisi o‘z fikrini aytish uchun adabiy tildan ekvivalent topolmay yangicha nom bilan nomlash vazifasini bajaradi.

Kognitiv-yo‘nalish nuqtayi nazardan 3 vazifasi keltiriladi: kommunikativ, nominativ va kognitiv.[3]

Kommunikativ vazifa – sleng aloqa-munosabat vositasi sifatida xizmat qiladi. Sleng mazkur vazifasi orqali jamiyat, so‘zlovchi guruhning madaniyati, turmush tarzi va mehnat faoliyati bilan bog‘liq bo‘ladi.

Kognitiv vazifa – sleng tashuvchilar o‘z fikrlarini, sezgi va ruhiy kechinmalarini olamni idrok etish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Nominativ vazifa – sleng sohaga oid bo‘lgan tushunchalar, moslamalar bilan bog‘liq bo‘lgan barcha jarayonlarni nomlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, sleng – ijtimoiy, kasbiy va yosh jihatdan cheklanmagan, barcha uchun birdek qo‘llaniladigan so‘zlar guruhi. Bunday so‘zlarni nafaqat yoshlar, balki keksa yoshdagilar ham, nafaqat jinoiy o‘tmishi bo‘lgan, balki ziyoli qatlam ham qo‘llashi mumkin.

Hozirgi so‘zlashuv nutqida qo‘llaniladigan slenglarning ko‘pchiligi qisqargan va o‘zlashgan so‘zlar hisoblanadi. Ularning ko‘pchiligi bizga internet tizimi orqali kirib kelmoqda.

---

[1] Морозова И.О. Англицизмы в современном русском студенческом сленге. Автореф. дисс..канд.фил.наук, Пятигорск, 2006, с. 6.

[2] Гуслякова А.В. Особенности современного американского сленга. Автореф. дисс..канд.фил.наук, Москва, 2008, с. 6.

[3] [3] Колесниченко А.Н. Сленг в английском и русском языках: структурно-семантический, этимологический, функциональный и стилистический аспекты. Автореф. дисс..канд.фил.наук, Ростов-на-Дону, 2008, с. 12; Гуслякова А.В. Особенности современного американского сленга. Автореф. дисс..канд.фил.наук, Москва, 2008, с. 6.

Юсупова Камола (Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси
Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти мустақил изланувчиси)

ИМПЕРАТИВЛИКНИНГ ПРЕДИКАТИ АНИҚЛИК ВА ШАРТ МАЙЛИДАГИ ФЕЪЛ БЎЛГАН КОНСТРУКЦИЯЛАР ОРҚАЛИ ИФОДАЛАНИШИ

Аннотация. *Маълумки, шарт майли шакллари ҳаракатга ундашнинг категорик хусусиятини пасайтиради. Ушбу мақолада императивнинг шарт майли билан алмаштириш хушмуомалаликни билдирувчи лингвистик воситаларни қўллашга ундаши қизиқарли мисоллар орқали ўз ечимини топган.*

Аннотация. *Известно, что формы условного наклонения снижают категоричность побуждения к действию. В данной статье на материале интересных примеров решается проблема использования лингвистических средств при выражении вежливости посредством замены императива условным наклонением.*

Annatation. *It is well known that conditional mood forms reduce the categorical nature of motivation to action. In this article, the urge to use linguistic means of expressing politeness by substituting the imperative with the conditional mood has been addressed through interesting examples.*

Калит сўзлар: *синтактик шакл, морфологик шакл, императив, шарт майли, буйруқ-истак майли.*

Ключевые слова*: синтаксическая форма, морфологическая форма, императив, условное наклонение, побудительное наклонение.*

Key words: *syntactic form, morphological form, imperative, conditional, subjunctive mood.*

Назарий грамматикага оид манбаларда синтактик шаклнинг буйруқ-истак майлидаги морфологик шакли ҳам мустақил содда гапнинг кесими вазиятида келиши ва содда гапнинг ифода мақсадига кўра алоҳида турини ҳосил қилиши таъкидланади.[1]

Майл категорияси замон ва шахс-сон категорияси билан узвий боғлиқ бўлиб, ҳаммаси биргаликда феълнинг тусланиш тизимини ташкил қилади. Шунга кўра, майл категорияси ҳаракатнинг воқеликка муносабатинигина эмас, балки бажарувчи билан ҳаракат орасидаги алоқанинг воқеликка муносабатини ҳам ифодалайди... Майл категориясида буйруқ, истак, маслаҳат, шарт, ижро этилиш ҳақида хабар каби турлича маънолар ифодаланади. Шунга кўра, майл категорияси англатган маънолар модал маънолар ҳисобланади.[2] Буйруқ конструкцияларининг муҳим хусусияти шундаки, у хабар ва айни пайтда фаолият ҳамдир: бунда сўзловчи ўз истагини билдирибгина қолмайди, балки нутқ қаратилган шахс истакни бажаришга мажбур қилинади. Императивлар волюнтатив семантикада гапнинг шаклланишини таъминловчи универсал грамматик восита ҳамда коммуникатив-прагматик категориялардан бири ҳисобланади.[3]

Хабар (ижро) майли феъл англатган ҳаракат ва ҳолатнинг маълум замонда бажарилиши, ижро этилиши ҳақида хабар беради. Бу майл шакли иш-ҳаракат уч замоннинг бирида ижро этилганлигини, унинг мавжудлигини ёки ҳаракат шу замонларнинг бирида бажарилмаганлигини, инкор этилганлигини англатади. Бу майл шаклидаги феъл иш-ҳаракатнинг маълум замонда бирор шахс томонидан ижро этилганлиги ёки ижро этилмаганлиги ҳақида хабар беради. Хабар (ижро) майлининг махсус аффикси йўқ. У феълнинг замон ва шахс-сон аффикслари орқали ифодаланади.[4]

Мисол тариқасида сиёсий рекламаларда императивлик ифодасини кузатганимизда, унда императивликнинг буйруқ майлидаги феъл билан ифодаланиши (“Сайлов – 2021: ўз келажагинг учун овоз бер” шиори остида тадбирлар ташкил этилмоқда[5])га қараганда ноимператив шакллар билан берилиши кўпроқ кўзга ташланди. Масалан, “Форишда “Инсон қадри учун” шиори остида оммавий тарғибот тадбири бўлиб ўтди”;[6] “2019 йил 22 декабрь куни Олий Мажлис Қонунчилик палатаси, халқ депутатлари маҳаллий Кенгашлар депутатлигига сайлов бўлиб ўтди. Бу муҳим сиёсий

[1]Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1995, 41-бет.

[2] Сапаев Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили (морфемика, сўз ясалиши ва морфология). Тошкент, Низомий номидаги ТДПУ босмахонаси, 2009, 160 – 161-бетлар.

[3]Аллаёров Т.Р. Ўзбек тилидаги буйруқ ва сўроқ конструкцияларининг лингвопоэтик хусусиятлари. Филол. фан. номз. дисс... автореф., Гулистон, 2020, 19-бет.

[4] Сапаев Қ. 167-бет.

[5] https://sirdaryo.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=42821

[6] https://uzlidep.uz/news-of-party/10106

тадбир мамлакатимиз тарихида илк бор қабул қилинган Сайлов кодекси асосида, “Янги Ўзбекистон – янги сайловлар” шиори остида ўтди”;[1] “Қурултойда президентликка номзод Алишер Қодиров делегатларни сайловолди дастури билан таништирар экан, сайловда номзоднинг бош шиори “Миллий қадриятларга таянган тараққиёт!” эканини маълум қилди”;[2] “Жорий йилнинг 19 октябрь куни туманимиздаги Ёшлар истироҳат боғида Ўзбекистон Халқ демократик партиясининг “Ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳолини қўллаб-қувватлаймиз!” шиори остида сайловолди тадбири бўлиб ўтди”;[3] “Биз келажак учун жавобгармиз” шиори остида сайловолди дастуримизнинг бош мақсади – мамлакатда экологик барқарорликни таъминлаш ҳамда табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, яшил тараққиёт тамойилларини иқтисодиётнинг барча соҳаларига кенг жорий этиш орқали халқимиз ва келажак авлод учун муносиб турмуш шароитлари яратиш ҳамда фаровон жамият барпо этишдан иборатдир.[4]

Кўриниб турибдики, мисоллардаги “Инсон қадри учун” ифодаси “Инсон қадри учун курашайлик!” “Янги Ўзбекистон – янги сайловлар” ифодаси “Янги Ўзбекистонда янги сайловлар бўлсин!”, “Миллий қадриятларга таянган тараққиёт!” ифодаси “Тараққиёт миллий қадриятларга таянган бўлсин!”, “Биз келажак учун жавобгармиз” ифодаси “Биз келажак учун жавобгар эканлигимизни унутмайлик!” қурилмаларига тенг.

Буйруқ гапнинг кесими, одатда, буйруқ майли билан ифодаланади. Бунда фикр кўпроқ тингловчи шахсига қаратилган бўлади. Шунинг учун ҳам бундай гапларнинг кесими буйруқ майлининг II шахс шакли билан ифодаланади. Баъзан буйруқ гап кесими буйруқ майлининг I ва III шахс шакллари билан ифодаланади: *Ўз созимиз учун ўзимиз қайғурайлик! Ҳар ким ўз оҳангини яратсин!*

Буйруқ гап кесими *ҳаракат номи+керак (зарур, лозим, даркор)* конструкциялари билан ҳам ифодаланади.[5] Реклама матнларида бундай қурилмалардан ҳам етарли фойдаланилади. Сабаби ўзбек ментал хусусиятларидан келиб чиқиб айтиш мумкинки, бу қурилмалар тингловчи зеҳнига етиб бориши ва таъсир кучи нисбатан кучли бўлади. Соддароқ айтганда, *ҳаракат номи+керак, зарур...* қурилмасининг инсон ҳамиятига таъсири кучли бўлади. Масалан, *“Ҳар ким ўзига керак нарсани билсин”* гапидан кўра, *“Ҳар ким ўзига керак гапни билиши керак*” ифодасида таъсир кучли. Боиси, биринчи ифода, яъни бевосита буйруқ майлидаги кесим билан англатилган маънода императивлик умумий, иккинчисида хусусийдир. Яъни, биринчи ифода “гап эгасини топади” қабилида бўлиб, тингловчини уни шахсан ўзига айтилган гап сифатида қабул қилмайди. Лекин иккинчи ифодани ҳар ким шахсан ўзига айтилган гап тарзида ҳис қилади. Агар бу қурилмалар таркибида *инсон, одам, ҳар бир аёл, ҳар бир эркак* каби умумлаштирувчи ифодалардан ташқари бирор касб номи (*ўқитувчи, муҳандис*...) қатнашса, ўша ифода остидаги тушунчалар “нишон нуқтаси”га айланади. Реклама матни тузишда, албатта, тилимизнинг бундай имкониятларидан етарли фойдаланиш зарур. Масалан, *“Инсон ўз қадрини англаши зарур!; “Ором” музқаймоғидан баҳраманд бўлинг!”; “Ҳар бир эркакда бу устара бўлиши керак!”; “Ҳар бир аёл англаши керак:...”; “Ҳар бир муаллим билиши керакки, ...”*. Кўринадики, айрим ҳолларда императивлик ифодаси баъзан но-императив шаклларга нисбатан таъсирчанроқ бўлади.

Табиийки, буйруқ гап буйруқ интонацияси билан айтилади. Оҳанг дарак гапдагига нисбатан кучли, сўроқ гапдагига нисбатан кучсиз бўлади. Бунда гапда ифода қилинган мазмунга қараб, оҳанг ҳам ўзгариб туради: буйруқ, дўқ, ғазаб ифода қилинганда оҳанг кучли, маслаҳат, илтимос ифодаланганда оҳанг кучсиз, хабар оҳангига эга бўлади.

Императивликка махсус семантик категория сифатида қараш унинг ноимператив шакллар билан ифодаланиши масаласида айтиш мумкинки, кўпгина тадқиқотларда “императивлик”, кўпинча, интуитив (ички сезги орқали) англанган тушунча сифатида қабул қилинади. Таърифларда маънолар (буйруқ, илтимос, илтижо...) санаб ўтилиши билан бир қаторда умумлаштирилган, ноаниқ изоҳлар (масалан, “ҳаракатни бажаришга туртки мавжудлиги”) ҳам учрайди. А.И.Изотовнинг “Императивлик прагмалингвистик ҳодиса сифатида” асари императивликнинг функционал-семан-

[1] https://president.uz/uz/3309.

[2]https://kun.uz/news/2021/08/26/alisher-qodirov-milliy-tiklanish-partiyasidan-prezidentlikka-nomzod-sifatida-tasiqlandi.

[3] http://www.narpay.uz/oz/node/705.

[4]https://saylov2021.uz/uz/news/2021/09/17/ozbekiston-ekologik-partiyasidan-ozbekiston-respublikasi-prezidentligiga- nomzodning-dasturi-sajlovoldi-dasturi.

[5] Ўринбоев Б. Ҳлзирги ўзбек адабий тили (ўқув қўлланма). Самарқанд, 2001, 30-бет.

тик категориясига бағишланган. Унда муаллиф императивликни 1) императивлик бевосита, тўғридан-тўғри, буйруқ семантикаси ўзига хос грамматик (морфологик ва синтактик) шакллар билан ифодаланадиган катеригориал; 2) императивлик семантикаси императив бўлмаган усуллар билан ифодаланадиган нокатегориал турларга ажратади.[1]

И.Ю.Стешевич ёзишича, нокатегориал императивлик қуйидагиларга бўлинади: эксплицит императивлик, императив маъно, савол, индикативнинг оптативлиги ёки келаси замони орқали ифодаланса имплицит императивлик, императив семантика эса гапнинг пропозитив мазмуни билан ифодаланади.[2] Олима "бироқ, бизнинг фикримизча, қуйидаги сўзларни битта категорияга бирлаштириш жуда қийин: *Нон сотиб олинг!* (категориал императивлик). *Нон сотиб оласизми?* (эксплицит нокатегориал императивлик) ва *Биз нон хоҳлаймиз!* (имплицит нокатегориал императивлик)" деб ёзади.

Юқоридаги келтирилган учта гапда ундаш (директивлик) ва истакни, шунингдек, умумий иллокуатив мақсадни – қабул қилувчининг хатти-ҳаракатига таъсир каби умумий семантик қисмни ажратиш мумкин. А.В.Бондарко томонидан императив вазият концепцияси, Л.А.Бирюлин томонидан эса императив гаплар мазмунининг кўп қиррали модели ишлаб чиқилган. Уларнинг ҳамда В.Ю.Гусев ва В.Б.Касевич ишларига таянган ҳолда, биз императивлик – бу императив гапларни қолган гаплардан ажратиш, шунингдек, императивнинг махсус семантикасини изоҳлашга имкон берадиган баъзи зарур маънолар йиғиндиси деган тушунчани таклиф қилмоқчимиз.

Императивликнинг энг муҳим шарти – казуал (ундаш, сабаб бўлиш) таъсир маъносидир. Императив (морфологик ёки синтактик) шаклдан фойдаланиш – "казуал" маънони ифодалашнинг грамматик усулдир. Казуативлик лексик жиҳатдан махсус лексемалар (*портлатмоқ* – портлашга сабаб бўлиш, *эритмоқ* – суюқ ҳолатга ўтишга сабаб бўлиш, *ўлдириш* – ўлимга сабаб бўлиш), сўз ясаш жиҳатидан махсус сўз ясаш воситалари билан ифодаланади.

Туркий тилларда, жумладан, ўзбек тилида лексик маънони ўзгартирмайдиган ёрдамчи аффикс орқали мунтазам ифодаланадиган казуал таъсир семантикасига эга бўлган морфологик кўрсаткич мавжуд. *Оқармоқ – оқартирмоқ* каби жуфтликларни ҳосил қилишга барча тиллар ифода қуввати етмайди.

Бироқ казуативлик схемаси императив шакллари билан ифодаланиши шарт. *Сотиб ол, сотиб олинг* каби императив шакллари "маълум бир ижрочи учун ҳаракатни келтириб чиқараман" деган маънони англатади (императивнинг шахси ва сони шаклий категория эмас, балки семантик категориядир).

Морфологик каузативнинг фарқи – императивларнинг мазмун режаси билан ифода режаси тенг: ҳаракат белгиланмайди (*сен уни кулдиряпсан* – кулишга сабабчи бўляпсан), уни талаффуз қилиш эса ҳаракатдир (*уни кулдир* – мен сени уни кулдиришга ундаяпман). Бу императив гапларни перформатив гаплар билан яқинлаштиради. Перформативлик лексик жиҳатдан махсус лексемалар билан ифодаланади, уларнинг талаффузи вазиятнинг амалга ошишидир (*қасам ичаман, эълон қиламан*). Грамматик жиҳатдан перформативлик императив шакллар билан ифодаланади, императивли гап эса гапни қабул қилувчига казуал таъсир ҳаракатида бўлади.

Ҳозирги ва келаси замон шакллари ҳам императивликни ифодалаши мумкин. Биргаликда қилинган ҳаракат шакллари (масалан, *қўшиқ айтамиз, қўшиқ айтайлик*) императив парадигма доирасида кўриб чиқилади ва транспонировка шаклларига даҳли йўқ. *Мени диққат билан тингла!* Каби мисоллардан кўриниб турибдики, барча шахсларнинг шакллари императив маънода ишлатилиши мумкин. Индикативнинг иккинчи шахси ҳам бирлик, ҳам кўплик шаклларига эга бўлиши мумкин, биринчи шахс фақат кўпликда, учинчи шахс, одатда, кўпликда "ҳамма" олмош билан ифодаланган эга билан ишлатилади. Учинчи шахс бирлик сонда ишлатилиш эҳтимоли мавжуд, бироқ бундай ҳолатларда императив ва индикатив маъноларни фарқлаш қийин. Индикативнинг учинчи шахс бирлик сон шакл маъноси императив маънога чекланган миқдордаги ҳолатларда, яъни прескрипция бир бутун бўлиб ҳаракатланувчи бажарувчилар гуруҳига йуналтирилганда эга бўлади. 2-шахснинг барча транспонировка қилинган индикатив шакллари ҳақиқий императив шак-

[1]Изотов А.И. Императивность как прагмалингвистический феномен. На материале чешского языка. М., 2008, с. 13 – 14.

[2] Стешевич В.Ю. Категория императивностии, средства ее объективации в русском и сербском языках. Дис., кан-та филол.наук, М., 2015, с. 44.

кларга алмаштирилиши мумкин, Бунда улар экспрессивликни йўқотади, лекин умумий маъно сақланиб қолади.

Ўтган индикатив замон шаклларини императив маънода ишлатилишига бағишланган В.С. Храковский ва А.П.Володинларнинг "Императивнинг семантикаси ва типологияси. Русча императив" асарида феълларнинг маълум бир гуруҳи ўтган замонда императив маънога эга бўлиши кўрсатилган. Унда баён қилинган назарий фикрларнинг асосий қисмини ўзбек тили реклама матнларида императивлик ифодасига татбиқ қилса бўлади.

Шарт майли императив конструкцияларга ҳам озгина тўҳталсак. Истак, хоҳиш ва ҳаракатга ундаш – бу иккита бир бирига боғлиқ семантик соҳадир, чунки сўзловчи тингловчини ўзи хоҳлаган ҳаракатга ундайди. Транспозициянинг бундай ҳолатлари тез-тез учрайди, бу, биринчи навбатда, сўзловчининг талабни юмшатиш нияти билан боғлиқ. Шунингдек, императивнинг шарт майли билан алмаштириш хушмуомалаликни билдирувчи лингвистик воситаларни қўллашга ундайди. Олдинги барча ўтказилган шакллардан фарқли ўлароқ, шарт майли шакллари ҳаракатга ундаш категорик хусусиятини пасайтиради. Иккала турдаги шакллар: ҳам тасдиқ, ҳам инкор шакллар транспозиция бўлиши мумкин.

Шарт майли конструкциялардан ташқари *-ганда, эди* каби конструкцияларни ҳам ажратиш мумкин: – *Сиз жуда тез сотяпсиз, ҳеч бўлмаганда биринчи босқич тугагунча кутишингиз керак бўлади, кейин сиз қимматроқ нархда сотишингиз мумкин. Ўриндиқларни алмаштириш керак, қаранг, бу скамейкада қуёш йўқ. Сиз сочларингизни тартибга солишингиз керак, акс ҳолда, уларни ўстирсангиз, ким уларни парвариш қилади?* Бу конструкция шарт майли шахс шаклига қараганда тўғридан-тўғри ундашдан ҳам йироқдир ва у маслаҳат ва таклиф каби императив турларни ифодалашнинг энг юмшоқ усули ҳисобланади.

Курбанова Илмира Шарифовна (Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети тадқиқотчиси)

ТЕМИР ЙЎЛ ТЕРМИНОЛОГИЯСИ – МУАЙЯН МАҚСАДГА ҚАРАТИЛГАН ТИЛНИНГ ЛЕКСИК ТАРКИБИ СИФАТИДА

Аннотация. *Ушбу мақола турли соҳаларда мавжуд терминологиянинг долзарб масалаларига бағишланган. Хусусан, тилнинг лексик таркиби ҳисобланган темир йўл терминологияси мисолида атрофлича таҳлилга тортилган. Мақолада маҳаллий ва хорижий терминшунос олимларнинг мулоҳазалари, шунингдек, темир йўл терминларининг метафорик, услубий хусусиятлари каби масалалар атрофлича ўрганилган.*

Аннотация. *Статья посвящена актуальным вопросам существующей терминологии в различных областях. В частности, тщательно проанализирована лексическая структура языка на примере железнодорожной терминологии. А также в статье подробно анализируются изоморфные и алломорфные аспекты взглядов, а также метафорические, методологические особенности железнодорожных терминов.*

Annotation. *This article is dedicated to topical issues of existing terminology in various fields. In particular, lexical structure of the language was analyzed thoroughly in the example of railway terminology. As well as the article deals with discussions on the language and terminological system aimed at specific goals, as well as metaphorical, methodological features of railway terms.*

Калит сўзлар: *термин, терминология, метафорик, муайян мақсадларга қаратилган тил, коммуникатив, когнитив, информатив, лексик-семантик силжиш, динамик ҳаракат, тармоқ, ялангоч сим, камера дисклари, оёқ дастаги, вилка дастаги, ҳалқали тармоқ.*

Ключевые слова: *термин, терминология, метафорический, целевой язык, коммуникативный, когнитивный, информативный, лексико-семантический сдвиг, динамическое движение, сеть, голый провод, диски камеры, опора для ног, опора вилки, кольцевая сеть.*

Key words: *term, terminology, metaphorical, goal-oriented language, communicative, cognitive, informative, lexical-semantic shift, dynamic movement, network, bare wire, camera disks, foot support, fork support, ring network.*

Бугунги кунда мамлакатимизда кечаётган ижтимоий-сиёсий, маънавий-маърифий, ҳар бир давлат иқтисодиётининг "қон томири" ҳисобланган темир йўл тизимидаги ислоҳотлар тилнинг лексик сатҳига кириб келаётган халқаро терминлар оқимини жадаллаштирмоқда. Бу ҳол соҳа му-

тахассисларининг ўз касбига оид турли термин ва тушунчаларнинг асл мазмун-моҳияти хусусида етарли билимга эга бўлишларини тақозо этмоқда.

Тилшуносликда терминология ва терминлар муаммосига бағишланган тадқиқотларда термин ва терминологиянинг назарий ва амалий масалалари атрофлича ёритилган. Бундай масалаларга термин билан умумадабий тилдаги сўз ўртасидаги лисоний муносабатлар, терминларнинг шаклланиши, қарор топиши, тарихий тадрижий тараққиёти, даврий босқичларда қўлланилиши, синоним ва омоним терминлар, терминологиядаги детерминологизация, ретерминологизация ҳодисаларининг мавжудлиги, терминларнинг лексик-семантик, систем-структур ҳамда функционал-семантик таҳлили ва тадқиқи сингари масалалар киради.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, терминология адабий тилнинг ёзма ва оғзаки шаклларига эга бўлган, илмий ва ишлаб чиқариш-техника соҳасидаги мутахассисларнинг нутқ амалиётига хизмат қилувчи умумадабий тилнинг қуйи тизимларидан бирини тадқиқ қилади.[1] Адабий тилнинг мазкур лексик тизими кўплаб илмий-услубий, илмий-техник, ишлаб чиқариш услубияти, саноат тили, махсус соҳа тили, техник ва технологик тил каби тушунчаларни қамраб олади. Сўнгги йилларда "муайян мақсадларга қаратилган тил" бирикмаси термин сифатида барча соҳалар, хусусан, темир йўл терминологиясига бағишланган тадқиқотларда ҳам анча фаол қўлланила бошади. Тилшунослар, жумладан, терминолог олимлар томонидан анча фаол қўлланиладиган "муайян мақсадларга қаратилган тил" (кейинги ўринларда – МҚТ) тушунчаси ўз тарихига ва ўига хос даврий тараққиёт босқичига эга.

Халқаро илмий ва мулоқат воситалари масалаларини атрофлича ўрганиш XX асрнинг ўрталарида илмий ва илмий-техникавий маълумотлар алмашинуви жараёнида деярли барча олимлар эътибор марказида бўлган десак, муболаға бўлмайди. Биз Н.Б.Гвишианининг сўзларига қўшилган ҳолда "илмий маълумотни узатиш масаласи, хусусан, муайян билим соҳасида мулоқот қилувчи мутахассислар суҳбати жараёнида турли тиллардан фойдаланиши мураккаб вазиятни келтириб чиқаради. Натижада терминологик бирликларни махсус луғатнинг бир тизимидан бошқасига мутаносиб тарзда ўтказиш зарурати пайдо бўлади. Гарчи, халқаро илмий алоқанинг асосий воситаси сифатида амалда бўлган бир тил, яъни лингвофранко тил ҳисобланган инглиз тили қўлланилса-да, ушбу мураккаб вазиятга муносиб ечим бўла олмаётганлигини кузатишимиз мумкин.[2]

Терминология тарихини ўрганар эканмиз, бир неча ўн йилликлар давомида соҳавий мулоқотга хизмат қилувчи тилнинг қуйи лексик тизими темир йўл терминологиясида ҳам, хорижий терминларда ҳам кўплаб турли хил тушунча ва терминларнинг пайдо бўлишига асос бўлди. Бирмунча вақт давомида ҳар бир тил ушбу соҳанинг лексик тизими учун ўзига хос белгига ҳамда ўзига хос хусусиятларга эга бўлиши билан ажралиб борди.

Н.Б.Гвишиани таъкидлаганидек, "...тобора ортиб бораётган илмий соҳаларнинг табақаланиши натижасида юзага келадиган халқаро илмий мулоқотга бўлган эҳтиёжнинг ортиши, умумий тилдан фарқли ўлароқ, муайян мақсадларга қаратилган тил («language for specific purposes») тушунчасининг зарурий ва табиий равишда турли мамлакат олимлари томонидан оммавий эътироф этилишига олиб келди. Европада *тарнспорт, темир йўл, логистика авиақатнов, транспорт тиббий хизмати, ҳуқуқ, таълим* шу каби тушунчалар инсон фаолиятининг турли соҳаларида қўлланиладиган, *муайян мақсадларга қаратилган тил* мавзусидаги дастлабки симпозиум 1977 йилда Вена шаҳрида ташкил этилган.[3]

Дастлаб, ушбу термин инглиз тилини чет тили сифатида ўқитиш бўйича бир қатор конференцияларга бағишланган халқаро илмий мулоқотга хизмат қилувчи инглиз тили вариантларидан бири сифатида қабул қилинган эди. Тилни махсус мақсадларда ўқитиш техникаси ва усулларига қизиқиш ортиб бориши натижасида, инглиз тилини муайян мақсадларга қаратилган тил сифатида ўқитишнинг махсус методикаси ишлаб чиқилмоқда. Шубҳасиз, тадқиқот предмети сифатида МҚТ нинг лингвистик ва терминологик хусусиятларини кўриб чиқишга бағишланган монографияларнинг пайдо бўлишида, хусусан, А.И.Комарованинг "Муайян мақсадларга қаратилган тил (МҚТ): назария ва усул" (унда инглиз тилининг функционал хилма-хиллиги муҳим роль ўйнайди) яратилиши тасодифий эмас, албатта. Бинобарин, муайян мақсадларга қаратилган тилнинг илмий-мето-

[1]Сложеникина Ю.В. Терминологическая лексика в общеязыковой системе. Самара, СамГПУ, 2003, с. 5.
[2] Гвишиани Н.Б. Язык научного общения (вопросы методологии). М., "Высшая школа", 1986, с. 218.
[3] Шу манба.

дологик масаларига Н.Б.Гвишианининг “Илмий мулоқот тили (методология масалалари)” мавзусидаги монографияси муҳим ўрин тутади.[1]

Хулоса қилиб айтганда, МҚТ (муайян мақсадларга қаратилган тил) терминининг тилшунос олимлар, терминологлар ўртасида анча фаол қўлланилиши инглиз тилини яна-да оммалашувига ёрдам берди. Натижада терминология бўйича халқаро конференциялар ва симпозиумларнинг расмий тили сифатида – инглиз тилини тобора кенг қўлланилишига олиб келди. Ушбу масала бора-бора “муайян мақсадлар қаратилган тил” термини нафақат халқаро илмий мулоқат воситаси сифатида, балки, ҳар қандай соҳа терминологиясининг, хусусан, темир йўл соҳаси транспорт соҳасининг муҳим бир бўғинига айланиб улгурди ва тилшуносликда, шунингдек, ESP йўналишида кенг қўлланила бошлади.

Жаҳон тилшунослигида умумий тил қуйи тизими, яъни муайян мақсадлар қаратилган тил тушучасининг ривожланиши узоқ тарихга эга. Ҳозирда ҳам муайян мақсадларга қаратилган тил тушунчаси кўплаб илмий тадқиқотлар ҳали ҳам турлича ифодаланишини кузатишимиз мумкин. Масалан: *илмий нутқ, илмий тақдимот услуби, илмий услуб, соҳавий тил, махсус тил, илмий-техник услуб, илмий-техник тил, илмий тил* ва бошқалар.

Жаҳон тилшунослигида, хусусан, ўзбек тилшунослигида кўплаб илмий мақолалар мавжудки, уларда ҳозир ҳам юқорида қайд этилган тушунчанинг мувофиқлиги, *муайян мақсадларга қаратилган тил* ва *миллий адабий тил* тушунчаларининг ўзаро мутаносиблиги ва муносабати қизғин баҳс-мунозарага сабаб бўлмоқда.

Темир йўл терминологик тизими муайян мақсадларга қаратилган тилнинг ўзига хос лексик-семантик, структур-семантик хусусиятларига бағишланган фундаментал тадқиқотлар қаторига А.И.Комарованинг тадқиқотларини киритиш мақсадга мувофиқ бўлади. Унинг фикрича муайян мақсадларга қаратилган тил – “категорик-концептуал ва лингвистик хусусиятларга эга бўлган тилнинг махсус тури”, яъни, таранспорт соҳасининг муайян тармоғи бўйича мулоқот қилишда ишлатиладиган “умумий тил” нинг ўзига хос тури ҳисобланади.[2]

И.С.Кудашеванинг тадқиқотида муайян мақсадларга қаратилган тил – ҳар қандай билим ёки фаолият соҳасида, асосан, тор соҳа маълумотларини узатиш учун ишлатиладиган, миллий тилда сўзлашувчиларнинг мулоқот жараёнидан фарқли бўлган, концептуал аппаратни акс эттирувчи табиий ёки сунъий лингвистик воситалар тўплами маъносида ифодаланган.[3]

Юқоридаги фикр муаллифи МҚТни миллий тилда сўзлашувчиларнинг фақатгина муайян қисмигагина тегишли деб ҳисоблайди. Шундай экан, миллий тилда, хусусан темир йўл лексикасининг муайян соҳага мансублиги билан фарқланувчи бир нечта МҚТ мавжуд бўлади. Натижада муайян соҳага оид терминологик луғатни шакллантиришда тавсифланган МҚТ чегараларини аниқ белгилаб олиш мақсадга мувофиқ, албатта.

Темир йўл лексик тизимининг, яъни темир йўл терминларининг ўзига хос изоморфик ва алломорофик хусусиятларидан бири сифатида муайян мақсадларга қаратилган тил мулоқотда қуйидаги муҳим функцияларни бажаради:

1) ***коммуникативлик функцияси*** – темир йўл соҳасига оид ахборотларни, маълумотларни узатишда намоён бўлади;

2) ***когнитив функцияси*** – инсоннинг тил ёрдамида ёхуд махсус соҳа терминологик бирликлари воситасида воқеликни билиш ва ижтимоий-иқтисодий, логистика йўналишида тажрибаларни ўзлаштириш жараёнида намоён бўлади;

3) ***информативлик функцияси*** – темир йўл мутахассислари томонидан тўпланган маълумотларни, тажрибаларни сақлаш ва узатиш жараёнида намоён бўлади. Темир йўл соҳасида муайян мақсадларга қаратилган тилнинг юқорида келтирилган функциялари темир йўл соҳасига оид терминологияни тадқиқ қилишда анча самарали ва аҳамиятли ҳисобланади. Бинобарин, ҳар бир соҳада бўлгани каби темир йўл соҳасида ҳам ўзига хос бир компонентли (оддий) ва кўп компонентли (мураккаб) терминлар мавжуд бўлиб, уларни соҳа кесимида ўзаро кичик тематик гуруҳларга ажратиб ўрганиш, таснифлаш ва тавсифлаш мақсадга мувофиқ. Уларнинг номинативлик, лексик-семан-

[1] Гвишиани Н.Б. Язык научного общения (вопросы методологии). М., “Высшая школа”, 1986, 280 с.
[2] Комарова А.И. Язык для специальных целей (LSP): теория и метод. М., МАЛП, 1996, с. 12.
[3]Кудашев И.С. Проектирование переводческих словарей специальной лексики. Helsinki, Helsinki University Translation Studies, Monographs 3, 2007, с. 74.

тик, фунционал-семантик, структур-семантик, стилистик ва таржима жиҳатларига алоҳида эътибор бериш лозим.

Шуни алоҳида қайд этиш лозимки, темир йўл терминологик бирликларини муайян мақсадларга қаратилганлиги тилнинг ривожланиши (МҚТ) кўп тилли ва таржима луғатларининг ўзаро таъсири билан ҳам тавсифланади. Зеро, транспорт соҳаси билан узвий боғлиқ бўлган МҚТнинг лексик тизими ва унинг таркибий қисмлари – лексик воситалари алоҳида ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, уларнинг чегараларини ажратиб олиш ва тавсифлаш масаласига бағишланган ўнлаб, балки юзлаб тадқиқотларни амалга ошириш мумкин.

Умумадабий тилнинг лексик таркиби ҳисобланган темир йўл тили биринчи навбатда, алоҳида соҳа тили сифатида шаклланган учун ўзига хос соҳавий лексик-семантик хусусиятларга эга.

Бугунги кунда, нафақат инглиз ва ўзбек, балки бошқа тилларнинг марказий бирлиги ҳам сўз бўлиб, уни турли соҳалар кесимида ўрганишга қизиқиш тобора ортиб бормоқда. Темир йўл терминологияси сингари муайян соҳаларнинг МҚТга ёки соҳавий терминологияга оид лексик бирликлар масаласи ҳақида тадқиқотчилар ҳозирги кунда ҳам тўлиқ ва тугал фикр ва қарашларга, илмий-назарий билимларга эга эмас. Шунинг учун лексик воситаларнинг умумий қабул қилинган таснифи, тавсифий хусусиятлари ва типологияси ҳали-ҳануз тўлиқ яратилмагани бугунги куннинг ечимини кутаётган масалалардан биридир.

Ҳозирги кунда энциклопедик китоблар, турли луғатлар, илмий адабиётларда “термин” ва “терминология” тушунчаларига ҳамроҳ бўлган ўнлаб таърифлар ва изоҳлар мавжуд. 1977 йилда В.П.Даниленко ўз ишида *термин* сўзининг маъносини тушунтирувчи лексикографик манбалар ва илмий ишлардан тўплаган 20 дан ортиқ таърифни келтирган.[1] Ўшандан бери ўтган ўттиз йил давомида “термин” тушунчасини изоҳловчи таърифлар сони табиий равишда сезиларли даражада ошганини эътироф этишимиз мумкин.

Шуни ҳам алоҳида таъкидлаш ўринлики, тилшунослар ҳам баъзан турли соҳа терминларга таъриф келтиришда муайян қийинчиликларга дуч келишади. Бу борада Р.Бононинг қуйидаги фикрини келтириб ўтишимиз жоиз бўлади, “...таржимонлар учун терминология бу, мен билмаган сўзлар, луғатда йўқ сўзлар ёки соҳавий жаргондир”.[2]

Ҳозирги кунда тилшуносликда “соҳавий лексика” термини тобора фаол қўлланилмоқда. Бироқ, ушбу лексика таркиби қандай терминлар ва элементлардан иборат, деган савол туғилиши, табиий. Тилшуносликда муайян соҳага оид бўлмаган лексика мавжудми? Барча махсус лексика таркиби терминлардан таркиб топганми? Агар йўқ, деган жавоб бўлса, унда терминлардан ташқари қандай бирликлар мавжуд? Юқоридаги берилган саволларга аниқ жавоб топиш бироз мушкул вазифа, албатта. Бироқ, ушбу масалаларни ҳал этиш учун келажакда терминологияга оид жуда кўп тадқиқотлар олиб борилиш эҳтимолининг ошиши терминология мавзусини долзарблиги йўқотмайди.

С.В.Гринев 1993 йилда термин тушунчаси билан боғлиқ бўлган иккита қарашни илгари сурди. Биринчи қарашга кўра, кўплаб тадқиқотчилар (улар орасида С.В.Гринев В.П.Даниленко ҳам бор) соҳавий термин умумий сўзга айланиб бормоқда деб ҳисоблашади. Иккинчи қараш тарафдорлари (улар учун, хусусан, С.В.Гринев Н.Ф.Яковлевга ишора қилади) тил ривожланиши жараёнидаги ҳар қандай соҳавий терминлар кундалик турмушда ишлатиладиган фаол сўзларга айланади деб ҳисоблашади.[3] Биз ушбу фикрга нисбатан бироз ўзгачароқ қарашни илгари сурамиз. Бугунги кунга келиб, муайян соҳа терминларини бошқа соҳалар лексикаси ўртасида корреляцион интеграция жараёни кузатилади. Шу билан бир қаторда, айни пайтда, темир йўл терминологиясидан ташқари, бошқа соҳалар терминологик тизимларида синонимик ва полисемантик сўзларнинг учраши табиий ҳол бўлиб қолди. Бунда кўп маъноли ёки маънодош сўзларда акс этадиган ўнлаб маъноларни қўлланилаётган соҳа контексти нуқтаи назаридан келиб чиқиб, семантик доминантлиги эътибор марказида бўлмоғи лозим. Натижада кўп маъноли сўзларни темир йўл терминологиясида қўлланаётган терминлик маъносини ажратиб олиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Ҳозирги кунда темир йўл терминларини шартли равишда уч гуруҳга бўлиб, таснифлаш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз:

---

[1] Даниленко В.П. Русская терминология: опыт лингвистического описания. М., “Наука”, 1977, с. 83 – 87.

[2] Bonono R. (2000). Terminology for Translators – An Implementation of ISO 12620. Meta. Vol. 45, p. 646–669.

[3] Гринев С.В. Введение в терминоведение. М., Московский лицей, 1993, с. 27 – 29.

1. Биринчиси, темир йўл соҳасига оид терминларнинг бир маъноли бўлиши, уларнинг семантикаси ва темир йўлга оид мавзуда қўлланилишининг қатъий чегараларига эга бўлиши лозим. Бинобарин, темир йўл терминлари инглиз ва ўзбек тилларида миллий тил луғатидаги бирмунча кичик сўзлар гуруҳи бўлиб, уларнинг қўлланиш соҳаси муайян чегаралари билан ажралиб туради ва терминларнинг маъноси фақат тор доирадаги мутахассисларга маълум бўлади. Масалан:

Инглиз тилида	**Ўзбек тилида**
ribbed insulator	*қовурғали изолятор*
cam drive	*камера дисклари*
foot lever	*оёқ дастаги*
fork lever	*вилка дастаги*
ring network	*ҳалқали тармоқ*
star network	*юлдузли тармоқ*
head lamp	*бош (асосий) чироқ*
ring main	*ҳалқали манба*

2. Темир йўл терминларининг иккинчи гуруҳини ҳар бир сўз (от сўз туркуми) термин вазифасини ўташи мумкинлиги, уларнинг ҳар бири муайян илмий билимлар тизимнинг бир бўлаги эканлигини таъкидловчи тилшунос олимларнинг қарашларига асосланади десак, муболаға бўлмайди. Унга кўра, миллий тилнинг луғат таркибини ташкил этувчи сўзларнинг полисемантик ва полифункционал эканлиги эътироф этилади. Бунда баъзи темир йўл терминлари ўзида услубий бўёқ ҳам акс эттириши мумкин. Масалан:

Инглиз тилида	**Ўзбек тилида**
mirror antenna	*ойнадаги антенна*
dead point	*ўлик нуқта*
dead section	*ўлик ҳудуд*
branch	*тармоқ*
naked wire	*яланғоч сим*
braking shoe	*тормоз пойабзали*

3. Темир йўл терминларининг учинчи гуруҳига инглиз ва ўзбек тилларида икки хил вазифада қўлланиладиган бирликларни киртишни лозим топдик. Бунда темир йўл терминлари махсус соҳа терминологиясидан умумий лесикага ўтади. Бунда детерминологизация ҳодисаси содир бўлади. Масалан:

Инглиз тилида	**Ўзбек тилида**
step switch	*қадам ўтказгич*
threshold signal	*чегара (пол) сигнали*
rail foot	*релсли таглик*
knife switch	*пичоқсимон ўтказгич*
comb filter	*тароқсимон филтьр*

Бундай вазиятда тилшунос олим Ф.Уилрайт метафорани *семантик ҳаракат* деб ҳисоблайди ва ҳаракат ғояси *метафора* сўзида яширинлигини таъкидлайди. Чунки, ушбу сўз маъносига киритилган *ҳаракат (фора)* айнан семантик ҳаракатдир – бу қўш тушунча тасаввур ва бирикмада содир бўладиган, метафора жараёнининг моҳиятини билдирувчи тарғибот ҳаракати маъносини билдиради.[1] Юқорида таъкидлаб ўтилганидек, терминологиянинг шаклланиш даври учун метафорик ёки метонимик кўчиш жараёни одатий ҳолатдир.

Темир йўл транспортининг пайдо бўлиши ва ривожланиши XX асрнинг биринчи ярмига тўғри келади. Янги турдаги темир йўлларнинг пайдо бўлиши, логистика тизимининг ривожланиши, унда ишлатиладиган биринчи транспорт воситалари (паровоз ва экипажлар), уларнинг тезкор номинациялашни талаб қилди. Янги тушунча, объект ёки тирик мавжудот ўртасидаги ўхшашликни пайқаган киши, янги воқеликларга, мавжуд эски, таниш номларни берди. Метафорик номлар шундай пайдо бўлган. Темир йўл соҳасига оид терминларни таҳлил қилиш натижасида соҳа терминологияси шаклланишининг дастлабки босқичида пайдо бўлган терминларнинг аксарияти метафорик хусусиятга эга бўлиб, биринчи навбатда, темир йўл, паровоз ва вагон қурилишининг ўзига хос хусусиятлари билан боғлиқ бўлган.

Ушбу метафорик хусусиятларни намоён этувчи темир йўл соҳасига оид терминларга мисол сифатида инглиз ва ўзбек тили терминологиясида қайд этилган қуйидаги терминларни санаб ўтишимиз мумкин: *railway bed* (темир йўл тўшаги), *rail foot* (темир йўл релси), *rail head* (темир йўл-

[1] Маккормак Э. Когнитивная теория метафоры. Теория метафоры. М., “Прогресс”, 1990, с. 358 – 386.

нинг бошланиши), *fish plate* (бириктирувчи новда ёки қўшма новда – иккита релснинг учига мурват билан боғланган металл новда, уларни йўлда бирлаштириш), *bed of ballast* (йўл балласти темир йўл ришталари (шпаллар) ётқизилган йўл йўлакчасини ҳосил қилади. У шпаллар орасидан, пастдан ва атрофидан ўралган бўлади. У темир йўл шпалларидан юкни кўтариш, сувни дренажлашни осонлаштириш, шунингдек, йўл тузилишига халақит берадиган ўсимликларни ушлаб туриш учун ишлатилади), *plate-nail* (мих-парчин), *boiler body* (қозонхона), *boiler breathing* (қозон буғи), *boiler coat* (ўт ёқувчининг махсус кийими), *boiler cradle* (қозон турувчи вагон), *boiler foot* (қозонхона ғилдираги), *boiler head* (қозонхона бош қисми), *boiler seat* (қозонхона ўриндиғи), *boiler jacket* (ўт ёқувчининг махсус кийими), *boiler shell* (қозонхона қобиғи), *steam box* (буғ қутиси), *steam chest* (буғ қафаси – буғни йиғиш учун "резервуар"дир, чунки у супер қиздиргич ва цилиндрга кириш порти ўртасидан ўтади), *steam lap* (буғ ўчоғи, ҳалқаси), *ashpan* (ювиш частотасини кўрсатувчи буғ локомотив плитаси), *car body* (поезд танаси, вагони) *ва б.*

Темир йўл терминологиясига киритилган термин-метафораларнинг салмоқли қисмини семантик кўчиш асосида шаклланган умумий техник терминлар ташкил этади. Масалан, инглиз темир йўл терминологиясида: *body, foot, head, flow, arm, bed, ring, nose, shoulder, knee, sleeve, dog, field, spring, axle, threshold, eye, twin, branch, jacket, point, chain* ва б. Ўзбек тили темир йўл терминологиясида эса *таглик* (поддон), *сирға, елка, енг, остона (поездга кириш қисми), кўздан кечириш тешиги (глазок), занжир, корпус, профил, боши, ғилоф, ёстиқ, барабан, тиш, тизза* ва б. Юқорида келтирилган барча темир йўл терминлари турли терминологик тизимларда турли маъноларда қўлланилади ҳамда соҳалараро омонимларга мисол бўлади.

Фан ва техника терминологиясидаги когниция жараёнида пайдо бўлган термин-метафоралар, теварак-атрофдаги олам нарса ва ҳодисалар ўртасида муайян мураккаб ассоциатив алоқаларнинг ўрнатилиши, мураккаб когниция жараёни натижасида вужудга келади. Термин яратувчилари ҳам, фойдаланувчилар ҳам метафорадаги воқеликнинг моҳиятини англаган ҳолда когнитив фаолиятни амалга оширади. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, агар кўп терминларда, масалан, *body* (корпус), *foot* (товон) каби бошланғич ассоциация бир маъноли бўлса, умумий луғат асосида тузилган терминларда – инг. ***head*** ва ўзб. бош – инглиз ва ўзбек терминологиясида турли хил ассоциацияларни ҳосил қилди. Бинобарин, ***бош/head*** нарсанинг юқори қисмини, олд қисмини ёки объектнинг юмалоқ шакли маъносида қўлланиши мумкин. Қуйида таққослаш учун бошқа бир нечта мисолларни келтирамиз:

	Инглиз тили	**Ўзбек тили**
Бош	*rail head*	*рельс боши*
	coupler head	*бириктирувчи бош (вагон қўшилиш механизми)*
	coupling head	*вагонлараро бириктирувчи каллак*
	break head	*тўхтатувчи каллак*
Олд қисм	*head block*	*бош блок–участка*
	head car	*бош вагон*
	head of the train	*поез боши*
Юмалоқ шакл	*buffer head*	*буфер тарелкаси*

Юқорида айтиб ўтилганидек, терминларни шакллантирадиган *ташқи лексик шакл ўхшашлиги* ва *семантик функцияларнинг ўхшашлиги* каби иккита асосий турдаги ассоциациялари мавжуд. Функцияларнинг ўхшашлигидан келиб чиқадиган ассоциациялар бирмунча мураккаброқ ҳисобланади. Чунки улар нафақат кундалик предметлар, ҳақиқатлар ва илмий билимлар объектлари ўртасидаги ташқи ўхшашликни, балки, таққосланган ҳодисаларнинг туб мазмун-моҳиятига кириб боришни ҳам талаб қилади.

Шуни ҳам таъидлаш жоизки, оддий ассоциация туфайли темир йўл транспортининг аксарият термин-метафоралари ташқи шакл ўхшашлигидаги хусусиятлари аналогияси асосида яратилган. Масалан:

Инглиз тилида: *fish plate, tooth tip, ribbon conductor, box car, pole foot, tooth gear, break head* ва б. Ўзбек тилида: *тош, тишли узатма, релсли темир йўл, кишан, темир қўл таёқчаси, кранк мили (кранкшафт), кесишма, тормоз каллаги, туннел қазувчи қалқон, икки бошли релс ёстиғи* ва б.

Ўзбек тилида функционал вазифасига кўра, ўхшашлиги мавжуд қуйидаги терминларни мисол сифатида келтиришимиз мумкин:

♦*йўлни ўзгартириш* – темир йўлнинг йўл ўлчагичини ўзгартириш бўйича ишлар маж-муини кўрсатиш;

♦*поездларни кесиб ўтиш* – бир йўлли темир йўл станциясида поездларнинг қарама-қарши ҳаракатланиш жараёни;

♦*йўлни ўзлаштириш* – ўтаётган поезд ғилдираклари остида релсларнинг узунламасига ҳаракатланиши;

♦*маршрутни белгилаш* – маршрут режасида кўзда тутилган, бошқа поездларга вагонлар гуруҳлари киритилган ва тушириш станциясига эргашадиган тегишли техник станциялардан бирида жўнатиш маршрутини тарқатиб юбориш ва бошқалар.

Тадқиқот материалларидаги амалий мисоллар шуни кўрсатадики, метафорик номларнинг йирик қисми тизимли, яъни темир йўл транспорти соҳаси терминологияси термин ва тушунчаларининг тур-жинс иерархиясига мувофиқ келади. Масалан, инглиз тилидаги *freight yard; flat yard; departure yard, service yard; sorting yard, marshalling yard; switching yard; repair yard, hold yard* каби терминлар ***yard*** термини билан тур-жинс, яъни гипонимик ва гиперонимик муносабатлари асосида шаклланган.

Инглизча *yard* термини ўзбек тили темир йўл терминологиясидаги *тақсимлаш станцияси* ва *парк, майдон* терминларига мос деб ҳисоблаймиз. Ушбу метафоралар асосида қуйидаги юклаш парки (майдони), йўл парки, жўнаш/жўнатиш парки, тўхташ парки, тепаликсиз саралаш парки, тепалик ости саралаш майдони, қабул қилиш ва жўнатиш станцияси шу каби ўзига хос терминлар тизими шаклланган.

Таъкидлаш жоизки, метафора умумий тушунчани конкретлаштирувчи ва ривожлантирувчи хусусиятга эга бўлса, полилексемали термин-метафоралари ҳам метафорик бўлмаган умумий термин асосида ҳосил бўлади. Масалан, *coupling circuit* (алоқа ҳалқаси), *dead circuit* (топшириш линияси), *feed circuit* (қувват занжири), *live circuit* (‘кучланиш ости занжири’), *voice circuit* (овоз занжири), *pilot circuit* (бошқарув занжири), *plate circuit* (‘яҳлит алоқа занжири’), *ring circuit* (ҳалқали занжир), *forked circuit* (тармоқли занжир), *branch circuit* (параллел занжир, тармоқланиш), *earth circuit* (ерга уланган занжир), *diamond circuit* (кўприк ўтказувчи занжир), *killer circuit* (импульсни шакллантириш схемасини блокировка қилиш), *tail circuit* (тармоқдан чиқиш) ва ҳ.к.

Юқорида қайд этилган лексик бирликлар умумий терминлар бўлиб, уларни “circuit” умумий термини билан тур-жинс муносабатлари орқали осонгина боғланганлигини кузатишимиз мумкин. Юқоридаги барча терминлар аниқ илмий таърифга эга бўлиб, темир йўл терминологиясининг таркибий қисмини ташкил этади ва табиий равишда тизимли антонимик (dead circuit – live circuit) ва тизимнинг бошқа бирликлари билан синонимик муносабатларни шакллантиради. Масалан: *feed circuit – supply circuit – power circuit*; *sorting yard – marshalling yard – switching yard*.

Хулоса қилиб айтганда, юқорида таҳлилга тортилган темир йўл соҳасига оид терминологик бирликлар соҳа доирасида муайян тушунмовчиликларга сабаб бўлмаса-да, умумий тилда муайян қийинчиликларга сабаб бўлади. Муайян мақсадларга йўналтирилган тил доирасида темир йўл соҳасига оид терминларни таҳлил қилиш эса тилшунослар ва мутахассислар учун муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. Бинобарин, мураккаб терминлар таржимонларга ҳам таржима жараёнида бир қанча қийинчиликларни юзага чиқариши ва икки тил ўртасидаги мулоқот ғализликларига сабаб бўлиши мумкин. Бундай муаммоларни бартараф қилиш учун темир йўл терминларининг икки тилли, кўп тилли ва таржима луғатларини яратиш мақсадга мувофиқдир.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Yoqubov Odil (Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU mustaqil tadqiqotchisi)

ADABIY HODISALARNI ANGLASH YO‘LI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada taniqli o‘zbek shoiri Oybekning she’riyat, so‘z san’atiga munosabati masalasi yoritilgan. Unda Oybekning ayrim adabiy-tanqidiy maqolalari o‘rganilib, ijodkorning she’riyatni, adabiy hodisalarni tushunishi tahlilga tortiladi. Maqolada shoir uslubi va ijodining o‘ziga xosligini ta’minlashda adabiy-tanqidiy qarashlari muhim ahamiyat kasb etganligi haqida muayyan xulosalar chiqariladi.*

Аннотация*. В статье рассматривается отношение известного узбекского поэта Ойбека к поэзии и искусству речи. В нем исследуются некоторые литературно-критические статьи Айбека, анализируется авторское понимание поэзии и литературных событий. В статье делаются определенные выводы о значении литературно-критических взглядов в обеспечении самобытности стиля и творчества поэта.*

Annotation. *The article examines the attitude of the famous Uzbek poet Oybek to poetry and the art of speech. It examines some of Oybek’s literary-critical articles, analyzes the author's understanding of poetry and literary events. The article draws certain conclusions about the importance of literary-critical views in ensuring the originality of the style and creativity of the poet.*

Kalit so‘zlar: *adabiy tanqid, adabiy maqola, adabiy hodisa, she’r, tuyg‘u, kechinma, obrazli ifoda, o‘ziga xoslik, anglash mashaqqati, ilmiy tafakkur.*

Ключевые слова: *литературная критика, литературная статья, литературное событие, стихотворение, эмоция, опыт, образное выражение, оригинальность, сложность понимания, научное мышление.*

Key words: *literary criticism, literary article, literary event, poem, emotion, experience, figurative expression, originality, difficulty of understanding, scientific thinking.*

Ma’lumki, professor Abdurahmon Sa’diy “Kitob va inqilob” jurnalining 1933-yil 1-sonida “To‘rt she’rlar to‘plami to‘g‘risida” degan sarlavha ostida Hamid Olimjonning 1926–1932-yillarda bosilib chiqqan “Ko‘klam”, “Olov sochlar”, “Poyga”, “Nima bizga Amerika” to‘plamlariga munosabat bildiradi. Olim H.Olimjon ijodini tekshirish va baholashda o‘sha davr tanqidchiligida kuzatiluvchi vulgar sotsiologizm illati bilan bog‘liq jiddiy chalkashliklarga yo‘l qo‘yadi. Unga qarshi mazkur jurnalning 7–8-sonlarida Oybekning “Tanqid sohasida savodsizlik va ur-yiqitchilikka qarshi o‘t ochaylik” sarlavhali tanqidiy maqolasi chop etilgan.

A.Sa’diy bilan mubohsaga kirishgan Oybek H.Olimjonning dastlabki to‘rtta to‘plamini tahlil etgan hamkasbini shoir ijodini muayyan bosqichlarga ajratib tahlil qilmaslik, har bir bosqichning o‘ziga xos jihatlarini yoritmaslik tufayli uning ijodiy yo‘lini to‘g‘ri belgilay olmaslikda ayblaydi. U H.Olimjon ijodini o‘sish-o‘zgarish jarayonida olib qaraydi. Tahlil qilish asnosida, jumlalarni uzib olish emas, balki butun she’rni yoki uning ma’lum fikr-tuyg‘u ifoda qiladigan qismini tahlilga tortish lozim deb biladi. “Yana qaytaramiz: asarning shoxobchalarini emas, novdalarini emas, balki tub ideyani, novdalarni tutib turgan ona yog‘ochni, ildizni salmoqlab ko‘rish kerak. Lekin ayrim ifodalar, so‘zlarga parvo qilmaylik, degan fikrda emasmiz. Har holda qism”ni ko‘rib, “kulni”, “butun”ni unutmaylik”.[1]

A.Sa’diy H.Olimjon she’riyatida uchrovchi romantik ko‘tarinkilik va ramziylikka asoslanib, uni “burjuaziya romantizmi va idealizmi ta’siridagi shoir” sifatida ayblaydi. Munaqqid she’riyatning qoni va joni bo‘lgan peyzaj tasvirlari, ramziy-majoziy ifodalar, rangdor obrazlilik, intim tuyg‘ular, lirizm kabi muhim belgilarni vulgarlashtirib tushunadi. Poeziyani sxolastik ravishda anglagan olim ularni burjua va mayda burjua shoirlari qo‘llagan vositalar deb topadi. Binobarin, badiiy adabiyotni real hayotiy mazmunni tasdiqlashga da’vat eta turib, H.Olimjonni o‘sha davrda “millatchilik va so‘fizm”da ayblangan Cho‘lpon va uning avlodiga bog‘lab qo‘yadi.

Oybek H.Olimjon lirikasidagi tasvir aniqligi, mazmun teranligi, badiiy kompozitsiya mukammalligi, obrazlar ravshanligini ma’qulaydi. Biroq u ham she’rda intim lirik haroratdan ko‘ra, hayotiy voqelik aks etishi zarurligini talab etadi. Demak, shaxsiy tuyg‘u-kechinmalar ifodasi yetakchi mavqeda turishini u ham ma’qullamaydi.

[1] Oybek. Mukammal asarlar to‘plami. O‘n to‘qqiz tomlik. O‘n to‘rtinchi tom, T., “Fan”, 1979, 57-bet.

Oybek H.Olimjonni yangi hayotni tipik sharoitda, tipik voqealar orqali ko‘rsatib, jonli kartinalar yarata olganligi jihatidan qadrlaydi. U shoirning voqelikni badiiy idrok etish prinsiplariga diqqat qaratadi. Binobarin, masala mohiyatiga realizm nuqtayi nazaridan yondashishga urinadi. Bizning nazarimizda, Oybek e’tiroflarini o‘sha davrdagi badiiy ijodning bosh qonuniyatlaridan biri sifatida emas, balki ijod amaliyoti bilan bog‘liq tarzda tushungan ma’quldir. Chunki o‘tgan asrning 30-yillari adabiyotida nazariya va amaliyot o‘rtasida keskin farqlanish kuzatildi.[1]

Oybek she’riyatda muraqabaviylik, g‘ayrishuuriy idrok orqali ham go‘zal dunyolar kashf etish mumkinligini inkor etadi. Demak, keng ma’noda olib qaralsa, u adabiyotning sinfiy xarakterini tasdiqlaydi. Shuning uchun ham: “fikriy mazmunga ega bo‘lmagan sezgi yo‘qdir”, deya ta’kidlaydi. Uningcha, poeziya ko‘ngil to‘lqinlari bilan bir qatorda, fikriy mazmun ham tashiydi. Ko‘rinadiki, Oybek uchun fikr va tuyg‘u bir-birini taqozo etuvchi tushunchalardir. Binobarin, san’at asari ham fikrga, ham tuyg‘uga ta’sir qilish qudratiga ega.

Biroq Oybek fikricha, poeziya ijtimoiy g‘oyalar, hayotiy muammolarni ifoda etish orqali xalqni jipslashtirish, davrga xizmat qilish ruhida tarbiyalashga ko‘maklashadi. Bu talab, umuman, o‘sha davr tanqidchiligi uchun xarakterli bo‘lib, badiiy adabiyotni hayotni dinamik o‘sishda ko‘rsatish, g‘oyaviy pishiq, konkret va moddiy xarakterdagi obrazlar yaratish sari yo‘naltirdi. Muhimi shundaki, Oybek o‘sha davr adabiyotida kuzatilgan bir tendensioz holatning oldini olishga intiladi. U texnik va texnologik jarayonlarni emas, balki o‘z iroda qudrati bilan o‘sha narsalarni idora etayotgan bunyodkor insonni tasvirlash muhimligiga e’tibor qaratadi. Oybekning: “Adabiyot turmushni aks ettirar, turmushdagi voqealar, hodisalar, fikr va tuyg‘ularni umumiylashtirib, obrazlar bilan turmushni, dunyoni anglashga tirishar. Adabiyot sinf praktikasining bir bo‘limidir”[2] singari fikrlarini anglamoq uchun olim umuman badiiy-estetik in’ikos tarzi haqida emas, balki jamiyatda sinfiy kurash keskinlashgan muayyan davrning mafkuraviy adabiyoti haqida fikrlaganligini nazarda tutish lozim. Xo‘sh, Oybek uchun lirika nima? Bu masalaga oydinlik kiritish maqsadida olimning “O‘zbekiston sho‘ro adabiyoti” jurnali 1933-yil 1-sonida chop etilgan “Sotsialistik lirika uchun” sarlavhali maqolasini imkon qadar kuzatishga urinamiz.

Maqolani kuzatish shuni ko‘rsatadiki, XX asrning 30-yillari birinchi yarmida Oybek uchun lirika avvalo, muayyan sinfning obyektiv turmushga munosabatini o‘zida ifoda etuvchi bir adabiy turdir. Lirika Oybek nazdida kompozitsion jihatdan drama va rivoya (epos)dan sababiyat prinsipi asosida o‘zaro bog‘langan voqealar tasviriga asoslanmasligi bilan ajraladi.

Oybekning lirikada shoir qo‘llashi mumkin bo‘lgan qator priyomlar, shuningdek, muayyan lirik asarning tarkibiy qismlarga ajralishi haqidagi quyidagi konsepsiyasi, ayniqsa, diqqatga loyiqdir: “Har bir lirik asarni uch qismga bo‘lish mumkin. Birinchi qismda bosh fikr, bosh motiv ifodalanadi, ikkinchi qismda yordamchi yangi motivlar ila mavzu ochilar, uchinchi qismda fikr va tuyg‘ular doirasi bekiladi. Buni xotima deb atalar. Xotimada fikrlar, tuyg‘ular aniqlanib, o‘tkirlanib, bir fokusga to‘planar”. Anglashiladiki, lirik asar fabulaga oid motivlarni butkul inkor etmaydi. Biroq unda aksar hollarda ifodalangan kartina va motivlar turg‘un (statik) xarakter kasb etadi. Lirik asar qismlari emotsional o‘xshashlik yoxud tazod prinsipiga muvofiq birikadi. Uning o‘ziga xos kompozitsion tabiati, istifoda usullari, hatto qatorlanishi, bog‘lanishi mavjudki, bunday xarakter-xususiyatlar lirikani drama va rivoyadan farqlaydi.

Oybek uchun lirika ritmik jihatdan tartibga solingan, his-tuyg‘uga muvofiq ohang topadigan she’riy nutq shakli: “Lirikada so‘z ritmli, ohangdosh qatorlar tashkil etadi. So‘z yolg‘iz mazmunni ifoda qilish vositasi emas, balki ma’lum tovush, ohang kompleksi kabi, badiiy element bo‘lib xizmat etadi. She’r, lirika tilining musiqiyligi, so‘zlarning qo‘yilishi, sifatga molik tovush tiplarining tartiblanishi, ularning maxsus birikishi, umuman tovush qonuniga bo‘ysundirish ila vujudga keladi.”

Shubhasiz, Oybek o‘z davrining farzandi. Shuning uchun u sinfiylik tamoyilini butkul chetlab o‘ta olmaydi. “Proletar shoiri”ning tili yangi fikr-tuyg‘ular ifodasiga yo‘naltirilganligi bois o‘ziga xos shakl, kompozitsiya, ifoda yo‘llarini qidirish asosida takomillashmog‘i lozim deb biladi. Lirikadan tashqi obyektiv reallikka asoslanishni, uni in’ikos ettirishni talab qiladi. Chunki sinfiylik tamoyilining mantig‘iga ko‘ra proletar shoiri shaxsiy intim tuyg‘ularni ifoda etishi emas, balki ijtimoiy-falsafiy muammolar targ‘ibi va tashviqiga ko‘proq e’tibor qaratmog‘i lozim. Aynan o‘sha mantiqdan kelib chiqqan Oybek lirikani ikki guruhga ajratadigina emas, balki birini inkor etib, ikkinchisini tasdiqlaydi:

1. Umidsizlik ruhidagi badbin va diniy tuyg‘ular lirikasi.
2. Inqilobiy-siyosiy lirika.

[1] Millatni uyg‘otgan adib, Ilmiy maqolalar to‘plami. T., “Universitet”, 2005, 59-bet.
[2] Oybek. Mukammal asarlar to‘plami. O‘n to‘qqiz tomlik. O‘n to‘rtinchi tom, T., “Fan”, 1979, 73-bet.

Oybek lirik asar oniy kechinmani tasvirlashi, ayni damda, ko‘ngilda kechayotgan tuyg‘ularni aks ettirishi, go‘zallik va nafosat tuyg‘usini o‘stirishini yaxshi biladi. Biroq bu holni mumtoz adabiyotga nisbat beradi va inkor etadi. Shu orqali davr adabiy siyosatini tasdiqlashga majbur bo‘lar ekan, aksincha yo‘l tutilsa, o‘zi ham davrning kurashchan intilishlariga “yot unsur” sifatida ayblanishini teran anglaydi.[1]

Adabiyot hayotni jonli va umumlashgan obrazlarda tasvirlasa, badiiy teran, fikr-hisga to‘yingan bo‘lsagina, kitobxon fikr va tuyg‘ulariga ta’sir qilishi, uning ma’naviy-ruhiy olami hamda badiiy didini yuksaltirishi mumkin. Buni yaxshi anglagan Oybek adabiyotga estetik tarbiya quroli deb qaraydi: *“*Adabiy asarlar turmushni jonli ko‘rsatib, odamlarning fikr va tuyg‘ulariga kuchli ta’sir qiladi. Badiiy chuqur, fikr-his jihatidan to‘la adabiy asarlar o‘quvchini uzoq vaqt o‘ziga bog‘lab, asir qilib oladi. Adabiyot turmushni abstrakt tushuntirmay, konkret badiiy umumlashtirib, jonli anglatadi.

Adabiy asarlar ila ma’lum bir yo‘nalishda ommani tarbiya qilish, madaniy saviyasini, zavqini ko‘tarish mumkin.” Shubhasiz, olim fikr-qarashlari mafkuraviylikdan butkul xoli emas. Ammo Oybek badiiy adabiyotning estetik funksiyasini anglashda zamonasiga nisbatan ancha ilg‘or pozitsiyada bo‘lgan. Sho‘ro davrida yaratilayotgan lirik she’r va lirik qo‘shiqlarning yetarli darajada ommalashmayotganligi sabablarini quyidagi faktorlarda ko‘radi:[2]

–Yosh shoirlar sodda, samimiy, yorqin, jozibador obrazlarga boy, go‘zal she’r va qo‘shiqlar yoza olishmagani yoxud bu masalaga yetarlicha ahamiyat berishmayotgani;

–ommaning madaniy va adabiy saviyasi yetarlicha hisobga olinmayotgani;

–yangi mavzulardagi lirik asarlardan ko‘ra, xalq orasida qadimdan keng tarqalgan diniy g‘azal-lar, ishqiy qo‘shiqlar ta’siri kuchli ekanligi;

–ijtimoiy mavzularda bitilgan qo‘shiqlar quruq so‘zlar yig‘indisi, zavqsizlik va ritorikadan iboratligi, lirizmdan begonaligi bois kitobxonda his-hayajon uyg‘ota olmasligi;

–xalq ijodiyotida mavjud kuy-qo‘shiqlar chuqur tekshirilib, shu asosda, mukammal yangi shakllar yaratilmayotgani;

–bu ishga tajribali va kuchli shoirlarning jalb etilmaganligi.

Agar diqqat qilinsa, Oybek qarashlarida “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi”ni tuzgan Hamza ijodiy tajribasidayoq ko‘zga tashlangan: “Ba’zi qabih she’rlar o‘rniga milliy she’rlar tartib berish” tamoyiliga ergashish kuzatiladi.[3] Oybek ham xalq orasida qadimdan keng tarqalgan diniy g‘azallar, ishqiy qo‘shiqlarni muayyan darajada inkor etadi. U adabiyot maydonidagi eskilik va yangilik kurashini badiiy shaklda emas, balki mazmunda ko‘rgani bois ham, “eski” qo‘shiqlarni diniy-ilohiy mazmuni jihatidan rad etadi. Biroq uning bu inkori xalq ijodiyotida mavjud kuy-qo‘shiqlarni teran ilmiy tekshirish, yangi shakllarni mukammallashtirishda ulardan ijodiy foydalanishni ham nazarda tutadi.

Oybek nazdida lirik nafislikni ta’minlash soddalik, samimiyat, yorqinlik, jozibadorlik, obrazlilik bilan chambarchas bog‘liq tarzda yuzaga chiqadi. She’riyat nafaqat mukammal shakl va teran mazmun jihatidan yangi, balki lirizmga boy, kitobxon madaniy va adabiy saviyasiga mos, ta’sirchan, zavqli bo‘lmog‘i lozim. Aks holda, u quruq so‘zlar yig‘indisi va ritorikadangina iborat bo‘lib qoladi va lirik haroratdan mahrum bo‘ladi. Illo, chinakam lirik asar badiiy-estetik tajriba maktabini o‘tagan iste’dodlar tomonidangina yaratiladi.

Yoqubova Sevinchoy (ToshDO‘TAU 2-bosqich tayanch doktoranti)

JADID SHE’RIYATIDA RANG BILAN BOG‘LIQ RAMZIYLIK

Annotatsiya*. Ushbu maqolada jadid she’riyatidagi rang bilan bog‘liq ramziy ifodalar tahlil etilgan. Unda Cho‘lpon, Fitrat singari shoirlar she’riyatidagi rang tasviri, uning mazmun-mohiyati, she’rdagi tuyg‘u va kechinma ifodasida rang bilan bog‘liq ramziylikning o‘rni atroflicha o‘rganiladi. Maqola muallifi ilgari surilgan fikrlarini muxtasar holda umumlashtiradi.*

Аннотация*. В статье анализируются символические выражения, связанные с цветом в поэзии джадидов. Подробно исследуется изображение цвета в поэзии таких поэтов, как Чолпон, Фитрат, его содержание, роль цветовой символики в выражении эмоций и переживаний в поэзии. Автор статьи обобщает выдвинутые идеи.*

[1] Yaqubov O. Adib hayoti va ijod psixologiyasi. T., 2008, 35-bet.
[2] Oybek. Mukammal asarlar to‘plami. O‘n to‘qqiz tomlik. O‘n to‘rtinchi tom, T., “Fan”, 1979, 85-bet.
[3] Hamza Hakimzoda Niyoziy. To‘la asarlar to‘plami. Besh tomlik. Ikkinchi tom, Toshkent, “Fan”, 1988, 7-bet.

Annotation. *This article analyzes the symbolic expressions associated with color in Jadid poetry. The depiction of color in the poetry of such poets as Chulpan, Fitrat, its content, the role of color symbolism in the expression of emotions and feelings in poetry is investigated in detail. The author of the article summarizes the ideas put forward.*

Kalit so‘zlar: *she’riy asar, adabiy janr, tuyg‘u va kechinma, lirik qahramon, badiiylik, tasvir, ifoda, obrazlilik, ramz, o‘ziga xoslik.*

Ключевые слова: *поэтическое произведение, литературный жанр, эмоции и переживания, лирический герой, искусство, образ, выражение, образность, символ, оригинальность.*

Key words: *poetic work, literary genre, emotions and experiences, lyrical hero, art, image, expression, imagery, symbol, originality.*

O‘zbek jadid she’riyati milliy adabiyotimizning tarkibiy qismi va mantiqiy davomi bo‘lib, u o‘zining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan ehtiborga molikdir. Cho‘lpon, Fitrat, Avloniy, Hamza va boshqa ko‘pgina shoirlarimiz ijodiy merosi bu jihatdan xarakterlidir. Jadid shoirlari ijodida rang-barang obrazlar, ifoda vositalari, ramziy tasvirlar mahorat bilan qo‘llanilgan. Shulardan biri rang bilan bog‘liq ramziylikdir. O‘zbek jadid she’riyatidagi rang bilan bog‘liq ramziylik mohiyatini chuqurroq englash uchun ranglar va ularning o‘ziga xos tabiati, she’riyatdagi vazifalari haqida muayyan tasavvurga ega bo‘lishimiz lozim.

Bilamizki, ranglar xalqning urf-odatlari, ijtimoiy hayoti, madaniyati, diniy qarashlari bilan bog‘liq bevosita bog‘liqdir. Adabiyotshunosligimizda ranglarning ramziy mahnoga egaligi xususida bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu o‘rinda S.O‘tanovaning “Alisher Navoiy g‘azaliyotida rang simvolikasi”,[1] N.Jumatovaning “Hozirgi o‘zbek she’riyatidagi rang bilan bogliq ramziy obrazlar” nomli nomzodlik dissertatsiyalarini[2] misol qilishimiz mumkin.

Taniqli navoiyshunos Y.Is’hoqovning Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devoni asosida yaratilgan “Ranglar ramzi” nomli maqolasi ham jiddiy tadqiqotlardan hisoblanadi. Ushbu maqolada ustoz navoiyshunos “Xazoyin ul-maoniy”da rang bilan bog‘liq 31 ta g‘azal borligini keltirib o‘tadi va ulardan ayrimlarini tahlilga tortadi.[3]

Yer yuzidagi qutblarning har biri alohida ranglar bilan belgilangan. “Qora rang – shimolning, qizil – janubning, yashil – sharqning, oq – g‘arbning ramzi degan mahlumot – o‘ttizinchi, qirqinchi yillardayoq fanda xrestomatik bir ma’lumotga aylangan”.[4]

Ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi azaliy kurash tasvirlangan “Avesto”da ham ranglar tasviriga alohida ehtibor berilgan. Jumladan, unda qora rangning ziddi o‘laroq oq rang ta’rif va tavsif etiladi. O‘rta Osiyo xalqlarida oq rang, ezgulik, soflik, haqiqat belgisi hisoblanadi. Ushbu ranglarga har bir xalqda turlicha qarashlar mavjud. Masalan, hindlarda oq rang motam ramzi hisoblansa, ko‘pgina xalqlarda qora va ko‘k ranglar qayg‘u ramzi sifatida ko‘riladi.[5]

O‘tmishdagi janglarda yengilgan tomon oq bayroq ko‘tarib, bu sulh mazmunini anglatgan. Qoraxoniylar va Abbossiylar hukmronligi davrida qora rang alohida nufuzga ega bo‘lganligini ko‘plab tarixiy manbalar tasdiqlaydi.

Adabiyotshunos Ibrohim Haqqulning bir qator ilmiy maqolalari aynan qora rang tadqiqiga bag‘ishlangan. “Turkiy qavmlar islomgacha va islomdan keyin ham qora rangdan salbiy ma’no, holat va hodisalarni xarakterlashda nechog‘lik keng foydalanishgan bo‘lmasin, haq ahli, ma’no va ishq sohiblaridan hech bir kishi mohiyati ilohiyada qora rangning muqaddasligiga shubha qilmagan. Hatto, Sharq she’riyatida takror-takror ishlatilgan «qora ko‘z» (chashmi siyoh), «qora zulf» (zulfi siyoh), «qora xol», «qora balo» singari o‘nlab istioraviy ibora va tashbehlar irfoniy haqiqatlar ifodasi uchun ham xizmat ettirilgan”.[6]

Asrlar osha she’riyatimizda qo‘llanib kelingan rang bilan bog‘liq ramziylik jadid she’riyatida ham alohida o‘rin tutadi. Jadid shoirlari ijodida eng ko‘p uchraydigani qora rang bilan bog‘liqdir.

Cho‘lpon “O‘ch“ nomli she’rida shunday yozadi:

*Xayolimning **qora** kiygan hur qizi,*

---

[1] O‘tanova S. Alisher Navoiy g‘azaliyotida rang simvolikasi. Fil. fan. nomzodi...dissertatsiyasi avtoreferati, T., 2011.

[2] Jumatova N. Hozirgi o‘zbek she’riyatidagi rang bilan bogliq ramziy obrazlar. Fil. fan. nomzodi...dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2000.

[3] Is’hoqov Y. Navoiy poetikasi. T., “Fan”, 1983, 124-bet.

[4] Ibrohim Haqqul. Zanjirband sher qoshida. Toshkent, “Yulduzcha”, 1989, 14-bet.

[5] Shu manba. 44-bet.

[6] Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. T., “Fan”, 2007, 34-bet.

Parda to‘sgan yuzin senga ochdi! [1]

Ushbu o‘rinda qora rangning motam rangi ekanligiga urg‘u berilgan bo‘lib, xayolning motam kiyimini kiyishi uning qayg‘u-g‘amga cho‘mganligini, ammo, shunga qaramay erk, ozodlikka bo‘lgan yuksak ishonchini so‘ndirmagan, ruhan hur bo‘lgan qizga o‘xshatilishi Cho‘lponning san’atkorona mahoratini ko‘rsatadi.

Cho‘lponning “Tun” nomli she’rida esa lirik qahramon:

Kel. Endi tashlama, qo‘yma
Bu tunning qo‘ynida yolg‘iz.
Hijronni boshima yoyma,
Ey tundek sochi ***qora*** *qiz!..* [2]

deya tuyg‘ularini ifoda etadi. Bunda shoir butun qorong‘i kechaning vahimasini chuqur his qilgan holda tunning manzarasini chizadi. Uning inson ruhiyatiga ta’sirini jonlantiradi. She’rda qorong‘ulik ramzi birinchidan, yorning sochlari qoraligiga, ikkinchidan, mahbubasisiz o‘tayotgan kunlar zulmatdek ekanligiga ishora qilyapti.

Cho‘lpon she’riyatida ko‘pgina masalalar qatori xotin-qizlar mavzusiga ham keng o‘rin berilgan. Shoir bunday she’rlarida xotin-qizlarni kelajak nasl davomchilari deb qarab, ayollarni jamiyatdagi mavqeyini ko‘tarish, ularning ilm-ma’rifat egallashlari, o‘z taqdirlari uchun o‘zlari mas’ul bo‘lishlarini ta’minlash singari muammolarni yoritadi.

Xotin-qizlar taqdiri va nafosatiga bag‘ishlangan “Sharq qizi” she’rida esa:

Men bir Sharq qiziman. Sharqning o‘zidek
Butun tanim, jonim – xayol uyasi,
Mening ***qora*** *ko‘zim kiyik ko‘zidek,*
Belgisiz ovchining o‘qin ko‘rgusi. [3]

deya Cho‘lpon tabiat mo‘jizasi sanalmish ayollar dunyosi va qalbini nozik did bilan ilg‘ab oladi va shoh misralarga joylaydi. Bunda shoir ayollarning erksizligini, Sharqning erksizligiga uyg‘un holda tasvirlagan. Misralardagi qora ayollar hayotining uqubatli ekanligini, ularda haq-huquq yo‘qligini ifodalashga yo‘naltirilgan.

Cho‘lpon she’riyatida ba’zi o‘rinlarda qora rang *qorong‘i* tarzida ham qo‘llaniladi. Bunda shoir tasvirni yanada kuchaytirib, tuyg‘u va kechinmani tahsirchan yetkazib beradi. Lirik qahramon dardi, qayg‘usi va iztiroblarini ushbu rang orqali yanada yorqinroq tasvirlaydi.

Shoirning “Ko‘klam qayg‘usi” she’rida bu fikrlarimiz tasdig‘ini kuzatishimiz mumkin:

Ey qorong‘i uzun qishning xayoli,
Ko‘klam chog‘i ko‘zlarimda o‘ynama.
Ayriliqning chidab bo‘lmas maloli,
Ko‘kat, maysa yuzlarida qaynama. [4]

Mumtoz shoirlar ijodida ko‘pincha qish baxtsizlik va musibat, kulfat, bahor yoshlik va go‘zallik, mehnat va farog‘at ramzi sifatida ifodalansa, kuz – xazon fasli sifatida tushkun bir kayfiyatning, bo‘lajak fojeaning darakchisi tarzida tasvirlanadi. Mumtoz adabiyotda fasllarning insonda paydo qiladigan turli xil holat va kayfiyatidan foydalanib, lirik qahramonning murakkab kechinmalari yoritiladi. Shoirlarimiz shu yo‘l bilan insonning tabiatga, hayotga munosabatini, kelajakka umidvorligini chuqurroq ochib berishadi.[5]

Bu fikrlar tasdig‘ini Cho‘lponning yuqoridagi she’rlari misolida ham kuzatishimiz mumkin. Yurtga ko‘klam kelgan bo‘lsa-da, lirik qahramon qishning qorong‘i va qayg‘uli xayolidan qutula olmagan. Ayriliqning chidab bo‘lmas alamlari uni doimo domiga tortib turadi.

Shoir lirik qahramoni kelajakka umidvor banda sifatida o‘tib ketgan alamli kunlarni unitishni, ulardan qutulishni istaydi. Bunda qish orqali millat boshiga tushgan qayg‘uli kunlarni ifodalasa, bahor kelajakdagi baxtli, erkin hayotga ishoradir.

Cho‘lpon she’riyatida qora rang bilan bog‘liq fikrlar motam, o‘lim bilan bog‘liq o‘rinlarda ham keltiriladi. Bunda shoir o‘limning inson uchun cheksiz fojia ekanligini ushbu rang orqali ta’sirchan tasvirlaydi. Shoir “Mahmudxo‘ja (Behbudiy) xotirasi” nomli she’rida shunday yozadi:

---

[1] Cho‘lpon. Yana oldim sozimni. T., “Adabiyot va sanhat”, 1991, 372-bet.
[2] Shu manba. 454-bet.
[3] Shu manba. 388-bet.
[4] Cho‘lpon. She’rlar. Andijon, 1997, 26-bet.
[5] Matyoqubova T. Poetik idrok va mahorat. T., “Fan va texnologiya”, 2011, 84-bet.

Amalimning yulduzi, kim ko‘z tikdi
Qora, jirkanch… o‘lim qoni yerlarga.
Savol berdim: “Yo‘qotganim qayda?”– deb,
O‘zimni ham yutmoq bo‘lgan yerlarga.

Shoir tashxis va mubolag‘a san’ati orqali Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘limi tufayli qalbida tug‘yon urgan qayg‘uni obrazli holda tasvir etadi. Bunda qora rangi jirkanch bilan birgalikda ulug‘ ma’rifatparvar o‘limining sababiga ham ishoralar qilib o‘tadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘limi millatimiz uchun katta yo‘qotish ekanligiga urg‘u beradi.

Qora rang bilan bog‘liq ramziy ifodalar Abdurauf Fitrat ijodida ham kuzatiladi. Fitratning “Yurt qayg‘usi” (Temur oldinda) mansurasida shoir o‘z qahramoni tilidan Amir Temurga murojaat qiladi:

*Bag‘rim yoniq, yuzim **qora,** ko‘nglim siniq, bo‘ynim bukuk.*
Sening ziyoratingga keldim, sultonim!

Bunda biz shoir lirik qahramonini yurt va millat fidoyisi, o‘z xalqi kelajagi uchun qayg‘uruvchi vatanparvar sifatida namoyon bo‘ladi. Ammo u yurtni zulmkorlardan xalos etish uchun Amir Temur kabi millat fidoyilari yetishmayotganligidan chuqur iztirob chekadi. Shu yurtning jonkuyar farzandi sifatida Turonning eski sharafini qaytarishni astoydil istaydi va “g‘ayrati dunyoga sig‘magan” bobomizdan bu yo‘lda oq fotiha so‘raydi.

Bu kabi sadafdek so‘zlarni tanlay olishi shoirning mahoratidan dalolat beradi. ”Parcha” nomli she’rida ham shoir qora rangdan foydalanib, go‘zal misralarni qalamga oladi:

Ur, ur! Sening tirnoqlaring nozli, nozli urduqcha
Yuragimning bitib qolg‘on yaralari ochilsun.
Cholg‘i qili sening nozli tirnog‘ingla titrarkan,
*Umidimni qoplab turg‘on **qora** bulut yirtilsun*.[1]

Fitrat lirik qahramoniga borliq oshiq va mashuqa munosabatlaridan iboratday tuyuladi. Ma’shuqaning barmoqlari cholg‘i qilini titratganida, qora bulutlar bunga bardosh bera olmay, natijada parchalanib ketadi va umid quyoshi chiqadi.

Fitrat “Ovunchoq” nomli she’rida shunday yozadi:

To‘sib turgan oydinlikning yo‘lini
Shu qop-qora, eski, titrak bulutlar.
Kuchli bir yel ko‘rgach turmas, yirtilar,
Umid kuni sening uchun ham tug‘ar.[2]

Ushbu she’rning mohiyatida shoirning erkin va ozod vatan orzusi mujassamlashgan. Shoir lirik qahramoni millat taqdirini o‘z qismati deb bilgan, uning erksizligidan ruhiy iztirob chekuvchi insondir. Ammo lirik qahramon umidsizlikka tushmaydi. Kelajakda baxtli va farovon kunlar kelishiga ishonadi.

She’rdagi “oydinlik yo‘li” – erkinlik, “qop-qora, eski, titrak bulutlar” – erkinlik yo‘lidagi to‘siq, “kuchli bir yel” – kurashchanlik ma’nosini ifodalab kelgan. Shoir ramziy ifodalar orqali o‘zining ezgu niyatlari, orzu-umidlarini ifodalay olgan.

Fitratning “Nega bo‘yla?” she’rida qora rang bilan bog‘liq tasvir shunday keltiriladi:

Sen kelgach,
Ko‘nglimni
Qayg‘ular-la, motamlar-la o‘ragan
Qora qalin pardalar
Yirtildi.[3]

She’r lirik qahramoni ayrilq tufayli qayg‘u va iztirob chekadi. Ammo u kutgan insoni kelgach, bunga chek qo‘yiladi. She’rda qora rang lirik qahramon bardoshi, chidamini tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek jadid shoirlari ijodiy merosidan bunday misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin.

Umuman, jadid she’riyati nafaqat g‘oyaviy yo‘nalishi, balki yuksak badiiyati bilan e’tiborga molikdir. Unda qo‘llanilgan ko‘pgina ramziy ifodalar orasida rang bilan bog‘liq ramziylik alohida ajralib turadi. Jadid shoirlari qo‘llagan ramziy tasvirlar tuyg‘u va kechinmani ta’sirchan yoritishga, lirik qahramon ruhiy olamini o‘ziga xos tarzda ifodalashga yordam bergan.

---

[1] Fitrat. Chin sevish. T., “Adabiyot va san’at”, 1996, 30-bet.
[2] Shu manba. 27-bet.
[3] Shu manba. 30-bet.

Abduraxmonova Feruza Eshqobilovna (O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti; feruzaxon8484@gmail.com)

O‘ZBEK FOLKLORIDA “YOR-YOR” MAROSIM QO‘SHIQLARINING JANRIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek xalq marosimlarining asosiy uzvlaridan bo‘lgan “Yor-yor” qo‘shiqlari haqida so‘z boradi. “Yor-yor” janri qadim tarixga ega bo‘lib, o‘ziga xos janriy xususiyatlari, syujet tuzilishi, go‘zal badiiyati va yorqin obrazlar tizimi bilan farqlanib turadi.*

Аннотация. *Статья о песнях «Ёр-ёр», одном из основных элементов узбекских народных обрядов. Жанр «Ёр-ёр» имеет древнюю историю и отличается неповторимыми жанровыми особенностями, сюжетной структурой, красивым искусством и системой ярких образов.*

Annotation. *This article is about the songs “Yor-yor”, one of the main elements of Uzbek folk rituals. The genre “Yor-yor” has an ancient history and is distinguished by its unique genre features, plot structure, beautiful art and a system of bright images.*

Kalit so‘zlar: *marosim, an’ana, urf-odat, janr, nikoh, to‘y, motam, aytim.*

Ключевые слова: *церемония, традиция, обычай, жанр, брак, свадьба, траур, сказание.*

Key words: *ceremony, tradition, custom, genre, marriage, wedding, mourning, saying.*

Folklor asarlarining rang-barangligi uni tur va janrlarga ajratib o‘rganishni talab qiladi. Yirik uch turga ajratib o‘rganilayotgan har bir adabiy turning o‘zi ham xilma-xil janrdagi badiiy asarlardan tashkil topgan. Shunga ko‘ra, har bir asarning mavjud xususiyatlariga qarab janr mansubiyati aniqlanadi. Jumladan, folklorning ko‘plab janrlarini o‘z ichiga olgan nikoh marosimi folklori, eng qadimiy va go‘zal marosimlardandir.

Nikoh marosimi folklori va undagi janrlarning ijro o‘rni, ijrochilar tarkibi, ijro tarzi, janrning o‘ziga xos ba’zi xususiyatlari haqida folklorshunos olimlar M.Alaviya, J.Qobulniyozov, O.Sobirov, B. Sarimsoqov, S.Ro‘zimboyev, Sh.Turdimov, J.Eshonqulov, S.Davlatov, Sh.Barotova, L.Xudoyqulova, Sh. Imomnazarova va boshqalar aytib o‘tganlar.[1]

O‘zbek nikoh to‘ylari boshqa to‘y marosimlaridan urf-odat va irim-sirimlarga, go‘zal va betakror odatlarga boyligi, jozibador tabiati bilan ajralib turadi. To‘yda ijro etiladigan kuy-qo‘shiqlar esa, marosimning go‘zal kulminatsiyasi hisoblanadi. To‘y qo‘shiqlari qachon paydo bo‘lganligini aniq aytish qiyin, ammo ikki yoshni oila qurish masalalari paydo bo‘lgandan boshlab, to‘y qo‘shiqlari ham kuylana boshlangan deyish mumkin. Bu uning matnlaridagi so‘zning magik qudratiga ishonish, olovga sig‘inish kabi kishilik jamiyati taraqqiyotining ilk belgilarini saqlanib qolganligi bilan xarakterlanadi.

Folklor asarlarining har biri o‘ziga xos janr xususiyati bilan bir-biridan farqlanadi. Mana shu nuqtayi nazarga ko‘ra “Yor-yor”lar ham muayyan janriy o‘ziga xosliklarga ega. Quyida “Yor-yor” janriga xos xususiyatlarni keltirib o‘tamiz. Albatta, bu shartli bo‘lib, bu janrni yanada chuqurroq tadqiq etish yangi natijalarni va xulosalarni berishi mumkin.

“Yor-yor” qadim zamonlardan beri nafaqat o‘zbek, balki tojik, uyg‘ur, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman va boshqa turkiy xalqlar og‘zaki ijodida mavjud. “Yor-yor”lar ikkilik yoki to‘rtlik shaklidagi termalardan iborat bo‘lib, band oxirida “Yor-yor” atamasi qo‘shib ijro etiladi. Ba’zan to‘rtliklar birikib, o‘ndan ortiq misralarni o‘z ichiga oladi va voqeabandlik hosil qiladi. Qardosh xalqlar “Yor-yor”larini kuzatar ekanmiz, aynan o‘zbek “Yor-yor”lari tojik, qozoq, qoraqalpoq tilida jaranglayotganini ko‘rish mumkin. Demak, xalqlarimiz og‘zaki ijodida mushtaraklik kuchli. Buni ularning asrlar davomida bir xalq, bir elat sifatida yonma-yon yashaganliklarining natijasi deb izohlash mumkin.

“Yor-yor”lar xuddi allalardek, yangi bir hayot muqaddimasi boshlanayotgan paytda ijro etiladi. Xalq qarashlariga ko‘ra, “Alla” so‘zi Allohni eslash, unga ishonch va panoh tilash vajidan aytilganidek, “Yor-yor”larning ham ma’no jihatidan shu xususiyatini ko‘rishimiz mumkin. Xalq orasida uzoq safarga otlangan kishiga nisbatan “Alloh senga yor bo‘lsin” yoki “yor bo‘lg‘ay”, kabi so‘zlarga hamda, “yolg‘izning yori Alloh” degan naqllarga duch kelamiz. Bu orqali go‘yoki o‘sha insonga oq yo‘l tilash, turli baloqazodan Alloh o‘zi asrab, panoh bo‘lsin, hayot yo‘lingda senga yor bo‘lsin, degan ma’nolar anglashiladi.

[1] Alaviya M. O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari. Toshkent, 1974, 184–194-betlar; Sarimsoqov B. Yor-yorlar. O‘zbek fol’klori ocherklari. Uch jildlik. 1-jild, Toshkent, 1988, 199–203-betlar; Davlatov S. An’ana va marosim. (Qashqadaryo vohasi misolida). O‘quv- uslubiy qo‘llanma, Toshkent, “Fan”, 2009, 65–84-betlar; Barotova Sh. O‘zbek xalq “Yor-yor”larining janr xususiyatlari. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 1998, 2-son, 46–48-betlar.

Shu sabab aynan ikki yosh yangi hayot ostonasida turganida, ularni sinovli, mashaqqatli hayot yo‘llarida “Alloh qo‘llasin”, “Yaratgan panohida bo‘lsin”, “Shirin turmush kechirsin” degan ma’nolarda qo‘llangan deyishimiz mumkin.

Nikoh to‘yi marosimining go‘zal jihatlarini yorituvchi, kelinchakning siymosini namoyish etuvchi “Yor-yor”lar qadim tarixga egadir. U mungli ohang bilan xursandchilikni uyg‘un etkanligi, ko‘p namunalarga egaligi, jonli ijro jarayonini hali hamon saqlab kelayotganligi bilan ahamiyatlidir.

Folklorshunos kuzatuvchan bo‘lishi, jonli ijro jarayonida ishtirok etgan, kuzatgan bo‘lishi kerak deyiladi. Mana shu kuzatuvlari bilan o‘rtoqlashgan ustoz olim Shomirza Turdimov: “...men bolaligimda eshitganman, ko‘rganmanki, chimildiq tutilgandan keyin kelinning sochini taroqda tarab o‘rish davomida “Yor-yor” aytilardi. Buni faqat bolaligimda ko‘rganman, undan keyin ko‘rmadim. Yetti yoshimdami, olti yoshimdami, derazadan turib tomosha qilganman. Esimda qolib ketgan shu manzara. Lekin, shu, qadimiy formasi bo‘lsa kerak, deb o‘ylayman, biz tomonlardagida. Ammamiz bor edi. “Yor-yor”larni kuylardi, o‘lanni ko‘p bilardi. Ular aytardilar”. Darhaqiqat, buni birinchidan, “Yor-yor”larning tarixiy ko‘rinishi deb taxmin qilsak, ikkinchidan, bu yerda “Yor-yor” bilan bog‘liq yana bir xususiyat ko‘zga tashlanadi. Ya’ni, “Yor-yor”lar marosimda aniq bir urf-odat bilan bog‘langanligi namoyon bo‘ladi.

Nikoh marosimining o‘zida “Yor-yor”lar ijro tarziga ko‘ra, to‘rtga bo‘linadi: qizlar bazmidagi nasihat yor-yorlar(bu to‘ydan bir yoki bir necha kun oldin o‘tkaziladigan bazm bo‘lib, unda “Yor-yor”dan tashqari qiz va yigitlar yig‘ilishib, o‘lanlar ham aytishgan); nikoh kuni qizni kuyov uyiga kuzatish yor-yorlari; kuyov yor-yorlari (nikoh kuni kelinning uyiga kelayotgan kuyovga, o‘rtoqlari tomonidan aytiladigan yor-yorlar) va yo‘qlov yor-yorlari (qizning onasi yoki otasi yo‘qligi yor-yorchi tomonidan bayon qilinib, uni o‘gay ota yoki o‘gay ona qo‘lida katta bo‘lganligiga urg‘u beriladi).

Bugungi zamonaviy to‘ylarda, “yor-yor”chilar tomonidan xatna to‘yi, xotin oshi marosimlarida ham “Yor-yor”lar kuylanmoqda. Ularda mazmunan marosimga mos kelin-kuyov madh etilmagan “Yor-yor” namunalari ijro etiladi.

Boshqa marosim qo‘shiqlaridan farqli o‘laroq, “Yor-yor”larning she’riy tuzilishi ham barmoq, ham aruz vaznida tuzilganligi, o‘ziga xos kompozitsiyaga egaligi bilan ham ahamiyatlidir. Qofiyalangan so‘zdan keyin “Yor-yor” so‘zining takrorlanib kelishi qo‘shiqqa o‘ziga xos ta’sirchanlik, ohangdorlik bag‘ishlaydi. Ular uchun musiqiylik, ravonlik, kuylashga moslik xosdir. Ularda kelinchakning his-hayajoni, tuyg‘ulari, fikr-mulohazalari ifodalansa, ba’zilarida ota-onaning ichki-ruhiy kechinmalari, yashash tarzi, ijtimoiy munosabatlar, tushunchalari va dunyoqarashi aks etadi.

“Yor-yor”lar o‘ziga xos ijrochilar tarkibiga ega bo‘lib, uni faqat ayollar emas, erkaklar ham ijro etishadi. To‘yning urf-odat va marosimlari ayollar tomonidan bajariladi, shuning uchun “Yor-yor” ijrochilari ham ayollar hisoblanadi. Kelinni kuyov xonadoniga kuzatib boruvchi xotin-qizlardan bir guruhi mazkur qo‘shiqni doira jo‘rligida ba’zan esa, cholg‘usiz kuylab borishadi. Ulardan biri “Yor-yor”larning asosiy matnlarini aytsa, qolganlar qo‘shiq naqorotiga qo‘shilishadi. Biroq Qashqadaryo viloyatining ayrim tumanlarida, shuningdek, Farg‘ona, Buxoro viloyatining ba’zi joylarida, “Yor-yor” qo‘shiqlarini erkaklar ham aytadilar. Buxoroda erkaklar yor-yori, yor-yor emas, balki “yor-yor yoronay” bo‘ladi. Erkaklar tomonidan ushbu qo‘shiqlarning ijro etilishi keyingi hodisa deb baholanadi.

Sh.Barotova “Yor-yor”larga nisbatan “...qo‘shiq necha banddan iborat bo‘lsa ham, ularning hammasi bir xil ohangda, bir xil marosimda aytilgan”[1] deydi. Ammo “Yor-yor”larning hammasi ham bir xil ohangda emasligi, uning nikoh to‘yidan tashqari, garchi bu keyingi holat bo‘lsa-da, motam marosimi, xatna to‘yi va xotin oshi marosimi tarkibidan o‘rin olganligini kuzatish mumkin. Marosim aytimlari va qo‘shiqlarida avj pardalar kam uchraydi. Shuning uchun aksariyat “Yor-yor”lar bir xil ohang va uslubda ijro etiladi. Ammo ba’zida to‘yning tantanovorligi sabab, qo‘shiqlarni ijrochilar yarim avj pardalarda ijro etishadi.

Odatda, “Yor-yor”lar doira jo‘rligida ijro etiladi. Albatta, keyinchalik ayrim joylarda “Yor-yor” ijrosi paytida tor, dutor, bulamon, garmon kabi cholg‘ularning jo‘r bo‘lishi ham kuzatiladi. Bu, asosan, Xorazm xalfalari ijrosidagi “Yor-yor”lar uchun xos bo‘lib, bunday musiqa cholg‘ularning jo‘r bo‘lishi boshqa joylarda kam uchraydi, umuman, kuzatilmaydi. Hozirgi kunda esa doiradan tashqari zamonaviy musiqa asboblari va tayyor minuslar jo‘rligida ham kuylanmoqda.

To‘y marosimida qizimizni kelin maqomida ota-ona uyidan, kuyovnikiga childirma chalib kuzatamiz. Nima uchun childirma? Qadimdan mavjud bo‘lgan ko‘plab marosimlarda doira, childirma chalib

[1] Barotova Sh. O‘zbek xalq “Yor-yor”larining janr xususiyatlari. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 1998, 2-son, 46–48-betlar.

guyoki yovuz ruhlarni va jin-ajinalarni quvishgan. “Yor-yor” qo‘shiqlarining qadimiy formasida ham qizni kuyovnikiga olib borishdan oldin sochlarini tarab, uni bezatish jarayonida childirma chalib qizlar, yangalar “Yor-yor” aytishgan. Keyingi bosqich uni kuzatish, bu jarayonda ham uzoq yo‘lda uni asrash va himoyalash, hamda uzoq yo‘lni yaqin qilish, elga ma’lum qilib borish maqsadlari bilan qizlar aravalarda childirma chalib “Yor-yor” aytib borishgan. So‘nggi bosqich kuyov xonadoniga yetib borib, olov atrofidan toki, chimildiqqacha “Yor-yor” kuylab, kelinchakni beziyon yetkazib qo‘yilgan.

“Yor-yor”larning yana bir janr xususiyati kelin va atrofda yig‘ilgan yaqinlarini yig‘latish funksiyasi. Kelinning to‘y marosimlarida yig‘lashi bilan bog‘liq odatlar ko‘plab “Yor-yor”larda qayd etiladi. “Qozog‘istonlik musiqashunos B.Kokumbayeva “Yor-yor”ning kelib chiqish ildizini shunday izohlaydi: “Har bir inson eng avvalo oila a’zosi hisoblangan. Uning ketishi esa barcha yaqin qarindoshlar uchun yo‘qotish bo‘lgan. Qarindoshlar ikki sabab – qiz bolani turmushga chiqishi yoki inson o‘limi tufayli o‘z a’zolaridan ayrilishlari mumkin. Har ikki holatda ham jamiyat o‘z yaqinlaridan butkul ayrilgan va shu bois ham oilaviy marosim yig‘i-qo‘shiqlari alohida sotsial ahamiyat bilan shartlangan edi”.[1]

“Yor-yor”larda mungli ohang ustuvorligi, kuylanganda yaqinlarning ham mayuslashuvi, qadimda uning yig‘i aytimlari qatorida bo‘lgan, degan xulosani beradi. Alisher Navoiyning asarlarida keltirilgan quyidagi jumlalar ham yuqoridagi fikrlarimizni dalillaydi:

Navoiy, chu sarmanziling Chingadur,
Suruding dog‘i sur aro chingadur.
Ayolg‘ung necha yor-yor o‘lg‘usi,
Mening yig‘larim zor-zor o‘lg‘usi.[2]

Navoiy ham “Yor-yor”ni go‘zal va mungli qo‘shiq deya ta’riflaydi. Bu o‘rinda shuni aytish mumkinki, “Yor-yor”lar Xorazmning ba’zi hududlarida, boshqa hududlardagidek kuylanmaydi. Aksincha, u xuddi shomon aytimlari singari yig‘i ohangida “aytim”lardek aytiladi.

“Yor-yor”lar nikoh marosimi ta’sirida, keyinchalik, motam marosimida ham kuylangan (Motam allalari va turli yig‘i yo‘qlovlardan tashqari bokira qiz (yoki uylanmagan yigit) vafot etganida ijro etiladigan ritual aytimlar) Motam aytimlarining ko‘p qismini, motam yor-yorlari tashkil etadi. Motam yor-yorlari boshqa motam aytimlari kabi uzoq tarixga ega bo‘lmasada, yaqin kunlargacha, aniqrog‘i 80–90-yillargacha marosimlarda kuylanib kelingan.

“Buxoro regionida balog‘at yoshida, turmush qurmay, g‘uncha holida gul bo‘lib ochilmay erta ko‘z yumgan qizlarga ham, yigitlarga ham motam yor-yorlari aytiladi. Farg‘ona vodiysida yashovchi aholi o‘rtasida esa u faqat qizlarga aytilar ekan”.[3] Bu holat o‘zbek folklorshunosligida ilk bor B.Sarimsoqov tomonidan aniqlanib, qayd qilingan.

O‘ram-o‘ram sochlaring qaydan topay, yor-yor,
Sanday sarvi qomatni qaydan topay, yor-yor.
San ketding, qadamlaring uzildi-ey, yor-yor,
Saning qutlug‘ qadaming qaydan topay, yor-yor.[4]

Motam “yor-yor”laridan tashqari, xalqimiz orasida yo‘qlov “yor-yor”lari ham saqlanib qolgan bo‘lib, unda kelinning xohish-istagini, ota-onasiz yetimligidan shikoyatini, zorlanishini, o‘gay onadan nolishini, bugungi to‘yda marhum otasi yoki onasining ishtirokini qo‘msayotganligini ifodalovchi misralar uning o‘z tilidan kuylansa, uning xohish-istagiga javoblar yangalar tilidan kuylanadi.

“Yor-yor”larda folklorga xos yana bir xususiyat, boshlanma, asosiy qism va tugallanma kabi kompozitsiyaga ega. “Yor-yor” qo‘shiqlarini kuzatish ular ijrosida ma’lum bir mantiqiy izchillik mavjudligini, ijro tartibi bo‘lganligini ko‘rsatadi. Garchi, hozir bu tartiblar unutilgan bo‘lsa-da, “Yor-yor”lar odatda quyidagi misralar bilan boshlangan:

Avval boshlab aytaylik, yo bismillo, yor-yor,
Bu olamni bor qilgan, Alloh taolo, yor-yor.[5]

---

[1]Turg‘unova N. Farg‘ona vodiysi yallachilik san’ati. Namangan, 2016, 22-bet.
[2]A.Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Hamsa. Saddi Iskandariy. T., “Fan”, 1993, 20 tomlik, 17-tom, 452-bet.
[3]Sarimsoqov B. Motam yor-yorlari haqida. “O‘zbek tili va adabiyoti”, Toshkent, 1983, 5-son, 29–33-betlar.
[4]Bo‘zlardan uchgan g‘azal-ey. Nashrga tayyorlovchilar: O.Safarov, D.O‘rayeva, 2005, 87–88-betlar.
[5]Ikki ko‘ngil bir bo‘lsa. Yor-yorlar. To‘plovchi va tuzuvchilar: M.Jo‘rayev, L.Xudoyqulova. T., G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016, 16-bet.

Ularda bu tartib aniq belgilanmagan bo‘lsa-da, “Yor-yor”chi qo‘shiqni boshlama “Yor-yor”lar bilan boshlab, voqealar rivoji bo‘ylab, avj nuqtaga olib chiqadi va yaxshi tilak va ezgu niyatlar bilan yakunlaydi. Demak, ular boshqa qo‘shiqlardan mazmun-mohiyati va strukturasiga ko‘ra ham ajralib turadi.

“Yor-yor”lar boshlamalarida oldin munojot keladi. Allohga, payg‘ambarlarga, o‘tgan ulug‘lar va ummatlarga. Boshlamalar har bir hudud “Yor-yor”larida mavjud. Ular ko‘proq diniy qarashlar aks etgan misralardan iborat bo‘lib, Allohni, payg‘ambarlarni yod etish, o‘tgan ulug‘larni eslash ulardan panoh tilash kabilarni o‘zida mujassam etgan.

Voqealar rivojida “Yor-yor” aytuvchining badihago‘yligi, ham xazin, ham yumorga boy bo‘lgan misralar bilan davrani qizdirish uchun kuylashi, turli to‘y holatlari, to‘y ishtirokchilarining hissiyotlari aks etgan misralarni bayon qiladi. To‘ydagi voqealar rivojiga ko‘ra, “Yor-yor” mazmuni ham o‘zgarib boradi.

Kulminatsiya – bunda, kelin-kuyovga farzandlar tilash, kelinga qaynonani e’zozlash va pand nasihatlar o‘rin oladi. Ular turli xil obrazlarga qiyoslanadi. Ikkisi ham mukammal sifatlar bilan tasvirlanadi. Kuyov obrazida ba’zi yengil yumor ishlatilsa-da, kelinga bu salbiy holatlar, sifatlar ishlatilmaydi. Kelin juda dilbar, orasta tasvirlanadi.

Hozir ham to‘ylarimizda “Yor-yor”lar aytilyapti. To‘g‘ri qadimiy matn to‘laligicha saqlanib qolmagan bo‘lishi mumkin. Chunki, qadimiy matn unutilib ketgan. Lekin, baribir, ijro shakli, ijro usuli saqlanib qoldi. Buning sababi shundaki, xalq orasida yaqin-yaqingacha bir an’ana bo‘lgan. Xalq qo‘shiqlariga, umuman, ajdodlardan qolgan og‘zaki merosga nisbatan kuchli muhabbat bo‘lgan. Ajdodlar ularni asrashni va kelajak avlodga yetkazishni o‘zlarining muhim vazifalaridan deb bilgan. Qo‘shiq shunchaki, ko‘ngilxushlik uchun aytiladigan narsa emas, qo‘shiqlarda xalqning tarixi, taqdiri, dardi o‘z ifodasini topadi. “Yor-yor” matnlarining nisbatan qadimiy va badiiy jihatdan mukammal namunalarini ajratib nashr ettirish va bu namunalar ustida tadqiqotlar olib borish keyingi vazifalarimizdandir.

Рахимова Моҳинабону Абдуҳамид қизи (Самарқанд вилояти халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази Тилларни ўқитиш методикаси кафедраси ўқитувчиси; e-mail: mohinabonu1992@mail.ru)

ЭССЕ ЖАНРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ, ТУЗИЛИШИ ВА ТУРЛАРИ

Аннотация. *Ушбу мақолада жаҳон ва ўзбек тилшунослигида эссе жанрининг ўзига хос хусусиятлари, тузилиши ва турлари ҳақида атрофлича маълумотлар берилади. Эссенинг жанр сифатидаги тараққиёти, индивидуал хусусиятлари ҳамда тилшунослик, адабиётшунослик ва журналистика соҳаларида тутган ўрни тўғрисидаги мулоҳазалар таҳлил қилинади.*

Аннотация. *В данной статье представлена подробная информация об особенностях, структуре и типах жанра эссе в мировом и узбекском языкознании. Анализируются очерки развития эссе как жанра, индивидуальных особенностей и их роли в области лингвистики, литературы и журналистики.*

Annotation. *This article provides detailed information on the features, structure and types of the essay genre in world and Uzbek linguistics. Essays on the development of essays as a genre, individual characteristics and their role in the field of linguistics, literature and journalism are analyzed.*

Калит сўзлар: *эссе жанри, газета тили, матбуот, публицистик жанрлар, эссе тузилиши ва турлари, тилшунослик, публицистика, шахсий фикр, тажриба.*

Ключевые слова: *жанр эссе, газетный язык, пресса, журналистские жанры, структура и типы эссе лингвистика, журналистика, личное мнение, опыт.*

Key words: *essay genre, newspaper language, press, journalistic genres, essay structure and types, linguistics, journalism, personal opinion, experience.*

«Эссе» атамаси адабиётларда турлича талқин қилинади. Хусусан, «Ўзбек тилининг изоҳли луғати»да эссе (франц. essai – тажриба, машқ, хомаки нарса) адабий, фалсафий, ижтимоий, публицистик ва бошқа мавзуларда ёзилган, муаммолар систематик илмий тарзда эмас, балки эркин шаклда талқин қилинадиган насрий асар» дея таъриф берилган бўлса,[1] «Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати»да «Эссе – лот. exigo – чамалайман, ўлчаб кўраман сўзла-

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилд, Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008, 57-бет.

ридан олинган, эркин композицияга эга бўлган, жузъий мавзуларда, шахсий мулоҳаза ва қарашларни ифодаловчи унчалик катта ҳажмга эга бўлмаган асар…» деб таърифланади.[1]

«Эссе – (франц. essai – уриниш, синаш, очерк) – эркин композицияли, унча катта бўлмаган насрий асар. Эссе орқали нарса ва ҳодисаларга ёки шахсга оид субъектив фикр баён қилинади».[2] Эссе жанрига берилган таърифлардан ҳам кўриниб турибдики, бугунги кунда ўзбек эссе жанри ўрганилиши лозим бўлган илмий муаммолардан бири саналади.

Бадиий-публицистик жанрлар сирасига кирувчи эссе ўзига хос хусусиятларга эга:[3]

♦ мавзу ва саволларнинг аниқ берилиши, кенг доирадаги муаммоларнинг таҳлилга тортилиши;

♦ эссе маълум бир воқеа ёки масала бўйича индивидуал таассуротлар ва фикрларни ифода этади ва предметни аниқ ёки тўлиқ изоҳлашга мақсад қилиб қўймайди;

♦ янги ва субъектив буёқдорликка эга бўлган сўзни назарда тутади ва бундай асар философик, тарихий-биографик, публицистик, адабий-танқидий, илмий-оммабоп ёки беллетристик характерда бўлади;

♦ эссе матнлари, аввалambор, муаллифнинг дунёқараши, фикри, ўйи ва ҳис-туйғулари сифатида баҳоланади;

♦ эссе кўп ҳолларда импровизация (бадиҳа) асосида дунёга келадиган жанр бўлиб, адабиёт тарихи, ҳозирги адабий жараённинг муайян муаммолари, адиб феъл-атвори, қисмати, маънавий дунёси, у ёки бу асарнинг яратилиш тарихи, ўзаро муносабатлар тўғрисидаги мушоҳада, муҳокама, муносабатлар мажмуи саналади. Адабиётларда эссе ва бадиа жанрини бир тушунча остида қарашади.

«Бадиа – фикрнинг эркин, табиий ифодаси. У қалбдаги ҳис-туйғулар қўшганда, фикр пишиб етилганда бир туртки туфайли қоғозга «сочилади». Бадиада замон ва замондошлар, санъат ва адабиёт ҳақидаги қарашлар акс этади; бурч, садоқат, тарих олдидаги масъуллик ҳисси ҳақида мулоҳаза юритилади. Умуман, бадиа кишининг ҳаққоний ўйлари, воқеа, одамларга ҳалол қарашларни акс эттирувчи жанр».[4] Бизнингча, эссе билан бадиа ўртасига баробар аломатини қўя олмаймиз, чунки уларнинг ўзига хос хусусиятлари мавжуд:

№	Ўзига хос хусусият	Бадиа	Эссе
1.	Эркин композицияли, унча катта бўлмаган насрий асар	+	+
2.	Бадиий жанр	+	-
3.	Адабий-публицистик жанр	-	+
4.	Фикрнинг эркин, табиий ифодаси	+	+
5.	Замон ва замондошлар, санъат ва адабиёт ҳақидаги қарашлар	+	+
6.	Бурч, садоқат, тарих олдидаги масъуллик ҳисси	+	+
7.	Муаллифнинг дунёқараши, фикри, ўйи ва ҳис-туйғулари сифатида баҳоланади	+	+
8.	Кенг доирадаги муаммолар таҳлилга тортилади	-	+
9.	Адабий-бадиий нашрларда эълон қилинади	+	+
10.	Радио ва телевидениеда ҳам берилади	-	+

Эссе ўзига хос кўп қиррали, мураккаб жанр бўлганлиги боис, у кўпроқ ёзувчилар, олимлар, мутахассислар томонидан ёзилади ва одатда адабий-бадиий нашрларда эълон қилинади. Шунингдек, у матбуот нашрларидан ташқари, радио ва телевидениеда ҳам берилиши мумкин. Бу хил эсселарда публицистика билан бир қаторда, радио ва телевидение хусусиятлари ҳам ўз ифодасини топади. Эссени тор ва кенг маънода тушуниш мумкин. Тор маънода жанр номи бўлиб хизмат қилса, кенг маънода бадиий шакл бўла олади.

[1] Ҳотамов Н., Саримосқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1983, 370 – 371-бетлар.

[2] Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 10 жилд, Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2005, 268-бет.

[3] http://pnu.edu.ru/ru/recruitment/gra duates/essay.

[4] Раҳимжонов Н. Бадиа ҳақида. “ЎТА”, 1983, 5-сон, 19-бет.

Эссе – мулоҳаза, мушоҳада кўринишдаги сифатлари билан мақолага яқин туради. Аммо у мақола эмас. Эсседан ақл жозибаси, ҳозиржавоблик ва жонлилик, фикр ва туйғуларнинг синтези талаб этилади.

Эссе адабий, фалсафий, тарихий, биографик, публицистик, диний ва адабий-танқидий, илмий-оммабоп ёки соф беллетристик мазмунга эга бўлган насрий ижод намунаси бўлиб, унда нафақат адабиёт олами, шунингдек, барча фанлар, табиат ва жамиятнинг турли жабҳаларига тегишли воқелик қаламга олинади. Эсселар услуби образлилиги, афористиклиги, жонли тилга яқинлиги билан ажралиб туради. Мазмуни му¬айян сабаб ёки масалага оид тугал тафсилотни ёки аниқликни талаб қилмайдиган индивидуал таассурот ва мулоҳазалардан иборат бўлади. Эссенинг фалсафий-эстетик, бадиий хулосаларида инсон ва жамият руҳиятини шакллантирувчи фикрлар ифодаланади. Шунинг учун эссе жанрининг барча шаклий кўринишларида ижодкор шахси, унинг тафаккур олами, дунёқараши ва маданияти бош қаҳрамон сифатида гавдаланади.

Эссе ўз хусусияти билан очеркка яқин туради, яъни унда ҳам ҳаёт воқеалари бадиий-публицистик усулда акс эттирилади. Аммо эссенинг очеркдан фарқи – унинг эркин услубда ёзилиши, ҳажмининг чекланмаганлиги, муаллифнинг олинган мавзу борасида атрофлича фикр юритиб, керакли ўринларда илмий, керакли ўринларда ижтимоий-тарихий ва бадиий воситалардан кенг фойдаланиши, публицистик хулосалар чиқаришида ўз ифодасини топади.

Эсседа бирор тарихий воқеа ёки замонавий муаммо эркин фикрлаш асосида баён этилади, унда муаллифнинг индивидуал таҳлили асосий ўрин тутади. Эсседа муаллифнинг шахсий кузатишлари ва мушоҳадалари бош вазифани бажаради. Аммо, эсседа публицистик мушоҳада ва хулоса асосий ўрин тутиши, яъни у ижтимоий аҳамиятга эга бўлган факт, воқеа, муаммоларга бағишланиб, жамоатчилик фикрини уйғотиши лозим. Мазкур жанрда фан, сиёсат ва адабиётнинг уйғунлиги мавжуд бўлганлиги сабабли унда образ ва образлилик ўзига хос хусусиятга эга бўлади. Шу боисдан эсседаги илмий, тарихий, ижтимоий тадқиқот ва мушоҳадалар худди мақоладаги каби жиддий таҳлил услубида берилиши ҳам мумкин. Фақат керакли ўринлардагина бадиий воситалар ва шу жумладан образ ва образлиликдан ҳам фойдаланилади. Бу жиҳатдан эссе муаммо очеркига яқин туради. Эсседа йўл ва портрет очеркларига хос хусусиятлар ҳам учраши, яъни бирор шахс образи ёки йўл таассуротлари ҳам ўз ифодасини топиши мумкин.

Бадиий адабиёт услуби образлилиги, эмоционаллиги, оммавий тушунарлилиги билан фарқланади.[1] Аммо мавзуни очиб беришда, воқеани тушунтиришда, уни кенг аудиторияга етказишда матбуот тили ва бадиий асар тили услублари бир хил эмас. Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, бадиий асар тили билан матбуот тилининг бир-бирига ўхшаш жиҳатлари ҳам бор, яъни иккисининг ҳам асосий манбаси халқ тилидир. Демак, бадиий адабиёт билан матбуот халқ тилига хос ажойиб манбадан кенг фойдаланади. Машҳур олим К.Фединнинг тасдиқлашича, бадиий адабиёт – бу сўз санъатидир.[2] Демак, тилдаги сўзлардан, бошқа тил бирликларидан ўринли фойдаланган ҳолда, бадиий сўз устаси уни яна-да жонлантиради, унинг асосида янги маънодаги тил бирликларини шакллантиради. Бу, айниқса, муаллифнинг тажрибасига, қобилиятига, маҳоратига боғлиқ амалга оширилади.

Эссе таркибида, аввало, муаллифнинг шахсияти – унинг дунёқараши, фикрлари ва ҳиссиётлари баҳоланади.

Эссе – эркин жанр, бундан ташқари, у агар таъбир жоиз бўлса, «размерсиз жанр»ки, кийим танлаганда бўйинггаю энингга ўлчаб ўтиргандай сиқилмайсан.[3]

Бугунги кунда жанрнинг кўплаб композицион типлари ва моделлари мавжуд бўлиб, турли шаклларда юзага келган.[4] Замонавий амалиётда эссенинг қуйидаги типлари ажратилади: 1) нутқнинг типи ва вазифасига кўра, академик ва академик бўлмаган; 2) мазмунига кўра, адабий-бадиий, илмий-адабий, публицистик, фалсафий, фалсафий-ҳуқуқий, лингвистик, педагогик, кинематографик, телевизион ва бошқалар; 3) шаклига кўра, рецензия, хат, кундалик, хотира; 4) нутқ типига кўра, тавсиф, мулоҳаза, ҳикоя.

---

[1] Кожина М.Н. О речевой системности научного стиля сравнительно с некоторыми другими. Пермь, 1972, с. 204.

[2] Федин К. Собрания сочинений в девяти томах. IV том, М., 1962, с. 570.

[3] Холмирзаев Ш. Эссе – эркин ижод. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 2003, 6-сон.

[4] Бузальская Е.В. Эссе: общая типология жанра. Вестник Орловского гос. унив., серия Новые гуманитарные исследования, 2013, № (34), с. 123–125.

Адабий танқиднинг бугунги манзарасини эстетик эврилишларини эсселарсиз тасаввур этиш қийин. Адабий танқид нуқтаи назаридан эссе ифода моҳияти, мақсади, шакли, йўналишига кўра иккига бўлинади:

1. Бадиий асоси залворли эссе. Унга Ш.Холмирзаев («Бинафша ҳидланг, амаки», «Бир вужудда икки жон» ва ҳ.к.), Хуршид Даврон («Самарқанд хаёли» туркумидаги тарихий ва маърифий бадиалар, «Бибихоним қиссаси ёки тугамаган достон» бадиаси) каби асарлари.

2. Публицистик руҳ кучли бўлган эсселар (В.Зоҳидовнинг «Бизнинг янги йил ва инсон», «Ҳақиқий севги ва ижодий баҳодирлик таронаси» кабилар).

Ўзбек адабиёти нуқтаи назаридан эссенинг турли шакллари учрайди: а) адабий ўйлар, б) эссе-роман, в) эссе-қисса, г) хотира ва ҳоказо.[1]

Адабий ўйларга танқидчи И.Ғафуров «Адабий ўйлар», шоир Миртемирнинг турли даврларда яратилган «Тингла ҳаёт» (1974), «Дўстлар даврасида» (1980) мажмуалари, А.Мухторнинг «Ёш дўстларимга», П.Қодировнинг «Ўйлар», А.Ориповнинг «Эҳтиёж фарзанди», Э.Воҳидовнинг «Шоир-у, шеър-у, шуур», Ў.Ҳошимовнинг «Нотаниш орол» тўпламлари мисол бўлади.

Эссе-романларга ўзбек адабиётида «Машҳур кишилар ҳаёти» туркумида яратилган қатор асарлар мавжудки, улар тарихий, илмий ва маърифий аҳамиятга эга. Европадагидан фарқли ўлароқ, бу типдаги асарлар ўзбек адабиётида ҳам анча илгари авлиёлар ҳақидаги маноқиблар шаклида, адиблар ва тарихий шахслар ҳақидаги («Макорим ул-ахлоқ», «Темурнома») мемуарлар шаклида мавжуд эди. Бу туркумнинг Россияда пайдо бўлишига М.Горкий ташаббус кўрсатди. Аслида, маданият арбоби, ижодкор шахс ҳақидаги роман типи Европа адабиётида бир аср аввал шаклланган эди. Унга француз ёзувчиси Андре Моруа асос солди. XX асрнинг 30-йилларида Горький таклифи билан Россиядаги бир қатор ёзувчи ва олимлар шу типдаги адабий тарихий-биографик романлар ижод қила бошладилар ва улар «Машҳур кишилар ҳаёти» рукни остида машҳур бўлди. Бу рукндаги асарлар рус адабиётида ўсмирлар китобсеварлиги шаклланиши ва ривожида муҳим роль ўйнади. Ўзбек адабиётида эссе-роман хусусияти кўрина бошлаган асарлар XX асрнинг 60-йиллар охирида юзага келди. Н.Каримовнинг «Ҳамид Олимжон», «Ойбек», Л.Қаюмовнинг «Ҳамза», О.Шарафиддиновнинг «Абдулла Қаҳҳор», Отаёрнинг «Миртемир», «Мен қуёшни кўргали келдим» асарларида ана шу хусусиятлар учради. Азиз Қаюмов ҳам бу йўналишда Алишер Навоий ижоди ҳақида ёш китобхонларга мўлжалланган асарини яратди.

Мустақиллик даврида Н.Каримов эссе-роман жанри талабларини астойдил ўзлаштириб бораётган тажрибали мунаққид ва адиб эканини «Чўлпон», «Мақсуд Шайхзода» эссе-романлари мисолида кўрсатди.

XX асрнинг 70–80-йилларидан бошлаб ёзувчи ва санъаткорлар ҳақида кўплаб хотира китоблар яратилди. А.Қодирий, Айний, Ойбек, Ғ.Ғулом, А.Қаҳҳор, Шайхзода, Миртемир, Шуҳрат, А. Мухтор, О.Шарафиддинов, Ш.Холмирзаев, Т.Мурод ҳақидаги хотиралар адабиётимиз бойлигига айланди. Ҳ.Қодирийнинг «Отам ҳақида». (1979), Саид Аҳмаднинг «Назм чорраҳасида» (1982, 1993) ҳамда «Йўқотганларим ва топганларим» (2000), К.Қаҳҳорованинг «Чорак аср ҳамнафас» (1987), З.Саидносированинг «Ойбегим менинг», Н.Каримовнинг «Ойбек ва Зарифа» китобларида улкан санъаткорларнинг жонли қиёфаси абадийлаштирилди.[2]

Эссе-қисса – эссе муаллифнинг “мен”и акс этган адабиётшунослик ва публицистика оралиғидаги жанр. Қисса эса бадиий адабиётда эпик жанр турларидан бири бўлиб, Ғарбий Европа ва Америка адабиётида повест маъносидаги қисса тушунчаси йўқ, насрнинг романдан бошқа барча жанрлари ”новелла” термини орқали ифодаланади. Ўзбек адабиётшунослигида ва публицистикасида эссе-қисса ҳақида маълумотлар мавжуд эмас. Бизнингча, эссе-қисса, бир томондан, ўзида эссега хос объективлик, субъективлик, парадокслик ва ҳаётийлик каби хусусиятларни, иккинчи томондан, қиссага хос бадиийлик, таъсирчанлик, сюжетнинг мавжудлиги каби хусусиятларни акс эттиради. Ўзбек публицистикасида Матлуба Деҳқон қизининг “Гул сўқмоқлар” эссе-қиссаси бунга мисол бўла олади.

Хотира – XX асрнинг 70–80-йилларидан бошлаб ёзувчи ва санъаткорлар ҳақида кўплаб хотира китоблар яратилди. А.Қодирий, Айний, Ойбек, Ғ.Ғулом, А.Қаҳҳор, Шайхзода, Миртемир, Шуҳрат, А.Мухтор, О.Шарафиддинов, Ш.Холмирзаев, Т.Мурод ҳақидаги хотиралар адабиётимиз

[1] Назаров Б., Расулов А., Қаҳрамонов Қ., Аҳмедова С. Ўзбек адабий танқидчилиги тарихи. Тошкент, Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2012, 412-бет.

[2] Назаров Б., Расулов А., Қаҳрамонов Қ., Аҳмедова С. Ўша асар. 416-бет.

бойлигига айланди. Ҳ.Қодирийнинг «Отам ҳақида» (1979), Саид Аҳмаднинг «Назм чорраҳасида» (1982, 1993) ҳамда «Йўқотганларим ва топганларим» (2000), К.Қаххорованинг «Чорак аср ҳамнафас» (1987), З.Саидносированинг «Ойбегим менинг», Н.Каримовнинг «Ойбек ва Зарифа» китобларида улкан санъаткорларнинг жонли қиёфаси абадийлаштирилди.

Эсселарнинг фалсафий, публицистик, адабий-танкидий, тарихий-биографик турлари ўзбек адабиётшунослиги ва публицистикасида учрайди, бироқ соф беллиетеристик эсселар хакида етарлича маълумотлар мавжуд эмас.

Эссе жанрининг қомусий белгилари:

1. Ҳаётийлик (муаллифнинг борлиқ ҳақидаги шахсий қарашлари). Эсседа тадқиқотнинг субъекти, унинг объектига айланади. Матнни тайёрловчи муаллифнинг муҳим сифатларидан бири ҳам ўзининг шахсий қайғуришларини очиқ, самимий баён қилишидир. Бу билан: «композициянинг эркинлиги»; «услубий (тил) плюрализми» аниқланади. Шу нуқтаи назардан, у турли элементларни ўз ичига олади ва «сўзлардан тўқилган» ёки «каталог» «қўроқ кўрпа» эмас.[1]

2. Субъективлик. Оламнинг индивидуал-мифологик ёки муаллифнинг шахсий мифи. Бу билан «яхлитлик»; «ноёблик»; «экзистенциаллик» аниқланади. «Экзистенция» (лот. existentia – мавжудлик) – инсоний «мен» марказий ядро саналиб, «фикрловчи онг» ва фақатгина оддий инсон индивиди сифатида эмас, балки умумбашарий, яъни такрорланмас ўзига хос шахс сифатида намоён бўлади. Экзистенция объективлашмайди, «мен» ҳам ҳиссиёт, ҳам ирода, ҳам интеллектни бошқариб, уларнинг таъсирида бўлади.

Эссе материалларининг экзистенциал белгилари «идеалга интилиш» («умрбоқийлик»ка йўналтирилганлик, ҳаёт мазмунига оид саволлар) шартланганликда кўринади.

3. Парадоксал**. Парадокс** (қадимги юнонча: παράδοξος – «кутилмаган», «ғалати») – кўпчилик томонидан қабул этилган анъанавий фикр, тажрибага ўз мазмуни ёки шакли билан кескин зид бўлган, кутилмаган мулоҳаза, муҳокама. Ҳар қандай парадокс «шубҳасиз тўғри» (асослими, асоссизми, бундан қатъи назар) ҳисобланган, у ёки бу фикрни инкор этишдек кўринади. «Парадокс» терминининг ўзи ҳам дастлаб антик фалсафада ҳар қандай ғалати, оригинал фикрни ифодалаш учун ишлатилган. Мантиқда парадокслар формал мантиқ қоидаларига риоя қилиб фикр юритишда баъзан юзага келади. Мантиқда парадоксларни ҳақиқатдан чекиниш, деб билиш ўринлидир. Шунинг учун антиномия, апория, зиддият парадокснинг синонимлари деб ҳисоблаш мумкин. Парадокс бир-бирини истисно қилувчи икки фикрни баб-баравар исбот қилиш мумкинлигини билдиради. Мантиқий парадокслар, одатда, мантиқий асослари тўла аниқланмаган назарияларда учрайди. Илмий муҳокамада парадокс пайдо бўлишининг асосий сабаби инсон билиш жараёнининг мураккаб диалектик характерга эгалиги, бунда шакл ва мазмуннинг ўзаро зиддиятли муносабатда бўлишидадир. Парадоксларни бартараф этишнинг универсал йўли йўқ.

Мазкур хусусиятлар эссе жанрида кўзга ташланади ва эссенинг асосий хусусиятларидан бири бўлиб, жамоат онгида бажарадиган вазифаси билан белгиланади.

Шундай қилиб, эссеистиканинг жанри сифатида эссе бадиий-публицистик асар бўлиб, ўзининг қомусий белгилари асосида шаклланади. Эссе бевосита субъективликни, экзистенциал бўёқдорликни, муаллифнинг автопсихологик фикрлашини, яъни муаллиф учун руҳий ва ижтимоий ҳаёти билан боғлиқ долзарб масалалар (ахлоқий-маънавий вазиятлардаги танлов) парадоксини, оламнинг индивидуал-мифологик манзараси шаклида киноявий ифода этишини намоён қилади. Қисқача айтадиган бўлсак, эссе: бадиий-публицистик асар, ҳаётни муаллифнинг индивидуал-мифологик акс эттириши, муаллиф ҳаётида муҳим аҳамиятга эга бўлган руҳий ва ижтимоий муаммоларнинг акс этирилиши, муаллифнинг ҳаёт муаммоларига кутилмаган мулоҳаза, кутилмаган ечим топа олиши, муаллифнинг ҳаёт ҳақидаги рефлексиясини акс эттиради. Яъни, эссе – муаллифнинг экзистенциал рефлекциясини акс эттирувчи бадиий-публицистик асар.

[1] Перевозов Д.Н. Эссеизация текстов как выражение персонального журнализма в современной российской публицистике. Автореф. канд. филол.наук, Воронеж, 2007.

Қодирова Зуҳра Обидхон қизи (Тошкент Давлат Шарқшунослик университети 2-босқич докторанти)

РАШДИДДИН ВАТВОТНИНГ “ҲАДОЙИҚ УС-СЕҲР ФИ ДАҚОЙИҚ УШ-ШЕЪР” АСАРИ – ШАРҚ МУМТОЗ ПОЭТИКАСИ МАНБАСИ

Аннотация. *Мазкур мақолада Рашидиддин Ватвотнинг “Ҳадойиқ ус-сеҳр фи дақойиқ уш-шеър” асари мумтоз поэтик манба сифатида ўрганилган. Ушбу мавзу илмий мақолалар, рус тилидаги диссертациялар, форс тилидаги илмий адабиётлар асосида ёритиб берилган. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сонли «Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори ҳали ўрганилмаган кўплаб қўлёзма манбаларимизни ўрганиш, уларни илмий муомалага киритиш учун катта имкониятлар эшигини очиб бермоқда.*

Мақолада Рашидиддин Ватвотнинг “Ҳадойиқ ус-сеҳр фи дақойиқ уш-шеър” асари ҳақида қизиқарли маълумотлар, асарнинг XII асрдан то ҳозирги кунга қадар бўлган аҳамияти, унда келтирилган адабий санъатлар ва мисоллар ҳақида сўз юритилган. Ушбу асар ўзидан кейин “илми бадеъ” билан машғул бўлган барча олимлар учун асосий манба сифатида хизмат қилган. Асар ҳозирги кунда ҳам ўзининг илмий-адабий қимматини йўқотмаган бўлиб, мазкур мақолада унинг кам сонли тошбосма нусхалари адабиётшунослик нуқтаи назаридан кўриб чиқилган. Асосий масала сифатида асарнинг манбашуносликдаги тутган ўрни ва аҳамияти, хусусан, мазкур асарнинг адабиётшунослик назариясига қўшган ҳиссаси ҳамда уларнинг турли таржималар ва тадқиқотларда қўлланилиши таҳлил этилган.

Аннотация. *В статье изучена работа Рашидуддина Ватвата «Сады волшебства в тонкостях поэзии» в качестве классического поэтического источника. Эта тема освещена научными статьями, диссертациями на русском языке и научной литературой на персидском языке. Указ Президента Республики Узбекистан от 24 мая 2017 года № ПП-2995 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы сохранения, исследования и популяризации древних письменных источников» открывает большие возможности для изучения многих рукописных источников, которые еще не изучены.*

Статья содержит интересные факты о работе Рашидуддина Ватвата «Сады волшебства в тонкостях поэзии», важности произведения с двенадцатого века до настоящего времени, а также литературные произведения и примеры. Эта работа послужила источником для ученых, которые занимались «илми бадийъ». Произведение не утратило своей научной и литературной ценности по сегодняшний день, и в этой статье с литературной точки зрения рассмотрено лишь небольшое количество его копий. Основным вопросом, поставленным в данной статье, является роль и значение работ в источниковедении, в частности, ее вклад в теорию литературной критики и ее использование в различных переводах и исследованиях.

Annotation. *This article explores the work of Rashid al-Din Watwat “Gardens of Magic in the intricacies of poetry” as a classic poetic source. This topic is covered in scientific articles, dissertations in Russian and scientific literature in Persian. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated May 24, 2017 № PP-2995 “On measures to further improve the system of preservation, research and popularization of ancient written sources” opens up great opportunities for studying many manuscript sources that have not yet been studied.*

The article contains interesting facts about the work of Rashiduddin Vatvat “Gardens of Magic in the intricacies of poetry”, the importance of the work from the 12th century to the present, as well as literary works and examples. This work served as a source for all scientists who were engaged in “bade’ science”. The work has not lost its scientific and literary value to this day and in this article, from a literary point of view, only a small number of copies are considered. As the main issue, the role and significance of the work in the source studies, in particular, the contribution of this work to the theory of literary and their using in various translations and studies are analyzed.

Калит сўзлар: *бадиият, шеърий санъатлар, илми бадеъ, поэтик манба, шеърий тасвир, панегирик шоир.*

Ключевые слова: *художественность, художественные фигурыы, бадиъ, поэтический источник, поэтический образ, поэт-панегирик.*

Key words: *art, poetic arts, badi, poetic source, poetic image, the poet-panegyric.*

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сонли «Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарорида «Матншунослик, адабий манбашунослик, тилшунослик, фалсафа, маданият тарихи соҳаларида миллий-маданий меросимизнинг ҳали ўрганилмаган кўпгина қатламларини очиб беришга йўналтирилган илмий тадқиқотларга алоҳида эътибор қаратиш» асосий вазифалардан бири сифатида белгиланган.[1]

Бу вазифа минг йиллик тарихга эга бўлган мумтоз адабиётимиз манбаларини ўрганиш билан ҳам чамбарчас боғлиқдир. Зеро, бадиият масаласи ҳамиша шеър аҳлининг диққат марказида бўлиб келган. У ёки бу ижодкор салоҳияти ҳақида сўз борганда, унинг объектга муносабати (нималарни тасвирлагани) билан биргаликда ҳадислар моҳиятини кўриш ва кўрсатишдаги маҳорати (уни қандай тасвирлагани)га ҳам эътибор қаратилган. Тасвирда фақат жанрнинг истифода этилишидан ташқари, қандай вазн ҳамда қофиялар тизимининг иштирок этгани, шунингдек, адабий асарларда шеърий санъатлардан фойдаланиш маҳорати ҳамма асрларда бадиий санъаткорликнинг асосий қирраларидан бири сифатида баҳоланган. Табиийки, бундай талаблар тегишли илмий рисолаларда ўз аксини топган.

Рашидиддин Ватвотнинг “Ҳадойиқ ус-сеҳр фи дақойиқ уш-шеър” асари XII асрнинг энг аҳамиятга молик форс адабиётшунослиги ҳақидаги фикрлари жамланган асарларидан биридир. Илми бадеънинг форсийзабон анъаналарини бошланишини Родуёний ва Ватвотларнинг асарлари бошлаб берди ва бу илм келажакда яна-да ривожланиб борди. Кейинги асрларда шеърият ҳақидаги барча илм мажмуаларни ўзида мужассам этган асарлар пайдо бўлди.

Рашидиддин Ватвотнинг “Ҳадойиқ ус-сеҳр фи дақойиқ уш-шеър” асари аруз илмидаги адабий санъатларга бағишланган бўлиб, уларни изоҳлашда кўплаб мисоллардан фойдаланилган. Ушбу асарни манбашунослик йўналишида тадқиқ этиш, поэтик нуқтаи назаридан ўрганиш, аруз илмидаги адабий санъатларга бағишланган мисолларни тадқиқ қилиш мақсад ва вазифаларимиздан иборат.

Илми бадеъга доир дастлабки асарлар араб олимлари томонидан яратилган. Наср ибн Ҳасаннинг “Маҳосин ул-калом”, Ибн ал-Муътазнинг (863–908) “Китоб ул-бадеъ”, Қуддама ибн Жаъфарнинг (888–948) “Нақд уш-шеър” номли асарлари ана шулар жумласидандир.

Илми бадеъга доир дастлабки форсий асар XI асрда юзага келди. У Муҳаммад бинни Умар Родуёний қаламига мансуб бўлиб, “Таржимон ул-балоға” деб аталади. XI–XII асрларда Аҳмад ибн Муҳаммад Маншури Самарқандий талаввун санъати ҳақида (буни Хуршидий “Канз ул-ғароиб” деб атаган), Абдумуҳаммад ибн Муҳаммад Рашидиддин Самарқандий (“Зийнатнома”) ва бошқа ижодкорлар шу илмга доир рисолалар ёзганлар. Бироқ XI–XII асрларда яратилган илми бадеъга доир асарлар орасида энг мукаммали Рашидиддин Ватвот номи билан машҳур бўлган хоразмлик шоир ва олим Рашидиддин Абубакр Муҳаммад ибн Муҳаммад ибн Абдулжалил Умар котибнинг “Ҳадойиқ ус-сеҳр фи дақойиқ уш-шеър” номли асаридир.

“Ҳадойиқ ус-сеҳр” буюк олим томонидан битилган юксак савиядаги асар бўлиб, ундан кейин илми бадеъ билан машғул бўлган барча муаллифлар ана шу асардан фойдаланганлар. Рашидиддин Ватвот асари ҳозирги кунга қадар ўзининг илмий-адабий қимматини йўқотган эмас. “Ҳадойиқ ус-сеҳр фи дақойиқ уш-шеър” Ватвотнинг поэтика бўйича асосий асари бўлиб, унда машҳур асарларининг барча манбалари айтиб ўтилган.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 7-sinfda kimyo fanini o‘qitishda o‘quvchilarning intellektual rivojlanish muammolarini hal qilishda algoritmik yondashuvdan foydalanish masalalari tahlil etilgan va muammoni hal qilish yo‘llari yoritilgan.*

Аннотация. *В статье анализируется использование алгоритмического подхода к решению задач интеллектуального развития, учащихся при обучении химии в 7-м классе общеобразовательной школы и обсуждаются пути решения проблемы.*

Annotation. *This article analyzes the use of an algorithmic approach to solving students' intellectual development problems in the teaching of chemistry in 7th grade in general secondary schools and discusses ways to solve the problem.*

Kalit so‘zlar: *algoritm, algoritmlar tuzish, nisbiy molekular massa, eritmaning massasi, erigan modda massasi, massa ulush, hajmiy ulush, modda miqdori, molyar massa, molyar hajm.*

Ключевые слова: *алгоритм, построение алгоритма, относительная молекулярная масса, масса раствора, масса растворенного вещества, массовая доля, объемная доля, количество вещества, молярная масса, молярный объем.*

Key words: *algorithm, algorithm design, relative molecular mass, mass of solution, mass of solute, mass fraction, volume fraction, amount of substance, molar mass, molar volume.*

Maktab kimyo kursidagi hisoblashga oid masalalar ko‘plab funksiyalarni bajaradi. Ular o‘quvchilarning oqilona fikrlash tarzini va mustaqilligini rivojlantiradi, subyektlararo aloqalarni amalga oshirishga imkon beradi, darsda olingan ma’lumotlarning mustahkamlanishiga yana bir karra hissa qo‘shadi. Shu bois ular nafaqat o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlarini tekshirish, balki ularning fikrlash uslubi va ijodiy qobiliyatlarini baholashda o‘qituvchiga katta yordam beradi.

O‘quvchilarning intellektual rivojlanish muammolarni hal qilishda hisoblashga oid masalalardan foydalanish o‘quv materialini mustahkam egallashning asoslaridan biri hisoblanadi, chunki bu orqali o‘quvchilar ongida nazariyalar va qonunlar haqidagi bilimlarni shakllantirish, qoidalar, formulalarni yodlash va kimyoviy reaksiyalar tenglamalarni tuzish kabi ko‘nikmalar hosil qilinadi. Muammolarni hal qilish jarayonida o‘quvchilarning murakkab aqliy faoliyati vujudga keladi, bu fikrlashning (bilimning) mazmunli hamda samarali tomonini (operatsiyalar, harakatlar) rivojlanishini ta’minlaydi.[1]

Kimyoviy masalalarda qo‘yilgan muammolarni hal qilishda algoritmlardan foydalanish o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, moddalarning miqdorlari o‘rasidagi munosabatlarni tahlil qilish, o‘rganilayotgan narsalarning asosiy qismini ajratish, muammolarni hal qilishning maqbul usullarini izlab topish, harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri belgilashga imkon beradi. Ayrim turdagi masa-

[1] Ataullayev Z.M., Qo‘shbaqov F.Z., Eshchanov R.A. Kimyoni o‘rganishda o‘quvchilarda o‘z-o‘zini tartibga solish ko‘nikmalarini shakllantirish. O‘zRFA Mintaqaviy bo‘limi Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2021.

lalarni yechishda hisoblashlarni tezlashtirish maqsadida kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanish talab etiladi.[1]

Hisoblashga oid masalalarni yechishda chiziqli algoritmlardan keng foydalaniladi. Algoritmlarni yozishda hisoblash muammolarini yechish va loyihalashga qo‘yiladigan quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

1. Muammoning shartini aniq shakllantirish.

2. Muammo shartini IUPAC qoidalariga muvofiq fizik miqdorlarni ko‘rsatuvchi ikkita qismga: “berilgan” va “topiladigan”larga ajratib yozish.

3. Ma’lumotlarning ortiqchaligi yoki yetishmasligi hisobga olib mavjud ma’lumotlarni tahlil qilish.

4. “Berilganlar”ga yechim uchun zarur bo‘lgan barcha fizik miqdorlarni yozish.

5. Bitta sonli qiymatlarni sozlash orqali umumiy shaklda muammoni oqilona hal qilish.

6. Har bir harakatni tushuntirish xati bilan boshlash.

7. Matematik amallarni faqat sonlar bilan emas, balki o‘lchov birliklari bilan ham bajarish.

8. Javobning son qiymatini yuqori aniqlikda berish.

9. Murakkab formulalarni ishlatmasdan turib muammoli savolga to‘liq javob yozish.

10. Olingan natijani masalaning teskari shartlarini tuzish orqali tekshirib ko‘rish.

Hisoblash masalasini yechishning umumiy algoritmlari quyidalar hisoblanadi:

1. Masalaning matnini o‘qish, uning mohiyatini tushunib olish.

2. Masala yechimining ketma-ketligini belgilab olish.

Ular, o‘z navbatida, quyidagi bosqichlardan iborat:

– matnni o‘qish;

– muammoning holati haqida qisqacha ma’lumot to‘plash va uni tahlil qilish.

3. Qo‘yilgan vazifaning matematik qismini bajarish. U, o‘z navbatida, quyidagi bosqichlardan iborat:

– oqilona yechim yo‘lini tanlash;

– hisob-kitoblarni bajarish;

– masalaning javobini yozish.

4. Olingan natijalarni tekshirish.

5. Masalaning yechimini to‘g‘riligini tekshirish uchun teskari shart tuzish.

Kimyodan masalalar yechishda tuziladigan algoritmlar, albatta, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga bog‘liq bo‘lishi lozim. 7-sinfda o‘quvchilarning kimyoviy tushunchalar va qonunlar haqidagi egallagan bilimlarini mustahkamlash, ma’lumotlarni takrorlash va umumlashtirish davomida o‘quvchilar oldiga qo‘yiladigan muammolarni asta-sekin murakkablashtirib borish kerak.[2]

Masalan, 7-sinf o‘quvchilariga algoritm tuzish sifatida natriy xlorid (NaCl)ning formulasini yozish va uning nisbiy molekular massasini hisoblash tavsiya etilishi mumkin. Albatta, bunda o‘quvchilarning e’tibori nisbiy molekular massa har bir element atomlarining sonini hisobga olgan holda, moddani tashkil etuvchi elementlarning nisbiy atom massalari yig‘indisi ekanligiga qaratiladi. Berilgan formula asosida natriy xloridning nisbiy molekular massasi hisoblab topiladi:

Mr (NaCl) =n1·Ar (Na)+n2·Ar (Cl)

Mr (NaCl) =23+35,5=58,5

Keyingi navbatda o‘quvchilar birikmadagi elementlarning massa ulushlarini hisoblashlari lozim. Buning uchun o‘quvchilar elementlarning nisbiy atom massasini atomlar soniga ko‘paytirib ularning massasini topish so‘ngra elementlar massasining nisbati hisoblash kerakligi tushuntiriladi. Natriy xlorid tarkibidagi elementlar massasining nisbati quyidagicha hisoblanadi:

m(Na):m(Cl)=n1·Ar (Na):n2·Ar (Cl)=23:35,5

O‘quvchilar hal qilingan ikkita masala o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatib, ko‘rib chiqilayotgan ikki turdagi masalalar orasidagi farqni aniqlab olganlaridan so‘ng, ularga uchinchi muammo – natriy xloriddagi elementlarning massa ulushlarini hisoblash taklif qilinadi (1-jadval).

[1] Атауллаев З.М. Важность формирования типа самостоятельной учебы студентов в высшей школе. “Гуманитарный тракт”, 2020, №98, с. 15–18. https://idpluton.ru/vypusk-97-nauchnogo-zhurnala-gumanitarnyj-traktat-2/

[2] Е.В.Лагуткина, И.Б.Катраков. Методика решения задач по химии. Барнаул, издательство Алтайского государственного университета, 2014.

1-jadval

Moddadagi elementning massa ulushini hisoblashga oid masalalarini yechish algoritmi

Bajariladigan harakatlar ketma-ketligi	Harakatlarni bajarishga misol
1. Muammo matnini o‘qing.	1. Natriy xlorid NaClni tashkil etuvchi elementlarning har birining massa ulushini hisoblang.
2. Umumiy qabul qilingan belgi yordamida muammoning shartlari va talabini yozing.	2. Berilgan: NaCl birikmasining tarkibi. Hisoblab topish: ω (Na)-?, ω (Cl)-?
3. Moddadagi elementning massa ulushini hisoblashning asosiy formulasini yozing.	3. ω(x) = n(x) · Ar(x) / Mr(modda)
4. NaCl ning nisbiy molekular massasini hisoblang.	4. Ar (Na)=23, Ar (Cl)=35,5 Javob: (NaCl)=23+35,5=58,5
5.Hisoblangan qiymatlarni moddadagi elementning massa ulushini hisoblash formulasiga almashtiring.	5.ω (Na)=1 ·23/58,5=0,39 ω (Cl)=1· 35,5/58,5=0,61
6. Tekshiruv o‘tkazing: birikmani tashkil etuvchi barcha elementlarning massa ulushlari yig‘indisi 1 ga teng bo‘lishi lozim.	6. Tekshirish: ω(Na)+ω(Cl)=0,39+0,61=1
7. Muammoning javobini yozing.	7. Javob: Natriy xloridda natriyning massa ulushi 0,39, xlorning massa ulushi 0,69 ga teng.

Darsda o‘quvchilardan modda tarkibidagi elementning massa ulushi nimani anglatishi og‘zaki so‘rash mumkin. Agar o‘quvchilar ta’rifni chalkashtirib yuborsalar, uni daftarga yozib qo‘yish tavsiya etiladi. Moddadagi elementning massa ulushini (ω) algebraik formula yordamida osongina hisoblash mumkin:

$$\omega(x) = n(x) \cdot Ar(x) / Mr(modda)$$

Ushbu turdagi muammolarning teskarisi biror-bir birikmadagi elementlarning massa ulushlari va birikmaning nisbiy molekular massasi ma’lum bo‘lsa, moddaning molekular formulasini aniqlash muammosini o‘z ichiga oladi. Bunday masalaning sharti quyidagicha bo‘lishi mumkin: to‘yingan uglevodorodning to‘la xlorlanish mahsulotining nisbiy molekular massasi 237 ga teng. Ushbu murakkab modda tarkibidagi xlorning massa ulushi 0,899, uglerodning massa ulushi esa 0,101ga teng. Xlorli hosilaning molekular formulasini aniqlang. Ushbu turdagi muammolarni hal qilishda asosiy formula quyidagicha bo‘ladi:

$$n(x)=\omega(x)\cdot Mr(modda)/Ar(x)$$

Bajarilgan ishlarni sarhisob qilish orqali o‘quvchilar modda tarkibidagi elementlarning massa ulushlarini hisoblash va moddaning molekular formulasini keltirib chiqarishga oid masalalarni yechish-da o‘xshashlik borligini tushunib yetadilar. Shu bilan birga, moddaning empirik va haqiqiy formulasini topishda, odatda nisbiy molekular massa masala shartida berilmasligi bilan bog‘liq bo‘lgan farq qayd etiladi, lekin uni hisoblashga imkon beradigan qiymatlar ko‘rsatiladi: masalan, modda bug‘ining havoga nisbatan zichligi, ma’lum namunadagi massasi, uning hajmi ma’lum bo‘lishi mumkin. Bu vazifalarni oddiy deb qarash mumkin, chunki ularning yechimi boshqa mavzulardan qo‘shimcha bilimlarni talab qilmaydi va ularni hal qilish uchun ishlatiladigan matematik hisoblar ham juda oddiy.

O‘quvchilarning moddadagi elementning massa ulushini hisoblash bo‘yicha hosil qilgan ko‘nikmalariga asoslanib, eritmadagi erigan moddaning massa ulushini aniqlashga oid masalalarni yechish usullarini o‘rgatiladi. O‘quvchilar elementning massa ulushini hisoblash formulasini eslaydilar:

$$\omega(x)=n(x)\cdot Ar(x)/Mr(modda)$$

Matematika nuqtayi nazaridan, bu har xil massa ulushlarni hisoblash uchun masalani yechishda umumiylik borligini ifodalovchi qismidan boshqa narsa emas. Keyingi navbatda o‘quvchilarga eritma ikki komponentdan ya’ni erigan modda va erituvchidan iborat, eritmaning massasi (m) erigan modda massasi (m1) va erituvchi massasi (m2) yig‘indisiga teng ekanligi tushuntilariladi:

$$\mathbf{m(eritma)=m_1\,(erigan\ modda)+m_2\,(erituvchi)}$$

Eritmada erigan moddaning massa ulushi erigan modda massasining eritma massasiga nisbati orqali aniqlanadi. U holda hisoblashlar quyidagi formulalar orqali amalga oshiriladi:

$\omega(\text{erigan modda}) = m_1\,(\text{erigan modda})/m\,(\text{eritma})$

yoki $\omega(\text{erigan modda}) = m_1\,(\text{erigan modda})/m1\,(\text{erigan modda})+m_2\,(\text{erituvchi})$.

Bunda shuni ham yodda tutish kerakki, eritmaning massasi eritmaning hajmi (V) va uning zichligi (ρ) ko‘paytmasi orqali ifodalanishi mumkin:

$m\,(\text{eritma}) = V\,(\text{eritma})\cdot \rho\,(\text{eritma})$.

Bundan:

ω(erigan modda)=m1 (erigan modda)/V(eritma)·ρ(eritma)

Olingan formulalar eritmalarga oid turli masalalarni yechish: eritmadagi erigan moddaning massa ulushi, erigan moddaning va erituvchining massasini, eritmaning hajmi va uning zichligi hisoblash imkonini beradi. Quyidagi 2-jadvalda eritmadagi erigan moddaning massa ulushidan foydalanib, moddaning massasini hisoblash masalasining yechish algoritmi kelitirilgan.

2-jadval

Eritmadagi erigan moddaning massa ulushidan foydalanib, moddaning massasini hisoblash masalasining yechish algoritmi

Bajariladigan harakatlar ketma-ketligi	Harakatlarni bajarishga misol
1. Masala matnini o‘qing.	1. 500 g 5% li yod damlamasini tayyorlash uchun necha gramm yod va spirt olish kerak?
2. Umumiy qabul qilingan belgilardan foydalanib, masalaning sharti va talabini yozing.	2. Berilgan: m (eritma)=500 g; ω (yod)=5% (massa ulush foizsiz olinsa ω (yod)=0,5) Hisoblab topiladi: m_1 (erigan modda), m_2(erituvchi).
3. Eritmada erigan moddaning massa ulushini hisoblash formulasini yozing va u orqali yodning massasini hisoblash formulasini kelirib chiqaring.	3. ω(erigan modda) = m_1 (erigan modda) / m (eritma); m_1 (erigan modda)=ω(erigan modda) · m (eritma).
4. Erigan moddaning massasini hisoblang.	4. m_1 (yod)=0.5·500=25g
5. Erituvchining massasini hisoblash formulasini yozing.	5. m(eritma) = m_1 (erigan modda)+m_2(erituvchi), demak, m_2 (erituvchi)=m(eritma)-m1(erigan modda)
6. Erituvchining massasini hisoblang.	6. m_2(spirt)=500–25=475 g.
7. Muammoning javobini yozing.	7. Javob: yodning massasi 25 g, spirtning massasi 475 g.

O‘quvchilarda massa ulushga o‘xshab, gazlar aralashmasidagi gazsimon moddaning hajmiy ulushi bo‘yicha, shuningdek, eritmada erigan moddaning hajmiy ulushi – erigan modda hajmini eritma hajmiga nisbati ekanligi haqida tushuncha hosil qilish mumkin. Uni quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

φ(x) = V(x) /V (sistema),

bu yerda V(x) – gazlar aralashmasidagi gazsimon moddaning yoki eritmada erigan moddaning hajmi, l; V(sistema) – gazlar aralashmasi yoki eritmaning umumiy hajmi.

Hajmiy ulush, massa ulushi kabi, o‘lchamsiz kattalik bo‘lib, u birning ulushi sifatida yoki foizlarda ifodalanadi. Quyidagi 3-jadvalda gazlar aralashmasidagi gazsimon moddaning hajmiy ulushini hisoblash masalalarini yechish algoritmi keltirilgan.

3-jadval

Gazlar aralashmasidagi gazsimon moddaning hajm ulushini hisoblash masalalarini yechish algoritmi

Bajariladigan harakatlar ketma-ketligi	Harakatni bajarishga misol
1. Masala matnini o‘qing.	1. Agar havoning dastlabki hajmi 80 litr bo‘lsa va siz bilganingizdek havodagi kislorodning hajmiy ulushi 0,21 ga teng bo‘lsa, suyuq havoni fraksiyon haydash orqali undan necha litr kislorod olish mumkin?
2. Umumiy qabul qilingan belgidan foydalanib, masalaning sharti va talabini yozing.	2. Berilgan: V(havo)=80 l φ(O2)=0,21 Hisoblab topiladi: V(O2)-?
3. Gazlar aralashmasidagi gazsimon moddaning hajmiy ulushini hisoblash formulasini yozing va u orqali kislorodning hajmini hisoblash formulasini keltirib chiqaring.	3. φ(x) =V(x)/V(sistema), demak, V (O_2)=V(havo) ·φ(O_2)
4. Gazlar aralashmasidagi gazsimon moddaning hajmini hisoblang.	4. V (O_2)=80·0,21=16,8 l.
5. Muammoning javobini yozing.	Javob: Kislorod hajmi 16,8 litr.

Murakkab masalalarni hal qilishda “mol”, “modda miqdori”, “molyar hajm” va boshqa shu kabi tushunchalardan foydalanish taqazo etiladi. 4-jadvalda gazlar aralashmasiga oid masalada “modda miqdori” kabi tushuncha qo‘llaniladigan masalani hal qilish algoritmi ko‘rsatilgan.

4-jadval

Gazlar aralashmasidagi ma’lum birikmaning miqdori va hajmidan foydalangan holda, gazsimon moddaning massasini hisoblash masalalarini yechish algoritmi

Bajariladigan harakatlar ketma-ketligi	Harakatlarni bajarishga misol
1. Masala matnini o‘qing.	1. Havodagi azotning hajm ulushi 0,78 ga teng ekanligi ma’lum bo‘lsa, 280 litr havodan olingan azotning massasini toping.
2. Umumiy qabul qilingan belgilardan foydalanib, masalaning sharti va talabini yozing.	2. Berilgan: V (havo)=280 l φ (N_2)=0,78. Hisoblab topiladi: m (N_2)
3. Gazlar aralashmasidagi gazsimon moddaning hajmiy ulushini hisoblash formulasini yozing va u orqali azotning hajmini hisoblash formulasini keltirib chiqaring.	3. φ(x) =V(x)/V (sistema). demak, V (N_2)=V(havo)·φ(N_2)
4.Gazlar aralashmasidagi gazsimon moddaning hajmini hisoblang.	4. V (N_2)=280·0,78=218,4 l
5. Moddaning massasini hisoblash formulasini yozing.	5. m (N_2)=M (N_2)·n(N_2), bu yerda M (N_2)=28 g/mol
6. Gazsimon moddaning miqdorini hisoblash formulasini yozing.	6. n(N_2) = V (N_2) / Vm, bu yerda molyar hajm Vm = 22,4 l/mol.
7. Gazsimon moddaning miqdorini hisoblang.	7. n(N_2)=218,4 l/22,4 l/mol=9,75 mol
8. Gazsimon moddaning massasini hisoblang.	8. m (N_2)=28 g/mol·9,75 mol=273 g.
9. Muammoning javobini yozing	9. Javob: demak, azotning massasi 273 g

Ushbu turdagi muammolarni ko‘rib chiqishda “modda miqdori” tushunchasini takrorlash va uni qiymatini topishning barcha usullarini esga olish tavsiya etiladi, xususan:

n(x) = m(x)/M(x);

n(x) = V(x)/Vm;

n(x) = N(x)/NA;

bu yerda: n – moddaning miqdori, mol; Vm – molyar hajm (22,4 l/mol); N_A – Avogadro doimiysi ($6,02*10^{23}$ mol^{-1}).

Kombinatsiyalangan vazifalar nostandart vazifalardir. O‘quvchilardan juda kuchli bilimni, ya’ni qo‘shimcha ma’lumot beruvchi manbalardan olingan bilimlarni ham talab qiladigan murakkabligi yuqori bo‘lgan nostandart vazifalar, ko‘pincha, kimyo faniga ixtisoslashgan sinflarda qo‘llaniladi.

Allaberganova Muyassar Rimberganovna (TATU Urganch filiali assistent o‘qituvchisi: amuyassar83@gmail.com),
Olloberganova Muyassar Davlatboy qizi (TATU Urganch filiali talabasi: olloberganovamuyassar@gmail.com)
Ravshanqulov Abbos Ravshanqul o‘g‘li (TATU Urganch filiali talabasi: ravshanqulovabbos3@gmail.com)

TA’LIMDA IOT ILOVALARINING ROLI

Annotatsiya. *Internet ashyolari (IoT) ilovalari insonlar va obyektlarni istalgan vaqtda, istalgan joyda, istalgan xizmatni Internet yordamida amalga oshirish imkonini beradi. Ushbu maqolada IoT sohalari va IoT ilovalaridan ta’lim sohasida foydalanish bo‘yicha qisqacha ma’lumot berilgan. Maqola uchta asosiy qismdan iborat: birinchisi, IoT ilovalari haqida umumiy ma’lumot, ikkinchisi, ta’lim sohasida IoT va uchinchisi, IoT yordamida ta’limdagi qo‘shimcha muhim narsalar.*

Аннотация. *Приложение Интернет-материалов (IoT) позволяет людям и объектам получать любую услугу с помощью Интернета в любое время и в любом месте. В статье представлен краткий обзор приложения и его использования в образовании. Статья состоит из трех основных частей: во-первых, обзор приложений IoT, во-вторых, IoT в образовании и в-третьих, дополнительные важные аспекты образования на основе IoT.*

Annotation. *Things of Internet (IoT) – applications enable people and objects to receive any service over the Internet anytime, anywhere. This article provides a quick overview of the IoT and the use of IoT applications in education. The article consists of three main parts: first, an overview of IoT applications, second, IoT in education and third, additional important aspects of IoT-based education.*

Kalit so‘z: *aqlli ta’lim, kuzatuv, xavfsizlik tizimi, ogohlantirishlar, IoT ilovalari.*

Ключевые слова: *интеллектуальное образование, наблюдение, система безопасности, предупреждения, приложения IoT.*

Key words: *intelligent education, surveillance, security system, alerts, IoT applications.*

Kirish. Internet ashyolari (IoT) – bu kundalik hayotimizning ko‘p jihatlarini o‘zgartirish jarayoni demakdir. IoT texnologiyalari oldingi innovatsiyalardan hamma joyda qo‘llanilishi, intellektual va avtonom muhit yaratishi bilan farq qiladi. Narsalar interneti sohasidagi yutuqlar inson faoliyatining barcha sohalaridagi asosiy strategik tendensiyasidir. Hamma joyda mavjud bo‘lgan sensorlar va olam va virtual olam o‘rtasidagi bo‘shliqni bartaraf etish qobiliyati yangi ta’lim modeli uchun konseptual asos sifatida qabul qilinadi. Biz yashab turgan olam milliardlab qurilma-obyektlarini mavjud Internet infratuzilmasiga ulash uchun har qanday obyektga sensorlarni o‘rnatish g‘oyasi tufayli onlayn rejimga o‘tadi.

Texnologiyalar ta’lim olamini o‘zgartirdi. Hayot tarzimizda ta’lim texnologiyalari sinfda planshetlardan foydalanishdan tortib, to ochiq universitetlarning innovatsion o‘quv jarayonigacha o‘zgartirdi. Biroq, bu o‘zgarishlar internet ashyolari (IoT – Internet of Things) qo‘llanilishi ta’limda sodir bo‘layotgan ommaviy o‘zgarishlar bilan solishtirganda ahamiyatsizdir.[1]

Insonlarni, jarayonlarni, qurilmalarni va ma’lumotlarni bog‘laydigan IoT biz to‘plashimiz mumkin bo‘lgan ma’lumotlarning miqdori va qiymatini oshiradi, bu esa ta’lim sektorining manfaatdor tomonlariga ma’lumotlarni hech qachon ko‘rilmagan qimmatli ma’lumotlarga aylantirish imkonini beradi.

IoT yordamida ta’lim muassasalari boy ta’lim tajribasini taqdim etish, samaradorlikni oshirish va real vaqt rejimida o‘quvchilar faoliyati haqida ma’lumotga ega bo‘lish orqali ta’lim natijalarini yaxshilashi mumkin.

Mobil texnologiyalarning ishga tushirilishi bilan ta’lim muassasalari ta’limga tegishli umumiy resurslarni kuzatib borishlari mumkin. IoT o‘qitish, o‘rganish va hatto baholashda ham asosiy rolni o‘ynaydi. IoT yordamida resurslarni ishtirokchilarga innovatsion tarzda yetkazib berishga yordam beradi. IoT talabalar ta’lim olishining barcha jabhalariga ta’sir ko‘rsatish potentsialiga ega. Ushbu tushuncha manfaatdor tomonlarga real vaqt rejimida talabalar, xodimlar va manbalarni ko‘rish imkonini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, qaror qabul qilishda, avtomatik bajarilishida va xavfsizlik xususiyatlarini ta’minlashda yordam beradi.[2]



1-rasm. IoT ilovalari.

IoT ilovalari. Kundalik hayotimizda ko‘plab IoT ilovalarini ishlatishimiz mumkin. Odatda, o‘rnatilgan ilovalardan ayrimlari quyida keltirilgan:[3]

–oson boshqarish uchun multimedia sektori;

–uyni avtomatlashtirish, komponentlarni boshqarish va xavfsizlikni amalga oshirish;

–logistika xizmatini kuzatish;

[1] Marge Kusmin, IFI8101 – Information Society Approaches and ICT Processes.

[2] Cisco, The Internet of Everything: Fueling Educational Innovation.

[3] IoT Applications, https://x-systems.com/mobile-iot-security–solutions/education

–rejalashtirish masalalarini samarali amalga oshirilishi;

–transport vositalarini kuzatib borish uchun IoT;

–sog‘liqni saqlash sanoati;

–elektron sog‘liqni saqlash tizimi, xususan, qon bosimi, yurak urish tezligini kuzatishdan tortib masofaviy operatsiyalargacha qo‘llashi mumkin;

–atrof-muhit monitoringi, shu jumladan, havo, suv sifati, tuproq, yovvoyi tabiat monitoringini yuritish mumkin;

–infratuzilmani boshqarish, shahar va qishloq aktivlari monitoringini yuritish;

–aqlli avtoturargoh, aqlli trafikni boshqarish, transport vositalari o‘rtasida aloqa va h.k.;

–oziq-ovqat sanoati, qishloq xo‘jaligi va shu kabilardagi sanoat loyihalari.

Aqlli qurilmalar va narsalar o‘rtasidagi o‘rnatilgan aloqa tufayli ko‘plab IoT ilovalari sohasida tez o‘sish kuzatildi. Shunday qilib, IoT ilovalari aqlli muhitga va aqlli hayot iqtisodiyotiga ega aqlli mobillikka olib keladigan ko‘plab sohalarini rivojlantiradi.

Ta’limda IoT.[1] Aqlli ta’lim. Bulutli hisoblash, o‘rganish tahlili, katta ma’lumotlar, narsalar interneti (IoT), taqiladigan texnologiyalar va boshqalar kabi aqlli texnologiyalar aqlli ta’limni moddiylashtirishga yordam beradi.

Aqlli o‘qitish. Aqlli o‘qitish – bu bo‘r va nutq usulidan butunlay farq qiladigan maxsus o‘qitish usuli. Bu yerda o‘qituvchi turli vositalar orqali elektron gadjetlar yordamida ta’lim beradi. Bu o‘quvchiga mavjud bo‘lgan keng tanlov asosida bilimlarni o‘rganishga yordam beradi, shuningdek, masofaviy sifatli kontentni taqdim etadi.

Aqlli o‘qish. Hozirgi kungacha aqlli o‘rganish atamasiga aniq va hamma yerda amal qiladigan ta’rif yo‘q, mustaqil fan sohalarini o‘rganuvchi olimlar va ta’lim sohasidagi professorlar tomonidan smart learning tushunchasi doimiy muhokama qilinadi. Smart learning bu fanlarni va narsalarni electron gadjetlar orqali o‘rganishdir. Bu shaxsni o‘zi mustaqil o‘rganishini rivojlantiradi.

Aqlli sinfxona. Bu sinfxona o‘qish va o‘qitish amalga oshiriladigan joydir. Bu yerda o‘qish, o‘qitish, baholash samarali amalga oshiriladi. Odatda, aqlli sinfxonalarda elektron gadjetlar, masalan, raqamli monitor, proyektor, interneti mavjud qurilmalardan foydalaniladi.

Aqlli transportni tashkillashtirish.[2] Maktab avtobuslari aqlli texnologiyalar yordamida kuzatilishi va boshqarilishi mumkin. Quyidagilar aqlli transport boshqaruvining bir necha turlari quyida keltirilgan:

Bus Atendance. Har bir talabaning ishtiroki iris scanner yoki RFID reader yordamida **custom cloud application**da yangilanib yig‘ib boriladi.

SMS xabarnoma. Avtomatik olib ketish va qaytish vaqtlari ota-onalarga mobil telefoniga xabar tarsida jo‘natiladi.

Route Adhenence. ogohlantiruvchi xabarnomalar haydovchi yo‘nalishni yoqig‘i, vaqtni tejash yoki xavfsizlikni ta’minlash maqsadida yo‘nalishni o‘zgartirganda xabarnoma jo‘natiladi.

Jonli kuzatuv. Avtobus harakatini xaritadan jonli kuzatish mumkin.

Favqulotda vaziyatda boshqaruvi. Favqulodda holatlarda, avtobus yo‘nalishini tanlab talabaning ma’lumotlari jumladan qon guruhi kontaktlari shifoxonaga tezda jo‘natiladi.

Haydovch tahlili. Avtomatik ravishda haydovchining xulq-atvori haqida hisobotlar qabul qilinadi va haydovchining tezlik boshqaruvi avtomobil haydash ko‘nikmasi, jadvalga rioya qilishiga qarab baho beriladi.

Oldini olish qurilmasini sozlash:

Sensorlar va ilovalar muammo paydo bo‘lsa yoki haydovchi to‘g‘ri harakatlanmasa ogohlantiruvchi signallar orqali mexanik xatolikning oldini oladi.

Yuklab olinadigan axborotlar va priborlar doskasi hamma xabarlar, jumladan, ishtiroklar, avtobus joylashuvi tezligi, yo‘nalish tarixi va boshqa yo‘nalishlar bo‘limlaridan xohlagan vaqtda foydalanish mumkin.

Ta’limda IoT ilova sohalari. IoT ta’limga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi, asosan, ta’lim jarayonini soddalashtiradi va ta’lim sifatining ahamiyatini oshiradi. U o‘qish va o‘qitish jarayoniga keng ta’sir ko‘rsatadi. Baholash va tahlil jarayoning yangilanishi hozirgi kunda juda zarur va IoT bu sektorga

[1] Understanding the Internet of Things (IoT), GSM Association, (2014).

[2] Kortuem, Gerd; Bandara, Arosha; Smith, Neil; Richards, Michael, and Petre, Marian (2013). Educating the Internet-of-Things generation. Computer, 46(2), pp. 53 – 61.

tatbiq etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘qitish o‘qish va baholashga ko‘proq ahamiyat berilsa, ta’limning sifati yanada oshadi.

Samarali o‘qish tajribasi.[1] IoT ning asosiy funksiyanalligi bu qurilma bilan qurilma aloqalaridir. Raqamli ta’limning ko‘plab e-qurilmalarni o‘z ichiga olishi tufayli qaror qabul qilish va qurilmaning ishga tushirilishi ko‘p vaqt talab qiladi. IoT platformasi orqali qurilmaning boshqa qurilmalar bilan bog‘lanishi boshqariladi va shu sababli samarali o‘qitish tajribalari o‘quvchilarga yetkaziladi.

Boshqaruv samaradorligining oshishi. Ta’lim muassasalarida ko‘plab manfaatdor tomonlar mavjud. Kutilgan natijaga erishish uchun talabalar, xodimlar va ta’lim resurslari doimiy kuzatib borilishi zarur. Har bir qurilmaning faoliyati IoT texnologiyalarining tatbiq etilishi yordamida samarali amalga oshiriladi. Ta’sirchan operativ boshqaruv butun tizimning muvaffaqiyatiga olib keladi. Tizim turli xil tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi. Alohida maqsadli va har bir predmetning individuallashtirilgan boshqaruvga ega bo‘lishi tizimning butunlay rivojlanishiga olib keladi.

Harajatlarning kamayishi. Ta’lim tashkilotlarida asosiy moliyaviy xarajatlar muassasaning turli xil jihozlar bilan taminlanishiga sarflanadi. IoT dan foydalanish orqali jihozlar bilan avtomatik aloqa olib borish sarflanadigan mablag‘ning kamayishiga olib keladi. Kuzatuv nazorati bir daqiqada amalga oshiriladi va bu umumiy sarf-xarajatlarning ham kamayishiga olib keladi.

Ishonchlilik. Ishonchli tizim yaxshiroq natijaga olib keladi. Butun tizimning ishonchliligi tizimda mavjud bo‘lgan individual tarkibiy qismlarga bog‘liq. IoT tarkibiy qismlar boshqaruvini o‘z ichiga olganligi sababli bu ishonchlilikni ham ta’minlaydi.

Xavfsizlik shartlari. Iot tizimi orqali muassasaning to‘liq xavfsizligi nazorat qilinadi. Yong‘indan himoya qilish, kirish taqiqlangan hududlar, ya’ni talabalar uchun cheklangan hududlar, tashqaridan kelgan shaxslar uchun kirish yo‘laklari va boshqalar oson nazorat qilinishi mumkin va doimiy kuzatuvga olinishi mumkin. Avtomatik kommunikatsiya mavjud qurilmalar orasida bo‘lganligi sababli, muasssasa hududida maxsus nazoratni o‘rnatish oson bo‘ladi. Bu bizga bino tashqarisida ham maxsus simsiz aloqa qurilmalari yordamida xavfsizlikni ta’minlashga yordam beradi. Transport vositalari nazoratga olinishi va xavfsizlik ta’minlanishi mumkin.

Xulosa. Kompyuterlaring keyingi davrdagi to‘lqini odatiy monitorlar hududlaridan tashqarida bo‘lishi mumkin. IoTlarda bizning atrofimizdagi narsalar bir-biri bilan har xil ko‘rinishda aloqa qiladi. Ichiga o‘rnatilgan qurilmalar maxsus texnologiyalar tufayli yangi qiyinchiliklarni boshdan kechiradi. IoT ilovalarining foydalanish imkoniyatlarining ko‘payishi va rivojlanishi hamda smart qurilmalarning imkoniyatlarining ortishi xizmat ko‘rsatish sohalarning rivojlanishiga olib keladi. Aqlli ta’limning maqsadi o‘quvchilarning o‘qish jarayoni sifatini oshirishdir. U o‘quvchilarni aqlli muhitda muammolarni hal qila olish qobiliyatini rivojlantiradi.

Madaminov Uktamjon Ataxanovich (TATU Urganch filiali assistent o‘qituvchisi; uktam9527@gmail.com),
Ishmetov Bahrom Yangibayevich (TATU Urganch filiali stajyor o‘qituvchisi, ishmetov_bahrom@ubtuit.uz),
Sultanov Otajon Rajabboy o‘g‘li (TATU Urganch filiali magistranti; otajonsultonov96@gmail.com),

OLIY TA’LIM TIZIMIDA WEB DIZAYN ASOSLARINI O‘RGATISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim tizimi uchun bugungi kunda keng qo‘llaniluvchi zamonaviy axborot texnologiyalari va ulardan foydalanish metodikasi, web dizayn dars jarayonlarining samaradorligida bu texnologiyalarning tutgan o‘rni batafsil yoritib berilgan. Shu bilan birga, bugungi kunda yetuk mutaxassislarni tayyorlash uchun amaliy ko‘rsatmalar va bunda axborot texnologiyalarining tutgan o‘rni haqida aytib o‘tilgan.*

Аннотация. *В данной научной статье подробно описаны современные информационные технологии и методы их использования, которые сегодня широко используются в системе образования, роль этих технологий в учебном процессе. В то же время существуют практические рекомендации по подготовке ведущих специалистов сегодня, а также роль информационных технологий в этом.*

Annotation*. This scientific article describes in detail the modern information technologies and methods of their use, which are widely used today for the education system, the role of these technologies in*

[1] Samuel Dickerson, Internet of Things in Undergraduate Education, (2015), SSOE IotSeminar, Pittsburgh, PA.

the teaching process. At the same time, there are practical guidelines for the training of leading specialists today, as well as the role of information technology in this.

Kalit so‘zlar: *Web dizayn, ta’lim, axborot, pedagogika, online, zamonaviy, an’anaviy, texnologiya.*

Ключевые слова: *Веб дизайн, образование, информация, педагогика, онлайн, современный, традиционный, технология.*

Key words: *Web design, education, information, pedagogy, online, modern, traditional, technology.*

Bugun biz axborot, yangi axborot texnologiyalari deb atalmish XXI asrda yashamoqdamiz. Axborot asrida yashamoq, shu zamon ruhida nafas olmoq bugungi kunning faol ishtirokchisi hisoblanuvchi har bir talaba va talaba oldiga zamon talablari asosida ish yurita olish, jahon andozalariga mos bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish, kompyuter, yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni bilish kabi mas’uliyatli vazifalarni qo‘yadi. Bunday bilimlarni va ko‘nikmalarni shakllantirishimiz barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishda muhim mezondir. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Biz qiyin sharoitda kelajagimiz poydevorini qurib oldik. Bunga o‘rnimizga keladigan yosh avlod qanday baho beradi, loyihalarimizni taroziga solib ko‘rib nima deydi? Har birimiz ana shu savollarni dilga tugib mehnat qilishimiz lozim. Shunday ekan, endilikda oliy ta’limining bugungi kundagi vazifalaridan biri talabalar ongida ilmni to‘g‘ri va ilmiy ko‘rinishda bila olishi shakllanishining mukammal usullarini ishlab chiqishdan iborat. Shuning uchun ham hozirgi kunda ko‘pchilik mutaxasislar axborot texnologiyalarning yangi va samarali yo‘nali-shini o‘rganishga yo‘naltirilgan, xususan, web texnologiya va www butun dunyo cho‘lg‘amining ishlab turish asoslari, web sahifa saytlarni yaratish va rivojlantirishni, ularni internetga reklama qilishning ahamiyati beqiyos katta desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Hozirgi paytda har bir tashkilot qaysi sohada ish olib bormasin, dunyo bozoriga chiqish uchun o‘z faoliyatida internetdan foydalanish zarurligiga katta e’tibor qaratmoqda.[1]

Internetda axborotni joylashtirish uchun uning ko‘rinishi qulay bo‘lishi, ya’ni:

web-dizaynga katta e’tibor berish zarur, chunki sahifadagi foydalanuvchi axborot har tomonlama bo‘lishi mumkin va u web saytga joylashtiriladi. Mohirlik bilan yaratilgan sayt, qoida bo‘yicha, informatsion yagona bus-butun bo‘lishi va joylashtirilgan axborotning ahamiyatiga qarab, ma’lum standartga ega bo‘lishi kerak. Shu sababli ham ushbu ilmiy maqola oliy ta’lim tizimida web dizaynni o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishga bag‘ishlandi.

Web dizaynda qo‘llaniladigan bir qancha dasturiy vositalar mavjud. Bir qancha uskunaviy dasturlar, turli dasturlash tillari va boshqalar. Eng ko‘p qo‘llaniladigan tillarga misol qilib, HTML-gipermatnlarni belgilash tili, PHP, ASP, Java, JavaScript, DHTML va boshqa tillarni aytish mumkin.

Internetda ma’lumotlar web sahifalar ko‘rinishida tasvirlanadi. Web-sahifalarni ko‘rish vositalariga “brauzerlar” deyiladi. Web sahifa – internet uchun maxsus hujjat fayli bo‘lib, u Html (Huper text Marker Language – gipermatnlarni ajratadigan til) asosida yaratiladi.[2]

Web bir sahifadan boshqa sahifaga murojat qilishni ta’minlaydi. Webni katta kutubxona ko‘rinishida tasavvur qilish mumkin. Web tugunlarini kitobga o‘xshatsak, «Web sahifalari» esa bu kitoblarning sahifalariga mos keladi.


Sahifalarda yangiliklar, rasmlar, kinofilmlar, ovoz yozuvlari va h.k. bo‘lishi mumkin. Har bir foydalanuvchisi webga ulanib, dunyo bo‘yicha tarqalgan ma’lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Hozirgi kunda Web texnologiyalari dasturiy vositalarining juda katta sinfi yaratildi. Ular Web sahifa va saytlarini avtomatik ravishda yaratishning eng kuchli dasturiy vositalar bo‘lib, ular sirasiga – Microsoft FrontPage va Microsoft Flesh dasturlar paketlarini misol qilish mumkin. Microsoft FrontPage dasturi Web sahifani yaratish va uni ko‘rsatish uchun muharrirlik vositasidir. Bu Web sahifani yaratish muharririni o‘rganish HTML tilini o‘rganishga qaraganda ancha oson bo‘lib, uni o‘rganish ko‘p vaqt talab qilmaydi. Flash texnologiya web dizaynerlar orasida keng tarqala boshladi. Buning asosiy sabablaridan biri Flesh texnologiya web-saytlariga ovoz va grafika elementlaridan foydalanib, ularning dinamik ko‘rinish olishiga imkon yaratishidir. Micromedia Flesh tizimida web sahifalar uchun animatsion modellarni yaratish imkoniyati juda katta. Unda animasiyalarni bir necha formatlarda saqlash imkoniyati bor. Rasm-

[1] M.Aripov, B.Begalov, U.Begimqulov, M.Mamarajabov. Axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma, T., «Noshir», 2009, 368-bet.

[2] U.Begimqulov, Sh.Sharipov, M.Mamarajabov, S.Tursunov, A.To‘ychiev. Elektron axborot-ta’lim resurslarini yaratish va joriy etish. Metodik qo‘llanma, Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU, 2011, 236-bet.


larni, ovozlarni va vektorli grafikani Flesh tizimi swf kengaytmali faylda saqlaydi. FLA formatida saqlanadigan animasiya fayllari faqatgina Micromedia Flesh muhitida ishlaydi. Bu formatning foydali tomoni shundaki, uni xohlagan paytda qayta tahrirlash mumkin.

Bugungi kunning talablaridan kelib chiqib, to‘laqonli web saytlar yaratishda bir qancha turdagi das-turiy vositalardan foydalaniladi. Ularni to‘rtta katta guruhga ajratish mumkin.



1-rasm. Web saytlar yaratishda qo‘llaniladigan dasturiy vositalar.

Oliy ta’lim tizimida web dizayn va web dasturlashni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish dars samarasini sezilarli darajada orttiradi. Misol qilib quyidagi texnologiyani olish mumkin.[1]




2-rasm. BBB texnologiyasi.


Shu va shu kabiyangi pedagogik texnologiyalar yordamida web dizayn asoslarini o‘rgatishda axborot texnologiyalarini jumladan, elektron doska, planshetlar, boshqa ko‘rinishdagi mobil qurilmalar, tarmoq qurilmalari, serverlar (domen, xosting) va boshqa axborot texnologiyalarini qo‘llash quyidagi natijalarni beradi va ularni guruhlarga bo‘lib, quyidagicha berish mumkin.

Guruhlar	Nazorat guruhi				Tajriba- sinov guruhi			
Baholar	«2»	«3»	«4»	«5»	«2»	«3»	«4»	«5»
Talabalar soni	n=2	n=14	n=11	n=7	n=0	n=8	n=12	n=10

[1] U.Madaminov, T.Turdiyev. Ta’limda mobil ilovalari. O‘quv qo‘llanma, TATU Urganch filali, 2021.




3-rasm. Nazorat guruhi talabalarining bilim saviyalari.



4-rasm. Tajriba-sinov guruhi talabalarining bilim saviyalari.

Tajriba-sinov va nazorat guruhi talabalarining o‘zlashtirish farqlari (% da) quyidagi diagrammada ifodalangan.[1]



5-rasm. Tajriba-sinov va nazorat guruhi talabalarining olgan natijalari farqi.

Yuqorida keltirilgan diagrammadan ko‘rinib turibdiki, oliy ta’limda kasbiy sohalar uchun yara-tilgan yangi amaliy dasturlarni o‘rganish va ta’lim-tarbiya jarayonida faol o‘qitish usullaridan foydala-nish quyidagi samaradorlikka erishishga olib keladi: tajriba-sinov guruhlarida “a’lo” bahoga o‘zlashtirish darajasi o‘rtacha 33,3%ni (nazorat guruhlariga nisbatan 12,7%ga ko‘p), “yaxshi” bahoga o‘zlashtirish da-rajasi 40% (nazorat guruhiga nisbatan 7,6% ga ko‘p) tashkil etgan bo‘lsa, “qoniqarli” baho olgan tala-balar soni 26,7%ni (nazorat guruhiga nisbatan 14,5% ga ko‘p), “qoniqarsiz” baho olgan talabalar soni esa o‘rtacha 0% (nazorat guruhida 6%)ni tashkil etdi. Demak, mazkur statistik ma’lumotlar biz tomondan ishlab chiqilgan va amaliyotda sinab ko‘rilgan o‘qitish metodikasi hamda faol o‘qitish usullari amaldagi

[1] Information communication technolody (ICT) (Concepts and Application). Yekini Nureni Asafe Department of Computer Technology Yaba College of Technology. 2014, p. 288.

an’anaviy o‘qitish metodikasiga nisbatan samarali degan xulosaga kelishimizga asos bo‘ladi. Bu esa tajriba guruhlarida HTML, Adobe Flash texnologiyalari yordamida Web sahifa yaratish va bezash metodikasi bo‘yicha olib borilgan ishlar samarador ekanligini ko‘rsatadi.[1]

Pedagogik tajriba natijalari “Web-dizayn asoslari” bo‘limini mazmuniga mos innovatsion va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o‘qitish orqali ta’lim samaradorligi va sifati oshishi statistik jihatdan asoslandi va qo‘llanilgan metodik tizimning samarali va ishonchli ekanligi o‘z tasdig‘ini topdi.

Shuni xulosa qilib aytish mumkinki, oliy ta’lim muassasalarida web dizayn asoslari bo‘limining mazmunini talabalarga o‘rgatish kelajakda ta’lim tizimiga turli sohadagi professional va o‘z ma’no-mazmuniga ega dasturiy mahsulotlar, web saytlar yaratish uchun foydali bo‘lib, keyingi kasbiy faoliyatlarida ham keng foydalanish imkonini beradi.[2]

Polvannazirova Sevara Xasanboy qizi (UrDU)

INGLIZ-O‘ZBEK TILLARI GRAMMATIKASINI CHOG‘ISHTIRMA O‘RGANISH MASALASIGA DOIR BA’ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya. *Maqolada ingliz-o‘zbek tillarini chog‘ishtirma aspektda o‘rganishning ilmiy-amaliy ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Ingliz-o‘zbek tillari umumiy strukturasida, xususan, mazkur tillarga xos bo‘lgan asosiy grammatik kategoriyalarda kuzatiladigan farqli jihatlar turli misollar orqali tahlil qilinadi.*

Аннотация. *В статье рассматривается научная и практическая значимость изучения английского и узбекского языков в сопоставительном аспекте. На различных примерах, в частности, в характерных для этих языков основных грамматических категориях, анализируются различия в общей структуре английского и узбекских языков.*

Annotation. *The article discusses the scientific and practical significance of English and Uzbek languages in contrastive aspect. Different features of the general structure of English-Uzbek languages, in particular, the main grammatical signs of these languages are analyzed by various examples.*

Kalit so‘zlar*: chog‘ishtirma tilshunoslik, kontrastiv lingvistika, analitik til, sintetik til, qiyosiy grammatika, grammatik signallar, qiyosiy metod.*

Ключевые слова*: контрастивная лингвистика, аналитические языки, синтетические языки, сравнительная грамматика, грамматические сигналы, сопоставительный метод*

Key words*: contrastive linguistics, analytic languages, synthetic languages, comparative grammar, grammar signals, comparative method.*

Yurtimizda ilm-fan, ta’lim sohasiga, ayniqsa, xorijiy tillarni o‘rganishga qaratilayotgan yuksak e’tibor tadqiqotchilar oldiga mas’ulyatli vazifalar yuklaydi. Bu sohada olib borilayotgan ilmiy-nazariy va metodik izlanishlar o‘zining amaliy natijasini ko‘rsatmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ingliz tilining keng ommalashishi nafaqat yoshlar, balki turli yosh va turli kasb egalari orasida ham kuzatilmoqda. Ingliz tili o‘rganuvchilarining tilni tez va oson o‘rganishlari uchun ilmiy-metodologik tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu soha rivojiga hissa qo‘shadigan yo‘nalishlardan biri ingliz-o‘zbek tillarini chog‘ishtirma o‘rganilishidir.

Chog‘ishtirma tilshunoslik qiyosiy tilshunoslik (komparativistika)ning bir yo‘nalishi bo‘lib, turli tizimli tillar orasidagi farqli jihatlarni o‘rganadi. Ona tili va o‘rganilayotgan chet tili tizimidagi o‘xshashliklar til o‘rganuvchilari uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi. Lekin til kategoriyalarining noo‘xshash tomonlari til o‘rganish jarayonini sekinlashtirishi va qiyinlashtirishi mumkin. Amerikalik tilshunos tadqiqotchi Robert P. Stockwell ta’biri bilan aytganda, “Chog‘ishtirma analizni tashkillashtirishning eng yaxshi usuli chet tili o‘qituvchilarining shaxsiy tajribalarida duch kelishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy muammolarni qiyinlik darajasi bo‘yicha ro‘yxat tuzib, ularni tahlil qilishdir”.[3] Shu jihatdan, kontrastiv lingvistika faqat nazariy bilim bo‘lib qolmasdan, amaliyotda ham o‘z o‘rniga ega.

Chog‘ishtirma tilshunoslikning tarixiy ildizlari XI asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. Shu davrda yashab, ijod etgan Mahmud Koshg‘ariy qalamiga mansub “Devoni lug‘otit turk” asari turk tillari

[1] Информационные системы и технологии. ISBN: 978-5-4365-0203-8. 06 декабря 2018, с. 125.
[2] Richard Fox. Information Technology An Introduction for Today’s Digital World. ISBN 9780367820213. August 21, 2020, p. 582.
[3] Robert P. Stockwell. Contrastive analysis and lapsed time. University of California, Los Angeles, 1968, p. 20–21.

va arab tilini chog‘ishtirma o‘ganishga asoslangan. X–XlV asrlarda arab tilshunosligi doirasida shakllangan yetakchi tadqiqot usuli qiyosiy-chog‘ishtirma metod bo‘lgan. Qiyosiy-chog‘ishtirma tilshunoslikning yirik namoyondasi nemis tilshunosi Frans Bopp (1791–1867) hind-yevropa tillarini qiyosiy o‘rganish bo‘yicha keng qamrovli izlanishlar olib borgan. Daniyalik atoqli tilshunos, filolog Rasmus Rask (1787 – 1837) o‘zining qiyosiy grammatika, fonologiya va morfologiyaga oid asarlari bilan fan ravnaqiga yuksak hissa qo‘shgan. Shuningdek, uning zamondoshi, mashhur nemis tilshunosi Yakob Grimm (1785–1863) “Nemis tili tarixi” asari bilan soha rivojida sezilarli iz qoldirgan. Qariyb 2 asr oldin olib borilgan bu ilmiy izlanishlar tillarni qiyosiy-chog‘ishtirma usulda o‘rganishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy tilshunoslikda tillarni chog‘ishtirma aspektda o‘rganish 1940-yillarda Charles Karpenter Fries tomonidan tatbiq qilingan.[1] Keyinchalik esa ko‘pchilik tilshunos olimlar soha rivoji uchun sermahsul ilmiy izlanishlar olib borishgan. Ularning umumiy xulosalari quyidagilardan iborat:

1) kontrastiv lingvistika ijtimoiy-madaniy aloqador bo‘lgan 2 tilni qiyosiy tahlil qilishni taqozo etadi;

2) chog‘ishtirma tilshunoslik turli tizimga ega 2 tilni aynan farqli jihatiga e’tibor qaratadi;

3) tillarni chog‘ishtirma o‘rganish asosida samarali til o‘qitish metodlari va o‘quv materiallari tashkil qilinadi.[2]

Tillarni chog‘ishtirma o‘rganishning nazariy asosi turli tizimli va turli til oilalariga mansub bo‘lgan tillarni qiyoslashni talab qiladi. Shu jihatdan, ingliz va o‘zbek tillarining geneologik tasnifiga ko‘ra, hind-yevropa tillari oilasining german tili guruhiga mansub ingliz tili turkiy tillar oilasining o‘zbek-uyg‘ur tillar guruhiga kiruvchi o‘zbek tilidan grammatik kategoriyalari juhatidan tubdan farq qiladi. Bu noo‘xshashliklarni qiyosiy metod yordamida tahlil qilishimiz mumkin. Ingliz va o‘zbek tillarining qiyosiy grammatikasini o‘rganish mazkur tillardagi asosiy grammatik belgilarni aniqlashdan va ularni kontrastiv analiz qilishdan boshlanadi.

“Har bir tilning o‘ziga xos grammatik signallari bo‘ladi va bu signallar bir tilni boshqasidan ajratib turadi. Grammatik signallar grammatik munosabatlarni ifodalaydi. Tillarning umumiy strukturasi yoki xususiyati shu grammatik signallar yordamida aniqlanadi. Grammatik munosabatlarni ifodalovchi signallar soni chegaralangan bo‘ladi va u yopiq sistemani hosil qiladi”.[3]

Ingliz-o‘zbek tillariga xos bo‘lgan asosiy grammatik belgilar quyidagilardan iborat:

1. Qo‘shimcha.
2. Yordamchi so‘zlar.
3. So‘z tartibi.
4. Supersegment belgilar (intonatsiya, urg‘u).

Solishtirilayotgan tillarda asosiy grammatik signallar bir xil bo‘lsa-da, ularning qo‘llanilishida farqlar mavjud. Masalan, ingliz tilida gaplardagi sintaktik munosabatlar so‘z tartibi orqali ifodalansa, o‘zbek tilida bu vazifani egalik, kelishik qo‘shimchalari bajaradi. Yordamchi so‘zlarning vazifalari, ma’nosi va turlari ikkala til uchun umumiy bo‘lsa ham, ularning gapda ishlatilish miqdori har bir til grammatik strukturasi uchun xususiy holatdir.

♦Qo‘shimchalar (asosan, shakl yasovchi qo‘shimchalar, ko‘pchilik tilshunoslik manbalarida flektiv grammatik signallar, deb yuritiladi) gapda so‘zlarni o‘zaro bog‘lashga xizmat qiladi. Bu bog‘lanish sintaktik munosabatlarni tashkil qiladi. Tillar kesimida qaraladigan bo‘lsa, ingliz tili analitik tillar sirasiga kirganligi sabab, sintaktik munosabatlar qo‘shimchalar yordamida emas, so‘z tartibi yordamida amalga oshiriladi. O‘zbek tili esa, aksincha, sintetik til hisoblanib, gapda qo‘shimchalar asosiy vazifani bajaradi. Flektiv grammatik signallarga egalik, kelishik, ko‘plik qo‘shimchalari kiradi. “Ingliz va o‘zbek tillaridagi grammatik morfemalarning bir-biridan funksional farqi shundaki, ingliz tilida bitta suffiks yordamida bir nechta kategoriyani ifodalashimiz mumkin bo‘lsa, o‘zbek tilida deyarli har bir kategoriya uchun mustaqil affiksal morfema mavjud”.[4]

Egalik qo‘shimchasining o‘zbek tilida maxsus morfemalar bilan ifodalanishi o‘zbek tilining o‘ziga xos grammatik belgisi hisoblanadi. Ingliz tilida egalik ma’nosi egalik olmoshi yordamida ifodalanishi mumkin. Masalan, my book – men**ing** kitob**im**.

---

[1] Charles Carpenter Fries. Teaching and Learning English as a foreign language. Ann Arbor, University of Michigan Press, 1945, p. 9.

[2] Volker Gast. Contrastive linguistics: Theories and Methods. Friedrich Schiller University Jena, 2012, p. 2.

[3] Bo‘ronov J. Ingliz-o‘zbek tillari qiyosiy grammatikasi. T., “O‘qituvchi”, 1973, p. 283.

[4] Bo‘ronov J. Ingliz-o‘zbek tillari qiyosiy grammatikasi. T., “O‘qituvchi”, 1973, 290-bet.

O‘zbek tilida 6 ta kelishik qo‘shimchasi gapda sintaktik aloqa o‘rnatgani holda, ingliz tilida bu vazifani 2 ta kelishik: common case (bosh kelishik) va possessive case (egalik kelishigi – o‘zbek tilida qaratqich kelishigi qo‘shimchasiga to‘g‘ri keladi) bajaradi. Bundan tashqari, ingliz tilida mazkur kelishik qo‘shimchalari qo‘llanilishida chegaralar mavjud, xususan, possessive case da faqat shaxs otlari qo‘llanishi mumkin. Boshqa turdagi otlarda egalik ma’nosi predloglar yordamida ifodalanadi.

John**’s** room – Jon**ning** xonasi

Children**’s** toys – bolalar**ning** o‘yinchoqlari.

Door **of** the room – xona**ning** burchagi.

Pages **of** the book – kitob**ning** varaqlari.

Solly protected him **from** danger and damage – Solli uni xavf-xatar**dan** himoya qildi.

I bought flowers **to** my mother – Men oyim**ga** gullar sotib oldim.

We have lessons **at** 8 o‘clock – Soat 8 **da** darsimiz bor.

Ko‘plik kategoriyasi ingliz tilida -s, o‘zbek tilida -lar qo‘shimchasi bilan ifodalansa-da, ba’zi mustasno holatlar mavjud. Ingliz tilida ko‘plik shaklini yasovchi -en suffiksi – ox-oxen (ho‘kiz – ho‘kizlar); o‘zak o‘zgarishi orqali ko‘plik yasash – foot-feet, man-men; yoki person-odam, people-odamlar shaklida yasalishi o‘rganilayotgan tillardagi o‘ziga xoslikni ko‘rsatadi.

♦Mustaqil ma’noga ega bo‘lmagan, gap bo‘laklarini grammatik aloqaga kiritishga yordam beradigan so‘zlar yordamchi so‘zlar hisoblanib, ingliz-o‘zbek tillarida qo‘llanilishi va ma’no jihatidan deyarli farq qilmaydi. Masalan, my friend and I – do‘stim va men.

♦So‘z tartibi deganda gap bo‘laklarining qat’iy joylashishi tushuniladi. Ingliz-o‘zbek tillarida so‘z tartibi bir-biridan keskin farq qiladi. Ingliz tilida grammatik bog‘lanish so‘z tartibi yordamida amalga oshirilsa, o‘zbek tilida bu vazifani fleksiya bajaradi.

Ingliz va o‘zbek tillarida gap bo‘laklari qiyosi haqida ham so‘z yuritish mumkin.

Ega+Kesim+2-darajali bo‘laklar (aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol) shaklida ifodalanadi: I gave my parents a present – Men ota-onamga sovg‘a berdim; o‘zbek tilida esa, yuqorida ko‘rib turganingizdek, gap bo‘laklari **Ega+2-darajali bo‘laklar+Kesim** shaklida joylashadi. Qiyoslanayotgan tillarning so‘z tartibidagi bu tafovut til o‘rganuvchilar uchun qiyinchiliklar tug‘diradi. Ayniqsa, o‘rganuvchilarning yozish va gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish jarayonlari ko‘p jihatdan bu kabi grammatik farqlarga bog‘liq.

♦Intonatsiya va urg‘u ham muhim grammatik belgi hisoblanadi. Supersegment belgilar yordamida bir turdagi gapni boshqa turga (darak gapni so‘roq gapga) aylantirish yoki boshqa grammatik ma’nolarni ifodalash mumkin: **You are ready** – **Siz tayyorsiz** gapi pasayuvchi intonatsiya bilan aytilsa, darak gap hisoblanadi, ko‘tariluvchi intonatsiya bilan aytilganda so‘roq gapga aylanadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, har bir tilni o‘rganish, dastavval, uning grammatikasini o‘rganishdan boshlanadi. Ingliz tili fani o‘qituvchisi sifatida kuzatishlarimizdan namoyon bo‘ladiki, chet tili o‘rganuvchi o‘quvchilar o‘zlarining ona tilidan bir necha jihatlari bilan farqli bo‘lgan ingliz tili grammatikasini o‘zlashtirishda qiyinchilikka duch kelishadi. Bu qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun chog‘ishtirma tilshunoslikning ilmiy-metodik tadqiqot yutuqlariga tayangan holda dars mashg‘ulotlarini samarali usullar yordamida tashkil qilish kerak, deb hisoblaymiz. Tillarning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlarini bilgan o‘rganuvchilar har qanday chet, jumladan, ingliz tilini oson va tez o‘zlashtiradilar.

Pulatova Nigoraxon Raximjonovna (FarDU mustaqil izlanuvchisi)

OLIY TA’LIMDA ETNOEKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI VA ISTIQBOLDAGI USTUVOR YO‘NALISHLAR

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta’lim talabalarida etnoekologik madaniyatni shakillantirishda etnoekologik tadqiqotlarning ahamiyati, mavjud holati va istiqboldagi ustivor yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgan*

Аннотация. *В статье рассматривается значение этно-экологических исследований в формировании этноэкологической культуры студентов и их передовые перспективные направления.*

Annotation. *The article discusses the importance of ethnoecological research in the formation of students and their advanced promising directions.*

Kalit so‘zlar: *etno-ekologik madaniyat, ekologik muammolar, ekologik ta’lim, etnoekologik nazorat, tabiiy resurslar, ta’lim-tarbiya jarayoni.*

Ключевые слова*: этно-экологическая культура, экологическое проблемы, экологическое образования, этноэкологическая проверка, природные рессурсы, учебно-воспитательный процес.*

Key words: *ethno-ecological culture, ecological problems, environmental, education, ethno-ecological verification, natural resources,educational process.*

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida har bir sohada bo‘layotgan islohotlar kabi ta’lim tizimida ham, xususan oliy ta’limda ham keng ko‘lamli o‘zgarishlar, innovatsion yondashuvlar va modernizatsion jarayonlar sodir bo‘lmoqda. Oliy ta’limda kadrlar tayyorlash jarayoniga ham alohida e’tibor qaratish orqali bilimli, salohiyatli va halol kadrlarni tarbiyalashga harakat qilinmoqda. Bugungi o‘zgarishlar jarayonida, islohotlarni kuchli va salohiyatli kadrlar bilangina amalga oshirish mumkin. Shu bois oliy ta’limda sifatli ta’lim berish metodikasi yaratish dolzarb vazifalardan biridir. Bu borada rivojlangan davlatlarning OTMlari tajribasi o‘rganilmoqda va ta’lim dasturlarini olib kirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan xalqaro OTMlarning tajribasi o‘rganilganda ularda talabalar ekologik madaniyatini shakllantirishga ham alohida e’tibor qaratilishi ma’lum bo‘ldi. G‘arb mamlakatlarida yoshlarni tabiatga oqilona munosabatda bo‘lishlariga o‘rgatish, atrof-muhit tozaligini saqlash va ekologik mmuammolarga mas’ul va mas’uliyatli qilib tarbiyalash muhim vazifalardan biri sifatida qaraladi. Shu bois salohiyatli xalqaro OTMlarda etnoekologiiya fani inson va tabiyatning ongli munosabatini ratsional talqini sifatida qadrlanadi va tizimli holatda ko‘plab tadqiqotlar olib boriladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ham ekologik muvozanatning buzilishi, Orol halokatini yuqori nuqtaga chiqishi, urbanizatsiyaning kuchayishi, atrof-muhitga ta’sirning ortib borishi ekologik ta’lim-tarbiyani dolzarb vazifalardan biriga aylantirdi. Shu bois ekologik madaniyatning tarkibiy qismi sifatida etnoekologik madaniyatni jamiyatga olib kirish, singdirish va yoshlarda shakllantirish vazifalari yuzaga chiqmoqda.

Jamiyatda etno-ekologik madaniyatni rivojlantirishning eng samarali yo‘li OTM talabalariga etnoekologik beqarorlik va ekologik inqiroz holatlari to‘g‘risida sifatli ta’lim berish hisoblanadi. Jamiyat o‘zining milliy qadriyatlari asosida shakllangan tabiatga ongli munosabatning samarali yo‘llarini yoshlarga ham o‘rgatib borishi lozim. Etno-ekologik madaniyat ham O‘zbekistonda yashayotgan millat va elatlarning, umuman olganda, xalqning ekologik bilimlari asosida shakllangan qadryatlari, urf-odatlari va an’analaridan oqilona foydalanishni ko‘zda tutadi. Shunday ekan, oliy ta’lim tizimida etno-ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayonni takomillashtirish, unga yangicha yondashuvlarni olib kirish dolzarblik kasb etmoqda.

Bugungi ekologik muammolarni yuzaga kelishiga sabab, bo‘layotgan ko‘plab omillar orasida etnoekologik omillarning ham borligini ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan tadqiqotlarda har tomonlama asoslanmoqda. Mazkur tadqiqotda asosiy e’tibor, etnosni o‘zi shakllangan tabiiy atrof-muhitda uzoq vaqt davomida turg‘un yashashi natijasida yuzaga keladigan etno-ekologik madaniyatini tabiiy-geografik jihatlarini har tomonlama tadqiq etishga qaratiladi. Albatta, etnoslarning makon bilan bo‘ladigan o‘zaro aloqasi doimo rivojlanib, takomillashib boradigan tarixiy jarayon bo‘lib, bu jarayonga ta’sir etadigan omillar turli-tuman. Bugungi dunyoqarash bo‘yicha rivojlanish jarayonida an’analar o‘rnini tizimli o‘zgarishlar, ya’ni innovatsiyalar egallab boradi.

Har qanday etnos, birinchidan, tirik jonzotlar yig‘indisidan iborat bo‘lib, uning yashash tarzi tabiatning ko‘r-ko‘rona, ongsiz kuchlari bilan o‘zaro aloqasida namoyon bo‘ladi. Bir tomondan, etnos – ijtimoiy mavjudotlarning alohida jamoasi hisoblanib, bu jihatidan u sotsiologik tadqiqotlarning jumladan, ijtimoiy ekologiyaning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Boshqa bir tomondan, etnos – tabiatning o‘ziga xos mavjudotlarining umumiy yig‘indisi hisoblanib, hayot tarzi sifatida ularning ongli faoliyatiga xizmat qiladi. Bunday ongli faoliyatni o‘rganish pedagogika fanining o‘rganish obyekti hisoblanadi.

O‘zbekistonda etno-ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan ekologik ta’lim-tarbiyaning mavjud holati unchalik qoniqarli emas va bu borada qilinishi kerak bo‘lgan ishlar juda ko‘p. Misol uchun, O‘zbekistondagi ko‘pgina maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni tabiat va atrof-muhit bilan tanishtirish mashg‘ulotlari tashkil qilingan. Jami maktabgacha muassasalarning 40 foizida ekologik ta’lim uchun maxsus xonalar bor va muassasalarning 16 foizida bolalar tabiatni parvarish qilishni o‘rganadigan «Atrof-muhit so‘qmoqlari» tashkil qilingan. O‘zbekistonda barcha boshlang‘ich maktablarda atrof-muhit mavzulari 1- va 2-sinflarda «Atrofimizdagi olam» va 3- va 4-sinflarda «Inson va tabiat» fanlarida yoritiladi. Umumta’lim va o‘rta maktablarda ekologiya darslari yo‘q. Atrof-muhitga tegishli ba’zi mavzular tabiiy fanlar va salomatlik va sog‘lom turmush tarzi fanlariga kiritilgan. Bioxilma-xililk, inson va yer, suv

– hayot manbayi mavzularida 5-dan 9-sinfga qadar qo‘shimcha o‘quv materiali sifatida qo‘llanmalar yaratilgan.[1]

O‘zbekistonda bir necha ekologik o‘quv rejalari bo‘yicha davlat standartlari qabul qilingan. Ekologiya fani mamlakatdagi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun majburiydir. Deyarli barcha texnik universitetlarda atrof-muhit injenerlari tayyorlanadi. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, shuningdek Andijon, Buxoro, Qoraqalpog‘iston, Samarqand va Termiz davlat universitetlarida ekologiya va tabiatdan foydalanish yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlanadi.

2019-yil 27-mayda O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi va ekologik madaniyatni, xususan, etnoekologik dunyoqarash va tafakkurni rivojlantirish borasida muhim vazifalar belgilab olindi. Mazkur konsepsiyada Oliy ta’lim tizimida etno-ekologik dunyoqarashni shakllantirish va bu orqali etno-ekologik madaniyatni shakllantirish va mamlakatda ekologik barqarorlikni yaratish masalalari va ta’limda ekologik bilimlarni oshirish mexanizmlari belgilandi.

O‘zbekistonda etno-ekologik madaniyatni shakllantirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodda ekologik bilim, ong va madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirish, ekologik ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, shuningdek, ekologiya sohasidagi ilm-fanni jahonning ilg‘or innovatsion texnologiyalarini jalb etgan holda yanada takomillashtirish uchun quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

- «Ta’lim to‘g‘risida»gi va «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq uzluksiz ta’lim tizimida ekologik ta’limni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni izchillik bilan bosqichma-bosqich ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish va shu asosida ekologik ta’limning samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish;
- ekologik ta’lim-tarbiya berishni, ekologik bilimlarni targ‘ib qilishni, noshirlik faoliyatini, ko‘rik-tanlovlar o‘tkazishni, ijtimoiy reklama va shu kabilarni tashkil etish;
- ta’lim dasturlarini mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish va zamon talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish;
- ta’lim oluvchilarning e’tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish orqali ularning ona tabiatning qayta tiklanmas manbalarini saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha mas’uliyatini kuchaytirish;
- ekologik ta’limning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish;
- ekologik ta’limning sifatini, kadrlar tayyorlash tizimi samaradorligini, barqaror rivojlanishi kafolatlarini va ustuvorligini ta’minlovchi normativ-huquqiy, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;
- ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo‘yicha davlat organlari ta’lim sohasining o‘zaro manfaatli hamkorligini rivojlantirish.[2]

O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta’limda ekologik ta’limni rivojlantirishga doir ko‘plab vazifalar belgilangan. Jumladan, oliy ta’limning 5630100 — «Ekologiya va atrof muhit muhofazasi» bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi va fan dasturlari ekologiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan kelib chiqib takomillashtiriladi. Bu orqalri ekologik madaniyatni shakllantirish, etno-ekologik dunyoqarashni shakllantirish va bu orqali milliy ekologik barqarorlikni ta’minlash, etnoekologik mas’uliyatni axloqiy fazilat sifatida talabalarda rivojlantirish vazifalari amalga oshiriladi.

Konsepsiyaning 31-bandida vazirliklar va idoralarning talab va takliflari, kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj va tahlillar asosida ekologik vaziyatning mavjud holatidan kelib chiqib oliy ta’lim tizimida «Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori»ga yangi yo‘nalishlar va mutaxassisliklarni kiritish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi. Natijada, ekologik ma’rifatni butun jamiyatga yoyish va bu orqali jamiyatning ekologik bilimlilik darajasini oshirish maqsad qilingan. Shuningdek, O‘zbekistondagi bir yuz o‘ttizdan ortiq millat va elatlar o‘rtasida, o‘zaro hamkorlikda, milliy mas’uliyatni anglagan holda etno-ekologik madaniyatni shakllantirish ham mumkin bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi Oliy ta’lim tizimining bakalavriat va magistratura bosqichlari ekologik yo‘nalishlarida ekologiya va atrof muhit muhofazasi bo‘yicha tegishli o‘quv fanlari mazmuni kuchaytiriladi va qo‘shimcha mavzular bilan boyitiladi. Talabalarga fan dasturlarida belgilangan hajmda tegishli bilimlar beriladi hamda ularda zarur malaka va ko‘nikmalar shakllantiriladi. Shuningdek, noekologik yo‘nalishlarda tegishli o‘quv fanlariga ekologiya va atrof muhit

[1] Atrof-muhit holatining sharhi. Ikkinchi sharh. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Nyu-York va Jeneva, 2010, 2-bet.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-sonli qaroriga asosida ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasi. http: lex.uz/pages/getpege....

muhofazasiga oid mavzular kiritiladi hamda ilm-fanda erishilgan yutuqlar, ekologiya va atrof muhit muhofazasiga oid yangi texnologiya va tadqiqotlar asosida muntazam yangilanib boriladi. Shu ma'noda, noekologik yo'nalishlarga etno-ekologik dunyoqarash va madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan mavzularni kiritilishi va millliy ekologik ta'lim strategiyasini ishlab chiqilishi ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekistonning ekologik ta'lim konsepsiyasining 34-bandida ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta'lim sohasi bo'yicha zamonaviy va dolzarb ilmiy-amaliy masalalarga bag'ishlangan mavzular bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishi qo'llab-quvvatlanishi belgilab qo'ilgan. Shuningdek, keyingi bandda oliy ta'lim muassasalarining amaliyot darslari bevosita yirik sanoat korxonalari, ilmiy tadqiqot muassasalari, suv xo'jaligi tashkilotlari, qo'riqxonalar, ekologik inqiroz kuzatilayotgan hududlar va ekologiya sohasidagi boshqa korxonalarda olib borilishi yo'lga qo'yilishi belgilangan va bu jarayon etnoekologik ma'rifatni rivojlantirish, milliy ekologik dunyoqarashni oshirish va O'zbekistondagi millat va elatlarning yashash xususiyatlaridan kelib chiiqan holda ekologik siyosatni amalga oshirish vazifalarini amalga oshirishni talab etadi.

Shuningdek, bugungi ta'lim tizimida ekologik ta'lim-tarbiya jarayoni to'g'ri tashkil etilmagani, nazariy bilimlarni amaliyotda sinovdan o'tmasligi, real ekologik holatni ko'rish imkonini beruvchi amaliyotlar tashkil etilmasligi va boshqa muammolar bilan birga etnoekologik masalalar tahlil etilmasligi, talabalarga etno-ekologik muammolar va uning ijtimoiy ahamiyati ko'rsatib berilmasligi bois etnoekologik madaniyatni namoyon bo'lishi bilan bog'liq kamchiliklar ko'rinib qolmoqda. Ya'ni, mamlakatimizda yashovchi millat va ealtlarning yashash tarzidan kelib chiqib, ekologik siyosatni amalga oshirish vazifalari va undan unumli foydalanish yo'llari to'g'ri yo'lga qo'yilmagan. Shu bois oliy ta'lim tizimida etno-ekologik madaniyatni shakllantirish vazifalari dolzarb bo'lib qolmoqda va buni amalga oshirishda OTMlarda va talabalar turar joylarida «Eko-klublar» tashkil qilinishi ham samara beradi.

Insoniyat tarixida inson bilan tabiatning o'zaro ta'siriga oid bir qator muammolar paydo bo'lganki, ularni hal etish bugungi kundagidek murakkablik kasb etmagan. XX asrning ikkinchi yarmida jahonda sodir bo'lgan ko'plab voqea va hodisalar insonning tabiatga munosabatining o'zgarishiga olib keldi. Iqtisodiy taraqqiyotda yuksak cho'qqilarni qo'lga kiritgan bashariyat atrof tabiiy muhitning buzilishiga sababchi bo'ldi. Zamonaviy sivilizatsiyaning atrof-muhit muhofazasi bilan chambarchas bog'liqligi ko'p hollarda unutilib, faqat manfaat ortidan quvish oqibatida bugungi kunda o'zgartirib bo'lmas ekologik muammolar paydo bo'ldi. Bugungi kunda ma'lum bir hududda ro'y berayotgan tabiiy ofatlarga nisbatan beparvolik bilan munosabatda bo'lsak, ertaga bizning hududimizda ham huddi shunday hodisa bo'lmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi.

Ekologik inqiroz – bu ekologik tizimda modda va energiya almashinuvining tabiiy holatda kechishining buzilishi yoki modda va energiyaning kichik va katta aylanish jarayonlarining ma'lum bir bosqichdagi uzilishidir. Masalan, hosildorlikning talab darajasida bo'lmasligi, tuproq unumdorligining pasayishi va undagi mikroorganizmlarning qirilib ketishi oqibatida yerga tushadigan organik moddalarning o'simlik dunyosi uchun ozuqa bo'lgan mineral moddalarga aylanmasligi sodir bo'ladi. Natijada tuproq ekologiyasi buziladi va inqirozli holat yuzaga keladi. Ekologik inqirozli hududlarning ekologik tizimlarida modda va energiya almashuvining ekologik xavfsiz darajada tiklash juda murakkab va o'ta ko'p chiqimli tadbirdir.

Pedagogika fanlari doirasidagi etno-ekologik tadqiqotlarda asosiy e'tibor etnoslarning atrof-muhit bilan ongli faoliyati vositachiligida bo'ladigan aloqalarini, tarbiyaviy xarakteristikasini o'rganishga qaratiladi. Bunday tizimli aloqalarning pirovard natijasida yuzaga keladigan va pedagogik tahlil va tadqiqotlardagi muammolar etnoekologik tadqiqotlarning markaziga qo'yiladigan asosiy obyekti sifatida etnoekologik madaniyat va uning tarkibiy qismlarini tahlil qilish, shakllantirish va ijtimoiy ma'naviy muhitda rivojlantirishni talab etmoqda.

Mashhur rus tadqiqotchisi Y.Vedenin madaniy merosni saqlash va undan foydalanish masalalarini hal qilishda ahamiyatli bo'lgan uchta yondashuvni ishlab chiqadi:

1) genetik yondashuv, ya'ni, milliy meros va mintaqaviy madaniyatning o'ziga xosligini saqlovchi, tarixiy xotirani tashuvchisini anglatuvchi;

2) ekologik yondashuv, ya'ni, meros-jamiyat va biosferaning barqaror rivojlanishi asosi;

3) geografik yondashuv, ya'ni, meros-dunyoni, mamlakatlar, mintaqalar, etnoslarning madaniy va tabiiy xilma-xilligini saqlash asosi bo'lgan yondashuvlarni farqlaydi. Madaniyatga milliy va mintaqaviy yondashuv etnik madaniyatni yuzaga keltiradi. Etnomadaniyat esa bu madaniyatni ma'lum etnosga xos bo'lgan xususiyatlarni saqlab qolish maqsadida o'zlashtirilgan ko'rinishlar majmuidir.

Xalqaro hamjamiyat insonning nafaqat yashash huquqi, balki to‘laqonli va sog‘lom turmush kechirishi uchun zarur mo‘tadil atrof-muhit sharoitlariga ham bo‘lgan huquqlarining muqaddas va daxlsizligini allaqachonlar e’tirof etgan. Stokgolm shahrida BMTning atrof-muhit muammolariga bag‘ishlangan anjumanida bashariyat kelajagi uchun o‘ta muhim hujjat – Atrof-muhit dasturi ishlab chiqildi. Ko‘p o‘tmay, BMT ushbu tarixiy anjuman ish boshlagan sana, ya’ni 5-iyun – Jahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni deb e’lon qilindi. BMT muammoga o‘z vaqtida e’tibor qaratgan bo‘lsa-da, so‘zdan amalga o‘tilishi uchun ancha yillar kerak bo‘ldi. Bu bejiz emasdi, albatta. Birinchi ming yillikning so‘nggi asrlarida sanoat, ilm-fanda yuz bergan ulkan o‘zgarishlar, jadal taraqqiyotdan esankirab qolgan odamzot tabiat ham jonli ekanligini, olmoqning bermog‘i borligini mutlaqo unutib qo‘ydi. Ayniqsa, XX asr tabiiy resurslarni pala-partish, xo‘jasizlarcha iste’mol qilishda rekord o‘rnatdi, zamin ham, gardun ham, suv ham, hayvonot va nabotot dunyosi ham, boringki, barcha bezabon dunyo insoniyatning manfaatiga beayov «xizmat» qildirildi. Millionlab yillar davomida o‘z qonuniyatlari bilan yashab kelgan tabiat odamning aralashuvi bilan qisqa vaqtda halokat yoqasiga kelib qoldi. Atmosfera havosining buzilishi, suvning ifloslanishi, cho‘llanish, jonivorlar va o‘simliklar turlarining keskin qisqarib ketishi, ekologik tizimning izdan chiqishi insonning kelgusi taqdirini ham xavf ostiga qo‘ydi.

O‘rta Osiyo kabi qurg‘oqchil iqlim sharoitidagi hududlarda tabiatdan foydalanish obikor dehqonchilik bilan bog‘liq. Biroq, bu faoliyat turi har doim ham, kishilik jamiyati kutganidek iqtisodiy rivojlanishga asoslangan farovon hayotga olib kelmagan. Tabiat qonunlarini mensimaslik, ularga zid harakat qilish orqali yuz bergan ekologik falokat, fojialar tarixda ko‘p uchraydi.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy aholining asrlar davomida shakllangan, tabiat bilan uyg‘unlikda yaratilgan, uning qonunlariga moslashuvga asoslangan, milliy qadriyatlar darajasiga ko‘tarilgan, ekologik madaniyatga munosabatni to‘g‘ri shakllatirish ta’lim sifatini zamonaviy talablar darajasiga ko‘tarish imkoniyatini yarata oladi.

Нурбоев Ширинбек (тадқиқотчи)

“АЛПОМИШ” ДОСТОНИНИ ЎРГАНИШ: АМАЛИЙ ТАЖРИБАЛАР ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАР

Аннотация. *Ушбу мақолада “Алпомиш” достонини ўрганиш давомида бир неча дарс шакллари ва илғор педагогик технологиялар, ўқувчиларнинг билимини баҳолаш тизими билан боғлиқ методик кузатишлар асослаб берилган, амалий тажрибалар ва технологиялардан намуналар келтирилган.*

Аннотация. *В статье приведены примеры из передового опыта и применения новейших педтехнологий на занятиях по изучению дастана “Алпомыш”, обоснованы методические рекомендации по системе оценивания знаний учащихся.*

Annotation. *In this article, several lesson forms and leading pedagogical technologies, methodological observations connected with evaluating pupils’ knowledge in the process of studying the dastan “Alpamish” is grounded and some samples of experiences and technologies are offered.*

Калит сўзлар*: достон, тажриба, технология, педагогика, методика, дарслик, адабиёт, амалиёт, халқ оғзаки ижоди, мактаб.*

Ключевые слова: *дастан, опыт, технология, педагогика, методика, учебник, литература, практика, устное народное творчество, школа.*

Key words: *dastan, experience, technology, pedagogics, methodics, text-book, literature, practice, folklore, school.*

Адабиёт инсоншунослик бўлганлиги учун унинг ҳис-туйғуларига жиддий таъсир этадиган, уни ахлоқий жиҳатдан тарбиялайдиган, маънавий камолатини шакллантирадиган санъат тури. Мактаб ўқув предмети сифатида адабиётнинг ўзига хослиги шундаки, унинг ўрганиш объекти сўз санъати намунаси бўлмиш бадиий асарлардир. Мактабда адабиёт ўқитишнинг бош мақсади соғлом, эътиқодли, умуминсоний қадриятларини англайдиган, ахлоқий баркамол, ўз хатти-ҳаракатларига масъул бўла оладиган, маънавий-маърифий жиҳатдан етук шахсни шакллантиришдан иборат бўлса, асосий вазифаси ўқувчиларда бадиий адабиётга меҳр уйғотиш, уларни бадиий асарларни ўқийдиган, тушунадиган ва таҳлил қила биладиган, ўз фикрларини оғзаки ва ёзма тарзда тўғри ва эркин ифодалай оладиган қилиб тарбиялашдан иборатдир.

Умумтаълим мактабларининг 5–9-синфлари учун ёзилган ўзбек адабиёти дарслигининг дастурида таъкидланишича, миллий, қардош ва жаҳон халқлари оғзаки ижодиёти ва ёзма адабиётнинг бадиий юксак асарларини ўрганиш, ўқилган асарларини тушуниш ва таҳлил қилиш малакаларини шакллантириш, айрим назарий маълумотларни ўзлаштириш, ўқувчиларнинг оғзаки ва ёзма нутқини такомиллаштириш мактаб адабиёт предметининг мазмунини ташкил этади.

Шуни алоҳида таъкидлаш зарурки, муайян бадиий асарни ҳар томонлама таҳлил этиш орқали унинг моҳиятини англаш ва тушуниш мумкин. Бироқ бу таҳлил илмий методик томондан тўғри бўлиши лозим. Кейинги пайтларда республикамиз халқ таълими тизимида меҳнат қилаётган илғор тажрибали ўқитувчилар томонидан дарснинг семинар-дарс, баҳс-дарс, суҳбат-дарс, синов-дарс, конференция-дарс каби турлари ўтказилмоқда. Бундай дарс турлари ўқувчининг дарс пайтидаги лоқайдлигига барҳам бериб, унда фаолликни уйғотади, болани ўйлашга, муҳокамали фикр юритишга, сўзлашга ва изланишга ҳамда меҳнат қилишга ўргатади. Айни мақсаддан келиб чиқиб, биз тажриба-синов ишларида “Алпомиш” достонини ўрганиш давомида бир неча дарс шакллари ва илғор педагогик технологиялар, ўқувчиларнинг билимини баҳолаш тизими билан боғлиқ методик кузатишлар олиб бордик.

1. “Тадқиқот-тақдимот усули” адабий таълим машғулотларида энг кўп қўлланадиган илғор педагогик технология эканлигини ҳисобга олиб, биз достонни ўргатишда “реклама” усулини қўллашни мақсадга мувофиқ, деб топдик. Бунда ўқувчилар гуруҳларга бўлиниб ишлашди, мустақил ўқиш давомида тайёрланадиган маълумотларни тўплашди, мавзуни ўтиш муддати яқинлашгунига қадар ўқувчиларнинг тайёрланган маълумотлари мўъжазгина қўлланма даражасига келиб қолди. Ўқувчилар машғулотда мазкур ўқув қўлланмани “реклама” қилишди.

“Алпомиш” достонини ўрганишга бағишланган ўқув машғулотини бошқариш ва ўқувчиларнинг эгаллаган билимларини баҳолаш учун бир қатор методик ишлар қилинди: дастлаб республикамиз байроғидан фойдаланилди; байроқ уч қисмдан иборат бўлиб, ҳар бир қисмининг орқа томонига режаси ёзилди ва тескари ҳолатда магнит доскасига осиб қўйилди. Режа қуйидагича тузилди: 1) “Алпомиш” достони ҳақида маълумотга эга бўлиш; 2) “Алпомиш” достонининг мутолааси билан боғлиқ фикр-мулоҳазалар билдириш; 3) реклама: таклиф этамиз, тавсия қиламиз.

Ўқув машғулотининг ҳар бир режаси дарс жараёнида ёритиб бўлингач, унга мос қисми ўчириб қўйилади, натижада, байроқнинг қисмлари кетма-кет ҳосил бўлди. Дарсда фаол қатнашган ўқувчига “юлдуз”, ғолиб бўлган ўқувчига эса “ярим ой” топширилди. Таъкидлаш жоизки, байроқ тимсоли рамзий маънода қўлланилган, негаки, Фозил Йўлдош ўғли куйлаган “Алпомиш” каби халқ достонини ўрганган, тадқиқ қилган ўқувчиларни эса эртанги кунимиз юлдузлари, келажагимиз ворислари, деб айта оламиз.

2. “Дарс – тадбир шакли” усулидаги ўқув машғулоти катта аудиторияда тўртта синф ва гуруҳлар иштирокида ташкил этилди, ўқувчилар ўртасида гуруҳлараро рақобат юзага келтирилди. Маълумотлар кўламининг кенглиги эса мавзуни тўлиқ ўрганишга имкон берди, яъни, ўқувчилар мазкур достон ҳақида кенг ва атрофлича маълумотлар олиш имкониятига эга бўлишди.

3. “Ўйла! Изла! Топ!” усулида дарс режасидаги ўрганилаётган достоннинг мутолааси билан боғлиқ бўлган ўқувчиларнинг фикр-мулоҳазалари тингланди ва муҳокама қилинди. Кузатиш-синов ва таҳлилларнинг натижаси шуни кўрсатдики, жуда кўпчилик иқтидорли ўқувчилар достоннинг сюжетидаги бирор эпик воқеа-ҳодиса ёки тасвирларни мустақил фикр-мулоҳазалари асосида баён эта олган. Энг муҳими, бундай ўқувчилар ўзларининг иқтидори ва интелектуал салоҳиятини, достон бўйича мустақил фикрлаш қобилиятларини кўрсата олган. Бу усулда ўқувчиларнинг билдирган фикр-мулоҳазалар орасида бахмаллик 9-синф ўқувчиси Зебо Ғаниеванинг ёзма ишидаги мустақил фикрлаш тарзи таҳсинга лойиқ. У ўзининг ёзма ишида аввало Бойсарининг киндик қони томган муқаддас гўшани ташлаб кетиш хатоси ҳақида, сўнгра юрт тупроғига қадам қуйганидаги ватан соғинчи билан бирга юрт шамолининг юзига уриб туришини, “кўзининг оқу-қораси” – Барчинойнинг бошидаги рўмоли пириллаб учиб турган лаҳзасини шоирона тасвирлаб бера олган. Жиззах шаҳар ва вилоят миқёсидаги она тили ва адабиёти фани бўйича олимпиада ғолиби, Зулфия номидаги Давлат мукофотининг совриндори, шоира қизимиз Дилфуза Комилованинг ёзма ишидаги билдирилган фикр-мулоҳазалари ўз тенгдошларидан анчагина фарқланди. Унда кучли ҳаяжон ва соғинч билан илк бор юртга қайтишдаги Бойсарининг дастлабки руҳий ҳолатлари ва ички кечинмалари ўзига хос услубда шоиралик иқтидори билан тасвирланган. Биз учун энг муҳими, унинг фикрларида мустақил бадиий таҳлил етакчилик қилган.

4. “Рекорд” усули ҳам ўқув машғулотларида қўлланилди. Унда ўтилаётган мавзу бўйича ре-корд даражасидаги ноёб дидактик материаллар, халқона ўгит-насиҳатларни жуда кўп миқдорда навбатма-навбат айтиб бериш назарда тутилди. Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, бу усул ҳам ўқувчиларнинг достонни кенг қамровда ўрганишларига замин бўлди. Айниқса, ўзларида юксак маънавиятли инсон тарбиясига дахлдор маънавий-ахлоқий фазилатларни ўзлаштириб олишларига катта ёрдам берди.

5. **“Муаммо” усули** орқали амалга оширилган ўқув машғулотдаги “Алпомиш” достонида юрт, ватан, миллат бирлиги туйғуларининг акс этиши” мавзусини ўрганишда *“Гуллаган дарахт”* мисолидаги кўргазмали қуролдан фойдаланилди. Унда “муаммо”ли саволлар кўриб чиқилди ва муҳокама қилинди.*“Гуллаган дарахт”*ни ҳосил қилиш учун олдиндан дарахт ясалди. Ўқув машғулотида ўқувчи томонидан ҳар бир берилаётган жавоб гул шаклида қабул қилинди ва ясалган дарахтга осиб қўйилди. Машғулот охиригача дарахт “гуллади”, натижада ўқувчилар “Алпомиш” достонига алоқадор билимларни, тегишли малака ва кўникмаларни пухта ва тўлақонли эгаллаб олдилар.

6. “Ўз-ўзига режиссёр” усули юқоридаги усулларга қараганда бирмунча мураккаб бўлганлиги учун ҳам, унга алоҳида эътибор берилди. Машғулотда “Алпомиш” достони асосида яратилган кинофильмдан мавзуга оид алоҳида танлаб олинган тасвирлар ўқувчилар диққатига ҳавола этилди. Ушбу машғулотда ўқувчиларга тасвирда кўрган эпик воқеаларни ўзларининг мустақил фикр-мулоҳазалари асосида изоҳлаши ва *Кластер* усулида бир сўз билан ифодалаш топшириғи берилди. Айрим ўринларда Алпомишнинг кўрсатган жасорати, Бойсари ва Бойбўриларнинг соғинч билан, жигарчилик туйғулари билан бир-бирига талпиниш ҳолатлари, руҳий кечинмалари, Бойсарининг она-юртга қадам босишдаги ҳис-ҳаяжонли фикр-мулоҳазалари, ота-боланинг узоқ сукунатдан сўнг орзиқиб учрашишлари билан боғлиқ эпизодик лаҳзалар ҳам намойиш этилди. Бундай кенг қамровли ва катта аудиторияни баҳолашда биз тавсия этган “Ўзлаштириш жадвали” жуда яхши самара берди. Ўқувчиларнинг достон бўйича ўзлаштириб олган билимларини ҳамда бажарган хатти-ҳаракатларини одилона баҳолаш учун ўзбек тили ва адабиёти ўқитувчиларидан ташкил топган экспертлар гуруҳи сайлаб олинди. Уларнинг қўлига ҳар бир гуруҳ рўйхати берилди, унда ўқувчининг ҳар бир босқичидаги иштирокини баҳолаб бориш имконияти туғилди, энг муҳими, ғолиб гуруҳни аниқлаш ҳам осон кечди. Биз назарда тутган “Ўзлаштириш жадвали”нинг тузилиши қуйидаги тартибда бўлди:

№	Ўқувчиларнинг исм-фамилиялари	Кироатхона (ўгит-насиҳатлар шарҳи)	“Ўйла! Изла! Топ!”	Дарс-тадбир	Муаммо	Ўз-ўзига режиссёр	Рекорд	Реклама	Тест топшириғи	Дарсда олинган ўртача баҳо
IX “v” – 03 гуруҳининг “Алпомиш ворислари” жамоаси										
1.	Абдураҳимов Озод	4 б	5 б	4 б	4 б	5б	5 б	5б	5б	4,6 б
2.	Давуров Шуҳрат	4 б	5 б	5 б	3 б	4б	4 б	4б	4б	4,1 б

“Алпомиш” достонини ўрганишда қўлланилган замонавий педагогик технологиялар ва қўлга киритилган амалий тажрибалардан қуйидаги хулосаларга келдик:

1. Фозил бахшининг «Алпомиш»и миллий ва умуминсоний қадриятларни, педагогик-дидактик ғояларни юксак бадиият билан ифодалаган. Ундаги юксак маърифий ғоялардан бири, асосийси, оилага муҳаббат, оила тинчлиги, осойишталиги, бирлигини, мустаҳкамлигини таъминлаш ва оила фаравонлиги орқали миллатнинг ҳамжиҳатлигига эришишдан иборат. Достонда ватан тушунчаси оила тушунчасидан, элни қадрлаш туйғуси оила аъзоларини эъзозлашдан бошланиши ишонарли далиллар, инсоний руҳий туйғулар, юксак маънавиятли инсон тарбиясига дахлдор маънавий-ахлоқий фазилатлар асосида кўрсатилган.

2. Достондаги Бойсари образи бошқа айрим вариантлардагидек «унутилмайди», балки доимо эътиборда, ҳал этувчи ўринда туради. Унинг тимсолида ўжарлик, ўйловсизлик, манманлик инсонни қандай азобларга олиб келиши, фақат ўзигагина эмас, балки бутун қариндош-уруғи, элдош-

ларини ҳам нечоғлик катта-катта ташвишга дучор қилиши кўрсатилган. Она юртдан, элдан айрилиқ азоблари ва юртнинг муқаддаслиги, бебаҳолиги халқнинг азизлиги Бойсари образида изчил ёритилган.

3. “Алпомиш” ўқувчиларнинг халқ достонларининг бошқа намуналарига эътибор ҳиссини янада ривожлантириш, ўзларида маънавий-ахлоқий тарбия асосларини ўзлаштириш ва юксак маънавий фазилатларни такомиллаштириш, кундалик фаолиятларига сингдиришда муҳим омил бўлди. Худди шундай педагогик жараённи муваффақиятли амалга оширишнинг ўзи ўқувчиларнинг янада қизиқарли, бадиий жиҳатдан савияси юксак достонларни излаб топишга, мустақил ўқиб чиқишга ва шулар орқали мулоҳаза билдиришга, энг муҳими, улардаги баҳрамандлик асосидаги маънавий-ҳаётий эҳтиёжларни қондиришга хизмат қилди, юксак маънавиятли инсон тарбиясига дахлдор маънавий-ахлоқий фазилатларни ўзига “юқтириб” олишга замин тайёрлади.

Nafasov Mirzomurod Muxamadovich (Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti; e-mail: mirzo-li@mail.ru)

TA’LIM JARAYONIDA BYOD MODELIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim jarayonida BYOD modelini qo‘llashning ahamiyati va uning o‘quvchilar bilimiga ijobiy ta’siri haqida so‘z boradi. Ta’lim jarayonida BYOD modelidan foydalanish muammolari, yechimlari va xulosalari hamda zamonaviy ta’lim jarayonida BYODdan foydalanish zaruriyati ko‘rib chiqilgan. Talabalarning ta’lim muassasasiga shaxsiy mobil qurilmalarini o‘zlari bilan olib kelishining texnik va ta’limiy jihatidan afzalligi, shuningdek, ulardan yanada samarali foydalanish uchun yangi imkoniyatlarni ko‘rib chiqish zarurligi tahlil qilingan.*

Аннотация. *В статье обсуждается важность использования модели BYOD в образовательном процессе и ее положительное влияние на знания студентов. Рассмотрены проблемы, решения и выводы использования модели BYOD в образовательном процессе, а также необходимость использования BYOD в современном образовательном процессе. Были проанализированы технические и образовательные преимущества использования личных мобильных устройств студентов в образовательном учреждении, а также необходимость рассмотрения новых возможностей для их более эффективного использования.*

Annotation. *The article discusses the importance of using the BYOD model in the educational process and its positive impact on student knowledge. The problems, solutions and conclusions of using the BYOD model in the educational process, as well as the need to use BYOD in the modern educational process are considered. The technical and educational advantages of using personal mobile devices of students in an educational institution were analyzed, as well as the need to consider new opportunities for their more effective use.*

Kalit so‘zlar: *mobil ta’lim, ta’lim, BYOD, elektron o‘quv kurslari, texnologiyalar, model.*

Ключевые слова: *мобильное образование, обучение, BYOD, курсы электронного обучения, технологии, модель.*

Key words: *mobile education, learning, BYOD, elearning courses, technologies, model.*


Zamonaviy o‘quv jarayonining muhim tarkibiy qismlari-dan biri – ta’lim modeli. Ta’lim modeli – ta’limning umumiy maqsadlari va mazmunini, o‘quv rejalari va dasturlarini loyiha-lashni, o‘quvchilar faoliyatini boshqarishning alohida maqsadla-rini, o‘quvchilarni guruhlash, nazorat qilish va hisobot berish usullarini, o‘rganishni baholash usullarini o‘z ichiga olgan ta’lim tizimi jarayonidir. Ta’lim modellariga misollarni ko‘plab kelti-rish mumkin. Jumladan, “1 talaba: 1 kompyuter”, “O‘zgaruv-chan dars”, “BYOD” va boshqalar.[1]

Bugun biz ota-onalar va o‘qituvchilardan “Farzandlari-ngizni qurilmalardan qanday chalg‘itish kerak, chunki ular o‘r-ganishni butunlay to‘xtatdilar...” kabi so‘zlarni tez-tez eshitamiz. Aslida, bolalarni o‘z qurilmalaridan ajratish uchun kurashish emas, balki uni qurilmadan o‘quv jarayonida samarali

[1] Гафарова Е.А. Модальный опыт обучающихся – основа создания комфортного информационного режима средствами информационно-коммуникативных технологий. “Вестник науки и образования”, 2015, № 2 (4), с. 73 – 75.

ishlatish uchun nima qilish kerakligini o‘ylash zarur. Bunday muammolarni hal qilishning eng mashhur model-laridan biri bu “O‘z qurilmangizni keltiring” modelidir.

BYOD – Bring Your Own Device so‘zining qisqartmasi bo‘lib, uning ta’limdagi ma’nosi shundan iboratki, o‘qituvchilar va ta’lim muassasasi ma’muriyati o‘quvchilarga shaxsiy qurilmalarni taqiqlamaydi, balki o‘quvchilarga noutbuklar, planshetlar va smartfonlarni muassasaga olib kelishga imkon beradi va har tomonlama rag‘batlantiradi.



BYOD zamonaviy ta’lim oldida turgan ikkita juda muhim muammoni bir martalik hal etishdir. Birinchidan, har bir talabani o‘z mobil qurilmasi bilan ta’minlash muammosi. BYOD yondashuvida mobil qurilma maktabning emas, balki oilaning mulki va tashvishidir. Tabiiyki, maktab eng mos modellarni tavsiya qilishi, ota-onalarga asbob-uskunalar yetkazib beruvchilar bilan muzokaralar olib borishga yordam berishi, kam ta’minlangan oilalar uchun moliyaviy qo‘llab-quvvatlash dasturini yaratishi mumkin, ammo qurilma oilaning mulkidir – yagona tamoyili saqlanib qoladi.[1]

Ikkinchidan, bu tobora o‘tkir muammo: “Ta’lim muassasasida o‘quvchilarning mobil telefonlari bilan nima qilish kerak?” Bugungi kunda ommaviy amaliyotdan kelib chiqib, nafaqat mamlakatimizda, balki chet elda ham ta’lim tizimi rahbariyati mobil qurilmalardan dars vaqtida foydalanishni cheklash to‘g‘risida bosh qotirmoqda. Ammo cheklovlar uzoqqa bormasligi aniq. Oxirgi ijtimoiy so‘rovlarga ko‘ra, o‘smirlarning 60 foizi o‘qituvchilari taqiqlaganiga qaramay, dars vaqtida mobil telefonlaridan sms jo‘natish uchun foydalanishini tan olishgan. BYOD – bu ularni “qonuniylashtirish” va ularni dars jarayoniga xalaqit beruvchi dushmanlardan ittifoqchilarga aylantirishning yo‘lidir. Ushbu model o‘quv jarayonida Internetdan foydalanishni nazarda tutadi. Aloqa texnologiyalarining rivojlanishi tufayli axborot etikasining konseptsiyasi va asosiy jihatlari uchun asos yaratishga qaratilgan tadqiqotlar paydo bo‘ladi, Internetda ishlarni amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olinadigan bo‘ladi.

Aksariyat o‘quvchilar o‘z qurilmalarida o‘zlarini qulay his qiladilar. Biroq BYODga asoslangan ta’lim jarayoni ishtirokchilari bilishi kerak bo‘lgan ba’zi narsalar mavjud:

Birinchidan, BYOD dunyosiga moslashish uchun juda ko‘p turli xil qurilmalar, ekran o‘lchamlari, operatsion tizimlar va brauzerlarni joylashtirishga tayyor bo‘lish kerak. Bitta brauzer yoki ish stoli kompyuterini qo‘llab-quvvatlash kifoya qiladigan kunlar o‘tdi. Ishtirokchi istalgan sonli qurilmalardan foydalanishlari mumkin.

Ikkinchidan, ko‘pgina mobil qurilmalar Adobe Flashni qo‘llab-quvvatlamaydi. Agar qurilma shunday bo‘lsa, videolar noqulay va ular bilan ishlash qiyin bo‘ladi. BYOD dunyosida veb-saytlar va videolarni ushbu qurilmalarga moslashtirish kerak. Qo‘shimcha qilib shuni aytish mumkinki, HTML5 ga aylantirish yoki undan foydalanish videolaringizni ko‘pchilik (barchasi bo‘lmasa ham) qurilmalarga moslashtira oladi.

Uchinchidan, faoliyatimiz davomida shaxsiy qurilmalarga misli ko‘rilmagan qaramlikni namoyon etib bormoqdamiz. Ushbu vositalardan nafaqat muloqot qilish, balki tadqiqot, o‘rganish, ma’lumot topish va, albatta, boshqa masalalarni hal qilish uchun ham foydalananiladi. Shunday ekan, o‘quvchilar o‘z qurilmalari kun davomida yaxshi hamroh bo‘lishi va hamma joyda ulardan foydalanishda qulaylikni his qilishadi. BYODda ta’lim ishtirokchilari uchun poezdda o‘qish vaqtini kamaytirish yoki loyihada bo‘lganida ma’lumot va hujjatlarga kirish imkoniniyatlaridan foydalanishlari mumkin.

To‘rtinchidan, AT mutaxassislari har doim xavfsizlik va BYOD muammolari bilan kurashadilar – afzalliklar va xavflarni muvozanatlashtiradilar. Xavfsiz trening video kontenti uchun videoxosting muhiti va pleyer bugungi xavfsizlik standartlariga javob berishi lozim. BYOD ta’limjarayonini samarali tashkil etishda juda ko‘p foyda keltirishi mumkin. BYODga o‘tishdan oldin har qanday qurilmada ko‘rish mumkin bo‘lgan mobil kontentni yaratish kerak bo‘ladi.

BYOD o‘zining ta’lim muassasasida mavjudligini ko‘plab sabablarga ko‘ra, moliyaviy, ta’lim, tashkiliy va texnologik jihatdan belgilab beradi. Asosiy sabablar quyidagilardir:

[1]Ершова С.Г. Обучение современным IT-технологиям, ориентированным на использование в мобильных устройствах. Новые информационные технологии в образовании, 2016, с. 396 – 398.

• Har bir o‘quvchi uchun maktabga tegishli qurilmalar bilan ta’minlash uchun mablag‘ yetishmasligi.

• Talabalarga tegishli simsiz internetni qo‘llab-quvvatlaydigan ko‘plab qurilmalar.

• Talaba biladigan va biriktirilgan qurilmadan foydalanish qulayligi.

• Talabalar bosimi va ota-onalarning BYOD g‘oyasini qo‘llab-quvvatlashi.

Bundan tashqari, BYOD bilan bog‘liq bo‘lgan eng ko‘p ko‘rsatilgan foyda talabalarning faolligi darajasini oshirishdir. Shaxsiy qurilmadan foydalanish o‘rganishni yanada shaxsiylashtirilgan va talabaga yo‘naltirilgan qiladi va natijada ta’lim muhiti talabaning shaxsiy dunyosi bilan yaxshi bog‘lanadi.[1]

Turli fikrlardan qat’iy nazar, BYODni amalga oshirish faqat akademik muhokamalar mavzusi bo‘lgan alohida holatlar to‘plami emasligi haqiqatdir. Byudjet nuqtayi nazaridan, BYOD ko‘pgina xarajatlarni tejaydigan yechimdir. Ta’lim muassasalari har bir o‘quvchiga qurilma sotib olishga yoki keyinchalik texnik xizmat ko‘rsatishga pul sarflashlari shart emas. Ayniqsa, maktab WiFi va texnologiya infratuzilmasiga sarmoya kiritgan bo‘lsa, BYOD undan foydalanish uchun tabiiy navbatdagi qadam bo‘lib tuyuladi.

BYOD dasturlari soni tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. Yaqin o‘tmishga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 2016-yil may oyida Buyuk Britaniyada o‘rta maktablarning 9% ularda BYODning qandaydir shakli borligi, yana 26% esa uni o‘rganayotgani haqida xabar bergan. Shuningdek, Nyu-York shahridagi maktablar bu jarayonni 2015-yil boshida keng miqyosda boshlagan. Hechinger hisobotida, Nyu-York maktablarining 29% 2014-yildayoq BYODni rag‘batlantirgan, yana 20% esa bunday dasturni ishlab chiqishgan.

Qat’iy va keng ko‘lamli amalga oshirishning qiziqarli misoli Daniyaning Kopengagen shahri bo‘lib, u yerda BYOD jami 37 000 dan ortiq o‘quvchilar va xodimlarni qamrab olgan 72 ta turli maktablarda amalga oshirilgan. Talabalar maktabga tegishli moslashtirilgan qurilmalardan yoki o‘zlarining shaxsiy qurilmalaridan foydalanishadi.

BYOD ancha vaqtdan beri ta’lim muhitida mavjud. Yaqin o‘tmishga nazar tashlasak, 2013-yilning may oyida Bradford Networks tomonidan “BYOD ning ta’limga ta’siri” deb nomlangan qiziqarli so‘rov o‘tkazilgan. Unda AQSH va Buyuk Britaniyadagi kollejlar, universitetlar va K12 maktablaridagi 500 dan ortiq IT mutaxassislari so‘rovda qatnashib, natijalarga ko‘ra, o‘quvchilarning 72% sinf topshiriqlari uchun shaxsiy mobil qurilmalardan foydalanishi, 52% esa o‘z qurilmalarini sinflarda ishlatganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bu tendentsiya oliy ta’limda yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi, chunki respondentlarning 89% talabalarga ichki tarmoqlarida o‘z qurilmalaridan foydalanishga ruxsat berishini ta’kidlagan.

BYOD shunday keng qamrovga ega bo‘lsa-da, u ta’lim uchun ishlatiladigan qurilmalar orasidagi biror-bir standartni o‘zida aks ettirmaydi. BYOD ta’lim siyosati ko‘pincha minimal apparat va dasturiy ta’minot parametrlariga oid talablar asosida ishlaydi. Bundan tashqari, ko‘plab ta’lim muassasalari qurilmalar uchun aniq mezonlarni o‘rnatmaydi va talaba tom ma’noda Internetga ulanishi mumkin bo‘lgan har qanday qurilmani olib kelishi mumkin. Natijada o‘quvchilar ta’lim muassasasiga o‘z qurilmalarini olib kelganlarida yaratilgan o‘quv muhiti butunlay xilma-xildir. Shu sababli nafaqat turli xil operatsion tizimlar yoki ekran o‘lchamlari, balki qurilmalarning turli xil sifati va imkoniyatlari ham ahamiyatlidir. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim mazmuni foydalanishning barcha usullari uchun tayyorlanishi kerak. Agar u auditoriyaning katta qismi uchun to‘g‘ri ishlamasa, unda deyarli umuman ishlatilmaydi. Boshqa tomondan, agar taqdim etilgan o‘quv materiallari auditoriyada mavjud bo‘lgan barcha yoki hech bo‘lmaganda aksariyat qurilmalarda samarali tajriba o‘tkazishga imkon bersa, ta’lim muassasida bunday materiallardan keng va barqaror foydalanishga ishonishimiz mumkin.

BYODning ijobiy va salbiy tomonlari haqidagi barcha munozaralardan qat’i nazar, uning oldinga siljishi yanada kengroq bo‘ladi deb taxmin qilishimiz mumkin. Internetni ko‘rib chiqayotganda, biz ko‘proq ta’lim muassasalarini BYOD tajribasi va BYOD siyosati bilan o‘rtoqlashayotganini ko‘rishimiz mumkin.[2] Shu sababli BYODning doimiy o‘sishi bilan birga, taqdim etilgan kurslarning elastikligi va qurilma agnostisizmining ahamiyati ham oshadi. Ushbu tendensiyaga moslashishga yordam beradigan va bir vaqtning o‘zida yuqori darajadagi interaktivlikni ta’minlashga imkon beruvchi mualliflik vositasi bugungi ta’limning har bir ishtirokchisida bo‘lishi kerak.

[1] Nafasov M.M. The effectiveness of the use of mobile technologies in the educational process. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). 2020, p. 142–166. DOI: 10.36713/epra2013.

[2] Khaitova I.I., Olimov S.S. The Main Problems Of Studying Electronic Information And Educational Environment Of The High School: Experience Of Analysis Of Scientific Literature The American Journal of Social Science and Education Innovations 2 (12), p. 127 – 131.

BYOD ko‘p yillar davomida muhokama qilinmoqda. Uning ta’lim natijalariga ijobiy va salbiy ta’siri, moliyaviy ijobiy va salbiy tomonlari, tashkiliy jihatlari yuzasidan bahs-munozaralarga guvoh bo‘lishimiz mumkin. BYODdan foydalanishning eng yaxshi usullarini ishlab chiqish uchun hali ko‘p narsalarni ko‘rib chiqish kerak, ammo bir narsa aniq: u yo‘qolmaydi va bu raqamli ta’limga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan tendensiyadir.

Мирзаев Акрамжон Ўктамжонович (Андижон Давлат университити доценти в.б.; mirzayevakramjon08@gmail.com)

РАҚАМЛИ ДУНЁДА ЎҚИТИШДА ЭЛЕКТРОН ТАЪЛИМ ВА АРАЛАШ ТАЪЛИМНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Аннотация. *Мақолада рақамли дунёда ўқитишда электрон таълим ва аралаш таълимнинг аҳамияти, ўзига хос хусусиятлари ва афзалликлари келтирилган. Рақамли технологиялардан таълимда фойдаланиш талабалари ва ўқитувчилар фаолиятига таъсири баён қилинган*.

Аннотация. *В статье рассматриваются важность, особенности и преимущества электронного обучения и смешанного обучения в обучении в цифровом мире. Описано влияние использования цифровых технологий в образовании на деятельность учащихся и преподавателей*.

Annotation. *The article discusses the importance, specific features and advantages of e-learning and mixed education in teaching in the digital world. The impact of the use of digital technologies in education on the activities of students and teachers is described.*

Калит сўзлар: *рақамли дунё, рақамли иқтисодиёт, рақамли технологиялар, онлайн-электрон таълим, аралаш таълим, масофавий таълим.*

Ключевые слова*: цифровой мир, цифровая экономика, цифровые технологии, онлайн-обучение, смешанное образование, дистанционное обучение.*

Key words: *digital world, digital economy, digital technologies, online e-learning, mixed education, distance learning.*

Ҳозирги даврда рақамли иқтисодиёт ва электрон бизнез кенг кўлам билан тирбанд бўлаётган мавзулар бўлиб, бу даврда инсоният фаолиятининг иштироки, таъсири, аҳамияти ва фаоллашуви илғор ҳолатда ривожланмоқда. Бугунги даврда инсон фаолияти давомида вақтини, харажатини ва масофаларини тежашга ҳаракат қилади. Дунё рақамлашгани сари бундай харажатлар тобора камайиб боради. Дунёда электрон тижорат чакана савдосининг 14,1 фоизи рақамли электрон тижорат ҳиссасига тўғри келади. Бу кўрсаткич 2023 йилга бориб, 22 фоиз бўлиши тахмин қилинмоқда. Электрон бизнес ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш ҳар бир давлатнинг ташқи иқтисодий алоқаларини ривожлантиради. Электрон тижоратни ривожлантириш борасида мамлакатимизда ахборот, рақамли дунёда ишлай оладиган кадрларни тайёрлай оладиган чет эл олий ўқув юртлари билан ҳамкорликлар, ИТ парклари очилиши, интернет тармоқларининг оптик толалари тортилиши каби бир қатор ишлар амалга ошириляпти. Ҳозирги даврда электрон тижоратларга оид 24 миллиондан ортиқ сайтлар яратилган ва электрон тижоратларнинг 67 фоиздан зиёди мобил иловалар орқали амалга оширилади. 2040 йилга келиб, жаҳон савдо ҳажмининг 95 фоизи электрон тарзда амалга оширилиши тахмин қилинган.[1]

Рақамли иқтисодиёт тушунчаси 1995 йили Массачусет университети олими Николас Негропонте томонидан аниқланган. У ахборот технологияларини шиддат билан ривожланишига, асосан, эски иқтисодиётдан янги иқтисодиётга ўтиш кераклигини ва бу борада қандай ўзгаришлар рўй беришини айтиб ўтган. Рақамли иқтисодиёт бу хўжалик фаолияти юритиш бўлиб, бунда ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатишдаги асосий омил рақамлар кўринишидаги маълумотлар, катта ҳажмдаги ахборотларни қайта ишлаш ва анализ қилиш.[2]

Рақамли иқтисодиёт – бу иқтисодий, ижтимоий ва маданий алоқаларни рақамли технологияларни қўллаш асосида амалга ошириш тизимидир. Баъзида у интернет иқтисодиёти, янги иқтисодиёт ёки веб-иқтисодиёт деган терминлар билан ҳам ифодаланади. Рақамли иқтисодиёт бу нолдан бошлаб яратилиши лозим бўлган қандайдир бошқача иқтисодиёт эмас. Бу янги техноло-

[1] Бекмирза Эшмирзаев. Дунё “рақамлашмоқда”. “Халқ сўзи” сайти. 2020 йил 9 июль. https://xs.uz/uz/post/dunyo-raqamlashmoqda

[2] https://www.texnoman.uz/post/raqamli-iqtisodiyot-nima.html

ni, qayerda o‘qituvchi kirish – talaba kompyuterlar vositachiligiga kirishadi, shuningdek, assimilatsiya jarayonining mazmuni (kompyuterlardan foydalanish orqali rasmiy protseduralarni assimilatsiyasini kamaytirish imkoniyati)”. Shu bilan birga, D.Likliderga murojaat qilib, u shunday yozadi: “Nafaqat” sherik, “balki Insonlarning chinakam simbiyotik o‘zaro ta’sirida u o‘yin o‘ynaydigan” yetakchidir. Shu bilan birga, ushbu masala aniq tahlilni talab qiladi, chunki inson va kompyuter o‘rtasida o‘zaro ta’sirning har xil turlari mavjud. Ba’zi vaziyatlarda, masalan, o‘qitishda “yetakchilik yoki boshqaruvchanlik” kompyuterga o‘tishi mumkin, bu o‘quvchiga ketma-ket vazifalarni taqdim etadi va uning yechimlarini baholaydi. O‘quv dasturlarining qiziqarli versiyasi “Sokratik” deb nomlangan dastur bo‘lib, unda talabaga beriladigan savollar hozirgi dars sharoitlari bilan ham, “dars” davomida dialogning butun tarixi bilan ham shartlanadi. Bunday holda, dialog individualdir, ya’ni talaba va o‘quvchi faoliyatining o‘ziga xosligiga moslashgan.

Biroq, kengroq ma’noda, bu yerda ham kompyuter, albatta, pedagogik jarayonning “yetakchisi” bo‘lib qoladigan o‘qituvchi faoliyatining vositasi – vositachi sifatida qaralishi mumkin va bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, o‘qituvchining mavqei yoki ro‘li va talabaning ro‘li boshqacha ekanligi aniq. Bu shuni anglatadiki, inson kompyuterlashtirilgan tizim subyekti yoki ta’sir obyekti ro‘li sifatida vazifa bajarishi mumkin”.

Inson tomonidan murakkab aqliy vazifani hal qilish jarayoni bu aqliy faoliyatni amalga oshiradigan funksional rivojlanish jarayoni, turli bosqichlar va mexanizmlarning o‘zgarishi ekanligini ta’kidlab, O.K. Tixomirov shunday yozadi: kompyuter intuitiv komponentni namoyon qilish va rivojlantirishga imkon beradi. fikrlash, farazlarni yaratish uchun havola, chunki ushbu gipotezalarni sinovdan o‘tkazishning murakkabligi ko‘pincha intuitiv fikrlash tarkibiy qismlarini bostirishga o‘xshaydi”.

Ruhiy faoliyatni muntazam tarkibiy qismlardan tushirishdan tashqari, u uni o‘zgartirishning quyidagi yo‘nalishlarini qayd etadi:

1. Vizualizatsiya. Grafik displey bilan ishlash, konikma materiallar bilan ishlashda ham xayoliy fikrlash manbalarini safarbar qilishga imkon beradi.

2. Tushunchani eksteriorizatsiya qilish jarayonini tezlashtirish, uni rasm yoki diagramma shaklida moddiylashtirish.

3. Vaziyatni shablonga o‘tkazishda olingan natijalarni (kompyuterdan) tezlashtirish va oshirish.

4. Hozir mashina tomonidan amalga oshirilayotgan sinchkovlik bilan qidirish harakatlarini amalga oshirish qobiliyatini kengaytirish.

5. Murakkab faoliyatning oraliq bosqichlariga qaytish qobiliyati (kompyuter xotirasi yordamida).

6. Bir vaqtning o‘zida bir xil obektni bir nechta nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish imkoniyati, obyektni o‘zgartirishning bir nechta variantlarini taqqoslash.

O.K.Tixomirov kompyuter paydo bo‘lishi bilan vositachilik aloqalarining yangi shakllari paydo bo‘lishini ta’kidladi. Ushbu g‘oyani ochib berib, u quyidagilarni yozadi: “Aqliy faoliyat o‘zgarishini belgilovchi muhim omil bu kompyuter tarmog‘ini yaratishdir. Ushbu rivojlanish holati insonning kompyuter bilan individual munosabatlaridan guruhlarning o‘zaro ta’siriga o‘tish sifatida tavsiflanishi mumkin. Insonlar va kompyuterlar guruhlari va insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar kompyuter bilan vositachilik aloqasiga aylanadi. Bu yerda “Guruh simbiozi” mavjud. Yuqori darajadagi ushbu yangi tizimning samaradorligi nafaqat tobora ko‘payib borayotgan “Quyi tizimlar”ning individual hissasini yig‘ish orqali, balki muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumot almashinuvini tezlashtirish, shuningdek, uyg‘unlashgan holda turli uslubdagi aqliy faoliyatga ega insonlar ishi”. Matematikani o‘qitish nazariyasi va amaliyotida aytilganlarning hammasi bilan bog‘liq holda, bir qator savollar tug‘iladi, ularga bugungi kunda ham aniq javob berishning iloji yo‘q. Shunday qilib, kompyuter subyektni faoliyatning muntazam tarkibiy qismlarini bajarishdan xalos qilishi va u ochadigan o‘quv faoliyatining yangi yo‘nalishlarini tavsiflab, yangi matematik ta’limning yangi sharoitda qanday bo‘lishi kerakligini to‘g‘ri aniqlay olmaymiz. Buning narxi allaqachon aniq. Bugungi kunda o‘rta maktab bitiruvchilarining ko‘pchiligi eng oddiy arifmetik amallarni kalkulatorsiz bajarishga qodir emasligi barchaning ko‘zi oldida turgan misol. Ular uchun yanada qiyin va ko‘pincha og‘ir vazifa – natijani baholashdir. Keksa avlod vakillari uchun odatiy hisoblash qobiliyatlari va odatiy hisob-kitoblardan xalos bo‘lish istagan erkinlik o‘rniga, eng oddiy hisoblash vositalariga achinarli bog‘liqlik tug‘diradi. Ishlab chiqarish vositalarini takomillashtirish, insoniyat ularga tobora ko‘proq bog‘liq bo‘lib boradi. Bu, aftidan, ijtimoiy rivojlanishning muqarrar naqshidir. Bu holda barcha tirik mavjudotlarga xos bo‘lgan energiya tejash prinsipi mukammal tarzda namoyon bo‘ladi va afsuski, bu bilan hisoblashish kerak (yoki qabul qilasizmi?).

Maxsus moslashtirilgan kompyuter ramziy ma’lumotlari bilan ishlashga imkon beradigan va kuchli grafik paketlarga ega bo‘lgan matematikani o‘qitish metodik jihatdan o‘ylanmagan bo‘lsa, nima bo‘lishini tasavvur qilish oson. Kompyuter paydo bo‘lishidan oldin ta’lim olganlar nuqtayi nazaridan blimsiz intellektual iste’molchini shakllantirish kafolatlanadi. Ammo bu, haqiqatan ham, shundaymi? Ushbu nuqtayi nazar konservativ emasmi, ba’zi mualliflar ishonganidek, madaniy an’analar, biz olgan ta’lim va h.k.

Bolaning “Inson-kompyuter” tizimidagi individual aqliy harakatlariga u, dastlab, o‘zlashtirmaydigan tashqi protsedura vositachiligida bo‘lganida, haqiqatan ham, boshqa fikrlash uslubi shakllangan. Bu haqiqat allaqachon kuzatilmoqda. Masalan, so‘nggi yillarda ta’riflarni, dalillarni va boshqalarni ma’nosini tushunmasdan rasmiy ravishda ko‘paytira oladigan va eng achinarlisi, bir vaqtning o‘zida, hech qanday noqulaylik sezmaydigan o‘quvchilar soni keskin ko‘paymoqda. Ehtimol, muammolarni batafsil ko‘rib chiqishdan xalos bo‘lish, algoritmini mashinaga “Ma’lum” bo‘lganligi sababli, bola yechim izlash jarayonida paydo bo‘ladigan ko‘plab ijodiy daqiqalardan mahrum bo‘lib, shuning uchun hech qanday muhim tarkibiy qismlarga ega bo‘lmaydi. Shunday qilib, bolani kalkulator yordamida odatdagi hisob-kitoblardan xalos qilish uchun yaxshi niyatlar, aslida, komplement nazariyasiga asoslanib, amalda almashtirish nazariyasini amalga oshirishga aylandi. Ma’lum bo‘lishicha, O.K.Tixomirov kompyuterdan foydalanganda insonning aqliy faoliyati tuzilishining o‘zgarishi haqida so‘z yuritganda to‘g‘ri bo‘lgan. Shuning uchun zamonaviy axborot texnologiyalarini maktab ta’limi bosqichida qo‘llagan holda, inson va kompyuter o‘rtasidagi interfaol o‘zaro ta’sirning “Ijodiy” darajasi insonning intellektual rivojlanishining mazmuni va darajasi bilan belgilanishini unutmaslik kerak. Bu shuni anglatadiki, inson va kompyuterni birlashtirgan o‘zaro ta’sirning asosi shaxsiy bilimlar tizimiga asoslangan bo‘lishi kerak. Matematika va kompyuter predmetining o‘ziga xos xususiyatlari zamonaviy matematik bilimlar.

Xulosa. Ta’lim maqsadlarida kompyuter dasturlari va turli multimedia mahsulotlaridan kompleks foydalanishga asoslangan tematik suvga cho‘mish usulidan foydalanish quyidagi umumiy xulosalar chiqarishimizga imkon beradi.

●O‘yinlar va dinamik modellar yangi materialni o‘rganish va yangilashda matematika darsida talabalarning ichki faoliyatini, ularning kommunikativ o‘zaro ta’sirini boshlash va rag‘batlantirishga imkon beradi.

●Amaldagi texnik vositalar va dasturiy ta’minot o‘qituvchiga har bir talabaning bilimlarning boshlang‘ich darajasini o‘zlashtirishi to‘g‘risida ma’lumotni tezda qabul qilish va qayta ishlash, to‘g‘ridan to‘g‘ri dars davomida tuzatishlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Boshqa tomondan, o‘quvchi o‘z harakatlarining natijalarini darhol ko‘rishi mumkin, ya’ni u bilimlarni tizimlashtirishda yangi imkoniyatlarga ega, bu esa ta’limning asosiy darajasidan yuqori darajasiga o‘tish uchun yangi boshlang‘ich imkoniyatlarni anglatadi.

Nasrulloyeva Nasiba Sadulloyevna (filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);
e-mail: naasibka@mail.ru

KOMPYUTER VA INTERNET JARGONLARINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya*. Ushbu maqolada internet muhitida jargonlarning yasalish xususiyatlari tadqiq qilingan. Hozirda internet va kompyuter jargoni shakllanishi evolutsion jarayonlarning eng ko‘zga ko‘ringan yutuqlaridan biri deb hisoblanmoqda. O‘zbek tili kompyuter va internet jargonlarini ingliz tili bilan chog‘ishtirilishi dolzarb muaommolardan biri hisoblanadi.*

Аннотация*. В данной статье исследуются особенности создания жаргона в интернет среде. В настоящее время формирование компьютерного и интернет жаргона сочитается одним из самых заметных достижений эволюционных процессов, а сравнение узбекского интернет и компьютерного жаргона с английским одним из самых актуальных вопросов.*

Annotation*. This article explores the specifics of jargon creation in the Internet environment. Currently, the formation of the Internet and computer jargon is considered to be one of the most notable achievements of evolutionary processes and comparison of Uzbek Internet and computer jargon with English is one of the most pressing questions.*

Kalit so‘zlar: *termin, lisoniy hodisa, terminologiya, jargon, sleng, internet, kompyuter, texnologiya, til.*

Ключевые слова: *термин, языковое явление, терминология, жаргон, сленг, интернет, компьютер, технология, язык.*

Key words: *term, linguistic phenomenon, terminology, jargon, slang, internet, computer, technology, language.*

Shaxsiy kompyuter tug‘ilishidan tortib to bugungi kungacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tib, ko‘p jihatdan takomillashdi, yangi qurilmalar, yangi dasturiy ta’minot, yangi texnologiyalar paydo bo‘ldi.

N.Ravjaa[1] sohaviy terminologiyaning shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qiluvchi bir qator prinsiplarni ajratib ko‘rsatadi:

– tarjima prinsipi;

– ona tiliga tayanish;

– noterminlarni terminologizatsiyasi prinsipi; Backbone Magistral;

– birlashuv prinsipi.

Ushbu prinsiplar kompyuter va internet jargonlariga ham tegishlidir.

Jargon tilning ajralmas qismi hisoblanib, leksikologiyaning eng munozarali muammolaridan biri sifatida qaraladi. Jargonni tilshunoslikda doimiy rivojlanib, o‘zgarib turadigan alohida bir hodisa bilan bog‘lash mumkin.

L.S.Barxudarov professionalizm va jargonizmlarni o‘rtasidagi farqni aniqlash qiyin masala ekanligini ta’kidlar ekan, “...albatta, lug‘at tarkibi o‘rtasida aniq bir chiziq hosil qilish juda kiyin, bu farqlar ba’zi hollarda shunchalik ahamiyatsizki, ba’zida farqning o‘zi keraksiz bo‘lib ko‘rinadi. Biroq so‘zning ma’lum bir guruhga tegishli ekanligini aniqlash uchun mutlaq mezonning yo‘qligi mavjud farqlarni inkor etish degani emas”, degan xulosaga keladi.[2]

Stilistika nuqtayi nazaridan – jargon, sleng yoki sotsiolektga[3] nutqning sofligini buzuvchi muammo sifatida qarash bilan birga, bu “tizimning organik va ma’lum darajada zarur qismi”[4] ekanligini unutmasligimiz lozim. Nutqiy faoliyatda foydalanish nuqtayi nazaridan qaralsa, jargon va professional slenglar dialektizmlarga nisbatan ancha torroq doirada foydalanish bilan ajralib turadi. Jargonlar professionalizmlar qoida tariqasida, faqat aholining ayrim tor guruhlari uchun tushunarlidir.

Hozirda internet va kompyuter jargoni shakllanishi evolyutsion jarayonlarning eng ko‘zga ko‘ringan yutuqlaridan biri deb hisoblanmoqda. Internet foydalanuvchilari global tarmoqda “tilni tajribasi” bilan shug‘ullanmoqdalar bu esa o‘z o‘rnida jargonni axborot texnologiyalari soxasidagi mutaxassislarga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan maxsus leksika sifatida shakllanishiga olib kelmoqda. Kompyuter va internet jargon, ijtimoiy-lingvistik hodisa sifatida shakllanib, mutaxassislar, turli darajadagi kompyuter va internet foydalanuvchilari o‘rtasida muloqot qilish uchun ishlatiladi.

Ingliz va o‘zbek tillarining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, so‘z yasash ko‘proq professionalizmlar va jargonizmlar maydonida sodir bo‘ladi. O‘zbek tilida ham so‘z yasovchi vositalar yordamida ham jargonlar shakllanmoqda.

Affiksatsiya – bu yangi so‘zlarni so‘z o‘zagiga so‘z yasovchi affikslarning qo‘shish orqali hosil qilish usuli. Muayyan davrda nisbatan ko‘p yangi so‘zlarni yasash uchun ishlatiladigan affikslar samarali hisoblanadi. Affiksatsiya adabiy til uchun bo‘lgani kabi, jargonizmlarni yasashning produktiv usuli hisoblanadi. Leksemalarni hosil qiluvchi affikslar yasama jargonlar yasalishida ishtirok etadi. Zamonaviy ingliz tilida produktiv suffikslar *-ing, -u, -ee, -ist, -er,-ette, ed, -tion* va h.k. Prefikslardan *anti-,super-, pro-, mis-, re-* va boshqalarini keltirish mumkin Ushbu affikslar yordamida yangi hosila so‘zlar yasaladi (oddiy va murakkab).

O‘zbek tilining kompyuter jargon leksikasi inliz tilidan o‘zlashtirmalar hisobiga to‘ldiriladi. O‘zbek kompyuter leksikasida inglizcha so‘zlarning ko‘pligini belgilovchi omillar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, kompyuterlarni asosan amerikalik firmalar ishlab chiqarganligi sababli, ingliz tilidagi terminologiya ustivor hisoblanadi.

Ikkinchidan, ingliz tilining ijtimoiy tarmoqlardagi ommabopligi. Til tizimida an’anaviy tarzda ajratib ko‘rsatiladigan so‘z yasash usullari bu: affiksatsiya, konversiya, so‘z qo‘shish, abbreviatsiya.

---

[1] Равжаа Н. Обучение монгольских студентов-нефилологов (программистов) рецепции и продукции текстов, содержащих дефиниции компьютерных терминов. Автореф. дис. …д-ра пед. наук, М., 2009.

[2] Бархударов, Л.С. Язык и перевод: вопросы общей и частной теории перевода. М., “Международные отношения”, 1975, с. 32.

[3] https://gufo.me/dict/foreign_words. Большой словарь иностранных слов.

[4] Варфоломеева И.В. Аббревиатуры современного английского языка: когнитивно-дискурсивный аспект. Дис. …канд. филол. наук. 10.02.04. Москва, 2007, с. 40; с. 168.

hub – xab. Ushbu jargon kompyuterlarni mahalliy tarmoqqa ulash uchun qurilma. Odatda, signal kuchaytiruvchisi bilan birlashtiriladi. Bir necha ulash uyali quti shakliga ega. *Xab* yordamida bog‘langan kompyuterlar muloqoti “bittasi uzatadi – barcha eshitadi” tamoili bo‘yicha amalga oshiriladi. Eng oddiy xablar ko‘p portli takrorlovchilardir.

So‘z qo‘shish. So‘z yasash usuliga qarama qarshi so‘z yasash usuli (affiksatsiya va tovush almashinuvi yordamida), – to‘liq ma’noli so‘zlar yoki ularning negizlarini yaxlit shakllangan majmuaga, murakkab so‘zga birlashuvi. Bunda quyidagi usullar ajratib ko‘rsatiladi: 1. Sof so‘z qo‘shish (negizlarni qo‘shish). 2. Chatishma (ikki yoki undan ko‘p komponentdan iborat totivlangan so‘z morfologik tarkibi bo‘yicha sintaksik so‘z birikmasiga aynan o‘xshash).

– *snail-mail:* axborotni uzatishning urfdan qolgan usuli; *cyberbuddy* – internetdagi suhbatdosh; *rollover* – bir nechta tugmani bir vaqtda (tasodifan) bosilishi; *laptop* – yo‘lda ishlatiladigan EHM; *whois* – tizimli buyruq; *bagbiter* – xatoga yo‘l qo‘ygan dasturlovchi; *cruftsmanship* – dasturning tushunarsiz xususiyati; *two-spot* – ikki nuqta; *flatworm* – tagiga chizish, ta’kidlov; *user-friendly* – qulay muloqot vositalari bor tizim va h.k.

Ingliz tilidagi so‘zlar bilan taqqoslaymiz: *mother-in-law, forget-me-not.* 3. Aralash so‘z yasash (murakkab so‘zda affiksatsiyalar elementlari mavjud): *breaking-down.*

Ingliz tili: *Backdoor* (“orqa eshik”) – tizimdagi kelib chiqishi tasodifiy yoki rejali bo‘lgan zaif joy. “Orqa eshik” orqali biladigan odam tizimga bemalol kirishi mumkin; *Bytecode* (bayt-kod) – Java-kompilyator tomonidan shakllantiriladigan va Java-interpretator tomonidan bajariladigan mashinadan mustaqil kod; *mass-mailing – mass-posting* (message) – ommaviy tarqatishga mo‘ljallangan murojaatnoma; *menu-based* – menyu asosida shakllantirilgan; *user-oriented* – foydalanuvchiga yo‘nalgan; *workstation* – tarmoqqa ulangan kompyuter; *breakaway – uzilish; sheaprnet – «ingichka» Ethernet tarmog‘ining slengli nomi.*

Backbone ingliz tilida *umurtqa* deb tarjima qilinadi qo‘shma so‘zlardan hosil bo‘lgan (*back – orqa +bone – suyak*) ushbu jargon tezkor tayanch tarmog‘i bo‘lib, provayder asosiy hajm ma’lumotlarni yo‘naltiradigan bir nechta katta quvvatdagi kompyuterlarni biriktiradi.

Ingliz tilida so‘z qo‘shish orqali yasalgan jargonlar o‘zbek tilida so‘z birikmasi sifatida kelishi kuzatildi: *motherboard – ona platasi.* Shaxsiy kompyuterlar tizim blokining asosiy platasi. Shaxsiy kompyuterlarning ona platasida markaziy protsessor, tezkor xotira, tizim va mahalliy shinalar hamda alohida platalar shaklida bo‘lgan displey adapteri, qattiq va egiluvchan disklarning nazoratchilari va portlar solinadigan uyalar joylashuvi ma’nosida keladi.

Backstage o‘zbek tilida *sahna orti* deb tarjima qilinadi (*back – orqa+stage–bosqich*) – HyperText Markup tilida dasturlashsiz interfaol veb-saytlarni, shu jumladan, ma’lumotlar bazasi aloqalarini, foydalanuvchi forumlarini va elektron pochta xabarlarini osongina yaratishga imkon beruvchi to‘plam bo‘lib, mijoz/server platformasi o‘z mijozlarini qo‘llab-quvvatlash va ularga xizmat ko‘rsatish uchun veb-saytlarni ishlab chikaradigan kompaniyalar uchun mo‘ljallangan.

♦*bookmark – havola qilish* (keyingi ish jarayonlarida to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qilish uchun, ko‘rib chiqilgan web-sahifa adresiga havola qilish) backwards (dasturning) qaytadigan yo‘li.

♦*branchpoint* – shoxchalarga (yo‘nalishlarga) ajratish nuqtasi; *chatterbot* – interfeysning virtual personajning gapiruvchi agent-roboti; *codebreaker* – shifrlarni buzuvchi mutaxassis; *breakdown – heat* issiqlik tufayli teshilib qolish.

Barcha yuqorida aytilganlarga xulosa yasab, shuni ta’kidlash joizki, kompyuter jargoni – bu alohida lingvomadaniy fenomen, u gurkirab rivojlanish bosqichida bo‘lib turibdi, shu boisdan uning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish dolzarb va istiqbolli sanaladi.

Отақулов Нодиржон Бахромалиевич (ЎзМУ)

ФРАНЦУЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СУБКОЛЛОКВИАЛ ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАР ТАДҚИҚИГА ДОИР

Аннотация. *Мазкур мақолада француз ва ўзбек тилларида фразеологик бирликларнинг хусусиятлари ва уларнинг услубий маъносини экспрессив-стилистик ва функционал-стилистик характеристикаларида тавсифланиши ҳамда функционал услубга киритиш имкониятини берувчи лингвистик ва экстралингвистик хусусиятлари ўрганилган. Оддий сўзлашув тили ФБларининг экспрессив-стилистик характеристикаси менсимаслик, киноя, нафратланиш ҳамда танбеҳ каби психологик жараёнларнинг эмоционал нозик фарқлари билан ажралиб туриши фразеологизм-*

ларга оддий сўзлашув тили қатламининг салбий экспрессив-стилистик тус берилганлиги, шу билан бирга ҳазилкашликнинг нозик фарқлари кузатилган.

Аннотация. *В данной статье изучены особенности просторечных фразеологических единиц во французском и узбекском языках, описание их стилевого значения в экспрессивно-стилистических и функционально-стилистических характеристиках, лингвистические и экстралингвистические особенности, дающие возможность включить их в функциональный стиль. Выделение экспрессивно-стилистической характеристики ФЕ просторечного языка эмоционально тонкими различиями в таких психологических процессах, как пренебрежение, ирония, презрение и предостережение, придаёт фразеологизмам отрицательную экспрессивно-стилистическую окраску. Наряду с этим наблюдаются и нежные элементы подшучивания.*

Annotation. *This article studies the features of vernacular phraseological units in the French and Uzbek languages, a description of their stylistic meaning in expressive-stylistic and functional-stylistic characteristics, linguistic and extralinguistic features that make it possible to include them in a functional style. Highlighting the expressive-stylistic characteristics of phraseological units of the vernacular language by emotionally subtle differences in such psychological processes as neglect, irony, contempt and warning, gives phraseological units a negative expressive-stylistic coloring. Along with this, there are also gentle elements of banter.*

Калит сўзлар: *содда тил, субколлоквиал, фразеологик бирлик, лингвистик, экстралингвистик, оддий сўзлашув тили, жаргон, арго.*

Ключевые слова: *просторечная, субколлоквиальная, фразеологическая единица, лингвистическая, экстралингвистическая, жаргон, арго.*

Key words: *colloquial, subcolloquial, phraseological unit, linguistic, extralinguistic, jargon, argot.*

Анъанавий градациядан келиб чиққан ҳолда, тилнинг ФБлари нейтрал, сўзлашув ва китобий функционал услубларга оид ФБларга бўлинади. Тилнинг амалий жиҳатдан мутлақо сўзлашув услубига тегишлилиги билан тан олинган лексика соддатил лексика ҳисобланади.

Француз сўзлашув фразеологияси ҳам асл сўзлашув фразеологик бирликлари – *fam.* белгиси билан, лексикографик *pop, vulg. ва argot* (ёки *arg*.) белгиларига эга бўлган содда сўзлашув тили, қўпол соддатил ва арготик ФБлар билан тақдим қилинган.

Ўзбек фразеологияси сўзлашув қатламининг услубий табақаланиши соддатил лексикаси вертикал шкаласига кўра қуйидагича кўринади: луғатларда “оғз. – *сўзлашув тилидаги сўз, ибора*” белгисига эга бўлган асл сўзлашув ФБлари, лексикографик жиҳатдан “оддий – *содда, авом тилида қўлланиладиган сўз, ибора*” белгиси билан қайд қилинган содда сўзлашув тили ФБлари, тегишли равишда “дағл.– *дағал, қўпол сўз, ибора – содда, авом тилида қўлланиладиган сўз, ибора*, “кест. – *кесатиқ, киноя англатадиган сўз, ибора,* “жарг. – *жаргон сўз* ва “с.т. – *сўзлашув тили* белгиси билан қайд қилинган жаргонли ФБлар.

Фразеологик бирликларнинг услубий маъносини экспрессив-стилистик ва функционал-стилистик характеристикаларида тавсифланади. Функционал-стилистик ва экспрессив-стилистик характеристикалар ҳар хил бўлган, аммо бир-бирига боғланганлик ва бир-бирини тақозо қилиш муносабатларида бўлган битта тушунчанинг икки томонидир.

ФБларнинг функционал-стилистик характеристикаси деганда ФБни тилнинг у ёки бу функционал услубига киритиш имкониятини берувчи лингвистик ва экстралингвистик фактларнинг мужмуини тушунамиз. В.Н.Вакуровнинг таъкидига кўра “тилнинг барча фразеологизмлари уларнинг ўзаро боғланишли нуқтаи назаридан, функционал услублар билан услубий разрядларнинг биттасига, яъни услубий қатламларга киради”.[1]

Француз ва ўзбек сўзлашув фразеологиясининг фарқи уларнинг адабий нормага муносабатидан ташкил топади. Агар ўзбек тилида норманинг чегараси адабий содда сўзлашув тили ҳисобланса, у ҳолда, мос равишда, сўзлашув ва содда сўзлашув тили ФБлари адабий нормалаштирилган ҳисобланади, адабий норманинг ташқарисида ўзбек фразеологияси сўзлашув тили қатламининг дағал-содда сўзлашув тили ва жаргон ФБлари қолади.

Соддатил лексика даражасини аниқлашда биз “субколлоквиал ФБлар” атамасини ишлатамиз, чунки бу атама кўриб чиқилаётган ҳодисаларни энг кўп адекват акс эттиради. Стилистик сод-

[1] Вакуров В.Н. Основные проблемы стилистики фразеологических единиц (на метериале советского фельетона). Дисс..: д-ра филол. наук, Моск. гос. ун-т, М., 1983, 27 с.

датил лексиканинг ФБлар ҳақида субколлоквиал вариантлар тўғрисида сўз юритиб, биз ўз тадқиқотимиздан сўзлашувга оид ҳақиқий ФБларни чиқариб ташлаймиз ва соддатил лексикасининг юқори чегарасини белгилаб, нейтрал ФБлардан эмас, балки сўзлашувга оид ФБлардан қочамиз (инглиз тилида *colloquial* – сўзлашувга оид ва *sub colloquial* – соддатил лексикаси, содда сўзлашувга оид деган маънони англатади). Субколлоквиал фразеологик бирликлар деганда биз стилистик фарқлаш шкаласида сўзлашувга оид ФБлардан пастдаги позицияни эгаллаган ФБларни тушунамиз.

Шундай қилиб, соддатил лексикасининг бошланғич "даражасини" белгилаб олиб, тадқиқотимиз предметига ўзбек тилида содда сўзлашувга оид, дағал-содда сўзлашувга оид, шунингдек, жаргон компонентли ФБларни, француз тилида эса яна арготик ФБларни киритамиз.

А.Н.Кожиннинг таъкидлашича, ФБларнинг асосий қисми экспрессив эканлигини тасдиқлаб, қайд қилиш керакки, экспрессивлик ҳар хил фразеологизмларда бир хил эмас. Экспрессив бўёқдорлик (тус берилганлик) ҳам кўтаринки, ҳам бетакаллуф, яъни содда бўлиши мумкин, баҳолаш ҳам мелиоратив, ҳам пейоратив характерга эга бўлиши мумкин[1]. Терминологик ва расмий ишга алоқадор фразеологизмлар эса бутунлай эмоционал-экспрессив йўғрилганликдан маҳрум қилинган.

Лексикографик манбаларда ФБларнинг экспрессив-стилистик даражаланганлиги қуйидаги белгилар билан акс эттирилади: "экспрессив", "ҳазил сўз, ибора", "киноя, кесатиқ ибора", "камситиш, пастга уриш", "нафратни билдирадиган", "қўпол, сўкиш сўзи, ибораси", "эркалатиш", "танбеҳ", "завқли, қувончли", "кичрайтириш", "бўрттириш (ёки кучайтириш) сўзи", "юқори услуб", "дабдабали сўз", "ҳурматни ифодалайдиган сўз", "менсимасликни билдирадиган", "узрли сўз" ҳамда "бетакаллуф сўз, ибора".

Биз кўриб чиқаётган ФБлар қатлами, бир томондан, эмоционал-экпрессив бўёқларнинг бойлиги билан, бошқа томондан эса, уларга киритилган экспрессияларнинг алоҳида соддатил лексикаси билан ажралиб туради.

Ф.П.Филиннинг таъкидича, "тилларнинг содда сўзлашув тилига оид ФБлари асосан норасмий оғзаки ҳаётий мулоқотда "фикр предметини дағалроқ, содда тасвирлаш" мақсадида шакллланади ва амалга оширилади"[2]. Масалан: фр.: *pisser contre le soleil* – раҳбарга қарши чиқмоқ; *régaler ses amis* – ичини тозаламоқ, сурги қилмоқ; *avoir barbe* – роса (ўлгудай) ичмоқ, отиб (ичиб) олмоқ, маст бўлмоқ; *tomber dans la dèche* – пулсиз ўтирмоқ, бир тийини (сариқ чақаси) ҳам йўқ бўлмоқ, қашшоқликда, муҳтожликда яшамоқ, қашшоқликка тушмоқ; *emballer une fille* – қизни ўзига мойил қилмоқ; *pisseur de copie* (ёки *d'encre*) – оддий (ҳаваскор) журналист; ўзб.: *ўзини ўту-чўққа урмоқ* – қўлидан ҳеч нарса келмаса ҳам, ҳар хил ишга қўл урмоқ; *бошини айлантирмоқ* – бирор-бир қизни ўзига ром қилмоқ; *оёқда туролмайди* – маст ҳолда, зўрға-зўрға, аранг юрмоқ; *димоғига қурт тушди, димоғидан эшак қурти ёғилади* – ўта даражада кеккайиб, кибр-ҳаволи бўлмоқ.[3]

ФБларнинг содда сўзлашув тилига оидлиги уларнинг таркибида содда сўзлашув тилида қўлланиладиган сўз ва ибораларнинг, дағал сўзларнинг, соматизмларнинг, эскирган сўзларнинг, диалектизмларнинг, кенг тарқалган атоқли отларнинг, инс-жинсларни тилга олишнинг, ҳайвонлар номларининг мавжудлиги билан аниқланиши мумкин:

фр.: *crever à la peine* – зўр келиб узилиб кетмоқ, зўриқиб (уриниб, кучаниб) шикаст топмоқ (орттирмоқ), шикастланмоқ, лат емоқ, путурдан кетмоқ, ишдан чиқмоқ; *faire une vadrouille* – уриш-жанжал (тўполон) қилмоқ, уриш-жанжал чиқармоқ, уриш-жанжал чиқариб тартибни бузмоқ, айш-ишрат қилмоқ, ичкиликбозлик қилмоқ; *tête de cochon* – эшакдай ўжар, қўйдай тихир; *coup de lapin* – от тепкиси, гарданга ўлдирадиган даражадаги оғир зарба; *tirer ses grègues* – дов-дастакни йиғиштириб жўнамоқ, жуфтакни ростламоқ, қочиб қолмоқ;

ўзб.: *бургага аччиқ қилиб кўрпани куйдирмоқ* – арзимаган нарсани деб жаҳл устида ножўя, зарарли иш қилиб қўймоқ; *юлдуз санамоқ* – бекорчилик билан шуғулланмоқ; *жигардан бўлган* – пул ҳақида; *мияга жо қилмоқ* – яхшилаб уқиб олмоқ; *тиш тирноғи билан курашмоқ* – қаттиқ ҳаракат қилмоқ; *қулоғига қуйиб олмоқ* – миясига ўрнаштириб олмоқ; *бир қайнови ичида* – иши фикрлаши қандайдир ғайритабиий; довдир; *эшагидан тўқими қиммат* – натижа сарф ҳаражатни қоп-

[1] Кожин А.Н. Функциональные типы русской речи. М.. "Высшая школа", 1982, 75 с.
[2] Филин Ф.П. О структуре современного русского литературного языка. "Вопросы языкознания", 1973, №2, 7 с.
[3] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. Т., "Ўқитувчи", 1992, 74-бет.

лашга ҳам етмайди; *эшаги лойдан ўтди* – иши битди; *эшакдай ўжар* – ўта қайсар; *қўйдай тиҳир* – ўта қайсар; *қўйдек юввош* – ўта даражада ювош; *ғоздек мағрур* – менсимаган ҳолда, кеккайган ҳолатда юриш; *тили осилиб қолмоқ* – жуда, ўта даражада чарчамоқ; *тушини сувга айтсин* – буҳуда хомтама бўлмасин, ўйлаганидек бўлади деб умид қилмасин; *онасини учқўрғондан кўрсатмоқ* – дўқ қилишни, қўрқитишни ифодалайди.

Гарчи асосий компонентларнинг услубий маъноси фразеологизмларни стилистик табақалаштиришда жуда муҳим деб тан олинса-да, тилшунослар ФБларнинг функционал-стилистик муносабатдорлигини аниқлашда семантик омилнинг етакчилигини кўрсатиб, услубий маънони абсолютлаштирмасликка даъват қиладилар.[1] ФБларнинг содда сўзлашув тилига оидлиги кўп жиҳатдан уларнинг асосига киритилган образларнинг характери билан аниқланади.[2] Содда сўзлашув тилига оид ФБлар ўз образларининг ёрқинлиги ва конкретлиги билан ажралиб туради:

фр.: *épouser la vache et le veau* – ҳомиладор аёлга уйланмоқ; *bille de billard* – кал, сийқа (ялтироқ) бош, сиққабош, ялтирбош, тоз; *en confiture* – мажақланган, пачоқланган; *jambes en parenthèses (en italiques)* – оёғи қийшиқ, қинғироёқ; *jouer des mains* – қаллоблик қилмоқ, ғирромлик қилмоқ, алдамоқ, муғомбирлик қилмоқ; *jouer de l'orgue* – хуррак отмоқ; *avoir mangé ses pieds* – оғзидан қўланса ҳид таратмоқ; *n'avoir plus de fil sur sa bobine* – сочи тўкилиб сийқабош (ялтирбош, тоз) бўлиб қолмоқ; *bouffer des briques à la sauce de cailloux* – оч қолмоқ, очин-тўқин яшамоқ; *avoir l'estomac dans les talons* – итдек оч бўлмоқ; *autant vouloir tirer un pet d'un âne mort* – сендан (ундан) ёруғлик – итдан чориқлик, сендан сира фойда йўқ (фойда чиқмайди); *il pleut comme une vache qui pisse* – ёмғир шаррос қуймоқда; *verser le potage à la séringue* – очкўзлик қилмоқ, суқлик қилмоқ; қурумсоқлик қилмоқ, қизғанмоқ, аямоқ; хасислик (бахиллик, зиқналик) қилмоқ;

ўзб.: *қаллоблик қилмоқ, ғирромлик қилмоқ* – алдамоқ, муғомбирлик қилмоқ; *итдек оч бўлмоқ* – ҳаддан ташқари қорни оч қолган; *итдан чориқлик* – сендан сира фойда йўқ (фойда чиқмайди); *суқлик қилмоқ; қурумсоқлик қилмоқ* – қизғанмоқ, аямоқ; хасислик (бахиллик, зиқналик) қилмоқ; *бурнидан ип боғлаб олмоқ* – ўз измига солиб олмоқ, истаган мақомига ўйнатмоқ; *гаҳ деса қўлга қўнадиган қилиб қўймоқ* – жуда итоаткор қилиб олмоқ; *эшакдек ҳанграмоқ* – бақириб ашула айтмоқ, ваҳима билан йиғламоқ; *эсини киргизмоқ* – ақлини киргизмоқ, эс-ҳушли қилмоқ, тартибга солиб қўймоқ; *жуфтакни ростламоқ* – жўнаб қолмоқ, қочиб қолмоқ; *танобини тортиб қўймоқ* - талабни кучайтирмоқ; *сафсата сотмоқ* – бўлмаган (ёлғон) гапни гапирмоқ; *ит ётиш, мирза туриш* – яшаш учун ҳеч қандай қулайликлар йўқ; *челаклаб куймоқ* – ёмғир шаррос қуйганда; *оғзидагини олдирмайдиганлардан* – ўз ҳақини бериб қўймайди; *қулоққа лағмон осмоқ* – қуруқ ваъдалар бериб алдамоқ; *тишини қайраб турмоқ* – фурсат келганида қасдини, аламини олишга шайланмоқ.

Ю.С.Степанов ўзининг 1965 йилда "Француз стилистикасида" азалий француз содда сўзлашув тилининг шаҳарча йўналтирилганлигини ва бу тушунча кўламига деҳқонларга оид шеваларни киритмасликни таъкидлаб, *langue française populaire* фақат тахминан тиллардаги содда сўзлашув тилига мос келади, деб ёзган эди.[3] Француз содда сўзлашув тили – бу Иль-де-Франс лаҳжасининг ривожланишини намоён қилувчи Франциянинг шаҳарча тили, содда сўзлашув тили ўз асосида XIX асрнинг охири XX асрнинг боши диалект базасига эга. Шундай экан, тадқиқотчи "Француз стилистикаси"ни ёзган пайтда француз содда сўзлашув тилининг тахминий муносабатдорлиги ҳақида маълум қилиш асосига эга эди. Янги содда сўзлашув тили тахминан XX асрнинг 70-йилларида юзага кела бошлади ва ўзининг асоси сифатида жаргонларга ва аргога эга бўлди.

Жаргон ва арготик ҳосилалар ҳисобига таъминланадиган умумшаҳар субстандарт тил сифатида содда сўзлашув тилини ҳозирги тушуниш уни француз содда сўзлашув тили таърифи билан яқинлаштиради, бу ушбу категория универсал эканлиги ҳақидаги фикрни тасдиқлайди, чунки барча ривожланган миллий тилларда ҳозир бўлади.[4]

Ўрганилаётган тилларда содда сўзлашув тилининг ижтимоий субстратини белгилаш масаласи очиқ қолади. Содда сўзлашув тили бугун – бу соддаларнинг сўзлашув тилими ёки содда тилми?

---

[1] Арсентьева Е.Ф. Сопоставительный анализ фразеологических единиц, семантически ориентированных на человека, в русском и английском языках и вопросы создания русско-английского фразеологического словаря. Дисс. .д-ра филол. наук, Казань, 1993, 329 с.

[2] Rey I.G. La phraseologie du français. Toulouse: Presses Universitaires du Mirail, 2002, 268 p.

[3] Степанов Ю.С. Французская стилистика. М., "Высшая школа", 1965, 355 с.

[4] Алексеев А.Я. Роль просторечной лексики в развитии функциональных стилей современного французского языка: Дисс. . канд. филол. наук, М., 1971, 255 с.

Агар тилшуносликда бу масалани ҳал қилиш билан ўтган асрнинг 70-йилларида биринчисига ғайриадабий содда сўзлашув тилини, иккинчисига эса адабий содда сўзлашув тилини киритиб шаклланган бўлса, француз лингвистикаси бу ерда бирдамликни намоён қилмайди.

Ф.Гаде содда сўзлашув тили соҳибининг қуйидаги социолингвистик портретини чизади, касби бўйича ишчи ёки бу тушунчага яқин киши оддий маълумотга эга бўлади, шаҳарлик, унча баланд бўлмаган ўз даромадлари билан характерланади ва унча юқори бўлмаган лавозимни эгаллайди.[1]

Ф.Каванна, сўзлашув тилининг ва содда сўзлашув тилининг яқинлашиш мойиллигини қайд қилиб, шундай хулосага келадики, улар биргаликда француз тилини ҳосил қилади, унда оддий француз уйда, ишда ва дам олишда сўзлашади, аммо у айрим вазиятларда бемаврид (ўринсиз) бўлиб қолади.[2]

Le Petit Larousse populaire сифат белгисига қуйидаги лингвистик таърифни беради: "сўзлашув тилининг оддий сўзи ёки ибораси ҳақида гапирилади, улар ёзма нутқда ёки анча расмий оғзаки мулоқотда уятга қўядиган ёки беадаб деб баҳоланишлари мумкин" *(se dit d'un mot ou d'une expression courant dans la langue parlée, mais qui seraient considérés comme choquants ou vulgaires dans un écrit ou une communication orale plus formelle [Le Petit Larousse 1998: 805].*

Ж.Дюбуанинг таъкидлашича, содда сўзлашув тили беадаб ва дағал бўлиб қолмай, содда халқнинг сўзлашув тарзига хос бўлган баъзи бир жиҳатларни ўз ичига олади ва шу сабабли жамиятнинг ўқимишли қатламларида қўлланилмаслиги керак, гарчи содда сўзлашув тилига оид иборалар атайлаб ҳам қўлланилишлари мумкин. Бу ҳолда уларнинг ишлатилиши содда, очиқ, табиий бўлиш истагидан дарак беради.[3]

Populaire таърифининг ўзида ҳам икки хиллик мавжуд, француз тилидан таржима қилинганда "халқчил, халққа яқин" маъносини беради. *Халқни* қандай тушуниш керак? К.Дюнетон ўзининг "La puce à 1'oreille. Anthologie des expressions populaires avec leur origine" китобида қуйидагини қайд қилади: "Тилшунослар Францияда "халқ" сўзини қўллаганларида, улар у билан фақат Парижнинг ишчи, бебош ёки бошпанасиз халқини ифодалайдилар" ("Quand les linguistes en France, emploient le mot "peuple", ils désignent par là, exclusivement, la population ouvrière, polissone ou clocharde de Paris").[4] Умумий француз миллати сифатидами ёки пролетариат, қуйи синф сифатидами? Кўриб турибмизки, Ф.Гаде иккинчи маънони тан олиш тарафида турибди, Ф.Каванна ва Le Petit Larousse луғати эса анча кенг, биринчи таърифга мойилдирлар, Ж.Дюбуа оралиқ позицияда жойлашган. Ф.Каваннанинг фикрига эътибор бериб, биз француз содда сўзлашув тили деганда умумшаҳар субстандартини тушунишга мойилмиз, оми одам томонидан қўлланилиши унинг содда келиб чиқишини фош қилади, илмли одам томонидан қўлланилиши эса мулоқот вазиятига, нутқда содда сўзлашув сўзи ёки ибораси иштирокининг жоизлик ёки ножоизлик даражасига боғлиқ. Шундай қилиб, "қиёсланаётган тиллардаги содда сўзлашув тили ФБларининг "функционал вазифаси нисбатан бир хил"[5] деб таъкидлаётган тадқиқотчиларга қўшиламиз. Биз яна ривожланишнинг ҳозирги босқичида француз ва ўзбек тиллари ўзининг қадрдон муҳитида экспрессиясини, дағаллигини, эмоционаллигини ҳамда образлилигини йўқотган жаргонли ва арготик сўз ва ибораларни жалб қилиш ҳисобига содда сўзлашув тили қатламини шакллантириш усулларида ҳам ўхшашдирлар, дея яна бир бор таъкидлаймиз.

Содда сўзлашув тили ФБларининг экспрессив-стилистик характеристикаси менсимасликнинг, киноянинг, нафратланишнинг, танбеҳнинг эмоционал нозик фарқлари билан ажралиб туради. Фразеология содда сўзлашув тили қатламининг салбий экспрессив-стилистик тус берилганлигига қарамасдан, айрим ҳолларда ҳазилкашлик нозик фарқлари кузатилади. Ш.Раҳматуллаевнинг "Ўзбек тилининг фразеологик луғати"да ҳазилкашлик нозик фарқли содда сўзлашув тилига оид ФБларни ҳам учратамиз: *бурга тепдими?* – "Енгил-елпи касалландингизми?"; *аммамнинг бузоғи* – "ландавур", "лапашанг" каби ФБларни кўришимиз мумкин.

---

[1] Gadet F. Le français populaire. Presses Universitaires de France, 1997, 128 p.

[2] Cavanna F. Les Russkoffs. Belfond, 1988, 416 p.

[3] Dubois J. Dictionnaire de linguistique. Marcelessi, J.-P. Merel. P., Larousse, 1994, 514 p.

[4] Duneton C. La puce à l'oreille: Anthologie des expressions populates avec leur origine. 1978, p. 21.

[5] Макарова С.Г. Функционально-стилистический компонент коннотации фразеологических единиц французского и русского языков. Дисс. . канд. филол. наук, Казань, 1999, 87 с.

Қиёсий тадқиқотимизга аниқлик киритиш мақсадини кўзлаб, ўзбекча қисм учун “жаргон”, атамасини, французча қисм учун эса “арго” атамасини ўғриларнинг тили/argot des gueux, ҳар бир тилнинг ичида ҳам гуруҳлар, ёшга оид, профессионал шевалар учун, шунингдек “умумий жаргонни”/“argot commun” сўзини метаатама сифатида бириктириб қўйишни хоҳлаган бўлар эдик, чунки қиёсий тадқиқотда бундай табақалаштириш тил фактларини адекват акс эттиришнинг ягона имконияти деса ҳам бўлади.

ФБлар профессионализмлар, ўғриларнинг шартли нутқи, ўғрилар жаргони/argot des gueux га тегишли ФБлар сингари, алоҳида тадқиқотлар доирасида батафсил ўрганишга лойиқдир. Бу ерда эса умумий жаргон/умумий арго ФБларига тўхталамиз. Айтиш керакки, жаргонли/арготик ФБларнинг стилистик келиб чиқиши ФБ норматив статус олгунига қадар етарли даражада узоқ вақт сезилиб туради, бу, қоидага кўра, ушбу фразеологизмларнинг беадаб коннотацияси ҳамда “паст” денотатив мазмуни билан боғлиқ.[1]

Одатда, умуммиллий тилга маргинал арголардан катта синонимик қаторлардан бирликлар ўтади. Улар жиноятчилар тўдаси жамоасининг қонунга итоат қилувчи қисмининг энг машҳур тушунчаларини билдирар эди, бу бирликларга полисемия, улардан бир қаторларига эса арголаштирувчилар билан тез-тез такрорланиш хос эди.

Экспрессив-стилистик характеристика фразеологизмнинг эмоционал-экспрессив мазмунини очиб беради, бу эса унинг лексик ва грамматик маъноси билан доимий боғланган. ФБларнинг кўпчилиги туйғуларни, эмоцияларни, инсоннинг руҳий ҳолатини ифодалаш учун хизмат қиладиган ҳамда эмоционал муносабатни, ижтимоий ва индивидуал баҳоларни ифодаловчи “экспрессив фразеологизмлар” категориясига тааллуқлидир.

Фразеологик маъно тадқиқотчилари коннотатив элементнинг информатив, номинатив элементдан бирламчилигини тан олади. Бошқача сўзлар билан айтганда, фразеологизмнинг вазифаси аташ эмас, балки ўзи билдираётган предметга ёки ҳодисага эмоционал муносабатни ифодалашдан иборатдир.

ФБ услубий маъносининг экспрессив жиҳати характери ўзаро чамбарчас боғланган, аммо шунга қарамасдан, бир-бирига айнан ўхшаш бўлмаган эмоционаллик, баҳолаш, ифодалилик, образлилик каби ўзаро муносабат билан аниқланади. Тиллар ривожланишининг ушбу даврида сўзлашув тили нейтрал белгига шу даражада яқинлашдики, сўзлашувга оид ФБларнинг соддатил лексикаси ҳақидаги масала мунозаралига ўхшайди. Бундай вазият фақат француз ва ўзбек тилларигагина тааллуқли бўлиб қолмай, балки кўплаб ҳозирги ривожланган тиллар учун ҳам тааллуқлидир, бу уларнинг глобал демократлашуви билан боғлиқдир. Бу стилистик чегараларнинг тил демократизацияси контекстидаги қўзғалувчанлик муаммосини ўрганишни ҳам тақозо этади.

Киличев Байрамали Эргашович (БухДУ доценти, филология фанлари номзоди)

ТОПОНИМЛАРДАГИ РАНГ БИЛДИРУВЧИ СЎЗЛАР

Аннотация. *Мазкур мақолада топонимларнинг таркибида қўлланадиган ранг-тус ифодаловчи сўзлар, уларнинг маънолари ҳақидаги қарашлар баён этилган. Топонимлар таркибидаги оқ, қора, сариқ, кўк каби ранг билдирувчи сўзларнинг ҳар доим ҳам ўз маносида қўлланмаслиги уларнинг семантик ва этимологик хусусиятларини таҳлил қилиш орқали асослаб берилган. Айрим жой номлари этноним асосида юзага келганлиги, уларда ранг-тус билан бевосита боғлиқ бўлмаган маънолар мавжудлиги мисоллар асосида исботланган.*

Аннотация. *В данной статье описаны слова, используемые в составе топонимов, взгляды на их значения. Тот факт, что такие слова, как белый, черный, желтый, синий, не всегда употребляются в собственном значении в топонимах, обосновывается путем анализа их семантических и этимологических особенностей. На примерах доказано, что некоторые топонимы основаны на этнонимах и имеют значения, не связанные напрямую с цветом.*

Annotation. *This article describes the words used in toponyms, views on their meanings. The fact that words such as white, black, yellow, blue are not always used in their proper meaning in toponyms is substantiated by analyzing their semantic and etymological features. It has been proven through exam-*

[1] Саляев В.А. Лексика арготического и жаргонного происхождения в толковых словарях современного русского языка. Автореф. дисс... канд. филол. наук, Магнитогорск, гос. пед. ун-т., М., 1998, 16 с.

ples that some toponyms are based on ethnonyms and have meanings that are not directly related to color.

Калит сўзлар: *ном, атоқли от, жой номи, географик объект, этноним, этнотопоним, этимология, ранг, белги, уруғ, қавм, қабила, қишлоқ, аҳоли пункти.*

Ключевые слова: *имя, имя собственное, топоним, географический объект, этноним, этнотопоним, этимология, цвет, знак, число, количество, племя, село, деревня, населенный пункт.*

Key words: *name, proper noun, toponym, geographical object, ethnonym, ethnotoponym, etymology, color, sign tribe, village, settlement.*

Ўзбекистон, хусусан, Бухоро вилояти топонимиясида географик номлар таркибида от, феъл, сифат каби сўз туркумларига оид бирликлар фаол қўлланса, равиш, олмош, сон каби туркумларга мансуб сўзлар кам қўлланади.

Ушбу ахборотда топонимлар таркибида қўлланадиган оқ, қора, қизил, сариқ, кўк каби луғавий бирликлар, уларнинг семантикаси, этимологияси хусусида фикр юритамиз. Мазкур бирликлар топоним таркибида ҳам ранг билдиришга хизмат қиладими, деган саволга жавоб беришга ҳаракат қиламиз.

Оқ. Ушбу ранг билдирувчи сўз изоҳли луғатда ўн бир маънода қўлланиши кўрсатилган: 1) қор, сут, пахта рангидаги (оқ дока, оқ қоғоз, оқ нон); 2) оқ тусга мойил, тиниқ (оқ бадан, оқ танли); 3) оқлик (сут-қатиқ маъносида); 4) ароқ (сўзлашув тилида); 5) чор Россияси подшосига тегишли; унинг тарафдори; 6) охирги, тоза (оққа кўчирмоқ); 7) гуноҳсиз, шаънига доғ тушмаган киши; тўғри, ҳақиқат; 8) оқарган тук (сочнинг оқи); 9) кўзнинг қорачиқни ўраган тиниқ рангли, шаффоф қисми; 10) баъзи касалликлар натижасида кўз қорачиғида пайдо бўладиган оқиш доғ, парда; 11) тухумнинг оқсил моддаси.[1] Кўринадики, ушбу сўз табиатдаги ранг, шахс, предмет ва ҳодиса билан боғлиқ маъноларда қўлланади. Шунингдек, *оқ* сўзи топонимлар таркибида ҳам тез-тез кўзга ташланади. Кўплаб топонимлар таркибидаги оқ сўзи ранг маъносига эгами? Ёки бошқа маъноларда ҳам қўлланадими? Ушбу саволларга қуйидаги таҳлиллар орқали жавоб берамиз.

Бухоро вилояти топонимиясида оқ сўзи иштирокидаги бир қанча жой номлари мавжуд: Оқгул (Ғиждувон т.), Оқмасжид (Бухоро ш.), Оқолтин (Когон т.), Оқпўлат (Олот т.), Оқработ (Бухоро т., Вобкент т., Жондор т., Решкў т., Шофиркон т., Ғиждувон т.), Оқтепа (Жондор т., Ғиждувон т.), Оқхўжа (Жондор т.), Оқчамамат (Когон т.).

Оқмасжид. Бухоро шаҳридаги кўча номи. Ушбу топоним маҳаллий аҳоли тилида Оқмачит деб юритилади. Топоним ҳудуддаги масжид номидан шаклланган. Таркиби: оқ+масжид. Т.Нафасовнинг қайд этишича, бино, иморатларга нисбатан **оқ сўзи** ранг маъносини билдирмайди. Давлат (хонлик, беклик, тўралик) томонидан қурилган масжид, сарой, қўрғон, работларга номига оқ сўзи қўшилганда давлат, ҳукумат, ҳокимият, катта, улкан, буюк; ҳашаматли, салобатли маъноларини англатган. Бухорода 16–19-асрларда хонлик фармойиши, рухсати ёки ҳашар йўли билан қурилган мачитлар оқмачит – Оқмачит аталган. Оқ сўзи хонликка қарашли эканлигига, ҳажм жиҳатдан катта эканлигига ишора.[2]

Демак, Оқмачит топонимидаги *оқ* компоненти ҳажм маъносида реаллашган. Бу қурилган иншоотнинг улканлиги ёки кенг майдонни эгаллаганини кўрсатиши ҳам мумкин. Мўғуллар давлатининг маркази саналган Оқ Ўрда Олтин Ўрданинг бир қисми бўлиб, Жўжихоннинг ўғли Ўрдахон номи билан боғлиқ. Эҳтимол, Оқ Ўрда учун ҳам ранг билан боғлиқ бўлмаган маъно асос бўлгандир.

Оқ масжид атамаси билан Ўзбекистондаги иккита меъморий ёдгорлик номланган. Булар Самарқанд вилояти Тим қишлоғи ҳамда Хивадаги Оқ масжид ёдгорликлари. Манбада улар ҳақида маълумот берилганда бирига деворлари ганч билан қопланган (номи шундан), иккинчисига гумбази ва асоси узоқдан оппоқ бўлиб кўринади (номи шундай) дея шарҳ берилган.[3]

Оқработ. Бухоро туманидаги аҳоли пункти номи. Туман Бухоро шаҳри атрофида бўлганлиги сабабли *работ* компонентли номлар ҳудудда кўп учрайди. Бухоро тумани топонимиясини тад-

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида. 5 жилдлик, 3-жилд, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. Т., 2006, 175 – 176-бетлар.

[2] Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи. Т., “Муҳаррир”, 2009, 197-бет.

[3] Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 томлик, 6-том, Т., 2003, 614-бет.

қиқ этган Н.Адизова Оқработ номи ҳақида ҳам маълумотлар берган. Топоним икки қисмдан иборат: оқ-работ. “Оқ” сўзи бугунги кунда ранг-тус ифодаловчи бирлик сифатида изоҳланади. Шу билан бирга “оқ” сўзнинг “ҳажм жиҳатдан катта, баланд, меъёрдагидан ортиқ” каби маънолари ҳам бор. “Работ” сўзи “оқ” сўзи билан қўшилиб, “катта работ”, “улкан истеҳком”, “ҳукумат томонидан бунёд қилинган иншоот” каби маъноларни англатади.[1]

Шунингдек, Н.Адизова Оқпўлат топоними ҳақида фикр юритганда ҳам ном таркибидаги “оқ” сўзи ранг ифодаламаслигини қайд этган. Бу топоним этноним асосида шаклланган бўлиб, оқпўлат – “пўлат уруғининг катта қисми яшайдиган маскан” маъносига эга.[2]

Топонимлар таркибидаги оқ, қора сўзлари ҳақида фикр юритган Э.М.Мурзаев туркий халқларда қадимда тоғдан оқиб тушувчи тезоқар, шўх сувни *оқсув,* текис ерларда булоқ, сизот сувларидан пайдо бўлган сувни *қорасув* деб атаганликларини қайд этган.[3]

Баён қилинганлардан маълум бўладики, топонимлар таркибида қўлланадиган *оқ* компоненти бир ўринда ранг-тус маъносини, иккинчи ўринда эса бошқа маъноларни, хусусан, *катта, улкан, кенг, кўламдор* кабиларни англатади.

Баъзан *оқ* компонентли топонимларга этнонимлар асос бўлганлигини ҳам кузатиш мумкин. Бу ҳақда Т.Нафасов маълумот берган. Бу маълумотларда оқбой – манғитларнинг уруғ тармоғи; Оқбой – Китоб туманидаги қишлоқ. Бу топонимнинг Оқвой (Косон тумани) варианти ҳам қайд этилган. Оқмўйин/оқбўйин этноними (манғитлар уруғи) негизида Оқмўйин/Оқбўйин (Ғузор тумани) пайдо бўлган. Худди шундай, Оқманғит топоними ҳам этноним асосида шаклланган.[4]

Албатта, этнонимлардан юзага келган топонимлар таркибидаги элементларнинг яққол кўзга ташланиши ёки компонентларнинг ҳар бир қисми мустақил қўлланишига қарамай, улар морфемаларга ажратилмайди. Шу сабабли ҳам этнонимлар таркибида кўринган *оқ* сўзи лексик-семантик ва грамматик жиҳатдан таҳлил этилмайди. Чунончи, оқманғит – “оқ рангли манғит” эмас.

Нафақат Бухоро вилояти, балки республикамизнинг бошқа ҳудудларида ҳам кўп учрайдиган номлардан бири ***Оқтепа*** топонимидир. Ушбу топоним Самарқанднинг Қўшработ, Қашқадарёнинг Косон, Бухоронинг Жондор ва Ғиждувон туманларида мавжуд.

Топонимнинг таркиби: оқ+тепа. Ном, аввало, географик объектни аташ учун қўлланган. Яҳё Ғуломовнинг фикрича, эрамизнинг IV –V асрларидан бошлаб, Ўрта Осиёнинг барча воҳаларида суғориш каналларининг устида ва экин далалари ўртасида деҳқонларнинг хом ғиштдан қурилган кўшклари вужудга келади, уларнинг харобалари ҳозиргача сақланиб қолган бўлиб, уларни тепа, оқтепа ёки тал деб атайдилар.[5]

Топонимияда тепа тушунчаси ўзиша хос ўринга эгалиги билан ажралиб туради. Топонимияда тепа ороним (тоғлар, тепаликлар, қирлар, сойликлар, даралар ва бошқа орографик объектларнинг номлари,[6] рельеф типлари ва шакллари (ер юзасидан баландлик ва чуқурлик) номи.[7] Сифатида қайд этилади. Тепа иштирокида *чоштепа, бўзтепа, қоратепа, оқтепа, шўртепа, қоровултепа* каби географик объект номлари мавжуд. Хуллас, оқтепа оронимидан аҳоли пункти номи пайдо бўлган.

Қора. Тилимизда кўп қўлланадиган ушбу сўзнинг ўндан ортиқ маънода ишлатилиши “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да қайд этилган.[8] Лекин айтиш лозимки, топонимлар таркибида қўлланилган *қора* сўзининг маъноси луғатда берилмаган. Хўш, биз *қора* сўзининг топонимияда қандай маъноларда келганлигини кузатамиз. Ушбу сўз топонимларда *текисликдаги кичик баландлик, дўнг жой, кичик тепа, кўп, зич, қалин* (боғ, дарахт сўзлари билан боғланганда), *кўп миқдордаги сув* (қорабулоқ), *юксак, катта* (қоракўл) ва бошқа маъноларни ифодалайди.

Демак, айтиш лозимки, луғатда баён этилган изоҳлар воситасида *қора* компонентли топонимларни шарҳлаш имконсиз. Шуниси муҳимки, *қора* компонентли топонимларнинг аксарияти ўз

[1] Adizova N.B. Buxoro tumani toponimlari. Monografiya, T., “Navro‘z”, 2020, 55-bet.
[2] Шу манба. 56-бет.
[3] Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. М., 1974, с. 200.
[4] Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи. Т., “Муҳаррир”, 2009, 195 – 199-бетлар.
[5] Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Т., 1959, 121-бет.
[6] Қораев С. География номлар маъноси. Т., “Ўзбекистон”, 1978, 193-бет.
[7] Дўсимов З., Тиллаева М. Топонимика асослари. Т., 2002, 82-бет.
[8] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, 5-жилд, Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008, 335–337-бетлар.

қатламга мансуб. Бу ҳолатни, бизнингча, *қора* сўзининг туркий тилларга мансублиги билан изоҳлаш мумкин.

Қора сўзи топонимиянинг турли соҳаларида учрайди. Жумладан, *Қорадарё, Қораариқ, Қорасув* – гидроним, *Қорабоғ, Қоракўл* – ойконим, *Қораато, Қоракўлча* – некроним, *Қорақалпоқ, Қорақулончи* – этнотопоним ва ҳ.к.

Бухоро вилояти топонимиясида ўндан ортиқ *қора* компонентли номлар мавжуд. Булар сирасига *Қорабоғ* (Ғиждувон т.), *Қоравул* (Жондор т.), *Қоравулон* (Шофиркон т.), *Қоражери* (Бухоро т.), *Қоракўл* (Қоракўл т.), *Қоракўлиён* (Бухоро т.), *Қораун* (Қоркўл т.), *Қорахони* (Ромитан т., Ғиждувон т.), *Қораҳожи* (Қоракўл т.), *Қорахумори* (Жондор т.), *Қорақалпоқ* (Пешкў т.), *Қорақулончи* (Қоракўл т.) кабиларни киритиш мумкин.

Қорабоғ. Ушбу топоним икки қисмдан иборат (қора+боғ). Халқ тилида шарҳланишига кўра, *қора* сўзи боғ, дарахт сўзлари билан қўлланганда *кўп, зич, қалин* каби маъноларни ифодалайди ҳамда қорабоғ – "кўп дарахти бўлган", "дарахтлар зич жойлашган макон" каби маъноларни юзага келтиради. *Қорабоғ* топоними ҳақида фикр юритган А.Гейбуллаев Озарбайжондаги Гарабаг/Гарабах номи печенегларнинг *гарабаг* этнонимидан эканлигини асослаб берган.[1]

Демак, *Қорабоғ* топонимини этноним асосида шаклланган деб айтиш мумкин. Маълумки, этнонимияда *қора* сўзи алоҳида эътиборга лойиқ саналади, чунки кўпгина этнонимлар таркибида *қора* сўзи учрайди. Чунончи, *қора, қораабдал, қорабағанали, қорабувра, қорабўриқ, қоралар, қораманғит, қоранайман, қорасийроқ, қорахони, қорача, қора чивар, қорақалпоқ, қорақурсоқ, қорақўйли, қорақўнғирот, қорағосмоқ, қорағурсак.*[2]

Бухоро топонимиясидаги *қора* компонентли номларнинг аксарияти этнонимлар асосида шаклланганлигини инобатга олиб, биз қуйида ана шу топонимларнинг айримларига алоҳида тўхталамиз.

Қорахони//Қарахони. Манбаларда қайд этилишича, Кўлобда яшовчи арабларнинг шолбоф уруғига қарашли тармоқ номи – қорахони деб аталган.[3] Шунингдек, оққипчоқларнинг жағалтой уруғига қарашли тармоқлардан бирининг номи ҳам *қорахон* деб юритилган. Шу сабабли, айтиш мумкинки, қорахон/қорахони этноним саналади.

Қорақалпоқ. Туркий халқларнинг бири саналган қорақалпоқлар узоқ тарихга эга этник гуруҳ саналади. Н.Охуновнинг маълумот беришича, Қорақалпоқ топоними Фарғона вилоятининг Данғара, Бувайда, Андижон вилоятининг Избоскан, Андижон туманларида ҳам мавжуд.[4] Ушбу этнос турли сабаблар билан ҳозирги Бухоро вилоятининг Пешкў, Шофиркон туманларида тарқалган. Улар бунёд этган аҳоли пунктлари Қорақалпок/Қорақалпоқлар деб номланади. Топоним этноним асосида пайдо бўлган.

Қорақулончи – қишлоқ. Қоракўл тумани. Қорақулончи – қулончи (қулон) уруғининг бир тармоғи. Яна шу туманда Қулончи, Ариқбўйиқулончи деган қишлоқлар ҳам бўлганлиги аниқланган.

Қоракўл. Ушбу топоним Бухоро, Варахша, Пойкент, Шофиркон, Ромитан каби қадимий номлардан саналади. Топоним таркибидаги *қора* сўзи катта, улкан, кенг маъноларига эга бўлиб, *катта кўл, улкан кўл* деб шарҳланиши мумкин. Чунки Қоракўл Зарафшон дарёси бўйида бўлиб, дарё Амуга қуйилган. Турли табиий ўзгаришлар, сув тошқини ва бошқалар сабаб улкан кўл пайдо бўлганлигини (ҳозирда Қоракўл туманининг қуйисида Олот тумани ҳудудида Денгизкўл гидроними мавжуд) эътибордан қолдириб бўлмайди. Шунинг учун Қоракўл топонимини гидроним асосида шаклланган дейиш мумкин. Вилоят ҳудудидаги *Қоракўлиён* топоними "қоракўлликлар" сўзининг форс-тожик тилидаги кўринишидир. Бу топонимнинг пайдо бўлишини аҳоли миграцияси билан шарҳлаш мумкин.

Қорали. Маҳаллий халқ тилида Қароли деб юритилади. Юқорида туркий мўғул тилларидаги қора/қара – тепа, баландлик, тиклик кўлами кичикроқ бўлган дўнглик каби маъноларда қўлланишини қайд этган эдик. Балки тепа борлиги учун Қорали/Қарали деб номланган бўлиши мумкин. Халқ тилида олхўрини қорали (қора олу) дейишади. Шу мевали дарахт асосида пайдо бўлганлиги ҳам, эҳтимол.

---

[1] Гейбуллаев Г.А. Топонимия Азербайджана. Баку, 1986, с. 145.
[2] Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. Т., "Наврўз", 2017, 101–113-бетлар.
[3] Овезов Ж.К. Истории племени мурчали. Труды ЮТАКЭ, т. 5, Ашхабад, 1955, с. 113.
[4] Охунов Н. Жой номлари тарихи. Т., "Ўзбекистон", 1994, 77-бет.

Бухоро топонимиясида форс-тожик тили таъсири кучли саналади. Бу ҳолатни тархий жараёнлар билан шарҳлаш мумкин. Вилоят топонимиясида форс-тожик тилида ранг атамаси билан боғлиқ номлар ҳам учради. Жумладан, Сиёҳкорон Бухоро шаҳридаги кўча номи бўлиб, ушбу кўчада ранг билан ишловчи ҳунармандлар истиқомат қилган ҳамда ўз устахоналарида фаолият олиб борган. Сиёҳ – қора ранг (қиёсланг: сафед – оқ, зард – сариқ, кабуд – кўк ва ҳ.к.).

Тарихчи олим Ҳ.Тўраевнинг қайд этишича, Сиёҳкорон – қораловчилар, қора рангга бўёвчилар маъносида қўлланилган. Алоҳида гузар сифатида XVIII–XIX аср вақф ҳужжатларида тилга олинади. Бу гузарда яшовчи аҳолининг асосий машғулоти эски пойабзалларни таъмирлаш, қора рангга бўяш ва сотишдан иборат бўлган. Жой номи ҳам шу машғулот туридан келиб чиққан.[1]

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, топонимлар таркибидаги турли сўзлар доим ҳам ўз асл маъносида қўлланавермайди. Сифатлар, айниқса, ранг-тус ифодалайдиган бирликлар камдан-кам ҳолатларда ўз асл денотатив маъносида учрайди. Бухоро вилояти ҳудудидаги оқ ва қора компонентли топонимларнинг катта қисмида ранг маъноси билан алоқадор бўлмаган маънолар ифодаланган.

Ранг-тус маъноли сўзлар, айниқса, этнонимлар асосида шаклланган топонимларда, умуман, қўлланилмаган. Этнонимлар таркибида қадимда ранг маъноси ифодаланган бўлса-да, улар тайёр ҳолда топонимга ўтганлиги учун морфемаларга ажратилмайди.

Ҳамдамова Ханифа (ЖПИ)

“РУСТАМХОН” ДОСТОНИДАГИ ЎЗЛАШМАЛАРДА КЎП МАЪНОЛИЛИК

***Аннотация**. Мақолада “Рустамхон” достони тилида қўлланилган араб ва форс-тожик тилидан ўзлашган сўзлардаги кўп маънолилик масаласи ўрганилган.*

***Аннотация**.В статье исследуется явление многозначности заимствований в арабском и персидско-таджикском языках на примере дастана “Рустамхон”.*

***Annotation.** In the article, the issue of polysemy of the borrowings in the Arabic and Persian-Tajik languages used in the language of the dastan “Rustamkhon” is studied.*

***Калит сўзлар:** достон, бахши, эпик қаҳрамон, кўп маънолилик, арабча сўзлар, форс-тожикча сўзлар, ўзлашма сўзлар.*

***Ключевые слова**: дастан, бахши, эпический герой, многозначность, арабские слова, персидско-таджикские слова, заимствования.*

***Key words**: dastan, bakhshi, epic hero, polysemy, Arabic words, Persian-Tajik words, borrowed words.*

«Рустамхон» достонида от сўз туркумига кирувчи араб тилидан ўзлашган қирқдан ортиқ лексема ўзининг кўп маънолилик хусусиятларини намоён қилганлиги аниқланди. Тилимизга араб тилидан ўзлашган *вақт* лексемаси замон, вақт муддати; он; мавсум каби маъноларни, шунингдек, “юз бериб турувчи воқеа-ҳодиса, нарсаларнинг асрлар, йиллар, соатлар, минутлар ва ш. к. билан ўлчанадиган давомийлиги, шундай ўлчов белгисига эга бўлган объектив ҳодиса” маъноларини ифодалаши тилшуносликда эътироф этилган.[2] Мазкур лексема ҳозирги кунда беш маънода[3] қўлланишда бўлса, қадимги туркий тилда фақатгина биргина маънода ишлатилганлиги нуфузли луғатларда[4] эътироф этилган. Алишер Навоий асарлари тилида олти маънода[5], тарихий асарлари лексикасида эса уч маънода[6] қўлланганлиги аниқланган. Биз ўрганган достон матнида мазкур лексеманинг қуйидаги маънолари мавжудлигини кузатдик:

1) *кўтаринки кайфиятли ҳолат; яхши кайфиятли, хурсанд ҳолатни кечирмоқ ёки хурсандчилик қилмоқ* маъносида: Бундай сўзни Хисрав подшо эшитди, Хисрав шоҳнинг жуда вақти хуш бўпти, Обод қилсам, дейди, бу манзил-жойди, Эр Тоғайнинг шуйтиб вақтин хушлайди; Бир нечасини вақтин хушлаб, Ўйнаб-кулар зулфак ташлаб;

---

[1] ЎзР Марказий давлат архиви, сақлов бирлиги – 378. 1709 йилда тузилган вақф ҳужжати.
[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати (ЎТИЛ). Беш томлик, 1-т, Тошкент, ЎзбМЭ, 2006, 448-бет.
[3] Шу манба.
[4] Древнетюркский словарь. Ленинград, “Наука”, 1969, с. 632.
[5] Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I–V, Тошкент, “Фан”, 1983–1985, 367-бет.
[6] Абдувалиева Д. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси. Т., “Фан”, 2016, 154-бет.

2) *вақтнинг бирор нарса, иш-машғулот учун белгиланган, ажратилган бўлаги; муддат* маъносида: Офтобой кўнглида айтди: «Менинг тўрам ҳаяллаб кетди, келар вақтидан ўтди, билмадим, бундан бориб ўзидан зўрга дучор бўлиб, ғариби гўристон бўлиб-ўлиб, тозилари тентираб қолиб-(ми)?; Бизлар баркамол қиз вақтимизда қалликка борадиган эди;

3) *соат, кун, ой, йил ва ш.к.нинг узлуксиз изчил алмашувида бирор мақсад учун белгиланган ёки бирор мақсад учун фойдаланилиши муддат оралиғи; фурсат* маъносида. Шу вақти кун етиб қолди пешинга, Маофада юриб, Офтоб қаради, Неча вақтлар қолдинг ҳорлик тортиб, Бу ерда кун кўрдинг кўп ғамга ботиб;

4) *кўтаринки кайфиятли ҳолат, вақтичоғлик, хурсандчилик* маъносида. Вақтинг хуш қип яхши кунни кўрабер, Кетабер, дилбарим, сендан розиман. Подшолик шундай хабар қўйди: «Одамлар кўкини ташлаб, вақтини хушлаб, ўз ишида бўлсин, бозорни юргазсин, савдо-сотиқни бошласин!»;

5) *айни вақтда, ҳозир(да), ҳозирнинг ўзида* маъносида: Шу вақтда Рустам тоғни ошиб, яқинлаб тушиб кета берди; Агар шу ишлар бўлган вақтда ҳам, бизнинг кўкайимиздан камбағал – камчилигимиз кетмайди;

6) *объектив тарзда кечувчи даврнинг, киши хаётининг маълум, аниқ бир бўлаги, нуқтаси, оралиғи* маъносида: Сен қарибсан, дарвозада турибсан, Неча вақт подшонгга хизмат қилибсан, // Аҳмоқ, сўзни ўзинг кўп машқ қилибсан; У вақтларда шундай расм бор эди: камбағалнинг бобоси деб бир одамни камбағалга бошчи қилиб қўяр эди;

7) *ҳозирнинг ўзида, шу билан бирга* маъносида*:* Ўғли бўлган вақтда қўли бориб шундай ўғлини ўлдирса, бу кимни билади; Офтобойдай фарзандини берган вақтида ҳам мен сизлар билан бир дам баланд-паст гапиришиб ўтирганимга олмайман;

8) *ўйламаган, хаёлга келмаган, билмаган бир вақтда* маъносида.

Агар шу ишлар бўлган вақтда ҳам, бизнинг кўкайимиздан камбағал – камчилигимиз кетмайди; Агар шу ишлар бўлган вақтда ҳам, бизнинг кўкайимиздан камбағал – камчилигимиз кетмайди. каби.

“Қадимги туркий луғат”да ва ҳозирги ўзбек адабий тилида *вафо* лексемаси “ёрга, дўстга, яқин кишиларга садоқат; ўз аҳд-паймонини муқаддас тутиш; сўзда, ваъдада қатъий туриш” маъноларини ифодалаши аниқланган.[1] Алишер Навоийнинг тарихий асарлари лексикасида ушбу лексема уч маънода қўлланганлиги эътироф этилган.[2] Биз ўрганган достон матнида мазкур лексема қуйидаги маъноларда қўлланган:

1) *яқин, садоқатли уй ҳайвони (този итлар)* маъносида: Икки тозим эди, эна, вафодор, Душман келса бўлар эди баробар; Вафодорлар, бу сўзимни бил энди, Олис турмай сен яқинлаб кел энди, Жониворлар, йўлни бошлаб юр энди;

2) *ёрга ёки муайян бирор шахсга ишонч ҳосил қилмаслик* маъносида: Шундай бир ўғилни билмаган менга нима вафо қилади;

3) *беҳисоб бойлик, тожу-тахтга эгалик қилишдан воз кечиш* маъносида: Вафоси йўқ бундай шоҳлик давлатдан. Бошим олиб кетай бундан, албатта, каби.

“Фикр, тафаккур; ғоя; хаёл, ақл” маъноларини ифодалайдиган, аслида, араб тилидан тилимизга ўзлашган *хотира* лексемаси достон матнида бирор марта қўлланилмаган. Бу истилоҳ “бирор кимса ёки нарса ҳақидаги ёдда, эсда сақланган таассурот”[3] маъносини ифодалаб келганлиги илмда аниқланган. Бироқ ушбу лексеманинг қипчоқ шевасига хос эс (ақл), фаросат, хаёл, ўй каби хилма-хил вариантларининг қўлланилганлиги кузатилди:

1) *хотирлаш, ёдга олиш ёки уларнинг тескариси* маъноларида*:* Шотутга яқинлаб боргандан кейин, Ҳуройимнинг кўрган азоблари, жаллоддан кўрган таадди, меҳнатлари эсига тушиб, бу сўзларни айтиб бора берди; Қўзим бошимда бўлмади, Мени эсига олмади; Тоғай айтди: – Ҳали элда сўрамабман, бу йўлнинг бу ердан айрилиб кетиши эсимга келмаяпти;

2) *ақлсиз, фаросатсиз* маъноларида: Подшо бўлса бўпти-да. У Султонхонда эс нима қилади?! Эси бор киши шу кампирнинг кўтариб борган хатига ишонармиди? У эси йўқ бачча-ғарнинг гапини қайтариб бўлмайди; Ўзинг ўйла, сенинг эсинг бормиди?;

---

[1] Древнетюркский словарь. Ленинград, “Наука”, 1969, 632-бет; Ўзбек тилининг изоҳли луғати (ЎТИЛ). Беш томлик, 1-т, Тошкент, ЎзбМЭ, 2006, 445-бет.

[2] Абдувалиева Д. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси. Т., “Фан”, 2016, 154-бет.

[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш томлик, 4-т, 2008, 416-бет.

3) *ақлли, фаросатли, фикр-мулоҳазали* маъноларида: Рустам эси кириб қолган, китоб ўқиб ҳар гапнинг маънисига тушунадиган бўлган, серфаҳм, ўйли, ақли кўп эди; Рустам ўйлади: «Мен бояги сўзни билмай айтган эканман, бу энам экан;

4) *бирор ҳулоса ёки фикрга келишлик* маъносида: Кеча-кундуз яхши сўйлаб ўйладим. Алдаб-сулдаб тозиларни бойладим; Бизни камбағал деб писанд қилиб эсига олмабди; Ўтар дунё ўтарини ўйладинг,

Қиёмат деб, ширин жонинг қийнадинг каби.

Араб тилидан тилимизга ўзлашган *маъни* лексемаси маъно, мазмун (ЎТИЛ, 2, 565)ни ифодалайди, достон тилида ҳам ушбу маънолар қўлланилганлиги кузатилди: Рустам эси кириб қолган, китоб ўқиб ҳар гапнинг маънисига тушунадиган бўлган, серфаҳм, ўйли, ақли кўп эди; Энасининг сўзларини тинглаб, маънисига тушуниб, отасининг қилган ишларига ошиб-тошиб, отасидан кўнгли қолиб, энасининг гапи маъқул бўлиб: – Эна, ундай бўлса ихтиёр сенда-да каби.

Лекин унинг инкор (бўлишсизлик) шакли *бемаъни, маънисиз* лексемаларининг мазмуни юқоридаги тушунчанинг мутлақ тескарисини ифодалайди. Достонда *бемаъни* лексемаси қипчоқ шеваси ва достон тилига ҳос *бетайин* синоними орқали қўлланганлигини кузатдик: Ҳали бетайинмиз; одам бўлармиз; Дунёнинг даврини ахир кўрармиз; Бир юртдан бир юртга оғишиб келган, подшоларнинг наздида бетайин одам бўлса, бўлак ер-жой бермаса, билса ўзи борар эди, билмаса, у камбағалнинг каттаси камбағал бобо, бу бизнинг одамимиз, деб йиғиб олар эди каби

Мазкур достон матнида от сўз туркумига кирувчи форс тилидан ўзлашган кўпмаъноли лексемалар ҳам учрайди. Қуйида уларнинг айрим намуналарини кузатамиз. Тилимиздаги “бошланиш; биринчи” маъноларини ифодаловчи арабча *аввал* лексемаси достон матнида анчайин фаол қўлланган. Уларнинг маънолари қуйидаги кўринишларга эга эканлиги аниқланди:

1) *муайян ҳаракатнинг бошланишида; бошида* маъносида: Аввал ғайратингни айтгин, Рустамжон, Пиёдадан мурод ҳосил бўлмайди;

2) *биринчи навбатда, биринчи бўлиб; дастлаб* маъноларида: Аввали, менга ким қўйипти шу гапларни, тўғри жавоб айтиб ўтказиб юборабермакда деб, бобо бир-икки оғиз сўз айтиб турибди, дейди:

3) равиш вазифасида: *ўтган вақтларда, ҳозирга қадар; илгариги* маъносида: Вазирнинг гапираётгани бир кўрмаган гап, аввали бу гап бўлмаган гап; бўлган вақтда сизнинг ўғлингиз энди ўн тўртга кирар эди;

4) кўмакчи вазифасида: *бирор воқеа, ҳодиса ёки ҳаракатнинг бошқасидан ёки шу ҳақда сўз бораётган вақтдан олдин бўлганлигини билдириш маъносида:* Аввали ўйлагин, бу тоғда ётма, // Ёлғизсан-да, болам манманлик этма каби.

Таъкидлаш лозимки, пайт маъносини ифодаловчи равиш туркумига кирувчи *аввал* лексемаси ҳозирги ўзбек адабий тилида беш маънода,[1] Навоий асарларида уч маънода,[2] шунингдек, шоирнинг тарихий асарлари лексикасида уч маънода қўлланганлиги аниқланган.[3] Биз ўрганган достонда ушбу истилоҳнинг тўрт маънода қўлланганлиги маълум бўлди.

Ҳозирги ўзбек адабий тилида “бинонинг, уйнинг томини кўтариб турувчи ёки тик кўтарилган қисми” бош семемасини ифодаловчи *девор* лексемаси тўрт маънода,[4] Навоийнинг тарихий асарлари лексикасида икки маънода (“чегара”, “девор, том”) қўлланганлиги аниқланган.[5] Тадқиқ қилинган достонда бу лексема фақатгина бир ўринда: *Бирор ерни (хусусан, қўрғонни), ҳудудни ўраб олган муайян ғов, тўсиқ* маъносида қўлланган: Офтобойга девлар ошиқ бўлгандир, Деворига тилладан сув бергандир; Борса Бужул шаҳри шундай: деворини зокка бўяган, ҳаммаси кийимини кўкка бўяган; биров бировига ёнашмайди, ортиқ-камни ҳисоблашмайди каби.

Хуллас, халқ достонлари тилидаги иш-ҳаракат ва ҳолат маъносида қўлланилган сўзлардаги, нарса-ҳодисаларни ифодаловчи сўзлардаги, шунингдек, белги-хусусиятни ифода этувчи сўзлардаги кўп маънолилик масаласи тилшунослигимизда ҳанузгача ўрганилмаган энг долзарб масалалардан биридир. Бизнинг қисқача баён этган мулоҳозаларимиз бу борадаги илк кузатишларимизнинг натижаси сифатида қабул қилинмоғи лозим.

---

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати (ЎТИЛ). Беш томлик, 1-т, Тошкент, ЎзбМЭ, 2006, 29–30-бетлар.

[2] Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I–V. Тошкент, “Фан”, 1983–1985, 27-бет.

[3] Абдувалиева Д. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси. Т., “Фан”, 2016, 155-бет.

[4] Ўзбек тилининг изоҳли луғати (ЎТИЛ). Беш томлик, 1-т, Тошкент, ЎзбМЭ, 2006, 588-бет.

[5] Абдувалиева Д. Кўрсатилган манба. 155-бет.

Axmedova Firuza Asrorovna (SamDCHTI Yaqin sharq tillari kafedrasi o‘qituvchisi;
www.dilshod.rahmonov1401@gmail.com

ZAMONAVIY INGLIZ TILIDA NEOLOGIZMLARNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqola neologizmlarning ilk paydo bo‘lishi va bir qator tadqiqotlar bajaruvchi ma’nosi bilan so‘zlarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Neologizm turlarini turli badiiy matnda aks etish yo‘llari ochib berishga qaratilgan.*

Аннотация. *Первое появление неологизмов и ряд исследований по ним были посвящены изучению слов с исполнительным значением. Цель состоит в том, чтобы выявить способы выражения неологизмов в различных художественных текстах.*

Annotation. *The article is dedicated to the study of the first appearance of neologisms and a number of studies were dedicated to the study of words with executive meaning. The aim is to identify ways of expressing neologisms in various literary texts.*

Kalit so‘zlar: *neologizm, neologiya, tarjima muammosi, uslub.*

Ключевые слова: *неологизм, неология, проблема перевода, стиль.*

Key words: *neologism, neology, translation problem, style.*

Ingliz, nemis, rus, fransuz tillari materiallari bo‘yicha yozilgan bir qator tadqiqotlar bajaruvchi ma’nosi bilan so‘zlarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Ba’zi ishlar shaxs ma’nosiga ega so‘zlarning semantik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan, boshqalari yangi lug‘atning shakllanish xususiyatlarini o‘rganishga, uchinchi maqsad asarlar shaxsning og‘zaki nomlarining semantikasi va tuzilishini o‘rganishga qaratilgan edi, ba’zi ishlarda yuz nomlari shakllanishining semantik va sotsiolingvistik xususiyatlari tasvirlangan.

Shu bilan birga, neologizmlar turli jihatlarda ko‘rib chiqildi: semantik-derivatsion jihat alohida muallifning neologizmlari yoki XX – XXI asrlar boshidagi yangi so‘zlar, murakkab, “Neologizm nafaqat neologiya va neografiya toifasi (yoki kengroq – leksikologiya va leksikografiya), balki murakkab, polisemantik lingvistik va madaniy hodisa sifatida ham harakat qilishi mumkin”, oraliq har qanday tuzilmaning elementi uning tarkibiy qismi bo‘lgan struktura orqali va boshqa tuzilmalar bilan bog‘lanish orqali namoyon bo‘lganda, lingvistik va madaniy, stilistik, tizimli va kommunikativ, funksional-semantik, psixolingvistik, kognitiv-nominativ.

Ko‘pgina tilshunoslarning e’tiborini shaxs nomlari yoki kasb nomlarini o‘rganish muammosi jalb qiladi.

V.G.Kostomarov, boshqa tilshunoslar singari, XX asr rus tilida “nominativ portlash”, “so‘z yasash portlashi” sodir bo‘lgan okkazionalizm va qisqartmalar asri deb nomlanishini ta’kidlaydi. ko‘plab tilshunoslarning qisqartirilgan neologizmlarga qiziqishi, yoki “abroneologizmlar” nafaqat, balki chet el olimlarining, ularni o‘rganishda diaxronik yondashuv ham qo‘llanilishi mumkin Ba’zi chet el tilshunoslari neologizmlarni ular paydo bo‘lgan faoliyat sohalariga ko‘ra yoki yangi so‘zlarning shakllanishiga olib kelgan ba’zi voqealar bilan bog‘liq holda, masalan, 11-sentabr voqealari bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqadilar. Qiziqish nafaqat yangi so‘zlarga, balki zamonaviy ingliz tilidagi yangi affikslarga va ularning unumdorligi muammosiga.

Antroposentrik xarakterdagi neoplazmalar orasida bajaruvchining nomlari (Nomina Agentis) ham birliklar soni bo‘yicha, ham qo‘llaniladigan ta’lim usullari va modellari soni bo‘yicha markaziy o‘rinlardan birini egallaydi.

Xorijiy tadqiqotchilarning qator ishlari so‘z va iboralarni farqlash muammosiga bag‘ishlangan. Doer ma’nosi bilan neologizmlarni o‘rganish ikkita asosiy sababga ko‘ra dolzarb bo‘lib qolmoqda – ekstralingvistik va intralingvistik.

Birinchisining mohiyati shundaki, ijtimoiy va texnologik jihatdan tez o‘zgarib borayotgan jamiyatda til jamoasi a’zolari o‘zlari uchun yangi ijtimoiy rollar va kasbiy funksiyalarda yangi belgilar yaratishga doimiy ehtiyoj sezadilar.

Til ichidagi sabab yangi birliklarni shakllantirishning mahsuldor usullarini tizimlashtirish, ayrim so‘zlardan yasalgan modellarning eng katta faolligining sinxron segmentlarini o‘rnatish va mahsuldorlikni yo‘qotishga qarama-qarshi tendensiyalarni qayd etishning doimiy ehtiyojidan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida hosila va murakkab so‘zlar, turli belgilarga muvofiq aktorni bildiruvchi iboralar tashkil etildi. Aktor deganda ham harakatni bajaruvchi subyekt, ham harakat yo‘naltirilgan obyekt sifatida tushuniladi.

Tadqiqot obyekti sifatida iboralar yoki nominativ ketma-ketliklar tanlanishi asarning dolzarbligi va yangiligini ta'kidlaydi. Aksariyat hollarda iboralar lavozimlarni belgilashdir. Amerikaliklardan biriga ko'ra

1. Bu asarda so'z yasalishi deganda tilda mavjud bo'lgan yangi birliklarni yasashning barcha usullari tushuniladi.

2. Nominativ ketma-ketliklar deganda ot+ot (N+N ketma-ketligi) va tobe so'zlar bilan so'z birikmalarining oldingi va so'z o'zgartiruvchi birikmalari tushuniladi. "N+N ketma-ketligi" atamasi Longman grammatikasining mualliflari tomonidan kiritilgan. Ishga qabul qilish kompaniyalari Office Angels, kamida 70% odamlar uchun ularning lavozimi unvoni muhim

Bunga lingvistik vositalarni to'g'ri tanlash va ular tomonidan etkazilgan ma'noni zichlashtirish orqali erishish mumkin. Boshqa tomondan, lavozimning nomi u yoki bu lavozimni egallab turgan shaxs tomonidan bajariladigan funksiyalarning zamonaviy darajasiga mos kelishi va bu lavozimning ijtimoiy ahamiyatini oshirishga va unga jamiyat tomonidan e'tiborni kuchaytirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Hozirgacha bu ikki holat lingvistik tadqiqotlar doirasida o'rganilmagan va shuning uchun haqli ravishda yangi deb ta'riflanishi mumkin.

Davriy nashrlarda va tegishli internet saytlarida bo'sh ish o'rinlari to'g'risida e'lonlar mavjud bo'lgan ustunlar – material manbasini tanlashni yangi deb hisoblash kerak. "The Sunday Times", "The Times", "The Guardian", "The Economist", "The Independent" va boshqa davriy nashrlarga e'tibor qaratildi. Tadqiqot davomida neologizmlar ham ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy maqolalardan tanlab olindi.

Neologizm deganda tilda mavjud bo'lgan leksik-semantik tarkibni boyitishning har qanday usullari natijasida tilda paydo bo'lgan yangi so'z yoki ibora tushuniladi. Neologizmlar har doim ma'lum bir vaqt oralig'ida cheklangan. Ushbu tadqiqot XX – XXI asrlar oxirida paydo bo'lgan neologizmlarni o'rganadi.

Davrlar chegarasi har doim turli tadqiqotchilarda qiziqish uyg'otadi – aynan shu davrlarda oldingi rivojlanish natijalari eng aniq namoyon bo'ladi va yangi tendensiyalar yanada keskinroq seziladi. Til ikkalasini ham ishtiyoqsiz qamrab olishga qodir, shuning uchun tahlil qilish uchun keng maydon beradi.

Ishning maqsadi zamonaviy ingliz tilidagi agent ma'nosi bilan yangi birliklarning shakllanishining asosiy tarkibiy va mazmuniy qonuniyatlarini o'rganish va shakllanish jarayonida tegishli ijtimoiy, madaniy, texnologik omillar va lingvistik omillar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatishdir.

4) 1997–2004-yillardagi davriy nashrlardan bajaruvchi ma'nosidagi neologizmlarni tanlash;

5) bosma va onlayn lug'atlarda tanlangan Nomina Agentis mavjudligini o'zaro tahlil qilish;

6) tahlil qilinayotgan birliklarni tematik prinsipga ko'ra tasniflash;

7) tanlangan birliklarni strukturaviy-semantik tamoyillarga ko'ra tasniflash;

8) o'rganilayotgan birliklarning asosiy semantik modellarini o'rnatish;

9) so'z turkumlarini o'zak komponenti, bosh va tobe bo'laklarning o'rni, bog'lanish turi, bog'lovchi elementlari bo'yicha tahlil qilish va ko'rsatish;

10) bajaruvchi ma'nosi bilan yangi birliklarning shakllanishida ijtimoiy-madaniy komponentning rolini aniqlash.

O'rganilayotgan birliklar orasida qo'shma so'zlar va affiks hosilalarning kichik guruhi ajralib turadi, bu iboralarga qaraganda ancha kichikdir. So'z birikmalarining keng tarqalganligi, ular shaxsni lavozimiga ko'ra belgilashning eng aniq va shaffof usuli ekanligi bilan izohlanadi.

Yangi birliklarning semantik turlari quyidagi guruhlar bilan ifodalanadi: lavozim belgilari(1021), doimiy ishdagi raqamlar (51), ma'lum qarashlar, e'tiqodlar bilan tavsiflangan raqamlar (18), davlat vazifalari va topshiriqlarini bajaruvchi shaxslar (16), obyektlar. Kimningdir harakatlarining manzillari (12), maxsus kasbdagi shaxslar (12), yangi kasblar (10), davriy sinflardagi shaxslar (9), siyosiy sohadagi shaxslar (7).

Ushbu tasnifda quyidagi asosiy yoki tepalik otlari ajralib turadi (head-nouns): accountant, administrator, advisor, agent, analyst, architect, assistant, associate, attorney, broker, chair, consultant, controller, coordinator, counselor, dealer, designer, director, economist, engineer, executive, expert, head, instructor, lawyer, lead, leader, manager, officer, operator, planner, practitioner, professional, receptionist, representtative, secretary, solicitor, specialist, supervisor, technologist, worker, ular ham tematik soha bo'yicha tasniflanadi.

O'rganilayotgan birliklar quyidagi tarkibiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1) o'rganilayotgan birliklar qo'shma so'zlar (7%), affiks hosilalari (8%) va so'z birikmalariga (85%) bo'linadi. Ushbu tadqiqotda qo'shma so'z va so'z birikmasini farqlash uchun uchta mezondan foydalanildi: morfologik, sintaktik va semantik;

2) so‘zlar soni bo‘yicha iboralar sezilarli darajada ustundir, bu zamonaviy ingliz tilida ofisdagi shaxs nomlarining ko‘payishini ko‘rsatadi, asosan iboralar tufayli, ularning shaffof tuzilishi tufayli, bu shaxs faoliyatining mohiyatini aniqlaydi;

3) o‘rganilayotgan birliklar hosil bo‘lish usuliga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘linadi: hosila yasash yo‘li bilan tuzilgan so‘zlar (103 so‘z) va so‘z tarkibi (90 so‘z);

4) Nomina Agentis lotinlarining shakllanishida ilgari qarama-qarshi qiymatlar bilan tavsiflangan affikslarning aralashuviga barqaror tendensiya mavjud: -e yoki -ee, bu qarama-qarshi qo‘shimchalar juftlarining ma’nosidagi farq bilan izohlanishi mumkin. Ba’zi affikslarning (mega-, arch-, -ologist/logist) ma’nosining o‘zgarishi mavjud bo‘lib, mavjud ma’no bilan bir qatorda, ijtimoiy-madaniy omil ta’sirida yuzaga keladigan yangisi paydo bo‘ladi. Ilgari akademik sohada kasb-hunarni bildirish uchun qo‘llanilgan, hozir esa -er qo‘shimchasi bilan sinonim bo‘lib, umuman bajaruvchini tarbiyalash uchun qo‘llanilgan -ist qo‘shimchasining ma’nosi kengaygan;

5) ta’lim turi bo‘yicha eng ko‘p qo‘shma so‘zlar (6,1%) bog‘lovchi elementlarsiz o‘zak qo‘shish orqali hosil qilingan neologizmlar guruhiga kiradi. Tuzilishining murakkabligi nuqtayi nazaridan eng unumli qo‘shma gap turi bo‘lib, unda otlarning sodda va affiks asoslari birikadi (4,3%). Tuzilish tarkibiy qismlarining turi bo‘yicha N+N=N modeli (5%) bo‘yicha tuzilgan murakkab neologizmlar soni boshqa guruhlarga nisbatan ustunlik qiladi.

6) Aksariyat neologizm-iboralar uch elementli tuzilishga ega (27%), undan keyin to‘rt elementdan tashkil topgan birliklar (19%), keyin ikkita elementli iboralar (16%). Qisqartmani o‘z ichiga olgan birliklarning 8%, besh elementli tuzilishga ega bo‘lgan iboralarning 7%, olti elementli tuzilishga ega bo‘lgan 4% va etti elementli tuzilishga ega bo‘lgan 2% mavjud. Tuzilishi 9 elementli iboralar atigi 0,2%ni tashkil qiladi va bitta ibora o‘n elementli tuzilishga ega;

7) o‘rganilayotgan birliklarning shakllanishi modellari ko‘p va xilma-xil (2 dan 10 tagacha elementlarni o‘z ichiga oladi);

8) neologizmlar strukturasining murakkablashuviga bosh gap, bog‘lovchi va artikl yordamida erishiladi. 3 dan 6 ta elementgacha bo‘lgan murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan iboralar tarkibida eng ko‘p uchraydigan “of” predlogi. Ikkinchi o‘rinda “va” bog‘lovchisi. Kamroq sonli so‘zlarning “uchun”, “in” va predloglari bilan birikmalari. Ravishdosh va bog‘lovchilardan bir nechta yuklamalardan tashkil topgan aralash tipdagi bog‘lovchi elementlar bilan.

9) o‘rganilayotgan iboralar tarkibiga kirgan komponentlarning aksariyati ot bilan ifodalangan bo‘lsa, oz sonli sifatdoshlar va kesimlar asosan bosh gapda qayd etilgan. So‘z birikmalarining eng ko‘p soni “ot+ot+ot” va “ot+ot” modellari bo‘yicha tuzilgan;

10) o‘rganilayotgan iboralar asosiy komponentiga ko‘ra tasniflanadi. So‘z birikmalarining eng ko‘p soni quyidagi asosiy komponentlar bilan tuzilgan: “menejer” (221 so‘z birikmasi), “direktor” (174), “bosh” (123). Ushbu asosiy komponentlar semantikada bir-biriga mos keladi: ular kompaniyaning yuqori mansabdor shaxslarini anglatishi mumkin. Shu bilan birga, “direktor”, “rahbar” so‘zlari asosan menejerlarga nisbatan qo‘llaniladi, “menejer” esa o‘rta bo‘g‘in xodimi bo‘lgan holda kompaniyani boshqarishi yoki boshqa funksiyalarni bajarishi mumkin bo‘lgan shaxsning lavozimini anglatadi;

11) o‘rganilayotgan birliklarning aksariyati murakkab tuzilishga ega bo‘lib, bir nechta elementlardan iborat bo‘lib, ular uchun bosh so‘zning tobega (65,7% birliklarga) nisbatan postpozitsiyasi bosh gapga (17,3%) yoki oraliq pozitsiyaga qaraganda xarakterlidir.

Til – insonning ijtimoiy mavqeyining juda muhim xususiyati. Ijtimoiy tilshunoslikda tilni ijtimoiy ko‘rsatkichlar bilan belgilash muammosi rivojlangan: geografik va ijtimoiy dialektlardagi tillarning gorizontal va vertikal tasniflari, turli ijtimoiy (kambag‘allar tili, qora tanlilar ingliz tilisi, o‘spirinlar tili, erkak va ayol tillari va boshqalar) xususiyatlari tanlanadi va ta’riflanadi, professional tillar va jargon o‘rganiladi. Olingan tadqiqot natijalaridan bajaruvchi ma’nosiga ega neologizmlarni keyingi o‘rganish, ularning tilda mavjudligini kuzatish, aniqlangan va yangi faoliyat sohalarida lug‘atning paydo bo‘lishi va rivojlanishining keyingi tendensiyalarini aniqlash uchun foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Algeo J. Fifty Years Among New Words. Cambridge, 1991.

2. Aronoff Mark and Janie Rees-Miller. The handbook of Linguistics. Maiden, MA&Oxford: Blackwell Publishers, 2001.

3. Ball A.M. Compounding in the English language. New York, 1941.

4. Bauer L. English word formation. Cambridge University press, 1983.

5. Bauer Laurie. Morphological productivity. Cambridge, 2001.
6. Bauer Laurie. When is a sequence of two nouns a compound in English?// English Language and Linguistics, Vol. 2, Parti, May 1998, p. 65-86.
7. Barker C. Episodic -ee in English: a thematic role constraint on new word formation, 1998, p. 695 – 727.
8. Строкова А.Ф. Новая лексика в английском языке. Взаимоотношение лингвистического и культурологического аспектов. Английский лексикон в лингвистическом и культурологическом пространстве. М., 1992, с. 93 – 99.
9. Тимошенко Т.Р. Телескопия в словообразовательной системе современного английского языка. Киев, 1976.
10. Тихонова К.А. Контрастивное исследование баз данных (на материале немецких и русских неологизмов молодёжной речи конца XX века). Автореферат диссертации на соискание степени кандидата филологических наук, М., 2002.
11. Тобулток Л.Г. Денотативные пространства новых производных единиц (на материале субстантивной лексики, появившейся в период с 80-х годов в английском языке). Автореферат диссертации на соискание степени кандидата филологических наук, М., 2005.

Xuramova Dildora Rahkmonkulovna (SamDCHTI Yaqin sharq tillari kafedrasi o‘qituvchisi;
dildorakhuramova1987@gmail.com

IDIOLEKTNI IFODALOVCHI VOSITALARNING SEMANTIK-STILISTIK O‘XSHASH VA FARQLI JIHATLARI TADQIQI

Annotatsiya. *Muallif idiolekti va tarjima muammosi bo‘lib, ishning dolzarbligi idiolektni tarjimada to‘la-to‘kis yetkazib berish muammosidir. Muallif idiolektining badiiy matnda aks etish yo‘llari ochib berishga qaratilgan.*

Аннотация. *В статье рассматривается «проблема авторского идиолекта и перевода», актуальностью работы является проблема целостности идиолекта в переводе. Цель – выявить способы отражения авторского идиолекта в художественном тексте.*

Annotation. *The problem of the author’s idiolect and translation, the relevance of the work is the problem of the integrity of the idiolect in translation. The goal is to identify ways of reflecting the author’s idiolect in a literary text.*

Kalit so‘zlar: *frazeologizm, til, idiolekt, tarjima muammosi, uslub, muallif.*

Ключевые слова*: фразеологизм, язык, идиолект, проблемы перевода, стиль, автор.*

Key words: *phraseologism, language, idiolect, translation problem, style, author.*

Lisoniy birlik sifatida frazemalarga ham xuddi leksemalarda bo‘lganidek nomlash vazifasi va ma’lum bir ma’noni bildirish vazifasi xos. Faqat frazeologik birliklarning ayrim turlarida nomlash vazifasi yo‘q. Frazemada ikki va undan ortiq leksema o‘z leksik ma’no mustaqilligini yo‘qotgan holda bir umumiy ma’no markaziga bo‘ysunadi, frazemadan yaxlitligicha anglashiladigan ma’noni gavdalantirish uchun xizmat qiladi. Frazemadan anglashiladigan ma’no uning tarkibidagi leksemalardan anglashiladigan ma’nolarning oddiy (arifmetik) yig‘indisi bo‘lmay, umumlashma, ustama ma’no, ayni vaqtda ko‘chma ma’no sifatida gavdalanadi. Masalan, *jon(i)ni jabborga bermoq* frazemasi ”bor kuchini safarbar qilgani holda faoliyat ko‘rsatish” ma’nosini anglatadi; bu ma’no – *jon, jabbor, ber* leksemalari anglatadigan ma’nolarning oddiy yig‘indisi emas, balki ma’lum obrazga asoslanadigan umumlashma ko‘chma ma’no. Leksemada bo‘lganidek, frazemaning mazmun jihatida ham ikki hodisa ajratiladi:

1) lug‘aviy ma’no, aniqrog‘i, frazeologik ma’no; 2) baho semasi.

Frazemaning voqelikka nisbatan beriladigan lug‘aviy mazmuni frazeologik ma’no deyiladi. Masalan, *tuyaning kallasiday* frazemasi “hajmi odatdagidan ancha katta, yirik” ma’nosini, *yurak-bag‘r(i) qon bo‘lib ketdi* frazemasi “diltang bo‘l, ziq bo‘l” ma’nosini anglatadi: *Qovunga qarang. Har biri tuyaning kallasiday. Juda saralangan* (Oybek). *Yurak-bag‘rim qon bo‘lib ketdi,.. ertadan beri yolg‘iz o‘tiribman* (Oybek).

Frazeologik ma’no tarkibini semantik tahlil qilish bilan ham ideografik semalar ajratiladi. Masalan, *ta’b(i) xira* frazemasi sifatlarning ruhiy holat bildiruvchi leksik-semantik guruhiga mansub. Bu guruh sifatlarning lug‘aviy ma’nosi tarkibida kayfiyat, his-hayajonning ijobiy-salbiyligi, his-hayajonning kuchli-

kuchsizligi kabi ideografik semalar ajratiladi. Ana shu semalar asosida yuqoridagi frazemaning ma'nosini "kayfiyati biroz yomon holatda" deb ta'riflash mumkin.

Frazema mazmun jihatining voqelikka munosabat bildirish belgisiga baho semasi deyiladi. Baho semasining leksemalardagi va frazemalardagi mavqeyi farqli. Baho semasi leksemalarning ko'pida betaraf bo'ladi, yaqqol ifodalanib turmaydi; ba'zan esa baho semasi leksemani turlicha ma'no munosabatiga kiritish, turlicha qo'llash bilan hosil qilinadi. Frazemalarning ko'pida esa baho semasi uning mazmun jihatida doimiy tarkibiy qism bo'lib qatnashadi, ba'zan frazemaning lug'aviy ma'nosini butunlay qamrab oladi. Frazemalar odatda voqelikni nomlabgina qolmay, uni baholaydi ham. Frazemalarning tilda yashashini oqlab turadigan asosiy sabablardan biri – shu. Masalan, quyidagi matnlarda ishlatilgan frazemalar ma'lum voqelikni nomlaydi (*yer-u ko'kka ishonma* – "o'ta darajada ardoqla;" *bosh(i)ga ko'tarmoq II – "*yuksak darajada izzat-hurmat qilmoq;" *mukka(si)dan ketmoq* – "o'zini tiya olmaslik darajasida berilib ketmoq"); shu bilan bir vaqtda bu voqelikka munosabatni ham ifodalaydi (Avvalgi ikki frazemada ijobiy munosabat, keyingi frazemada esa salbiy munosabat ifodalanadi): *Ibrohim. Xursandmisan, xafa qilayotgani yo'qmi? Gulsara*. Yo'q! *Yer-u ko'kka ishonmaydi, boshiga ko'taradi* (Yashin). *Otang – xurofotga mukkasidan ketgan odam* (Yashin). Frazemalar nutqda asosan lisoniy ma'nosi bilan ishlatiladi. Shuning bilan birga, frazemani yangicha lug'aviy mazmun bilan ishlatish ham uchraydi. Masalan, *chakag(i) ochildi* frazemasi, odatda, "ko'p ma'ramoq (hayvonga nisbatan), "uzluksiz jovramoq" (kishiga nisbatan) ma'nolarini anglatadi. Oybek bu frazemani juda ustalik bilan yangi bir hodisa – pulemyotning o'q uzishiga ko'chirgan. Bunday yangicha qo'llash muvaffaqiyatli chiqqan, yozuvchi "uzluksiz o'q uzmoq" kabi yangicha ma'noni ifodalashga erishgan: *Pulemyotning chakagi ochilib ketdi.* Frazemani yangicha nutqiy qo'llash hamma vaqt ijobiy chiqavermaydi.

Masalan, quyidagi nutqiy qo'llash durust chiqqan, lekin kichik bir nuqson ham bor: *Sevgining naqadar pok, naqadar muqaddasligini yetti uxlab, tushida ko'rmagan va uni muruvvatsiz qo'lda so'lgan chechak kabi xoksor qilgan ishq jalloblarining noziga quloq solgan xudo to'tiqushning bolalaridek bir-biriga zor, intizor bo'lib, bir-biriga yetisholmay xor-zor bo'lib yurgan miskinlar ohiga nechuk quloq solmas ekan?* (Mirzakalon Ismoiliy).

Bu matnda ishlatilgan *yetti uxlab, tush(i)da ko'rmaslik* frazemasi "hech qachon ko'rmagan" ma'nosini anglatadi va ko'rish mumkin bo'lgan narsalarga nisbatan ishlatiladi. Yozuvchi bu frazemani yangicha matnda, yangicha qurshovda (*sevgining pokligi, muqaddasligi* birikmashakliga bog'lab) ishlatgan. Natijada bu frazema tamoman yangi ma'noni – "bilmagan" ma'nosini anglatish uchun xizmat qildirilgan. Bu bilan frazemaning lug'aviy ma'nosi to'g'ri taraqqiy ettirilgan. Lekin bu frazema mavhum belgi otlarini bevosita boshqarib kelishi o'rinli chiqmagan.

Tilning frazeologik sathi insoniyatning necha yillik bilim tajriba va madaniyati asosida rivojlanib, boyib boradi. Frazeologik birliklar til egasi bo'lgan xalqning ma'naviyati, madaniyati, urf-odatlari, kasbi, yashash sharoiti, intilishlari, voqelikka munosabati bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Ma'lumki, inson dunyoni nafaqat obyektiv tasvirlashga, balki borliqdagi predmetlarni xususiyatlarini anglash, ularni baholashga ham intiladi. Frazeologik iboralarda esa obyektiv bilimlar va insonning ularga nisbattan subyektiv munosabatlari aks etgan bo'ladi, ya'ni frazeologik iboralarda so'zlovchining nutq holatiga nisbatan shaxsiy bahosi aks etgan bo'lishi mumkin.

Yuqorida keltirilganidek, frazeologik iboralar turlicha klassifikatsiya qilinib, bu ularning ma'nosi, ma'lum bir kontekstda qanday qo'llanilishi, qaysi gap bo'lagini ifodalab kelishi hamda ko'plab qator omillar bilan bevosita aloqador. Frazeologik iboralarni funksional-stilistik jihatdan turkumlarga bo'lganda, ular eng avvalo ikki yirik guruhlarga ajratiladi:

- ♦ neytral frazeologizmlar;
- ♦ adabiy frazeologizmlar.

Neytral frazeologik iboralarga iste'moli cheklanmagan, ko'pchilik tomonidan qo'llaniladigan hamda tushunarli bo'lgan, hech qanday qo'shimcha emotsional-stilistik bo'yoqqa ega bo'lmagan frazemalar kiritiladi. Bunday birliklar og'zaki nutqda ham yozma nutqda ham bemalol qo'llanila oladi. Masalan, take care of – g'amxo'rlik qilish; look through – ko'zdan kechirmoq; day by day – kundan kunga;

Adabiy frazeologik iboralar yuqori darajadagi kitobiyligi, badiiy stilga xoslanganligi, bilan xarakterlanadi, hamda ularga poetik frazeologizmlar, istorizmlar, arxaizmlar, antik davr adabiyotidan kirib kelgan frazeologik iboralar, boshqa tillardan o'zlashgan frazemalar, biblizmlar, adabiyot va san'atga oid iboralar kiritiladi.

Poetik-adabiy frazeologik iboralar nazmga yuqori ruh bag‘ishlaydi va emotsional ta’sirni oshiradi: the silken band – do‘stlik va sevgi rishtasi; under the sad – qabr holati; to bring to mould – yer bilan yakson qilmoq; under the rose – sirli ravishda, tun qorung‘usida.

Arxaik frazeologik iboralar hozirda mavjud bo‘lmagan tushunchalarni ifodalab kelgan birliklar bo‘lib, ba’zan badiiy asarlarda makon va zamonni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu turga ba’zi shekspirizmlar ham kiritilishi mumkin. Masalan, lady of the manor house – feodal qasr bekasi; to shuffle off – hayotdan ko‘z yummoq; germane to the matter – maqsadga yaqin.

So‘zlashuv nutqida modal-imperativ formalar ko‘p ishlatiladi. Kundalik aloqada bevosita suhbatdoshning fikriga ta’sir o‘tkazish uchun imperativ ekspressiyadan foydalaniladi. Shu sababli modal xarakterga ega imperativ frazeologik iboralar ko‘p uchraydi. Masalan, Man alive! (Tezroq, jonliroq harakat qilinglar!), Marry come up! (Buni qarang-a!).

Shunisi xarakterliki, so‘zlashuv nutqida informativlikdan ko‘ra komunikativlik kuchli bo‘ladi.

Frazeologiyaning tarkibiy qismida so‘zlashuv frazeologik iboralari eng ko‘p tarqalgan uslubiy tip bo‘lib, bunday frazeologik iboralar til frazeologik fondining yarmidan ko‘prog‘ini tashkil qiladi. Ular xalq og‘zaki ijodida, kundalik muloqotda keng qo‘llanilib, umuman, uy-rozg‘or buyumlari, kiyim-kechak nomlari, oziq-ovqat nomlari, pul birliklari, kundalik ish-harakatlarni, shuningdek, insonning emotsional-ruhiy holatlarini ifodalab keladi.

So‘zlashuv frazeologizmlari oddiyligi, maishiy xarakterga egaligi, ba’zan satirik yoki hajviy uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘lishi va yuqori darajadagi emotsionalligi bilan kitobiy frazeologizmlardan ajralib turadi.[1]

Frazeologik iboralarning xarakterli jihati, komponentlarining ko‘chma ma’noga asoslanishi, hamda ko‘pincha ma’lum bir emotsional-uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘lishidir. Shuning uchun ham frazeologik iboralarni o‘rganishda ularni semantik klassifikatsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, frazeologik iboralarnig semantik strukturasi ko‘p tarmoqli hodisa bo‘lib, agar frazeologik iboralar komponentlarini semantik jihatdan o‘zaro bog‘liq holda tadqiq etadigan bo‘lsak, frazeologizmlarda denotativ ma’no ham, konnotativ ma’no ham mavjud bo‘lishining guvohi bo‘lamiz. Faqat so‘zlardan farqli ravishda, frazeologik iboralarda konnotativ ma’no muhim ahamiyat kasb etadi. Bizga ma’lumki, konnotativlikning asosiy belgilariga baholash, emotsionallik, hamda ta’sirchanlik kabilar kiritiladi. Shuning uchun yuqoridagi xususiyatlarning barchasi frazeologik iboralarning ham asosiy belgisi hisoblanadi.

Frazeologik birliklar so‘zlashuv nutqning salmoqli qismini tashkil qilar ekan, ularni semantik jihatdan klassifikatsiya qilish, ya’ni turkumlarga ajratib o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki nutq momentida frazeologik iboralardan mohirona foydalanish, nutq madaniyatini oshirib, insonning intelektual qobiliyatini belgilab berishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, so‘zlashuv frazeologizmlarini teran anglash, millat tarixi, urf-odatlarini chuqurroq anglashga, ma’lum bir millat madaniyati bilan yaqindan tanishishga imkon yaratadi. Masalan, It’s a pretty go when one comes home and finds a thief has carried away all one’s valuables during one’s absence!

Insonning boshqa ish-harakatlari bilan aloqador frazeologik iboralar: go west – u dunyoga ravona bo‘lmoq; the name of a game – asosiysi, eng muhimi; stick one’s neck out – tavakkal qilmoq; hate smb’s guts – biron kishini o‘lgudek yomon ko‘rmoq; be up in the air – portlamoq, g‘azablanmoq; arty and crafty – jimjimador, serhasham; bag and baggage – hamma lash-lushlari bilan,butunlay; have a ball – xursandchilik qilmoq; from the bottom of one’s heart – chin dildan; take smth on the chin – umidsizlikka tushmaslik; be on the cloud – yettinchi osmonda uchmoq. Masalan: They hate my guts. They’d like to kill me, and now they’re doing it. We’ve got to take this on the chn. Sit, down, Harris and tell me about it.

Inson xulq atvorini ko‘rsatuvchi frazeologik iboralar: ball of fire – olov, chaqqon; rough as bags-dag‘al qo‘pol; smart Aleck – surbet, beor, maqtanchoq; with a bang – juda omadli; with the bark on-qo‘pol, dag‘al, tarbiyasiz; full of beans – yuragida o‘ti bor; an eager beaver – serg‘ayrat, tirishqoq; a downy bird – ayyor; a gay bird – xushchaqchaq, hazilkash; spring chicken – g‘or tajribasiz; do the civil – iltifot ko‘rsatmoq; hard case – ashaddiy jinoyatchi; a tame cat – lattachaynar, sust; good cheer – hazilkash.

Frazeologik iboralarning emotsionalligi ularning turli xil his-tuyg‘ulari, shaxs-predmetlarga nisbatan subyektiv munosabatlarini ifodalash bilan bog‘liqdir. Frazeologik iboralarning emotsionalligi bir vaqtning o‘zda ikki ma’noning reallashuvi va obrazlilik natijasida yuzaga chiqadi.

[1] Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. М., Издательство литературы на иностранных языках, 1959, с. 84 – 85.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ingliz tilida so‘zlashuv frazeologizmlari turli semantik sathlarda ifodalanib kelish bilan birga, o‘ziga xos stilistik emotsional semaga ham ega bo‘ladi. Xususan, emotsional-ekspressiv semalar ularning o‘ziga xosligini ta’minlab, nutq momentida to‘g‘ri voqelanishi uchun zamin yaratadi.

Ma’lumki, til elementlari konnotativ ma’no bilan birga, uslubiy bo‘yoqdorlikka ham ega. Ular o‘ziga xos”ekspressiv atmosfera” bilan o‘ralgan bo‘ladi. Bu holat tilshunoslikda hozirga qadar turli xil nomlanib kelinmoqda.

Frazeologik iboralarning emotsionalligi ularning turli xil his-tuyg‘ulari, shaxs-predmetlarga nisbatan subyektiv munosabatlarini ifodalash bilan bog‘liqdir. Frazeologik iboralarning emotsionalligi, bir vaqtning o‘zida, ikki ma’noning reallashuvi va obrazlilik natijasida yuzaga chiqadi. Darhaqiqat, frazeologik iboralar qo‘rquv, shodlik, azoblanish, hayrat, taajub kabi emotsional xususiyatlarni ifodalash imkoniyatiga ega. Masalan, “miserable as bandicoot”, “over a barrel”, “like a bastard”, “be for the high dive” kabi frazeologik iboralar dardu alam, xafagarchilik emotsional bo‘yog‘iga ega bo‘lsa, “have a ball”, “full of beans”, “a guy bird” frazeologik iboralar quvonch, sevinch emotsional bo‘yog‘iga ega.

Ekspressiya nutqning ta’sirchanlik xususiyati bo‘lib, frazeologik iboralarda bu xususiyat ekspressiv baho bo‘yog‘i ko‘rinishiga ega. Ekspressiv baho bo‘yog‘ining, xilma-xil turlari mavjud, ya’ni ayrim frazeologik iboralar yuqori ko‘tarinki bo‘yoqqa ega bo‘lsa, boshqalari tushkun bo‘yoq ifodalaydi.

Normurodov Oybek Berdimurod o‘g‘li (Guliston davlat universiteti
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi; e-mail: normurodov13@mail.ru)

SAYYID QOSIMIY IJODINING O‘RGANILISHI

Annotatsiya*. Mazkur maqola Sayyid Qosimiy ijodining adabiyotshunoslik ilmida o‘rganilishi borasida qilingan ilmiy tadqiqotlar tahliliga qaratilgan. Unda adib adabiy merosini tadqiq qilgan olimlarning fikrlari, kuzatishlari o‘rganilgan. Bu masala tadqiq qilinishi lozim bo‘lgan ishlardan biridir. Ushbu masalaning hal qilinishi, birinchidan, tahlil qilinayotgan ilmiy kuzatishlar mohiyatini yanada yaqqolroq ochilishini ta’minlasa, ikkinchidan, uning o‘ziga xos tomonlarini yoritishga xizmat qiladi.*

Аннотация*. Данная статья посвящена анализу творчества Сайида Касими в области литературоведения. В ней рассматриваются взгляды и наблюдения ученых, изучавших литературное наследие писателя. Это проблема, которую необходимо решить. Решение этой задачи состоит, во-первых, в том, чтобы дать более ясное представление о характере анализируемых научных наблюдений, во-вторых, в том, чтобы пролить свет на его специфические стороны.*

Annotation*. This article is focused on the analysis of Sayyid Qasimi’s work in the field of literary criticism. It examines the views and observations of scholars who have studied the literary heritage of the writer. This is an issue that needs to be addressed. The solution to this problem is, firstly, to provide a clearer picture of the nature of the scientific observations being analyzed, and secondly, to shed light on its specific aspects.*

Kalit so‘zlar*: tadqiq, tasavvuf, hamd, munojot, bahr, vazn, tasavvufshunos, N.Komilov, “Tasavvuf” kitobi, Sayyid Qosimiy, “Haqiqatnoma”, “Sadoqatnoma”.*

Ключевые слова: *исследование, суфизм, хамд, муножот, бахр, метр, мистика, Н.Комилов, книга «Тасаввуф», Сайид Касими, «Ҳақиқатнома», «Садоқатнома».*

Key words: *research, mysticism, hamd, munojot, bahr, vazn, mystic, N.Komilov, book “Tasavvuf” Sayyid Qosimiy, “Haqiqatnoma”, “Sadoqatnoma”.*

Sayyid Qosimiy ijodini tadqiq qilish xalqimizning qadimiy tarixi, boy madaniyatini tiklash, buyuk allomalarimiz, aziz-avliyolarimizning ilmiy, diniy va ma’naviy merosini har tomonlama chuqur o‘rganish, targ‘ib etish, yosh avlodni ularning ezgu an’analari ruhida tarbiyalash yo‘lidagi dolzarb masalalardan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Shoir adabiy merosidan namunalar ilk marotaba 1987-yilda “O‘zbek adabiyoti bo‘stoni” seriyasi ostida “Muborak maktublar” majmuasida mualliflar, M.Abduvohidova, H.Muxtorova, B.Qosimxonov, O.Jo‘rayev tomonidan Sayyid Qosimiy haqidagi ilk qisqa ma’lumotlar bilan birga nashr ettirildi.[1] Ushbu kitobda Sayyid Qosimiy yashagan davr, uning Movarounnahr yoki Xurosonda temuriylar sulolasidan

[1]Sayyid Qosimiy. Haqiqatnoma. Sadoqatnoma. Muborak maktublar. T., G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1987, 144–182; 183–209-betlar.

bo‘lgan Sulton Abu Said Mirzo (1451–1469) davrida yashaganligi, “Majma’ ul-axbor” (Xabarlar to‘plami), “Gulshani roz” (Sirlar gulshani), “Haqiqatnoma”, “Sadoqatnoma” nomli asarlari mavjud ekanligi qayd etilgan. Ma’lumki, “Muborak maktublar” kitobi “O‘zbek adabiyoti bo‘stoni” turkumining to‘rtinchi kitobi hisoblanib, Undan o‘rin olgan Sayyid Qosimiyning ikki “Haqiqatnoma” va “Sadoqatnoma” asarlari juziy qisqartirishlar bilan berilgan. Jumadan, “Haqiqatnoma”ning 9 bayt “Dar bayoni hamd”, 11 bayt “Na’ti payg‘ambar alayhi-s-salom” hamda munojot qismidagi: “*Xudovando ba haqqi oli yosin, Inoyat qilki, bu da’vo ayasin”* bayti, “Og‘ozi kitob” qismining jami uch bayti, jumladan, 12-bayt: “*Ko‘zum yoshi bila qildim tahorat Ki, borsam Ka’bani qilsam ziyorat”,* 20-bayt: “*Xudovandi jahon tavfiq berdi, Karam birla rahi tahqiq berdi”,* 23-bayt: *“Sarosar Qosimiy nuri xudodur, Kim aytur yodidin bir damjudodur”* kabi baytlar tushirib qoldirilgan. Birinchi bob uchun keltirilgan “Hikoyati Shohi Mardon” hikoyatining sarlavhasi “Muborak maktublar” kitobida aks etmagan, ikkinchi bob har ikki nashrda ham qisqartirishlarsiz to‘liq berilgan. Uchinchi bob “Masnaviylar majmuasi” to‘plamida hikoyat nomi “Hikoyati Ibrohim Adham alayhi rahmatulloh” nomi bilan keltirilgan bo‘lib, “Muborak maktublar”da hikoyat nomisiz va quyidagi bir bayt qisqartirib berilgan: “*Tariqat piri Ibrohimi Adham, Ki, qildi tarki toj-u, taxt-u hotam”*.Sakkizinchi bobning “Hikoyati Sulton Mahmud G‘aznaviy Alayhi-r-rahma” nomi hamda tarkibidagi 6-bayt: *“Shahi hind o‘g‘lini tutdi cherigi, Yozildi hind xalqining yuragi”*.To‘qqizinchi bob “Hikoyati imon Muhammad G‘azzoliy va nafsi u” hikoyasining 1-bayti: *“Imom G‘azzoliy dinning rahnamoyi, Shariat payravi ahli peshvoyi”,* 17-bayti: *“Makon-u lomakonda manzil etdi, Tavofi Ka’bayi jon-u dil etdi”* “Muborak maktublar” to‘plamida tushirilgan. 10-bobning “Hikoyati shayxki, zohirvash va botin rost nabud” hikoyasi tarkibidagi 20-bayt ham tushirlgan: *“Ravo ermas tahoratsiz ibodat, Murid o‘lgan bilur nedur irodat”.* Asar so‘ngida keltirilgan “Tammat al-kitob. Ta’rixi shahr rabi’u-s-soniy. Sana 1044.”, izohi, ham “Muborak maktublar”da yozilmagan. “Sadoqatnoma”ning matnida qisqartirishlar nisbatan kamroq. Ushbu asardan jami olti misra nashrda aks etmagan. Masalan, 4-bayt: *“Daminda mu’jizi Isoyi Maryam, Bahori orazinda ruh xurram”,* 315-bayt: *“Yetishdi Ka’bayi maqsuda bori, Alarg‘a boshchi bo‘lib lutfi boriy”,*377-bayt: *“Xudo har kimnikim saqlar salomat, Asar qilmas anga sangi malomat.*

Shu bilan bir qatorda, 1992-yil Boboxon Qosimxonov tomonidan tayyorlangan “Masnaviylar majmuasi” to‘plamida matn bilan bog‘liq xatoliklar kuzatiladi. Adibning adabiy merosini matnshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etgan ilk olim B.Qosimxonovdir. Olim shoir adabiy merosi haqida 1987-yil “Sayyid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari” nomli monografiya e’lon qildi.[1] Ushbu monografiyaning kirish qismida Qosimiy adabiy merosining o‘zbek adabiyotidagi o‘rni, ijodiyotiga ta’sir etgan omilllar, salaflar an’anasi, temuriyzoda sultonlar va ularning qo‘l ostidagi mulozimlarga bag‘ishlanganligi, asarlarining topilishi, tazkiralarda adib haqida ma’lumotlar mavjud emasligi,

Navoiy va Qosimiyning deyarli bir davrda yashaganligi, ammo nega Navoiy Qosimiy haqida fikrlar bildirmaganligi kabilar o‘rin olgan. Monografiyaning “Sayyid Qosimiy qo‘lyozma merosi” nomli bobida muallif asarlarining qo‘lyozmalari xususida so‘z boradi. Olim bu bobda asarning qo‘lyozmadagi holati, boblari, tarkibiy tuzilishi, “Gulshani roz” asarining yana bir nusxasi bor ekanligi, ular o‘rtasidagi farq va o‘xshashliklar, muallifning turkiy tilda yozilgan birgina g‘azali bor ekanligi haqidagi qarashlar ham o‘rin olgan. Lekin B.Qosimxonovning Sayyid Qosimiy ijodi haqidagi bu qarasharini birmuncha kengaytirgan holda g‘azallari sonini “Gulshani roz” dagilar bilan qo‘shib hisoblaganda o‘ndan oshadi. Garchi bu g‘azallar badiiy mukammal bo‘lmasa ham, biroq o‘zbek g‘azalnavisligida alohida ahamiyatga ega.

B.Qosimxonov tadqiqotlari natijasini nomzodlik dissertatsiyasi shaklida himoya qildi. Olimning 1991-yil “Sayyid Qosimiy va uning adabiy-didaktik dostonlari” mavzusida himoya qilgan filologiya fanlari bo‘yicha qilgan nomzodlik ishi kirish, uchta bob, xulosa, adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Birinchi bob “Sayyid Qosimiy va uning adabiy merosi” deb nomlangan. Bobda Sayyid Qosimiy adabiy merosi, ularning topilishi va shu davrga oid bir qancha qo‘lyozmalarning O‘zbekistonga keltirilishi, adib asarlarining hajmi, matniy tuzilishi, qo‘lyozmalariga xos xususiyatlar, muallif shaxsiyati va yashagan davri haqidagi ma’lumotlar tazkira, bayoz, jahonda qilingan ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda fikr mulohazalar yuritilgan. Ikkinchi bobda esa “Sayyid Qosimiy didaktik dostonlarining tuzilishi, mavzusi va ularga xos xususiyatlar”, deb nomlangan bo‘lib, ushbu qismda muallif dostonlarining kompozitsiyasi, hikoyatlarining nomlari haqida to‘xtalib o‘tgan. Jumladan, “Majma ul-axbor” asari sharq adabiyotida xamsaning ilk dostoni ya’ni pand-nasihat ruhida ekanligi haqida fikrlar uchramaydi. “Gulshani roz”, “Haqiqatnoma” dostonlarining tuzilishi, ularga xos xususiyatlar, hikoyatlari va janrlari ham tahlil qilingan. “Ilohiynoma”

[1] Qosimxonov B. Sayyid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari. Toshkent, “Fan”, 1987, 3-bet.

dostonining esa qisqacha sujeti hikoya qilingan. Olim shu bobda Sayyid Qosimiy hikoyatlarini ikki katta guruhga bo‘lgan:

1. Ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi hikoyatlar.
2. Didaktik xarakterdagi hikoyatlar.

Biz bu guruhga qo‘shimcha tarzda 3-guruhni mutasavvufiy hikoyatlar deya guruhlashni ilgari surdik. Bu haqida kelgusi tadqiqotlarimizda kengroq fikr yuritiladi. B.Qosimxonov dissertatsiyasining uchinchi bobini “Sayyid Qosimiy dostonlarining badiiy xususiyatlari” deb nomlangan. Unda adib asarlarining badiiy san’atlari,vazn xususiyatlari tahlil qilingan bo‘lib, bu haqida D.Yusupovaning ilmiy tadqiqotlaridan kengroq ma’lumot olish mumkin.[1]

Mustaqillik yillarida Sayyid Qosimiy adabiy merosi alohida obyekt sifatida tadqiq qilinmadi. U haqida ba’zi manbalarda kam ma’lumot va fikrlar mavjud. Shulardan biri tasavvufshunos olim Najmiddin Komilovning “Tasavvuf” kitobidan o‘rin olgan. Kitobning “Tasavvuf va badiiy ijod” bo‘limida Sayyid Qosimiy haqida qisqacha ma’lumotni bilishimiz mumkin. N.Komilov so‘fiyona adabiyot haqida fikr yuritar ekan, Sayyid Qosimiyning “Haqiqatnoma” dostoni ham tasavvufiy darslik sifatida qabul qilish mumkinligini ilgari surgan.[2]

Muallif ijodi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlardan yana biri – bu oliy o‘quv yurtlari uchun mo‘ljallangan qo‘llanmaga kiritilishi bo‘ldi. Bu xayrli ishni professor Nasimxon Rahmonov amalga oshirdi. Shu paytga qadar Sayyid Qosimiy ijodi haqida biror darslik yoki o‘quv qo‘llanmada ma’lumot berilmagan. Olim ilk bor muallifni alohida obyekt sifatida “O‘zbek adabiyoti tarixi” kitobiga kiritdi.[3] Unda olim asosan muallif hayoti va ijodini yoritishda muborak maktublardagi ma’lumot va faktlarga tayanganligi ko‘zga tashlanadi.

Xullas, Sayyid Qosimiy ijodiy merosi birmuncha o‘rganilgan soha hisoblanib, adibning chop etilgan asarlarida ayrim kamchiliklar ham kuzatiladi. Ilmiy tahlil va tadqiqotlarda sovet davri mafkurasining ta’siri seziladi. Shu bois Sayyid Qosimiy adabiy merosini tasavvuf ta’limoti va g‘oyalari hamda mumtoz badiiyat qonuniyatlari asosida tadqiq etish bugungi kunda adabiyotshunoslik ilmining dolzar masalalaridan biridir.

Холмўминов Илҳом (ТошДЎТАУ таянч докторанти; e-mail: ixa.kholmuminov@mail.ru)

ФОЛЬКЛОР МАТНЛАР ТАРЖИМАСИДА АДЕКВАТЛИК ВА ЭКВИВАЛЕНТЛИК МУАММОЛАРИ

Аннотация. *Мазкур мақолада фолклор матнлар таржимаси назариясининг асосий тамойилларидан бири бўлган адекватлик ва эквивалентлик назарияси ҳақида гап боради. Таржимада адекватлик ва эквивалентлик масалари бўйича кўплаб таржимашунос олимларнинг назарий фикрлари қиёсан тадқиқ қилинади. Г.Егернинг коммуникатив ва функционал эквивалентлик турларига берган таърифлари келтириб ўтилган. Шунингдек, Рецкернинг мувофиқлик типларига муносабати, Комиссаровнинг эса адекватлик ва эквивалентлик турларига муносабатлари билдирилган.*

Аннотация. *В статье рассматривается теория адекватности и эквивалентности, которая является одним из основных принципов теории перевода фольклорных текстов. В переводе сравниваются теоретические взгляды многих переводчиков на вопросы адекватности и эквивалентности. Дано определение типов коммуникативной и функциональной эквивалентности, данное Г.Эгером. Также указывается отношение Рецкера к типам соответствия, а также отношение Комиссарова к типам адекватности и эквивалентности.*

Annotation. *This article discusses the theory of adequacy and equivalence, which is one of the main principles of the theory of translation of folklore texts. The translation compares the theoretical views of many translation scholars on the issues of adequacy and equivalence. G.Eger’s definitions of communicative and functional equivalence types are given. Retsker’s attitude to the types of conformity, and Komissarov’s attitude to the types of adequacy and equivalence are also stated.*

Калит сўзлар*: актуал-сигнификатив эквивалентлик, прагматик эквивалентлик, таржима*

[1] Юсупова Д.Р. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги. Фил.фан.ном. дисс., Т., 2008, 46-bet.

[2] N.Komilov. Tasavvuf. “Movarounnahr”, T., “O‘zbekiston”, 2009, 146-bet.

[3] N.Rahmonov. O‘zbek adabiyoti tarixi. Eng qadimgi davrdan XV asrning birinchi yarmigacha. T., “Sano-standart”, 2017, 489 – 495-betlar.

трансформациялари, синонимик мувофиқликлар, гипо-гиперонимик мувофиқликлар, функсионал мувофиқликлар, адекват таржима, эквивалент таржима, формал эквивалентлик, семантик эквивалентлик, коммуникатив эквивалентлик.

Ключевые слова: *актуально-значимая эквивалентность, прагматическая эквивалентность, трансформации перевода, синонимичные соответствия, гипогиперонимические соответствия, функциональные соответствия, адекватный перевод, эквивалентный перевод, формальная эквивалентность, семантическая эквивалентность, коммуникативная эквивалентность*.

Key words: *actual-significative equivalence, pragmatic equivalence, translation transformations, synonymous correspondences, hypo-hyperonymic correspondences, functional correspondences, adequate translation, equivalent translation, formal equivalence, semantic equivalence, communicative equivalence.*

Фольклор матнларининг таржимаси адабий матнлардан композиция, шеърият, ус-луб ва функционал мақсад жиҳатларида ажралиб туради. Фольклор асарларини таржима қилиш тарихининг дастлабки босқичида таржимонлар асарнинг маъносини иложи борича тўлиқ таржима қилиш, кейинчалик асл тил хусусиятларини аниқ қайд этишга эътибор қаратишган. Сибирь фольклорининг XIX – XX асрнинг биринчи ярмида кўпчилик таржималар, асосан, лингвистик аниқликка қаратилган. Биринчи марта фольклорнинг шеърий асарларини таржима қилиш тамойиллари махсус масаласи “Европа ва Осиё халқлари эпоси” академик сериясининг нашр этилишига қаратилди, унда эпик асарларни ҳам асл тилда, шунингдек, рус тилига таржима қилиниши тахмин қилинган эди. Фольклорчилар асл матннинг корреляциясига ва унинг таржимасига катта эътибор қаратдилар, бу фольклор ёдгорликларини, иложи борича, тўлиқ тақдим этиш, биринчи навбатда, таржимада матнни максимал аниқ акс эттириш орқали мажбур, деб ҳисобладилар. Шу муносабат билан, ушбу кетма-кетликнинг таркибий қисмига айланган таржимага батафсил илмий шарҳ бериш зарурияти пайдо бўлди.

Эпик ёдгорликларни илмий таржима қилишнинг биринчи тамойиллари А.А.Петросян, А.С. Мирбадалева, Н.В.Кидайш-Покровская, И.В.Пухов каби тадқиқотчилар ва таржимонлар томонидан ишлаб чиқилган. Ушбу нашрнинг жилдларининг катта афзаллиги шундаки, улар илмий шарҳлар билан бир қаторда, муайян ёдгорликни рус тилига таржима қилиш муаммолари ва тамойилларига бағишланган кичик мақолалар ҳам жойлаштирилган. Уларда таржимонлар таржимадаги эпик матнни адекват даражада узатишнинг асосий қийинчиликларини, шунингдек, улар танлаган ушбу қийинчиликларни бартараф этиш усулларини тавсифладилар. “Европа ва Осиё халқлари эпоси” сериясининг асарлари асосида фольклорчилар фольклор матнларини таржима қилиш тамойилларини назарий жиҳатдан ишлаб чиқдилар “Сибирь ва узоқ Шарқ халқларининг фольклори ёдгорликлари” кўп жилдли академик серияси устида ишлаш фольклорни илмий таржима қилишнинг назарий тамойилларини ишлаб чиқишда муҳим ҳисса қўшди.

Фолкьлор асарларининг таржимонлари ечимини топишга энг муҳим муаммо – бу мазмунни аниқ етказишда ифода шаклини мак-симал даражада сақлаб қолиш муаммосига эътиборини қаратган. Фольклор учун шаклни сақлаб қолиш маълум маънода адабий матндан кўра муҳимроқ вазифадир: бу ердаги шакл – анъана элементи бўлиб, бошқа тилга кўчиришда бу элементни йўқотиш фольклор анъанаси ҳақида тўлиқ тасаввур бермаслик демакдир. Бу ерда матн шакли ва мазмуни ўртасидаги алоқанинг табиатини ҳисобга олиш керак.

Фольклор таржима миллий мактабининг ривожланиши, биринчи навбатда, “Европа ва Осиё халқлари эпоси” ва “Сибир ва узоқ Шарқ халқлари фолклори ёдгорликлари” каби илмий ва нашриёт лойиҳалари устида иш бошланиши билан боғлиқдир.

Лингвистик эквивалентлик назарияси ривожланишининг бошланиши XX асрнинг иккинчи ярмида бошланди. Рус тадқиқотчилари, асосан, таржимонлар ўз ишларида саксонинчи йилларнинг бошларигача на эквивалентлик тушунчасини, на атаманинг ўзи тилга олинмаган. Бироқ, муаммо мавжуд эди ва шунинг учун маълум бир таърифни талаб қиларди. Рус таржима назариясида қуйидаги атамалар кўпроқ ишлатилган, бир томондан, “аниқлик”, “озодлик»га қарама қарши, иккинчи томондан, “литерализм“ қўйилган. Бу атамаларнинг барчаси тасвирланаётган ҳодисани сифатли баҳолашда назарда тутилади; бу хусусият В.Я.Брюсов томонидан қилинган “Энеидлар”нинг таржимаси ҳақидаги мунозарада аниқ намоён бўлади. Тадқиқотчилар, К.И.Чуковскийдан ташқари, Гаспаровнинг мақоласига берган жавобларида адабиётшуносликни таржима иши усули сифатида бир овоздан қоралаб, уни таржимоннинг асл матн билан ўзаро алоқасининг бир тури сифатида

“аниқлик” билан қарама-қарши қўйдилар. Худди шу мақолаларда яна бир атама – бу “етарлилик” пайдо бўладики, энди унинг мазмунида баҳоловчи компонент мавжуд эмасдир.

Шундай қилиб, А.Старостин кенг тарқалган ва зарур тушунчаларни жорий этади; “яхши (етарли) таржима” ва “ёмон (етарли бўлмаган) таржима”. Кўриб турганимиздек, муаллиф ”етарлилик” таърифини бермайди. Л.Мкртчян ўз мақоласида “сўзма-сўз бўлган таржималар ҳақида аллақачон айтилган “аниқлик” атамасини қўллайди. У.В.Брюсовнинг таржимаси “нотўғри” бўлгани учун муваффақиятсиз эканлигини билдирган. “Шеърият таржимада” мақоласида “тўғри”, “адекват” ва “тўла-тўкис” атамаларини қўллайди”, буларнинг ҳаммаси моҳиятан ҳеч нарсани тушунтирмайдиган сўзлардир”, деган огоҳлантириш билан бўлса ҳам. Мкртчяннинг шеър таржимасига бўлган талаблари “яхши ифодали тил” га туширилади, яъни улар таржиманинг стилистик хусусиятлари сифатида у қадар соф лингвистикага тааллуқли эмас. Ф.Петровский Мкртчяннинг Брюсов таржимаси ҳақидаги фикрини ҳам баҳам кўради. Шу каби ҳолат шу даврнинг таржима назариясига бағишланган бошқа асарларида ҳам кузатилади. Е.Эткинд Томас Манн насрининг таржимаси бўйича мақолада контекстуал эквивалентлик тушунчасини, бироқ “контекстуал эквивалентлик” ёки бошқа атамаларни ишлатмасдан ишлаб чиқади. Рус тилидан француз тилига ва француз тилидан рус тилига таржима қилиш имкониятлари ҳақида фикр юритиб, Е.Эткинд икки тилнинг лексик ва синтактик сатҳлари лингвистик бирликларининг ўзаро боғланишининг муайян муаммосини кўриб чиқади ва француз тилига нисбатан рус сўзларининг нисбатан бойлиги француз синтаксисининг катта ифодали имкониятлари билан қопланади деган хулосага келади. Бошқача қилиб айтганда, бир тил сатҳидаги бирликлар ёрдамида етказилмайдиган нарса бошқа бир юқори сатҳдаги бирликлар ёрдамида акс эттирилиши мумкин. Кейинчалик, бу фикр М.А.К.Хэллидей томонидан ривожлантирилади. Бироқ, Эткинд бу ерда ҳам “эквивалентлик” атамасини ишлатмайди. В.Станевич ўзининг “Насрий таржиманинг айрим масалалари” мақоласида “ижодий эквивалентлар” терминини қўллайди, қачонки тил тизимлари узоқроқ ҳолида таржимон томонидан яратилган “тасвирий воситалар” маъносини англатади. Таржима назариясининг лингвистик жиҳатларига бағишланган кейинги асарларда эквивалентлик муаммосига ёндашув ўзгаради. Муаллифлар қайси тил бирликлари ва қайси ҳолатларда қиёслаш керак, деган саволга кўпроқ эътибор бера бошладилар. Шундай қилиб, О.С.Ахманова ва В.Я.Задорнова сўз ва матнни таржима қилиш пайтида сиртқи алоқалар ўрнатиладиган энг муҳим бирликлар деб ҳисоблайди. Муаллифларнинг фикрича, нафақат сўз вазифасини ўтайдиган контекстга, балки таржима қилинган матннинг ўзига, унинг функционал муҳитига ҳам эътибор бериш керакдир.

XX асрнинг иккинчи ярмидаги чет эллик тадқиқотчиларнинг асарларида биринчи марта таржимада эквивалентлик фақат семантик даражадагина мумкин ва таржима матнининг стилистик характеристикасигина эмас, деган илмий асос илгари сурилди. Шундай қилиб, Г.Егер “коммуникатив ва функционал эквивалентлик” асарида эквивалентлик турларининг қуйидаги таснифини беради:

1. Актуал-сигнификатив эквивалентлик. Ҳар бир контекстда тил белгилари уларнинг маъноларидан фақат биттасини англатади; таржима қилишда фақат шу ҳақиқий қийматини бошқа тилга ифодалашни талаб этилади, ва мумкин бўлган барча потенциаларни эмас. Контекст таржимада мавжуд бўлиши керак бўлган маънони аниқ белгилайди.

2. Актуал бўлинманинг эквивалентлиги. Таржимада иборанинг тузилиши ички фразали тематик муносабатларни сақлаб қолиши керак.

3. Прагматик эквивалентлик. Таржимада акс эттирилиши керак бўлган қуйидаги элементларни ўз ичига олади:

а) тайёр тугалланган матннинг мавжудлиги;

б) матннинг ўзига хос мазмуни;

в) матн яратишнинг муайян тил воситалари мажмуи.

Г.Егернинг сўзларига кўра, агар асл матннинг барча элементлари таржима матнида энг аниқ ифодаланган бўлса, олдимизда иккита максимал эквивалент матн бордир. Ж.К.Кэтфорд турларни ва эквивалентлик соҳаларини таснифлашнинг ўз версиясини тақдим этади. Кэтфорднинг фикрига кўра, эквивалентликнинг табиати у мавжуд бўлган доменга боғлиқ. Муаллиф таржима матн бирликларининг бошқа тилга “маъно кўчириш” эмас, балки таржима тили бирликлари орасида манба тили бирлиги учун энг яқин эквивалентни қидириш деган хулосага келади.

Ю.А.Найданинг “таржима қилиш фани томон” мақоласида эквивалентлик турларининг таснифи ҳам яратилган, аммо бошқа асослар билан. “Таржима эквивалентликни формал ва динами-

кага ажратади”.

Таржима қилишда формал эквивалентлик қўйидагиларни талаб қилади: а) матн грамматикаси;

б) аниқ ва доимий лексик мувофиқлик;

в) асл мазмун доирасидаги маъноларнинг константлиги.

Формал эквивалентлик тамойиллари асосан матнларнинг илмий нашрларида қўлланилади.

Динамик эквивалентлик, муаллифнинг фикрича, бу “асл хабарнинг энг яқин табиий эквивалентининг қидирувидир.” Табиийлик эквивалентнинг қанчалик мос келиши билан белгиланади:

а) тил ва ўша тилнинг бутун маданияти талаблари;

б) хабарнинг контексти (яъни, услуби, махсус тасвирий воситаларни танлаш, киноя ва бошқалар);

в) манба матни эмас, балки таржима қилинган аудитория. Шундагина, муаллифнинг сўзларига кўра, таржима матни, умуман, асл матнга энг яқин эквивалент бўлади.

Эквивалентларни танлашга ўзига хос ёндашув М.Ларсоннинг “Семантик таржима” асарида келтирилган. Эквивалентларни танлашнинг асосий муаммоси муаллиф томонидан қуйидагича белгиланади: “Лексик бирликларнинг эквивалентларини қидириш асл тилда гапирадиган одамлар ва таржима тилда гапирадиган одамлар турли маданиятларга тегишли эканлиги билан мураккаблашади. Шунинг учун таржима жараёнида кўп нарсаларни ўзгартириш ёки қайта қуришга тўғри келади. Таржимон таржима тилининг шаклларини энг табиий ва аниқ етказиб беришни танлашга ҳаракат қилади, бу асл тил шаклларидан тубдан фарқ қилиши мумкин”. М.Ларсон эквивалентларни танлашда асосий қийинчиликларни шакллантиради:

“Биринчидан, асл матнда таржима тилида маълум бўлган тушунчалар бўлади, аммо уларни сўзма-сўз эквивалент билан таржима қилиб бўлмайди. Иккинчидан, асл матнда таржима тилида маълум бўлмаган тушунчалар хам бўлиши мумкин.”

Шуни таъкидлаш керакки, муаллиф “лексик эквивалентлик” атамасини ҳамма жойда қўллайди, берилган мисоллардан кўриниб турибдики, у жумла даражасида эквивалентларни излашга кам эътибор бермайди, муайян матн элементига эквивалент бўлган даражаларни ажратиш ҳар доим ҳам осон бўлмаган. Универсал сифатида соф функционал ёндашув И.Левый томонидан таклиф қилинган. Бу, аслида, “...аслиятдаги айрим лисоний унсурларнинг ахборот функцияси ўрганилиб, таржимада қайси тил воситалари бир хил вазифани бажара олиши белгиланиши”дан ташкил топади. Бу каби принцип “функционал ўхшашлик” принципи деб номланган. Адабий таржимага нафақат мазмунни, балки лингвистик элементларнинг шаклини ҳам изчил етказишни мақсад қилинган.

М.Гейм томонидан таклиф этилган эквивалентликка ёндашув ўзига хосдир. Унинг фикрича, аслият элементлари билан таржима матнлари ўртасида эквивалент муносабатлар қуриладиган даража табиий равишда бир матндан бошқасига ўзгаради. Бу аслиятдаги тилнинг қайси сатҳида семантик жиҳатдан кўпроқ юкланганлигига боғлиқ. Масалан, агар муаллиф сўз ўйини, каламбур, идиомаларга мустақил маъно бириктирса, таржимон сўзма-сўз ёзишмалар узатиш даражасига ҳам эътибор қаратишга асосига эга бўлади. Рус тадқиқотчилари, ўз навбатида, табиат муаммолари ва эквивалентлик турларини ҳал қилишда ўз ёндашувларини ишлаб чиқдилар.

Шундай қилиб, Р.К.Миньяр-Белоручев таржиманинг асл нусхага эквивалентлиги даражасини қуйидаги мезонларга мувофиқ белгилайди:

1) асл нусхани қуйидаги мезонларга мувофиқ таржима қилиш: матннинг ўзи ва унинг тузилишининг мавжудлиги;

2) матннинг барча таркибий қисмларининг лексик ва грамматик маъноларидан иборат бўлган семантик таркибининг тасодифийлиги;

3) “турли қийматлардаги семантик маълумотларнинг квантасининг йиғиндиси”ни узатиш. Кўриб турганимиздек, ушбу ёндашув Г.Егер томонидан прагматик эквивалентликни таклиф қилган ёндашувга мос келади. Бироқ шуни айтиб ўтиш керакки, Миньяр-Белоручев “эквивалентлар” атамасини фақат “тиллараро синонимлар” маъносида қўллайди.

Таржима эквивалентлиги тушунчасини таржима назариясининг асосий тушунчаси сифатида шакллантирган биринчи рус тадқиқотчиси Я.И.Рецкердир. Я.И.Рецкер ишида “она тилига таржима қилишда табиий мувофиқлик қонунияти тўғрисида”, биринчи марта, таржима қилишда тиллараро мувофиқликларни излаш айрим қонуниятларга бўйсунади, деган ғоя юритилди, ва шу билан бирга бундай мувофиқликни турларини аниқлаш ва таърифлаш мумкин. Рецкер мувофиқликларнинг уч

турини аниқлади; бу аниқликнинг мезони этиб, мувофиқликларнинг ўзаро фиксация даражаси танланди.

Мувофиқликларнинг биринчи гуруҳи – эквивалентлар: “Эквивалентни муайян вақт ва жой учун контекстга боғлиқ бўлмаган доимий тенг маъноли ёзишмалар деб ҳисоблаш керак”.

Иккинчи гуруҳ аналоглар: “Аналог – бир неча мумкин бўлган синонимлардан бирини танлаб аналогия йўли билан таржима қилиш натижасидир”.

Ниҳоят, мувофиқликнинг учинчи гуруҳи адекват алмашинув: “Фикрни тўғри етказиш учун таржимон асл, луғат ва фразали мувофиқликларнинг ҳарфларидан чиқиб кетиши керак бўлган вақтга тўғри келади ва муаммонинг буткул асосланган ечимини: асл нусханинг мазмуни, ғоявий йўналиши ва услубини” излаши керак.

Натижада у қуйидаги шаклга эга бўлди: “таржима жараёнида мувофиқликнинг уч тоифадаси қурилади:

1) белгиналанадиганни ўхшашлик кучига тайинланган, шунингдек, тил алоқалар анъанасида сақланиб қолган эквивалентлар;

2) вариантли ва контекстли мувофиқликлар;

3) таржима трансформацияларининг барча турлари.

Биринчи-эквивалент-категорияси ва иккита бошқаси ўртасида асосий принципиал фарқ мавжуд. Эквивалент мувофиқликлар тил соҳасига, охирги иккитаси эса нутқ соҳасига тегишлидир.” Бошқача қилиб айтганда, эквивалентлар фақат расмий даражада мавжуддир, вариантли мувофиқликлар ва трансформациялар эса коммуникатив даражада, уларнинг аниқ амалга оширилиши контекстга, асл нусханинг мақсадли йўналишига ва таржимага боғлиқ бўлиши керак, икки матнларнинг ва бошқа матнларга оид бўлмаган омиллар вақтинчалик ўзаро муносабатни аниқлаш керак. Шунинг учун, агар эквивалентларни ўз вақтида ва ҳар қандай контекстда етарлича барқарор деб ҳисоблаш мумкин (яъни, бу таржима асл матннинг маълум бирлиги учун ҳар доим тенгдир), бошқа икки гуруҳнинг ёзишмалари эса ҳар бир матн учун алоҳида белгиланади.

Я.И.Рецкер томонидан таклиф этилган тасниф билан параллел равишда бошқа асосларда эквивалентликни аниқлашнинг бошқа ёндашувлари шакллантирилган. Шундай қилиб, таниқли таржима назариётчиси В.Н.Комиссаров ўзининг “Таржима назарияси (лингвистик жиҳатлар)” ишларида ва “Замонавий таржимашунослик (маърузалар курси)” маърузасида синтаксисдан паст лисоний сатҳда эквивалентни топиш мумкин эмас, деган нуқтаи назарга амал қилади, синтактик даражасидан паст тил даражасини қидириш мумкин эмас, фразал эквивалентларнинг мумкин бўлган турларини кўриб чиқади ва мувофиқликнинг тўрт даражасини белгилайди: фақат коммуникация мақсадига эга эквивалентлар:

Бир хил коммуникатив вазиятни турли воситалар билан тасвирлайдиган эквивалентлар.

«He answered the telephone (сўзма-сўз “У қўнғироққа жавоб бердими”) – У трубкани кўтардими». Шубҳасиз, бу мисолда турли даражадаги аниқликларга эга бўлган иккита ибора битта вазиятни конкретликни келтириб чиқаради: телефон қўнғироғига жавоб бериш учун сиз телефон трубкасини олишингиз керак.

Ушбу турдаги эквивалент муносабатлар хабар даражасида пайдо бўлади.

Умумий мазмунни умумий маънода етказувчи эквивалентлар:

«London saw a cold winter last year (сўзма-сўз: “Ўтган йили Лондон совуқ қишни кўрди) – Ўтган йили Лондонда қиш совуқ келди». Ушбу мисолда иккала иборада ҳам умумий тушунчалар мавжуд, аммо конструкцияларнинг синтактик параллелизми кузатилмайди.

Бундай эквивалентлар сўзлаш даражасига тегишлидир.

Ўхшаш синтактик тузилишга эга бўлган эквивалентлар: «I told him what I thought of her (сўзма-сўз: “мен унга, у ҳақида нималарни ўйлашимни айтдим”) – Мен унга ўз фикримни айтидим». Ибора элементларининг грамматик хусусиятларининг тўлиқ тасодифийлигига қарамай, синтактик конструкцияларнинг ўхшашлигини сезиш осон.

Шакл мезонига кўра эквивокабуляр мувофиқликлар (аслиятдаги сўз таржимадаги сўзга, сўз бирикмаси эса иборасига мос келади) ва эквивалокабуляр бўлмаган (“аслиятдаги сўз таржимадаги иборага мос келади ёки аксинча”) фарқланади. Узатиладиган муҳим ахборот ҳажмига кўра, мувофиқликлар тўлиқ ва тўлиқсизларга (қисман) бўлинади. “Тўлиқ эквивалентларда узатилаётган экстралингвистик ахборот ҳажми бир хил мос келади. Тўлиқ бўлмаган эквивалентлар учун, одатда семантик (семантик) ахборотнинг тўлиқ ёки қисман тасодифийлиги билан унинг бошқа турлари мос келмаслиги мумкин”. Тўлиқ бўлмаган эквивалентлар қанча маълумот узатиши ва улар нима

қилмаслигига қараб, жуда кўп кичик типларга эга. Тилда ишлаш хусусиятига кўра, ёзишмалар константт (доимий) ва окказионал (вақти-вақти) билан бўлинади. “Доимий эквивалентлар икки тилли луғатлар ва бошқа лексикографик қўлланмаларни тузатади.” Окказионал эквивалентлар “таржима жараёнида пайдо бўлади, биринчи навбатда, таржимоннинг етказишга интилаётган оригинал асар услуби ҳамда таржиманинг ўзига хос хусусиятлари ва таржимоннинг ижодий шахси билан белгиланади”. Ниҳоят, таржима усули (қабул қилиниши)га кўра, тўғридан-тўғри, синонимик, гипо-гиперонимик, дескриптив (тавсифий), функционал ва престацион (вазиятли) мосламалар фарқланади. Бевосита мувофиқликлар “анъанавий тарзда ташкил этилган луғавий эквивалентлардир... Бу жуфт корреляталар аниқликнинг юқори даражадаги... ўзаро боғлик реляцион категориялар даражасида улар мутлақ ўзаро боғлик синонимлар сифатида белгиланди.

Синонимик мувофиқликлар “тиллараро ўзаро келишик даражасида мавжуд нисбий синонимлардир. Бундай корреляцияларнинг муайянлик даражаси мутлақ синонимлар (яъни, бевосита корреспонденциялар)никига нисбатан пастдир.”

Гипо-гиперонимик мувофиқликлар – “бу маълум бир тушунчанинг номини умумий билан ёки аксинчасига алмаштиришдир.”

Функционал мувофиқликлар – бу “аслият ва таржиманинг ўз вазифасига мос келадиган, лекин семантик мазмуни билан фарқ қиладиган шундай корреспонденцияланувчи бирликларидир" (яъни, улар коммуникатив эквивалентлардир).

Ниҳоят, аслиятдаги сўз-воқелик ва унинг таржимадаги транскрипцияси (агар тиллар бир хил графикага эга бўлса, таржима матнидаги бир хил сўз) ўртасида престационал мувофиқликлар ўрнатилади.

Парадоксал бўлса-да, транскрипция қилинган сўз асл нусхада унинг ўхшашининг тўлиқ эквиваленти бўлмайди. Таржима контекстида ёрқин стилистик рангни касб этади: у миллий рангли лексик бирлик сифатида “экзотизм” сифатида қабул қилинади.”

С.А.Моисеева ва Е.А.Огнева эквивалентлик муаммосини биринчи навбатда таржима бирликларини транскодлаш муаммоси сифатида кўриб чиқадилар:

“...Культурологик нуқтаи назардан, маданий шартли сўз бирикмаларини транскодлашнинг мақбул усулларини танлаш учун маълум бир этник гуруҳнинг аксиологик доминантлари позициясидан лексик (ва ҳатто грамматик) материални ўрганиш муҳимдир”. Бу жиҳатдан эквивалент лисоний (бу ҳолда лексик) бирликлар муносабатларига симметрия-ассиметрия муносабатлари сифатида қаралади.

Адекват таржима лексик бирликлар, грамматик категориялар, гапнинг синтактик тузилиши даражасида кузатилади. Таржиманинг бу тури бирликлар мазмунининг планини узатишда симметрия ҳодисасига асосланади, ифода планини эса симметрик ва ассиметрик тарзда узатилади.

Эквивалент таржима, “тарихан ташкил этилган эквивалентларга асосланган... асл маълумотнинг тегишли таржима усулига мувофиқ мавжуд бўлмаган қисмини қайта кодлашни амалга ошириш имконини беради.

Фольклор асарларини илмий таржима қилишнинг мақсади, биринчи навбатда, матннинг барча лингвистик, семантик ва бадиий хусусиятларини энг аниқ етказишдир, бунда тузилиши, поэтикаси ва мақсади уни ҳар қандай муаллиф матнидан ажратиб туради. Фольклор асари махсус фольклор (оғзаки-шеърий) жанр тизимига мос келади, шунинг учун ушбу тизимга тегишли белгилар мавжуддир. Фольклор матнини илмий нашр этиш мақсадида таржима қилишда бажариладиган вазифаларнинг ўзига хос хусусиятлари ҳам аҳамиятлидир.

Биринчидан, фольклор асарининг оғзаки мавжудлиги пайтида маълум даражада архаик, аммо вақт ўтиши билан миллий тилнинг хусусиятларини имкон қадар аниқ акс эттириш керак. Халқларнингёзма бўлмаган тиллари, этник гуруҳнинг кундалик ҳаётидан ассимиляция ёки бутунлай йўқолиб кетиш билан таҳдид қиладиган тиллар ҳақида тўғри фикр бериш, айниқса, муҳимдир.

Иккинчидан, фольклор ёдгорлигини таржима қилишнинг энг муҳим хусусиятларидан бири матннинг барча семантик хусусиятларини, шу жумладан, “асл нусханинг бутун бадиий ва тасвирий тузилишини аниқ етказиш талабидир.” Бу ерда оғзаки шеърий асарнинг махсус тасвирий воситаларини таржима қилиш ҳақида сўз боради: барқарор эпитетлар, формулали иборалар, эпосдаги типик жойлар, специфик тафовутлар, ўзига хос тасвирлар, бадиий қурилма сифатида тавтология ва бошқалар, шунингдек, бу тилга хос идиоматика.

Учинчидан, таржимада аслиятнинг услубий хусусиятлари ҳақида фикр юритиш керак: матн чет тилида гапирадиган китобхонга бегона кўринмаслиги учун таржимани миллий тил воситала-

ридан фойдаланиб, маълум услубга солмаслик керак, лекин матн таржима қилинаётган этник гуруҳ фольклорининг стилистик воситаларидан фойдаланишдан қочиш лозимдир. Агар, иложи бўлса, таржима асл нусханинг ҳиссий рангини сақлаб қолиш (масалан, ҳикоянинг улуғвор, тантанали бўғинни етказиш) ва матннинг интонацион бўлинишига амал қилиш учун талаб қилинади. Биз кўриб чиққан таснифларга асосланиб, уларда санаб ўтилган эквивалентлик турларининг айримларини фольклор матнини илмий таржима қилиш вазифаларига нисбатан умумлаштириш мумкин. Шундай қилиб, матннинг лингвистик хусусиятлари ва структурасини етарли даражада етказиш соҳасида формал эквивалентлик тушунчаси қўлланилиши мумкин.

Шундай қилиб, бир пайтнинг ўзида иккита мақсадга эришилади: биринчидан, таржимон китобхонга тушунарли бўлган (ноаниқликка олиб келадиган ва илмий таржимада номақбул бўлган) воқеликлар таржимасини излаб топиш заруратини сақлаб қолади. Иккинчидан, таржима қилинмаган сўзлар матннинг миллий ўзига хослигини сақлаб қолади, унинг ўзга тилга таржима қилинишига йўл қўймайди. Аслиятнинг стилистикаси ва интонацион хусусиятларини таржима қилиш муаммоларини ҳал қилиш соҳасида коммуникатив эквивалентлик тушунчасига таяниш мақсадга мувофиқ бўлар эди. Ушбу концепциянинг турли жиҳатлари Ж.Кэтфордда (унинг формулировкасида – “матнли эквивалентлик”), шунингдек, Ю.Найдада “динамик эквивалентлик” номи остида таклиф этилган бўлиб, у бизга туюлганидек, коммуникатив ёндашув параметрларини тўлиқ белгилайди ва муаллиф хамда фольклор матнларини таржима қилишда муваффақиятли ишлатилиши мумкин.

Бироқ, фольклор матнини таржима қилишда жиддий қийинчиликлар фақат лингвистик ва концептуал соҳада юзага келмайди. Фольклор асарининг мазмуни ва вазифалари, тингловчиларга қурилма ва унинг мавжудлигининг бошқа муҳим жиҳатлари таржима устида ишлашнинг ўзига хос талабларини тақдим этадилар. Фольклор матнининг илмий таржимаси батафсил бўлмаган шарҳлашга тўлиқ адекват деб қабул қилинмайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Гацак В.М. Проблема фольклористического перевода эпоса. Фольклор. Издание эпоса. М., “Наука”, 1977, с. 182 – 196.

2. Егер Г. Коммуникативная и функциональная эквивалентность. Вопросы теории перевода в современной лингвистике. М., Международные отношения, 1978, с. 137 – 156.

3. Кидайш-Покровская Н.В. Перевод тюркоязычных памятников в Академической серии. Фольклор. Издание эпоса. М.. “Наука”, 1977, с. 128 – 166.

4. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение (курс лекций). М., изд-во ЭТС, 2000, с. 190.

5. Левый И. Искусство перевода. М., “Прогресс”, 1974.

6. Мирбадалева А.С. Текстология тюркоязычного эпоса: теоретические и методические аспекты двуязычного научного издания «Манаса» и других эпических памятников. Автореф. дисс. в форме научного доклада на соиск. уч. степ, д-ра филол. наук, М., 1995.

7. Огнева Е.А. Художественный перевод: проблемы передачи компонентов переводческого кода. Белгород, изд-во БелГУ, 2004, с. 228.

8. Мкртчяи Л. О переводах буквальпых и подтягивающих... Мастерство перевода, сб. 9. М., “Советский писатель”, 1973, с. 262 – 268.

9. Эткинд Е. Перевод и сопоставительная стилистика. Мастерство перевода, сб. ст. М., “Советский писатель”, 1959, с. 71 – 86.

10. Левик В. О точности и верности. Мастерство перевода, сб. ст. М., “Советский писатель”, 1959, с. 254 – 275.

11. Хэллидей М.А.К. Сопоставление языков. Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. М., “Международные отношения”, 1978, с. 42 – 54.

12. Ахманова О.С, Задориова В.Я. Теория и практика перевода в свете учения о функциональных стилях речи. Лингвистические проблемы перевода. М., изд-во Московского университета, 1981, с. 3 – 12.

13. Найда Ю.А. К науке нереводить. Принципы соответствий. Вопросы теории перевода в современной лингвистике. М., “Международные отношения”, 1978, с. 114 – 136.

14. Ларсон М. Смысловой перевод. Руководство по теории межъязыковой эквивалентности и ее практическому применению. СПб, 1993.

15. Виноградов В.С. Введение в переводоведение. М., изд-во ИОСО РАО, 2001, с. 224.
16. Кэтфорд Дж. Лингвистическая теория перевода. Вопросы теории перевода в современной лингвистике. М., “Международные отношения”, 1978, с. 91 – 113.
17. Миньяр-Белоручев Р.К. Теория и методы перевода. М., Московский лицей, 1996, с. 208.
18. Рецкер Я.И. О закономерных соответствиях при переводе на родной язык. “Вопросы методики учебного перевода”, М., 1950, с. 156 – 178.

Saurov Ravshonbek Ruslanbek o‘g‘li (Urganch davlat universiteti O‘zbekistonda demokretik jamiyat qurish nazariyasi kafedrasi tayanch doktoranti; e-mail: ravshonbek.saurov@gmail.com)

DAVLAT XIZMATLARI KO‘RSATISH INSTITUTLARINING DEMOKRATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada davlat xizmatlari ko‘rsatish institutlarining demokratik xususiyatlari, agent (xodim) professiogrammasiga oid tashkiliy-yuridik va ma’naviy-axloqiy jihatlar muhokama qilinadi. Unda yangi shakllantirilayotgan ijtimoiy tizimning ayrim funksional belgilari ochib beriladi.*

Аннотация. *В статье обсуждаются демократические особенности институтов оказания государственных услуг, юридико-организаторские и духовно-нравственные черты агентов (служащих) в их профессиограмме. В ней раскрываются некоторые функциональные особенности новой социальной системы как Агенства оказания госуслуг населению.*

Annotation. *The article discusses the democratic features of the institutions for the provision of public services, the legal-organizational and spiritual-moral heroes of agents (employees) in their professiogram. It reveals some of the functional features of the new social system as the Agency for the provision of public services to the population.*

Kalit so‘zlar: *davlat xizmatlari, agent, agentlik, demokratik xususiyatlar, aholi, boshqarish, institutsional, kadrlar, markazlar, professiogramma.*

Ключевые слова: *государственные услуги, агент, агентство, демократические особенности, население, управление, институтциональный, кадры, центры, профессиограмма.*

Key words: *public services, agent, agency, democratic features, population, management, institutional, personnel, centers, professiogram.*

Davlatning xalqchilligi, xalq manfaatlariga xizmat qilishi uning demokratiya tamoyillariga sodiqligini ifoda etadi. Demokratiya “xalq hokimiyatchiligi” degan shunchaki shior, ibora emas, u o‘z institutlari faoliyatini ochiq, shaffof va xalqqa yaqin qilishi bilan ajralib turadi. Demokratiyaning boshqarish, xalqqa xizmat qilish xarakterini ilk bor Platon tilga olgan edi. To‘g‘ri, u demokratiyani “boshqarishning bad ko‘rinishi” deb atagan, uni aristokratik, ya’ni o‘z ishini yaxshi biladigan, maxsus bilim va ko‘nikmalarga ega shaxslar, guruhlar tomonidan boshqarishi kerak degan xulosaga kelgan.[1] Boshqarilmaydigan, boshboshdoq demokratiya xaosni keltirib chiqargan, institutsional tizimlarni izdan chiqargan. Buni Platon Afina demokratiyasi misolida ko‘rgan, kuzatgan.

Boshqarilmaydigan demokratiya ko‘plab davlatlar, institutlar faoliyatiga xavf solganiga tarixda misollar yetarlicha. Agar demokratiya chindan ham xalqqa xizmat qilsa, ma’muriy markazlashgan boshqarishni xalq manfaatlariga yo‘naltirishsa, u ijobiy ahamiyat kasb etadi, davlat bilan xalq manfaatlariga yo‘naltirsa, u ijobiy ahamiyat kasb etadi, davlat bilan xalq o‘rtasidagi konstruktiv aloqalarni mustahkamlaydi, kishilarning ijtimoiy-siyosiy faolligini ta’minlaydi.

Ijtimoiy munosabatlar rang-baranglashib va murakkablashib borayotgan hozirgi davrda davlat bilan xalq o‘rtasidagi aloqalarni optimallashtirish muhim ahamiyatga ega. Boshqarish va aloqalarni optimallashtirish zamonaviy demokratiyaning asosiy belgilaridan biridir. Davlat xizmatlari ko‘rsatish institutlari boshqarishni demokratlashtirishga, xalq bilan aloqalarni optimallashtirishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi davlat xizmatlari ko‘rasatish institutlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan, 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategiyani qabul qilgan. Uning asosiy maqsadi Respublikamizda davlat xizmatlarini rivojlantirishdan iborat. Shu maqsadda 2020-yilda “Davlat fuqarolik xizmatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi umumxalq muhokamasiga qo‘yildi va qabul qilindi. Unda ta’kidlanganidek, Strategiyani ishlab chiqishdan ko‘zlangan asosiy maqsad davlat fuqarolik xizmatini o‘rta va

[1] Платон. Сочинения в трех томах. Т.3, часть 2, Москва, “Мысль”, 1983, с. 287 – 288.

uzoq muddatda rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini ushbu sohada erishilishi lozim bo‘lgan maqsadli ko‘rsatkichlar (aniq indikatorlar)ni belgilashdir.[1]

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratlashtirish va modernizatsiyalash institutsional islohotlarni taqozo etadi. Keyingi besh yil ichida Respublikamizda vazirliklar soni 23 taga yetdi, har bir vazirlik qoshida matbuot xizmati agentligi, tizim faoliyatini shaffof qilishga qaratilgan axborot tarqatish markazlari tashkil etildi. Masalan, Adliya vazirligi huzuridagi davlat xizmatlari agentligi tizim faoliyatini ommaga yaqinlashtirish va xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan. Bundan ikki yil avval xizmatlar turi 37 tani tashkil etgan bo‘lsa, bugun u 157 tani tashkil etadi. Kuniga aholiga 57 mingdan ziyod davlat xizmatlari ko‘rsatiladi, 70 dan ortiq xizmatlar to‘liq qayta ko‘rib chiqildi va soddalashtirildi, talab etiladigan hujjatlar soni 221 tadan 95 taga, xizmat ko‘rsatishning umumiy muddati qariyb 499 kundan 271 kunga qisqartirildi.[2]

Davlat xizmatlarining rang-baranglashyotgani, sohaga xorijiy tajribalarning joriy etilyotgani, onlayn xizmatlarni yo‘lga qo‘yilyotgani ma’lum bir qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

An’anaviy tartiblarga o‘rgangan kishilar uchun ular davlatlar xizmatlari turlarini sun’iy tarzda o‘zgartirish, ko‘paytirish, “kishilarni band qilish” bo‘lib tuyuladi. An’anaviy davlat xizmatlar tizimida uy-kommunal xizmatlar, elektr energiyasi, gaz, issiq va sovuq suv, uy-joy shirkatiga to‘langan. Aholining o‘zi xizmatlar haqini vaqtida to‘lashga shoshgan. Keyingi o‘ttiz yil ichida ular tarmoqlarga bo‘linib ketdi, har biri ularning shaharning turli tamonida. Yaxshiyamki, “Yagona darcha” davlat xizmati tashkil etildi. Biroq tarmoq xizmatlarining yaxshilanishi ro‘y bermadi, deyarli elektr energiyasi, suv ta’minoti tez-tez uzib qo‘yiladi, aholi ogohlantirilmaydi. Ushbu tarmoqlarda aholining haq-huquqlarini buzish odatiy holga aylangan. “Rasmiy xabarlar” saytining xabar berishicha, 2021-yil 5 oy davomida respublikamiz bo‘yicha 8.1 ming tender o‘tkazilgan.

Ulardan 4.1 mingtasida kamchilik aniqlangan. Kamchiliklarning 55% foizi qurulish ishlariga, qolganlari savdo-sotiqqa, Tovar va xizmatlarni xarid qilishga oiddir. Aniqlangan qonun buzulishlarining 67.7% foizi davlat xaridlariga oid qonunlarning buzulishi, savdo tashkilotlari yoki buyurtmachilar tomonidan noqonuniy xatti-harakatlar, 2.6 foiz savdolar ishtirokchilarini asossiz chetlashtirish ,3.2% foiz, ishtirokchilar o‘rtasida aniqlanganlik holatlari 6.0 foiz, savdo o‘tkazmasdan to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnoma tuzilishining asossiz holatlari 5.2% foiz, raqobatni cheklashga olib keladigan holatlar 1.7% foizdir.

Ko‘rinib turibdiki mol-mulkni, obyektlarni tender orqali sotishda qonunni chetlab o‘tish yoki uni atayin buzib shaxsiy manfaatlarni ko‘zlash holatlari davlat tender xizmatlar ko‘rsatishda jiddiy muammolar borligini ko‘rsatadi. Etimologik nuqtayi nazardan “tender” so‘zi kim oshdi savdo-sotiqni anglatadi. Davlatimiz o‘z obyektlarini tender orqali sotish uchun maxsus qonun va Prezident qarorlarini qabul qilgan. Ularga amal qilish tenderni demokratik usul ekanini ko‘rsatadi. Tender qonunlarining buzilishini demokratik savdo tartibining buzilishidir.

Davlat xizmatlarni maxsus xodimlar, agentlik va markazlar amalga oshiradi. Xalqaro tajribalarga ko‘ra, ushbu subyektlar faoliyatini baholab borish, ularning samarali ishlashini ta’minlash uchun KPI me’yori joriy etilmoqda. Uning maqsadi soha uchun zarur kadrni tanlashdir. Mutaxassislarning fikricha, “Kadrni yangi lavozimga tayinlashning zamonaviy talablari, uning mehnat munosabatlariga kirishishini kuzatish, attestatsiyadan o‘tkazish, funksional munosabat yoki bo‘linishning yangi sxemasi, bo‘linma, yoki yangi ish tavsifi qoidalari, xodimlar zahirasini shakllantirish usullari, ixtisoslashtirilgan dasturiy ta’minot tizmidan foydalanish innovatsiyaning, davlar xizmatlari sohasida yangilikning asosi bo‘lishi mumkin”.[3] Shu bilan birga, kadrlarning faoliyatini samaradorligi quyidagi xalqaro indekslar orqali belgilanadi.

– “faqat vaqt ichida (just in time);
– ish vaqtini oqilona tashkil etish (time management);
– kaidzen (uzluksiz takomillashtirish tushunchasi);
– qiymat oqimini boshqarish;
– xatolardan himoyalanish.

Ushbu me’yorlar “davlat xizmatchisi faoliyati samaradorligini har jihatdan mukammal tarzda ko‘rib chiqish imkonini beradi. 7–10 nafar davlat xizmatchisidan faqat 3–4 nafarigina davlat talab darajasida

[1] Qarang: https://t.me/argos_uz

[2] Муҳаммадиев Н. Давлат хизматлари кўрсатиш такомиллаштирилиб, қулайлик янада кенгаяди. “Янги Ўзбекистон”, 2021, 12 май.

[3] Иномов Ҳ. Ходимларни бошқаришда замонавий раҳбарлик услубларидан фойдаланиш: қиёсий таҳлил. “Маҳалла кўзгуси”, 2021, 1-сон, 26-бет.

ishlaydi. Qolganlari yordamchi funksiyalarini bajargani bois, yuqori natijalarga erisha olmaydi".[1] Mazkur me'yorlar davlat xizmatchilariga yangicha yondashishni taqozo etadi. Gap shundaki, inson resurslarini boshqarish kadrlar tanqisligi va qo'nimsizligi paytida alohida ahamiyat kasb etadi.

Avtokratik boshqarish yillarida bu masala oson hal etilgan, tepadan berilgan ko'rsatma kadr taqdirini hal etgan. Davlat xizmati ana shu tepa xohishiga muvofiq amalga oshiriladi. Yangi O'zbekistonda davlat xizmatlarini amalga oshirish demokratik xususiyatlarga ega. Bular quyidagilarda aks etadi:

– aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarning turlari va ularning sifatli tashkillashtirishning asosiy maqsadi va strategiyasi ishlab chiqiladi. Bu jarayon aholining faol qatnashishi orqali hal etiladi, ya'ni davlat xizmatchilarining faoliyatini aholining ehtiyojlarini aniqlash orqali tashkil qilinadi;

– –xodim sinov muddati bilan ishga qabul qilinadi, bu kadrlar o'rtasida ijodiy musobaqa muhitini vujudga keltiradi. Demokratik boshqarish kadrlar o'rtasida shaffoflik va ochiqlikni qaror toptiradi, eng bilimli, innovatsion fikrlovchi mutaxassislarga o'z o'rnini topishga yordam beradi;

–kadrlarning o'z vazifasiga munosabatini oshirish maqsadida ularning faoliyatini, mehnatini baholashga yetakchi mutaxassislar va jamoa faollarini jalb etish, innovatsion me'yorlarni tadbiq qilish. Bu mehnat jamoasida davlat xizmatlarini ratsional, maqsadli va ko'pchilik ishtirokida tashkil qilishga yordam beradi. Jamoa baham jihatligi, birdamligi demokratik usullar natijasidir;

–kadrlar faoliyatining korporativ boshqarish orqali yo'lga qo'yilishi. Korporativ boshqarish mohiyatan demokratik hodisa, u davlat xizmatlarini ko'rsatishni shaffof olib borishga qaratiladi.

Bugun O'zbekistonda tashkil etilgan yangi tizim – davlat xizmatlari markazlari Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP) ijtimoiy hayotdan mustahkam joy olgan. Respublikamizda 205 ta tuman davlat xizmatlari markazlari mavjud, YIDXP orqali esa 217 turdagi elektron davlat xizmatlari ko'rsatiladi. [2]Manbalarda keltirilishicha, "Elektron hukumat" platformasiga 450 dan ortiq qonun hujjatlarda belgilangan 18 turdagi ma'lumotlar joylashtirilgan.[3]

Davlat xizmatlari markazlashgan boshqaruv talablariga muvofiq tumanlarda quyidagicha institutsional tashkil qilingan:

–moliya bo'limi;
–xalq ta'limi bo'limi;
–maktabgacha ta'lim bo'limi;
–madaniyat bo'limi;
–tibbiyot birlashmasi;
–sanitoriya-epidimologik osoyishtalik va jamoat salomatlik bo'limi;
–davlat o'rmon xo'jaligi;
–budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi bo'limi;
–obodonlashtirish boshqarmasi;
–irrigatsiya bo'limi;
–qurilish bo'limi;
–veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi.

Mazkur bo'limlar va birlashmalarning xizmatlari qonuniy asosda olib boriladi. Buni yo'lga qo'yish uchun 2021-yil 1-oktabrdan barcha tuman va shahrlarda yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tashkil qilinadi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan 2021-yil 18-martda "Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, tuman darajasidagi davlat organlarining yuridik xizmat xodimlari adliya xodimi hisoblanadi. Tuman darajasidagi davlat organlarining barcha hujjatlari yuridik davlat xizmatlari ko'rsatadi, xizmat turlarini ariza beruvchi, aholi belgilaydi. Bu xizmatlar pullik yoki bepul bo'lishi mumkin.

Rasmiy hujjatlarda agent (xodim)ning akkreditatsiyadan o'tgan o'quv markazlarida 40 soatlik o'quv dasturi asosida ta'lim olishi, o'qishi ko'rsatilganidan kelib chiqsak, agent (xodim) ma'lum bir nazariy va amaliy tayyorgarlikdan o'tgan bo'lishi zarur. Hozirlikcha mazkur o'quv dasturi haqida ma'lum fikr bildirish qiyin, Chunki uning amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqilmagan. Bu vazifani Adliya vazirligi va uning qoshidagi davlat xizmatlari agentligi amalga oshirishi zarur. Lekin hozirning o'zidayoq bir narsa aniq, davlat xizmatlari agent (xodim)dan tashkiliy-yuridik bilimni taqozo qiladi. O'quv dasturi

[1] Shu manba. 27-bet.
[2] http://my.gov.uz
[3] https://t.me/huquqiyaxborot

ushbu talabdan kelib chiqib, ishlab chiqilishi lozim. Shu bilan birga, agent (xodim) professiogrammasida ma'naviy-ahloqiy fazilatlar ham alohida o'rin tutadi. Ariza beruvchini nafaqat u yoki bu ma'lumot olish, xizmat turidan foydalanish, shu bilan birga, agentlikdagi ma'naviy-axloqiy muhit ham diqqatini tortadi. Shuning uchun davlat xizmatlari ko'rsatish agentligi xodimlarining professiogrammasini yaratish tadqiqotchilar oldidagi vazifalardan biridir.

Маткаримов Сапарбой Ражабович (УрДУ)

НАВОИЙНИНГ "БИЗГА УЛ МАҲВАШ ТИЛИЮ КЎНГЛИ БИРЛА ЁР ЭМАС" ДЕБ БОШЛАНУВЧИ ҒАЗАЛИНИНГ ФРАНЦУЗ ТИЛИГА ТАРЖИМАСИ ТАҲЛИЛИ

Аннотация. *Мақолада Навоийнинг "Бизга ул маҳваш тилию кўнгли бирла ёр эмас" ғазалининг Ҳамид Исмоилов ва Жан Пьер Балп томонидан француз тилига қилинган таржимаси хусусида сўз боради. Муаллиф ўзбек таржимашунос олимларининг бу борадаги ишларини ўрганиб, ғазалнинг таржима вариантини ва унинг аслият шаклини чуқур таҳлил қилган.*

Аннотация. *Статья посвящена французскому переводу газели Навои, которая начинается словами «Бизга ул маҳваш тилию кўнгли бирла ёр эмас» Хамида Исмаилова и Жан-Пьера Бальпа. Автор изучил работу узбекских переводчиков в этой области и провел глубокий анализ перевода газели и его первоначального вида.*

Annotation. *In the article, the speech goes on about the translation of Navoi's gazelle "Bizga ul mahvash tiliyu kongli birla yor emas" into Freench language by Hamid Ismailov and Jean-Pierre Balp. The author studied Uzbek scientists' works on the issue and thoroughly analyzed the translation of the gazelle and its original form.*

Калит сўзлар: *Навоий, ғазал, таржима, Ҳамид Исмоилов, Жан Пьер Балп, луғат.*

Ключевые слова: *Навои, газель, перевод, Хамид Исмаилов, Жан Пьер Балп, словарь.*

Key words: *Navoi, gazelle, translation, Hamid Ismailov and Jean-Pierre Balp, dictionary.*

Навоий ижодининг жаҳон тамаддуни тарихида тутган ўрнини ҳаққоний баҳоламоқ учун, аваламбор, асарларининг дунё халқлари тилларидаги таржималари ва тарғиботи тарихини ўрганмоғимиз керак. Ўтган асрларда кўплаб таниқли олимлар тадқиқотларида Навоий меросининг шуҳрати ва Ғарб шарқшунослигидаги ўрганилиш тарихи хусусида айрим маълумотлар берилган. Аммо мутафаккир адиб асарларининг таржималари ва талқинини кенг ёритган монографик тадқиқотлар ҳозирги кунгача жуда кам яратилган. Францияда XVII асрга доир манбада Шарқ халқлари хаёти, тарихи ва маданиятини кенг ёритувчи Бартолеме д'Ерболенинг "Шарқ кутубхонаси" китобида Навоий шахси тўғрисида маълумот келтирилади. Мазкур китобнинг 99-саҳифасида Алишер исми, унинг ясалиши Али ва Шер сўзларидан таркиб топганлиги хусусида, китобнинг 661-саҳифасида мутафаккирнинг насаби хамда тўртта девон ёзганлиги шеър ва достонлари туркийда ва форсийда ёзилганлиги тўғрисида сўз юритилади.[1]

Алишер Навоий ижодини Францияда тарғиб қилиш ва ўрганишга 1841 йили нашр қилинган. Этьен Катремернинг "Шарқий турк адабиёти хрестоматияси" номли китоби ҳам катта ҳисса қўшган.[2]

Маълумки, бирон-бир халқ маънавиятига хос қадриятларнинг бошқа халқлар томонидан тан олиниши, табиийки, ана шу халқ тарихига нисбатан чуқур ҳурмат ифодасидир. Бундай эътироф халқнинг ғурур ва ифтихори, миллий ўзлигини яна-да юксалтиришга хизмат қилади. Таржима тарихини чуқур ўрганиш фақат умумий маданий юксалиш жараёнини ёки муайян миллий адабиёт тарихини ўрганишдангина эмас, балки ўша адабиётнинг ҳозирги тараққиёт жараёни, хусусияти, адабий алоқалари кўламини татбиқ этиш, ривожланиш истиқболини белгилашда ҳам жуда катта аҳамиятга эга. Бирон-бир тилнинг адабий асарлар таржимасини амалга ошириш имкониятлари бир неча ўн йиллар давомида таржима қилиш борасида орттирилган адабий анъаналар, бой таржиба заминида рўёбга чиқади.

Ҳар бир янги таржима, янги санъат асаридан кузатиладиган мақсад ўзга халқларнинг энг яхши бадиий ёдгорликларини ўз она тилисида қабул қилиш, у билан халқни таништириш, қардош халқлар маданиятини энг яхши фазилатларини ижодий ўзлаштириш, ўз адабиётида яратилган дик-

[1] Сотимов У. Инкордан икроргача. Урганч, 1994, 54–60-бетлар.

[2] Холбеков М. Навоий мероси француз тилида. "Ҳуқуқ ва бурч", Тошкент, 2011, 2-сон, 17–19-бетлар.

қатга лойиқ асарларни бошқа халқлар тилига ўгириш, уларга тақдим этиш воситаси ҳисобланади. Бошқа халқлар тилларига таржима қилинаётган бадиий асарининг қимматини ҳар бир давлатда қабул қилинган баҳога ёки бирлиги билан белгилаб бўлмайди. Бадиий асарнинг қиммати унинг мазмуни, яъни ғоявий фазилатлари, тарбиявий-маърифий аҳамияти, бадиий-эстетик хусусиятлари билан белгиланади. Бегона юртларнинг урф-одатлари, маданиятлари, орзу-фикрлари бизга кўп ҳолларда ғайриоддий туюлади.

Тарихий асарлар таржимасининг замонавий асарлар таржимасига нисбатан мураккаблиги аслиятда тасвирланган давр руҳини бериш билан боғлиқдир. Шу боис тарих бўёғини акс эттиришда тарихий-ҳарбий атамалар, ўлчов бирликлари, реалиялар (хос сўзлар) таржимаси катта аҳамият касб этади. Миллий характер муайян халқ тарихий тараққиётида шаклланиб боради ва мазкур халқ маданияти, диний эътиқоди, расм-русумлари, турмушнинг барча шарт-шароитларида йўғрилган аниқ хусусиятлар мажмуини ўзида акс эттиради.

Таҳлил қилинаётган Навоийнинг “Бизга ул маҳваш тилию кўнгли бирла ёр эмас” деб бошланувчи ғазалининг таржимасида ғазалда ифодаланган образларнинг гапириши, ҳис-туйғулари, юз тузилиши барча-барчаси уларнинг умумий характерини ифодалашда асосий воситалар бўлиб, таржимада қайд этилганларни тўлиқ акс эттириши образнинг тўлақонли чиқишини таъминлайди. Ҳар бир таржимон дунёни ўз кўзи билан кўради, аслиятни ўзига талқин қилади ва бу талқинда, ҳар қандай ижодда бўлгани каби, унинг дунёқараши, тажрибаси ва иқтидори ўз аксини топади.

Таржимада асл нусханинг бутун борлиғи, уни санъат асари сифатида характерлайдиган барча асосий белгилар – муаллифни бошқа адиблардан яққол ажратиб турадиган ўзига хос овози, услуби, “қаламининг изи” акс этмоғи даркор. Воқеа ва манзарани миридан-сиригача бирма-бир тасвирловчи романист билан аксарият атиги биргина сўз, рамз, тимсол, деталь воситасида унутилмас образ, таъсирчан ғоя яратувчи новеллист асарларининг таржимасига нисбатан бир хил, ягона тадбир қўллаб бўлмаслиги аниқ.[1]

Ғазал – бу, асосан, ўтмишда кенг қўлланган адабий жанр ҳисобланади, бундай асарларда тарихийлик ва миллийлик бир-бири билан чамбарчас боғлиқ. Бу тушунчалардан бирининг таржимада нотўғри акс эттирилиши, ўз навбатида, иккинчисининг ҳам бузилишига олиб келади. Ғазал таржимасида ўзгаришлар бўлиши табиий ҳол, бундан қочиб қутилиб бўлмайди. Бироқ ана шу ўзгаришлар нималар ҳисобига бўлади, уларнинг моҳияти қанақа? Қурбонлар эвазига нималарга эришилади? Бу нарса асарнинг қийматига таъсир қиладими йўқми? Масалага ана шу нуқтаи назардан ёндашилса, эркинлик билан аниқлик чегараларини топиш таржимоннинг маҳоратини намоён қилишга йўл очади. Агар шеърий асарлар таржимасига эътибор қаратилса, ундаги ўзгаришлар, оригиналдан ажралиб турадиган томонлар, кўпинча, икки нарса вазн ва қофияда содир бўлишини кўрамиз. Ғазални бир тилдан иккинчи тилга таржима қилиш уни бир вазндан бошқа вазнга ўтказиш, трансформация қилиш демакдир. Бу ерда фақат трансформация ҳақида гапириш мумкин, чунки вазнни бошқа тилга кўчириш мумкин эмас.

Шундай қилиб, ғазални таржима қилганда фақат ҳар бир адабиётда мавжуд бўлган вазндан фойдаланиш мумкин. Вазнни сақлаш масаласи ўз-ўзидан кун тартибидан тушади. Мабодо, шеърий таржимада вазнни ўзгартириш, яъни поэтик асарни бошқа вазнга ўтказиб таржима қилиш қатъиян ман қилинганида, поэзияни бир тилдан бошқа тилга, хусусан, абадий-эстетик анъаналари бир-биридан узоқ халқлар тилларига ўгириш имконсиз бир нарсага айланиб қолган бўларди. Таржима санъатида вазн ўзгариши умуман нормал ҳол ҳисобланади. Шакл алмашинуви эса муқаррар суратда мазмунга таъсир кўрсатади. Шундай бўлгач, таржимада шакл ўзгариши мазмунга ҳам таъсир этаркан, бошқа тил заминига ўтганда, асл нусха ҳеч қачон айнан ўзидай сақланиб қолмайди. Бунда маълум камомад ва орттирмалар содир бўлади.

Навоий асарларини чет тилига таржима қилиш учун таржимон, аввалambор, уни ҳозирги ўзбек тилига ўгириши, кейин танланган хорижий тилга таржима қилиши лозим бўлади. Бу эса таржимондан ўта кучли маҳорат ва тажрибани талаб қилади.

Ҳамид Исмоилов ва Жан Пьер Балплар тамонидан француз тилига таржима қилинган, тадқиқ қилинаётган ғазалнинг замонавий ўзбек тилига қайта таржимасида мазмун аслиятдан қанчалик ўзгарганини қуйида кўриб чиқамиз.

En nous, ce visage de lune n’est ni l’amour, ni sa langue, ni son coeur,
tout ce qui est sur sa langue n’est pas dans son coeur.

[1] Саломов Ғ. Таржима назарияси ва асослари. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1983, 105-бет.

Бизга бу ой юзлининг на тилида, на кўнглида муҳаббат бор,
Унинг тилида айтаётганлари, кўнглида йўқ.
Viens sur ma langue feu de mon coeur car a cause de son coeur de pierre
Elle me trouble de sa langue mais ne souffre pas pour moi en son coeur.
Унинг бағри тошлигидан юрагимдаги ўт тилимга келди,
У тилида ғам чекяпти-ю лекин кўнгли ундай эмас.
Son coeur est étrange, sa langue est étrange, que faire]
En son coeur cent sentiments; de sa langue elle n'en peut exprimer un.
Унинг қалби ўзгача, тили ўзгача,
Юрагида юз хил ўй бору, тили буларнинг ҳеч бирини изҳор қилмаяпти.
Heureuse, elle ignore l'état de ma langue comme celui de mon coeur
Son coeur ne coupe pas du trenchant de la tristesse,ni sa langue brulante de son souffle.
Бахтимга у менинг на тилимнинг ва на кўнглимнинг аҳволини билмайди,
Кўнгли ғамдан, тили оҳдан бегона эмас
Dans l'union du coeur et de la langue, l'amour est present;
Il est absent si coeur et langue sont etrengers.
Қалб ва тилнинг бирлашиши ҳозир бўлса у ёр,
Агар қалб бошқа бўлса-ю, тил ўзга бўлса, ёр эмас.
Si on ne veut pas avoir le coeur triste on protégé sa langue
Mais quand on se mord la langue, nulle souffrance dans le coeur.
Ғамгин кўнгилли бўлишни истамаган, асрасин тилни,
Қачонки тил жим бўлса, қалб ҳеч нарсадан азият чекмайди.
Je ne dis pas ; "Exprime ta douleur avec la douleur, avec le coeur ou avec la langue''
Mon coeur n'est-il pas insensible et ma langue muette
Дард азобингни кўнглинг ҳам тилинг билан изҳор қил демаяпман
Кўнглим ҳеч нарса сезмас ва тилим соқовдир.
De quelle langue dire que mon coeur cherche un refuge|
L'abri du vine regle pas le differand entre coeur et langue.
Қайси тил бирла айтайин, юрагим бир тинч манзил излаётганин,
Кўнглим ва тилим бошқа-бошқа жойларда.
Quand Navoi extasie parle du roi du ciel,son coeur est
ce tresor don't sa langue et la clef
sinon en sa langue et son coeur, nulle pointe pour ses mots.[1]
Олам шоҳи мадҳида Навоий айтадики, кўнгил хазина-ю тил унга калит,
Агар шундай бўлмаса, тилда ҳам кўнгилда ҳам,
сўзлар маъносиз бўлиб қолади.
Аслият шакли:
Бизга ул маҳваш тилию кўнгли бирла ёр эмас,
Кўнгли ичра ҳар неким, анинг тилида бор эмас.
Тилга келган кўнглим ўтинким, менга ул бағри тош
Тил била ғам ер, кўнгил била вале ғамхор эмас.
Кўнгли ўзгадур, тили ўзга, не чора қилғамен,
Кўнгли юз фикру тили бирла бири изхор эмас.
Не тилим, не кўнглум аҳволин билур ул шўхким,
Кўнгли ғам неши, тили оҳ ўтидин афгор эмас.
Ёр улдирким, тилию кўнгли онинг бўлса бир,
Ким тили ўзгаю кўнгли ўзгадур ул ёр эмас.
Кимки кўнглин истамас ғамгин тилини асрадик,
Ким тилин тийган кишининг кўнглида озор эмас.
Демаким дардингни шарх эт, ё кўнгул ё тил била,
Кўнглум эрмастурму беҳуд, ё тилим инкор эмас.
Қайси тил бирла дейин, кўнглум тилайдур хонақоҳ,

[1] La Differance, pour la preface, la traduction et les notes. Gazels et autres poemes traduit du turc et presente par Hamid Ismoilov preface et adaptation par Jean-Pierre Balpeю GAZELS ET AUTRES POEMES. Paris, ELA, 1991.

Ким тилу кўнглум аро жуз кулбаи хаммор эмас.
Шоҳ мадҳида Навоий кўнгил ганжу тил калид
Йўқса кўнглию тилида нуқтаю гуфтор эмас.

Навоий ҳазратларининг яшаб ижод этган давридаги тил билан бугунги кундаги ўзбек адабий тилини сал кам олти юз йиллик масофа ажратиб туради. Ижодкор яшаб ўтган ҳудудда бу оралиқдаги ижтимоий-иқтисодий, илмий, маърифий, ҳарбий, техника ва бошқа барча соҳалардаги ўзгариш, ривожланиш тилшуносликка ҳам жуда катта таъсир қилади. Мутафаккир асарлари лексикасидаги кўплаб сўзлар тарихий, архаик бўлиб, бугунги оддий ўқувчи учун уларни ўқиб тушуниш маълум маънода қийинчилик туғдиради. Алишер Навоий асарлари учун луғат шоир ҳали хаёт экан пайтларидан бошлаб, то бугунги кунгача нашр қилинмоқда.*"Ўзбек классик адабиёти учун қисқача луғат", "Навоий асарлари луғати", "Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати", "Навоий асарлари учун қисқача луғат"* кабилар шулар жумласидандир.[1] Мисол тари-қасида а*фгор – яраланган, мажруҳ; бехуд – ўзидан кетган, беҳуш; хонақох – сўфи ва дарвешларнинг зикр ўтказадиган жойи, маишатгоҳ; хаммор – майфуруш; жуз – бўлак, қисм; нуқта – теран маъноли; гуфтор – сўз, нутқ* лексемаларини келтиришимиз мумкин.

Хонақоҳ сўзини таржимон француз тилида *refuge* шаклида берган бу чекинадиган, маълум бир хавф-хатардан сақланадиган жой маъносини беради. "Навоий асарлари учун қисқача луғат"да бу сўзнинг маъноси инсонларнинг Оллоҳни эслаб зикр қиладиган жойи, яъни масжид, мадраса, қадамжо каби жойларни билдиради. Бошқа бир қатор архаик сўзларнинг французь тилига таржимасида таржимон имконият даражасида аслиятдаги маънони сақлашга ҳаракат қилган.

Хулоса ўрнида шуни айтишимиз мумкинки, Навоий ҳаёти ва ижодининг Ғарбий Европада ўрганилиши мавзусини атрофлича, яхлит монографик аснода илмий таҳлил қилиб бериш қиёсий адабиётшунослик фанининг галдаги муҳим ва долзарб масалаларидан биридир. Буюк аждодларимиз томонидан яратилган бебаҳо дурдона асарларни чет тилларига таржима қилиб, жаҳон афгор оммасига тақдим қилиш замонавий тилшунослар олдидаги асосий долзарб вазифалардан саналади.

Ismoilov Ixtiyorjon A'zamjonovich
(Fargona davlat universiteti tayanch doktoranti)

JINOYAT VA JAZONING IJTIMOIY-FALSAFIY MUAMMOLARI

Аннотация. *Maqolada jinoyat, jazo, huquqbuzarliklar bilan bog'liq masalalar tahlil qilinadi. Ularning jamiyat hayotidagi ijtimoiy-falsafiy muammolari va ularning yechimlari haqida so'z yuritiladi.*

Аннотация. *В статье анализируются вопросы, связанные с преступлением, наказанием, правонарушениями. Обсуждаются их социально-философские проблемы в жизни общества и пути их решения.*

Annotation. *The article analyzes issues related to crime, punishment, offenses. Their social philosophical problems in the life of society and their solutions are discussed.*

Калит so'zlar: *jinoyat, jazo, axloq, axloqiy tarbiya, ijtimoiy adolat, nazariya, huquqbuzarlik genezisi, potensiya.*

Ключевые слова*: преступление, наказание, нравственность, нравственное воспитание, социальная справедливость, теория, генезис преступления, потенциал.*

Key words: *crime, punishment, morality, moral education, social justice, theory, genesis of crime, potential.*

Huquqbuzarliklar va ularning eng og'ir qismi – jinoyatlar boshqa huquqiy hodisalar qatorida o'zining ekssentrikligi bilan azaldan e'tiborni tortgan. Huquqbuzarlikning mohiyatini anglash asosida hal etilishi muhim masalalardan biri bu huquqbuzarlik genezisidagi ijtimoiy va biologik tamoyillarning o'zaro bog'liqligi masalasidir. Uzoq muddatli tadqiqotlar ishonchli tarzda shuni ko'rsatdiki, aqli raso shaxsning jinoyati, qoida tariqasida, insonning boshqa harakatlari kabi umumiy ijtimoiy va torroq biologik xususiyatga ega. Har qanday ongli xatti-harakatlarda inson tanasi faoliyatining biologik elementlari bilan chuqur bog'langan ijtimoiy tamoyil ustunlik qiladi.

[1] Ўзбек классик адабиёти учун қисқача луғат. Тошкент, 1953; Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Т., 1983; Навоий асарлари учун қисқача луғат. Тошкент, 1993.

Huquqbuzarlik nafaqat shaxs, balki ommaviy hodisa bo‘lib, bu jihatdan uning ijtimoiy mohiyati aniqroq ko‘rinadi. Mashhur amerikalik kriminolog E.Shur “hech bir fikrlovchi amerikalik endi qashshoqlik, teng bo‘lmagan ijtimoiy imkoniyatlar, bir tomondan, mahrumlik va adolatsizlik tuyg‘usi, ikkinchi tomondan, jinoyat o‘rtasidagi yaqin munosabatni e’tibordan chetda qoldira olmaydi”, deb ta’kidlaydi.

Jinoyatlarning sodir bo‘lishida quyidagi sabab-oqibat munosabatlarining ta’sirini aytib o‘tishimiz mumkin:

♦ijtimoiy jarayonlarning o‘zaro ta’siri
♦obyektiv ijtimoiy qarama-qarshiliklar;
♦ijtimoiy institutlarning disfunksiyasi;
♦norasmiy tuzilmalarning deformatsiyasi;
♦ijtimoiy psixologiyadagi salbiy hodisalar;
♦huquqbuzarliklarning o‘sishi.

Xuddi shunday fikrlarni R.Ouen ham bildirgan va u shunday yozgan: “Jinoyatlar shaxsning emas, jamiyatning jinoyatidir”.

Antropologik va sotsiologik huquq maktablari jinoyat tushunchasi ustida ko‘plab tadqiqotlar olib borishgan. Antropologik maktab «jinoyat turi» va uning asosidagi navlarini belgilash uchun barcha zamonlar va xalqlar uchun umumiy jinoyat tushunchasini ishlab chiqishga harakat qildi, chunki, aks holda, jinoyatchining biologik va antropologik xususiyatlarini aniqlash mumkin emas edi.

E.Dyurkgeym ijtimoiy fakt sifatida jinoyatning normalligini sotsiologik asoslab berdi. U jinoyatni nosog‘lom, g‘ayritabiiy va patologik hodisa, degan qarashga qarshi chiqdi va jinoyat istisnosiz barcha jamiyatlarga xos ekanligini isbotladi. Qolaversa, sivilizatsiya rivojlanib borar ekan, jinoyatchilik kamaymaydi, aksincha ko‘payadi. “Normallikning shubhasiz alomatlari bo‘lgan hech qanday hodisa yo‘q, chunki u barcha jamoaviy hayotning shartlari bilan chambarchas bog‘liq”.

Jinoyatning mohiyati nimada? Bu savolga javob berish uchun har xil ijtimoiy turlarning barcha jinoiy turlarida bir xil xususiyatlarni ajratib ko‘rsatish kerak.

Dyurkgeym quyi jamiyatlarning huquqiy tushunchalarini e’tiborsiz qoldirmaslik kerakligini ta’kidlaydi: masalan, jinoyat deb hisoblangan, ammo jamiyatga zarar keltirmaydigan ko‘plab huquqbuzarliklar mavjud, masalan, nopok hayvonga tegish, marosimlarni e’tiborsiz qoldirish va hokazo. Agar huquqbuzarlik shubhasiz jamiyat uchun zararli bo‘lsa ham, zarar darajasi har doim ham jazo darajasiga mos kelmaydi. Shunday qilib, qotillik jamiyatga katta iqtisodiy zarar keltirmaydi, balki an’anaviy ravishda eng og‘ir jinoyat sifatida qabul qilinadi. Boshqa bir harakat jamiyat uchun halokatli bo‘lishi mumkin, lekin, odatda, hech qanday jazoga olib kelmaydi. Batafsil faktlarga asoslanib, Dyurkgeym, agar u kollektiv ongning ma’lum holatlarini ranjitgan bo‘lsa, harakat jinoyat hisoblanadi, degan xulosaga keladi. Ya’ni, jinoyat - bu harakat va muayyan jamoaviy his-tuyg‘ular o‘rtasidagi qarama-qarshilik.

Umumjahon jinoyatlari deb atash mumkin bo‘lgan, ya’ni har bir jamiyat jinoyat deb belgilaydigan xatti-harakatlar bormi? Bir qator olimlar “tabiiy jinoyat” tushunchasiga shunday ta’rif berishgan: “Butun insoniyatda salbiy ko‘rinishda, ya’ni, shafqatsiz harakatlardan, jinoiy xatti-harakatlardan tiyilish shaklida mavjud bo‘lgan oddiy achinish tuyg‘usi mavjud”. P.Sorokin bu ta’rifni “sof sun’iy”, barcha xalqlar jinoiy hisoblangan qilmishlar ta’rifini esa “umidsiz ish” deb atagan.

Shunday qilib, universal jinoyatlar bormi? Ha va yo‘q. Har bir jamiyat qasddan odam o‘ldirishni taqiqlaydi, lekin har bir jamiyatda o‘ldirishning o‘ziga xos ta’rifi bor (abort, qasos maqsadida o‘ldirish va xiyonatkor xotinni o‘ldirish turli jamiyatlarda turlicha ta’riflanadi). P.Sorokin Dyurkgeymning yondashuvini prinsipial jihatdan rad etmasdan, uning ta’rifini “noaniq” deb ataydi. Kollektiv ongning qaysi holati kuchli ekanligini qanday aniqlash mumkin, buning mezoni qayerda? Kollektiv emas, balki shaxsning his-tuyg‘ulari xafa bo‘ladigan, ya’ni shaxs jamiyatning bir qator xatti-harakatlarini jinoyat deb hisoblaydigan holatlar bo‘lishi mumkin emasmi? Shuning uchun Sorokin, Dyurkgeym formulasining to‘g‘riligini tan olib, uni to‘ldirish kerak deb hisoblaydi va shunday dedi: “Birov uchun jinoyat, uni haqorat qiladigan harakat bo‘ladi”.

Harakatning barcha shakllarida qonunning samaradorligi uning inson faoliyatini to‘g‘ri yo‘nalishga qanday yo‘naltira olishiga bog‘liq. Aks holda, qonun o‘z ma’nosini yo‘qotadi. Bu o‘z-o‘zidan juda katta huquq muammosi, lekin kengroq nuqtayi nazardan qaraganda, axloq muammosi ham paydo bo‘ladi: agar qonun o‘z vazifasini bajara olmasa, qonunda ko‘zda tutilgan jazolardan qandaydir ma’no bormi?

Jazo oqlanish va asoslashni talab qiladi, chunki u axloqiy ma’noda muammoli. Axloqiy nazariyalarning har xil turlari nima uchun jazo axloqsiz harakat degan savolga turlicha izoh beradi, shuningdek, bu qilmishni turlicha asoslaydi. Baxt (zavq) yagona tabiiy yaxshilik va baxtsizlik (og‘riq) yagona tabiiy

yomonlik bo‘lgan klassik utilitarlar uchun jazo azob-uqubat yoki og‘riq keltirishni o‘z ichiga olganligi sababli axloqsizdir. Ushbu mutafakkirlar nuqtayi nazaridan, jazo tizimi, agar biz uning katta zavq bag‘ishlashini yoki katta azob-uqubatlarning oldini olishini ko‘rsata olsak, uni oqlash mumkin va bu jazo yomonlikdan ustun turadi.

Shaxsning mustaqilligi va erkinligini asosiy qadriyatlar deb hisoblaydigan axloqchilar jazoning axloqsizligini aynan uning majburlash xususiyatida ko‘radilar, chunki u jinoyat sodir etgan shaxsga uning irodasiga qarshi qo‘llaniladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, jazo tizimini faqat bunday majburlash huquqbuzarni oqilona, suveren va mustaqil subyekt sifatida hurmat qilish bilan birga ekanligini ko‘rsatish orqali oqlanishi mumkin.

Davlat jazosi davlat hokimiyatini amalga oshirishning alohida holati bo‘lganligi sababli, jazo nazariyalari davlatning kengroq siyosiy nazariyasiga murojaat qiladi yoki unga tayanadi. Turli siyosiy nazariyalar jazoni oqlashga turlicha yondashadi, chunki ular davlatning qonuniylashtiruvchi roli va vakolatlarining turli jihatlariga to‘xtalib, davlat hokimiyati organlari bilan alohida fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarning har xil turlarini nazarda tutadi.

Liberal nazariyalar tarafdorlarini eng ko‘p shaxs huquq va erkinliklari holati qiziqtiradi: ular davlatning asosiy maqsadi xususiy fuqarolarga o‘z hayotlarini mustaqil ravishda qurishlari va o‘zlari tanlashlari mumkin bo‘lgan ishonchli huquqiy bazani ta’minlash bo‘lishi kerak, deb hisoblaydilar. Davlat jazoning to‘g‘ri maqsadlarini ta’minlash uchun zarur bo‘lganidan ko‘ra qattiqroq jazolamasligi kerak va jinoiy odil sudlovning davlat institutlari shaxsiy daxlsizlikka haddan tashqari tajovuz qilmasligi va fuqarolarning shaxsiy erkinligini buzmasligi kerak.

Davlatning kommunitar nazariyasi tarfdorlarini esa, aksincha, ya’ni, davlatning shaxslarning suvereniteti va ularning bir-biridan mustaqilligini bo‘rttirib ko‘rsatishga, shuningdek, alohida fuqarolar va butun davlat manfaatlari o‘rtasida aniq chegara chizishga moyil emas. Ular jamoaviy farovonlikka ko‘proq e’tibor beradi va davlatga jamoaviy farovonlikni oshirish va jamoat qadriyatlarini himoya qilishda kattaroq va ijobiy rol o‘ynaydi. Ushbu siyosiy fikr an’analarida ishlab chiqilgan jazo nazariyalari penitensiar tizimning ko‘proq intervension va paternalistik shaklini himoya qilishga va jamoaviy qadriyatlar va maqsadlarni (masalan, ijtimoiy reabilitatsiya, axloqiy qayta tarbiyalash va jinoyatchilarning reintegratsiyasi) targ‘ib qilishga tayyorligi izchil liberallar uchun bu mutlaqo asossiz ko‘rinadi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadiki, davlat jazosi institutini oqlash uchun jazo yordamida qandaydir yaxshi ijtimoiy maqsadga erishish mumkinligini emas, balki davlat ushbu ezgu maqsadga erishishga haqli ekanligini isbotlashi kerak.

Jazoning asosiy ma’nosi – bu kelajakda sodir bo‘ladigan jinoyatlarning oldini olishdir, deb hisoblaydigan konsekventistlar fikricha, eng muhimi, jinoyat (qilingan yoki potensial) so‘zsiz zarardir va shuning uchun biz bundan ham ko‘proq zararni oldini olish uchun zarar yetkazishga (jazo orqali) haqlimiz.

Jazo jinoyatga tabiiy, adekvat javob sifatida oqlanishi mumkinligini ta’kidlaydigan nokonsekventistlar jinoyatga nisbatan jazo shaklida ijtimoiy javobni qanday va nima uchun talab qilishini ko‘rsatishi kerak. Ularning ta’kidlashicha, jinoyat qonunga bo‘ysunuvchilardan nohaq ustunlikka erishishni o‘z ichiga oladi

Bu yerda ikkita fikrni ta’kidlash kerak. Birinchisi – qo‘rqitish. Tarixan, o‘lim jazosi asosan eng samarali to‘xtatuvchi vositalardan biri va shuning uchun jinoyatlarning oldini olish sifatida mavjud bo‘lgan. Shartli ravishda qabul qilingan jinoyatchilarning qolgan qismi ushbu ta’sirning ta’sirini boshdan kechirishi va ularning noqonuniy xatti-harakatlari ko‘rsatilgan jazodan qo‘rqib, cheklanishi uchun o‘lim jazosining jazo ta’siri saqlanib qoladi. Bu o‘lim jazosining mantiqiyligi va bir necha marta urish uchun qo‘llaniladigan jazo hammani qo‘rqitadigan tamoyilga erishishdir.

U.Peyli o‘lim jazosi bilan shaxsning har qanday jinoyat uchun ilgari sudlanganligi fakti o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligiga yo‘l qo‘yilmasligi haqidagi pozitsiyani himoya qildi. Bundan tashqari, o‘lim jazosini qo‘llash holatlari asosan jinoyatning barcha holatlarini to‘g‘ri va har tomonlama aniqlashga bog‘liq bo‘lishi kerak. U.Peyli o‘lim jazosini tayinlashda jinoiy sudlovni amalga oshirishning ikkita usulini ajratib ko‘rsatdi. Birinchisi, o‘lim jazosini muntazam ravishda qo‘llash, ammo qat’iy belgilangan oz sonli jinoyatlar uchun. Ikkinchi usul bilan, keng ko‘lamli jinoyatlar uchun o‘lim jazosini nazarda tutish kerak, lekin har bir qilmish uchun kichik ko‘rgazmali miqdorda ijro etish.

Boshqa tomondan, jinoyatni biznesning o‘ta xavfli varianti deb hisoblaydigan va jinoyatchi oqilona harakat qiladi, deb hisoblaydigan iqtisodchilar hayotni yo‘qotish ehtimoli ma’lum bir to‘xtatuvchi ta’sirga ega ekanligini ta’kidlaydilar. Biroq, o‘lim jazosi to‘xtatuvchi vosita sifatida hozirda sivilizatsiyalashgan mamlakatlarda qo‘llanilmaydi. U ijtimoiy adolat tuyg‘usini qondirish uchun ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шур Э.М. Наше преступное общество. Москва, “Прогресс”, 1977, 327 с.
2. Андерсон К.М. Оуэнисты в Британии: утопии социализма и обществ. движения в Англии. М., “Наука”, 1989, 251 с.
3. Craig J. Calhoun. Classical sociological theory. Wiley-Blackwell, 2002, 105 с.
4. Петражицкий Л.И. Теория права и государства в связи с теорией нравственности. СПб., 2000, 606 с.
5. Файф, А. Издательское дело и классика: естественная теология Пейли и научный канон девятнадцатого века. Исследования по истории и философии науки, 33 (2002), с. 729 – 751.

Сеитова Зухрахон Пиржановна (доцент, кандидат философических наук, НГПИ им. Ажинияза)

СТИРАНИЕ РАЗЛИЧИЙ В ГЕНДЕРНЫХ РОЛЯХ

Аннотация. *Maqolada jamiyatning barqaror rivojlanishi konsepsiyasi ko‘rib chiqilgan yangilangan O‘zbekiston haqida so‘z boradi. “Ayollar va erkaklarning teng huquqlari va imkoniyatlarining kafolatlari to‘g‘risida”, Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘lib respublikaning BMTning “Ayollarga nisbatan kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi konvensiyasiga qo‘shilishi to‘g‘risida qonunlar qayd etilgan. Biz aholining ayol qismi haqida gapiryapmiz, u yangi sifatda: jamiyatning eng faol va ijtimoiy harakatlanuvchi qismi sifatida. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha bo‘lgan global kun tartibining barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish tamoyillarini, xususan, “hech kimni qoldirmaslik” tamoyilini hisobga olish va uning ahvoliga alohida e’tibor qaratish dolzarb vazifadir, har xil kamsitishlarga moyil bo‘lgan ayollar, davom etayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar nafaqat jamiyatning o‘zgarishiga, balki jamoatchilik ongiga, odamlarning gender stereotiplariga munosabatiga ta’sir qiladi. Ayollarning jamiyatdagi iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, gender stereotiplarini o‘zgartirish va odamlarni zamon talablariga muvofiq yashashga undash kabi kundalik hayotning dalillari haqida ham so‘z yuritilgan.*

Аннотация. *В статье говорится об обновлённом Узбекистане, где рассматривается концепция устойчивого развития общества. Отмечаются законы «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин», о присоединении Республики одной из первых в Центральной Азии к Конвенции ООН «О ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин». Речь идёт о женской части населения в её новом качестве: как наиболее активную и социально мобильную часть общества. Актуальной задачей является учет принципов последовательного претворения в жизнь Целей устойчивого развития Глобальной повестки дня ООН на период до 2030 года, в особенности принципа «никого не оставлять без внимания», и проявление особого внимания состоянию женщин, склонных к различным формам дискриминации. происходящие социально-экономические преобразования влияют не только на трансформацию общества, но и на общественное сознание, на отношение людей к гендерным стереотипам. Такие факты повседневной жизни, как повышение экономической и политической активности женщин в обществе, развитие женского предпринимательства, меняют гендерные стереотипы и заставляют людей жить в соответствии с требованиями времени.*

Annotation. *The article describes a renewed Uzbekistan, where the concept of sustainable development of society is considered. The laws “On guarantees of equal rights and opportunities for women and men”, on the accession of the Republic of one of the first in Central Asia to the UN Convention “On the Elimination of all forms of discrimination against women” are noted. We are talking about the female part of the population in its new quality: as the most active and socially mobile part of society. An urgent task is to take into account the principles of consistent implementation of the Sustainable Development Goals of the UN Global Agenda 2030, especially the principle “leave no one behind”, and to show special attention to the condition of women prone to various forms of discrimination. the ongoing socio-economic transformation affects not only the transformation of society, but also the public consciousness and the attitude of people toward gender stereotypes. Such facts of everyday life as the increase in economic and political activity of women in society, the development of women's entrepreneurship change gender stereotypes and force people to live in accordance with the requirements of the time.*

Kalit so‘zlar*: ijtimoiy adolat, umuminsoniy rozilik, ma’naviyatning tiklanishi, milliy o‘ziga xoslik, global konseptsiya, gender-huquqiy ekspertiza, BMT konvensiyasi, ijtimoiy faollik, Harakatlar strategiyasi, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-gumanitar hayot.*

Ключевые слова: *социальная справедливость, всеобщее согласие, возрождение духовности, национальное самосознание, глобальная концепция, гендерно-правовая экспертиза, Конвенция ООН, социальная активность, Стратегия действий, политико-правовая,социально-экономическая и культурно-гуманитарная жизнь.*

Key words: *social justice, universal harmony, revival of spirituality, national consciousness, global concept, gender-legal expertise, UN Convention, social activism, Strategy of Action, political-legal, socio-economic and cultural-humanitarian life.*

Современный независимый Узбекистан, выбрав свой путь обновления, присоединился к общемировой концепции устойчивого развития, уверенно устремившись к созданию гуманного гражданского общества, демократического правового государства, базирующегося на стабильной социально ориентированной рыночной экономике, интегрировании в мировое сообщество и информационное пространство.

В системе стратегического ориентирования, закрепленной Конституцией Республики Узбекистан, на пути признания человеческих приоритетов, социальной справедливости и всеобщего согласия, возрождения духовности и национального самосознания, государство выделяет равенство мужчин и женщин, реализуя принципы их равных прав и свобод.

По сути дела концепция устойчивого развития общества – это идея признания общих интересов человечества, её непреходящее значение состоит в том, что она представляет собой попытку создать такое состояние общества, при котором все человечество будет в состоянии жить вместе в гармонии, как члены одной всеохватывающей семьи. Идя по собственному пути обновления и прогресса, наша страна присоединилась к данной глобальной концепции, определив социально ориентированный характер правовой и социальной защиты человека, формируя его духовно-нравственное становление.

Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев 2 сентября подписал закон «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин», принятый Законодательной палатой 17 августа и одобренный Сенатом 23 августа 2019 года.[1] Закон определяет прямую дискриминацию по признаку пола как любое различие, исключение или ограничение, которые направлены на непризнание за женщинами и мужчинами их прав и свобод во всех сферах жизнедеятельности общества, в том числе дискриминация по причине семейного положения, беременности, семейных обязанностей, а также сексуальное домогательство, разная оплата за равный труд и квалификацию.

Косвенная дискриминация, согласно закону, – это создание ситуации, положения или критериев, ставящих лиц одного пола в менее благоприятное положение по сравнению с лицами другого пола, в том числе пропаганда гендерного неравенства через средства массовой информации, образование, культуру, установление условий или требований, которые могут повлечь негативные последствия для лиц определенного пола.

Законом вводится понятие гендерно-правовой экспертизы – анализ нормативно-правовых актов и их проектов на предмет соответствия принципам обеспечений гарантий равных прав и возможностей для женщин и мужчин. Основными принципами обеспечения гарантий равных прав и возможностей для женщин и мужчин являются законность, демократизм, равноправие женщин и мужчин, недопустимость дискриминации по признаку пола, открытость и прозрачность.

С целью осуществления данных идей в последние годы в республике созданы различные правовые институты: Институт Омбудсмана, Национальный Центр по правам человека РУз, Институт мониторинга действующего законодательства, Центр по пропаганде правового просвещения, Центр по изучению прав человека, Центр по изучению общественного мнения, а также ряд ННО соответствующего профиля.

В настоящее время действуют более десяти женских общественных организаций в Ташкенте и более 50-в масштабе страны, ширится женское движение. Многие международные правовые документы и информации о деятельности международного женского движения и неправительственных женских организаций стали известны широкой общественности только после утверждения

[1] Закон Республики Узбекистан о гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин. Принят Законодательной палатой 17 августа 2019 года. Одобрен Сенатом 23 августа 2019 года.

независимости Республики Узбекистан.[1] Республика одной из первых в Центральной Азии присоединилась к Конвенции ООН «О ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин», подтверждающей права женщин и определяющей план действий государств по их защите. Эта же задача была сформулирована как одна из главных на Четвертой Всемирной Конференции женщин (КНР, Пекин, сентябрь 1995 г.), которая проходила под девизом «Действия в интересах равенства, развития, мира». Принципиальное значение для понимания прав женщин имеет и то, что общепризнанные принципы и нормы международного права являются составной частью правовой системы нашего общества.

Все эти факты – яркое свидетельство социальной активности людей, социальных групп и узбекского общества в целом, проявление которой стало истинно возможным в условиях демо-кратических и структурных преобразований в Узбекистане.

Конкретно исторический этап общественного развития в стадии переходного периода в стране учитывается общеизвестная парадигма социального развития, согласно которой, развитие - это процесс необратимых изменений, приводящих к возникновению нового качества, новой системы, в которой мы сейчас хронологически пребываем. В этой связи на сегодняшний день возникло новое поколение, утвердил себя новый социальный институт «социальная активность», исторические эпохальные признаки утвердили женскую часть населения в её новом качестве: как наиболее активную и социально мобильную часть общества. В этом плане естественен не только прогресс, но и достижение обществом его нового уровня.

Однако логика развития общества такова, что прогресс только в одном направлении неизбежно приведет к регрессу всей социальной системы. Гипотетически можно предположить, что спасение человечества здесь кроется в следующем: придании своему развитию устойчивости, когерентности между природой и обществом, между прошлым, настоящим и будущим; создании качественного механизма между поколениями преемственности, нахождении оптимума в достижении сверхрезультативных показателей, мобилизации потенциала общества, в том числе социальной активности людей, групп (женщин). «Социальный потенциал женщин предполагает потенциал их активности. Задействованный социальный потенциал женщин повышает социальную активность общества: и чем выше потенциал женщин, тем выше потенциал общества в целом и наоборот».[2]

В связи с этим хочется отметить, что в нашей стране Сенат Олий Мажлиса на пятнадцатом пленарном заседании 28 мая 2021 года утверждённая Стратегия достижения гендерного равенства в Узбекистане до 2030 года позволит чаще назначать женщин на руководящие должности, устранить гендерный дисбаланс в госорганах через систему временного квотирования, предупредить случаи притеснения и насилия в отношении женщин на рабочем месте и другие. Председатель верхней палаты парламента Танзила Нарбаева заявила, что впервые в истории Узбекистана количество женщин в национальном парламенте достигло уровня (32%) – страна занимает 37-е место среди 190 стран по этому показателю. По её словам, доля женщин в политических партиях достигла 44%, в сфере высшего образования – 40%, в предпринимательстве – 35%. Женщины широко привлекаются в информационно-коммуникационную, инновационную, энергетическую, инженерную сферы.

В 81 министерстве и ведомстве сформирован резерв более 15 тысяч кадров, состоящих из передовых и образованных женщин, отметила она. По данным главы Сената, доля женщин на руководящих должностях достигла 27%. Шесть женщин назначены хокимами, одна – послом. «Для социально-экономической поддержки женщин, адресной работы с ними внедрена система „женской тетради“. Действует система покрытия расходов на обучение нуждающихся девочек, потерявших родителей или одного из них, одиноких женщин, не имеющих кормильца, удвоено количество грантов для девочек из малообеспеченных семей при поступлении в высшие образовательные учреждения».

В рамках реализации Стратегии действий, а также в целях организации последовательной работы по реализации и достижению Целей устойчивого развития ООН на период до 2030 года

[1] Постановление Кабинета Министров «О мерах по совершенствованию системы защиты женщин и девушек от притеснения и насилия» от 04.01.2020 г.№ 3.//https://lex.uz/ru/docs/4679532

[2]Постановление Президента Республики Узбекистан от 07.03.2019 г. №ПП-4235 «О мерах по дальнейшему усилению гарантий трудовых прав и поддержке предпринимательской деятельности женщин».

Узбекистан разработал девять задач, направленных на обеспечение гендерного равенства и расширение прав и возможностей всех женщин и девочек. В соответствии с задачами к 2030 году необходимо повсеместно ликвидировать все формы дискриминации в отношении женщин и девочек, обеспечить гендерное равенство, всестороннее и эффективное участие женщин и равные для них возможности для лидерства на всех уровнях принятия решений в политико-правовой, социально-экономической и культурно-гуманитарной жизни. Кроме того, ЦУР предусматривают наиболее полное внедрение принципов гендерного равенства в процесс принятия государственных программ на разных уровнях управления.

Принимаемые меры должны охватить все регионы страны и все категории женщин. В частности, актуальной задачей является учет принципов последовательного претворения в жизнь Целей устойчивого развития Глобальной повестки дня ООН на период до 2030 года, в особенности принципа «никого не оставлять без внимания», и проявление особого внимания состоянию женщин, склонных к различным формам дискриминации. Сюда относятся женщины, живущие в кишлаках удалённых районов страны, группы этнических меньшинств, инвалиды, женщины с ВИЧ/СПИДом, женщины, находящиеся в местах лишения и ограничения свободы (в том числе, в тюрьмах, пансионатах, домах для престарелых и больницах для душевнобольных), защитницы прав человека, лица без гражданства и беженцы.

В узбекском обществе были и есть свои специфические стереотипы поведения мужчин и женщин в зависимости от исторически сложившихся обычаев и традиций, принятых в культуре и религии норм и правил жизнедеятельности. Однако происходящие социально-экономические преобразования влияют не только на трансформацию общества, но и на общественное сознание, на отношение людей к гендерным стереотипам. Такие факты повседневной жизни, как повышение экономической и политической активности женщин в обществе, развитие женского предпринимательства, меняют гендерные стереотипы и заставляют людей жить в соответствии с требованиями времени.

Ведь отход от гендерных стереотипов, связанных с закреплением профессиональных ролей исключительно за мужчинами, а семейных функций за женщинами, расширяет возможности личностного развития женщин, способствует искоренению дискриминации женщин и домашнего насилия.

На данное время в Узбекистане разработан и обсуждается проект Стратегии по обеспечению гендерного равенства в Узбекистане на 2020–2030 годы (ИСМИ, 2020), которая призвана содействовать выполнению национальных и международных обязательств Узбекистана (предусмотренных Пекинской декларацией и Планом действий, Конвенцией по предотвращению всех видов дискриминации прав женщин, Целями устойчивого развития ООН и другими). В качестве приоритетов в Стратегию включены вопросы справедливого качественного образования для всех женщин в течение всей жизни, включая расширение доступа к высшему образованию для девушек, особенно из сельской местности и уязвимых групп, дальнейшее повышение социально-экономической и политической активности женщин, обеспечение гендерного равенства и свободы от насилия для всех женщин и девочек, предотвращение торговли людьми. Такая активность непременно и дальше будет способствовать стиранию различий в гендерных ролях и уменьшению влияния исторически сложившихся стереотипов.

